

Etel

Lilian

# SONA

Roman

VOYNICH

Etel

Lilian

# SO'NA

Roman

VOYNICH

TOSHKENT  
«O'ZBEKISTON»  
2015

UO'K: 821.111-3  
KBK 84(4Ingl)  
V78

*Ulkenus aqas*

Ruschadan **Mirzakalon ISMOILIJY tarjimasi**  
*Nashrga tayyorlovchi Izzat AHMEDOV*


Taniqli ingliz yozuvchisi Etel Lilian Voynichning «So'na» romanida XIX asr voqeа-hodisalari to'laqonli bo'yoqlarda yorqin aks ettirilgan. Asarda yosh bir yigitning izhorsiz sof muhabbatи, qiyinalishlari, diniy qarashlaridagi ikkilanishlar, ota bilan o'g'il o'rtasidagi ham ziddiyatl, ham mehrga yo'g'rilgan munosabatlar tasvirlangan. Shuningdek, asarda do'stlikka sadoqat, ishonchga xiyonat, insonning o'z tili bilan boshiga tushgan kulfatlar hamda shu kabi bir-biridan qiziqarli hayotiy jarayonlar mohirlik bilan bayon etilgan.

Iqtidorli kitob grafikasi bilan shug'ullanuvchi rassomlar tomonidan ishlangan rasmlar yillar o'tsada, o'z qadr-qimmatini yo'qotmaydi. Shu sababli ham kitob ichidagi rasmlar ko'p yillar ilgari chop etilgan nashridan olindi.

Asar keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

ISBN 978-9943-28-302-2

© Mirzakalon ISMOILIJY (tarj.), 2015  
© «O'ZBEKISTON» NMIU, 2015



# BIRINCHI

---

## QISM



---



## Birinchi bob

**A**rtur Piza<sup>1</sup> diniy seminariya kutubxonasida bir qancha qo‘lyozmalarni ko‘zdan kechirayotgandi. Iyun oyining dimiqqan kunlaridan biri edi. Derazalar lang ochiq, pardalar tushirib qo‘yilgan. Seminariyaning hazrat rektori, Kanonik<sup>2</sup> Montanelli yozayotgan ishini to‘xtatdi-da, qog‘oz varaqlari ustiga engashgan qora sochli boshga boshqacha bir mehr bilan tikildi.

— Topolmayapsanmi, azizim? Qo‘ya qol. O‘sha joyini qaytadan yozib berarman. O‘sha sahifasi biror joyda tuшиб qolgan bo‘lsa kerak, uni topish uchun rosa ovora bo‘ldingda o‘ziyam.

Montanellining ovozi past, yo‘g‘on hamda jarangdor edi. Tovushidagi kumush jarangi kabi toza ohang nutqiga alohida urg‘u berib turardi. U ovoz tug‘ma notiqning ohanglarga boy, yoqimtoy ovoz ekanligi shundoqqina sezilib turardi. Hazrat rektor har doim Arturga gapirganda ovozida cheksiz mehr-u muhabbat baralla yangrardi.

— Yo‘q, padre, topaman. Shu yerda u, bunga ishonaman. Mabodo qaytadan yozganingizda ham, u joyini hech qachon avvalgisiday chiqarolmaysiz.

Montanelli to‘xtatgan ishini davom ettirdi. Derazaning orqa tarafida, allaqayerda, uyqusiragan may qo‘ng‘izi bir ohangda g‘ing‘illaydi, mevafurush esa ko‘cha jimligini buzib, cho‘ziq, mungli tovush bilan qichqiradi: «Parman-chak ketdi! Parmanchak ketdi!»

---

<sup>1</sup> *Piza* — Toskanodagi bir shahar, italyan madaniyatining eng yirik markazlaridan biri.

<sup>2</sup> *Kanonik* — katolik dinining cherkovda maosh olib ishlaydigan ruhoniysi.

– «Moxovni davolash haqida» – mana!

Artur mayin, sharpasiz odimlar bilan hazrat rektor yoniga keldi. Uning bu yurishi uyidagilarni har doim g'ashiga tegardi. U o'rtamiyona bo'yli, nozik-mo'rt ko'rinishi bilan o'rtahol ingliz oilasidan chiqqan o'ttizinchilardagi o'spirindan ko'ra o'n oltinchi asr italyaniga ko'proq o'xshab ketar edi. Uzun qoshlari, serharakat, asabiy og'zi, nozik lablari, kichkina qo'llari, oyoqlari – hammayog'i haddan ziyod xushbichim, nafis edi. Jim o'tirgan kezlarida, erkakcha kiyangan chiroylikkina qizaloq ekan, deb o'ylash mumkin; ammo u epchil harakatlari bilan qo'lga o'rgatilgan, lekin tirnoqlarini ko'rsatmaydigan qoplonni eslatardi.

– Nahotki, topgan bo'lsang? Sensiz holim nima kechardi, Artur? Hamma narsamni uzzukun yo'qotib yurardim-da. Xayr, yetar endi... Hozircha shuning o'zi kifoya, ortiq yozishga toqatim qolmadi. Boqqa yurgin ishingdagi chigal yerlarni yechishga yordam beraman. Nima sen tushunmadingmi?

Ular jimjit, salqin monastir bog'iga chiqishdi. Seminariya qadimi dominikan<sup>1</sup> monastiri binosida bo'lib, uning kvadrat shakldagi hovlisi bundan ikki yuz yil ilgari qattiq nazorat ostida saqlanar edi. Rozmarin va lavanda o'simliklari chiroyli tarashlangan butalarda o'sardi. Endi unday emas... Hovlidagi bu o'simliklarni bir paytlar parvarish qilgan oppoq kiyangan monaxlar allaqachonlar vafot etishgan va ular esdan ham chiqib ketishgandi. Lekin xushbo'y o't-o'lanlar yozning mayin kunduz va kechalarida haligacha yoqimli hid sochib tursalar ham, ularning urug'larini endi hech kim dori-darmonga yig'mas edi. Yovvoyi ko'kat tuplari plitalarning yoriqlarini to'lg'azgan

---

<sup>1</sup> Dominikan – XIII asrda ispan va'zchisi Dominik tomonidan «dehqonlar» va hurfikrlilarga qarshi kurashish uchun ta'sis qilgan dominikanchi monarxlar tashkilotiga mansub.

va hovli o'rtasidagi quduqni qirqquloq o'rab olgan. Atirgullar g'ovlab ketgan, ularning bir-biriga chirmashgan uzun-uzun novdalari yo'lchalarda o'tmalashib yotadi. Jo'yaklarda katta-katta lolaqizg'aldoqlar qizarishib ko'-rinadi. Chirmovlarning baland-balandlarda ochilgan gullari chatishib yotgan ko'katlar ustiga engashgan; yovvoyilashib, hosildan qolib ketgan qadimgi tok qarovsiz chanoq daraxtining shoxlarida osilib turadi, daraxt esa qalin yaproqli uchini sekin, g'amgin bir tarzda lapanglatadi. Bog'ning bir chetida kattakon bir magnoliya to'q yashil yaproqlarga ko'milib yotadi. U esa yaproqlar orasidan, xuddi rassom surtib-surtib qo'ygandek, sutrang oq gullar mo'ralashib turadi. Magnoliya, o'zagida yog'ochdan yasalgan qo'pol o'rindiq tirab qo'yilgandi. Montanelli borib shunga o'tirdi.

Artur universitetning falsafa fakultetida o'qirdi. O'sha kuni unga kitobning qiyin joyi to'g'ri kelgandi. Shuning uchun padredan tushuntirib berishni so'radi. U seminariyada o'qimasa ham, lekin Montanelli ilmning barcha sohalarida uning uchun bir obro' edi.

Kitobning qiyin joyi tushuntirib berilgandan so'ng:

- Endi ketsam ham bo'lar, – dedi Artur. – Biroq balki sizga kerak bo'lib qolarman?
- Yo'q, hozircha ishimni tugatdim, lekin men bilan biroz o'tirsang degandim. Shunday, u yoq-bu yoqdan gaplashib o'tiramiz. Bo'shmisan?
- Ha, albatta!
- U boshini orqaga tashladi-da, daraxt o'zagiga suyanib, qoramfir shox-novdalar orasidan ochiq osmon chuqurligida g'ira-shira jimirlashgan dastlabki yulduzlarga qaradi. Qoraga moyil kipriklar ostidan o'ychan qarab turgan sirli ko'k ko'zlar Arturga kornuelli<sup>1</sup> onasidan meros

---

<sup>1</sup> Kornuelli – Angliyadagi bir viloyat.

edi. Montanelli teskari qarab oldi – u endi bu ko‘zlar ni ko‘rolmasdi.

– Nihoyatda charchagan ko‘rinasan, azizim, – dedi Montanelli.

– Nachora.

Arturning ovozida horg‘inlik sezildi, buni Montanelli darrov sezdi.

– Mashg‘ulotingni boshlashga uncha shoshilmaganing ma‘qul. Onangning kasal bo‘lgani, uyqusiz o‘tgan kechalar – bularning barchasi seni holdan toydirishi turgan gap edi. Livornodan<sup>1</sup> jo‘nashdan oldin ko‘p dam olishing kerak.

– O, padre, bundan nima foyda? Onam bo‘lsa vafot etdi, endi bu uyda hech ham qololmayman. Yuliya meni qip-qizil jinni qilib qo‘yadi.

Yuliya akasining xotini edi, u Arturning hayotini zaharlash uchun har bir qulay paytdan foydalanardi.

– Qarindoshlaringnikida qolishingni hech bir keragi yo‘q. U yerda qolsang, albatta, o‘zingga qiyin. Doktor oshnangnikiga ketsang bo‘ladi-ku! U yerga borib, biror oy turib kelsang, keyin bemalol ishlayverasan.

– Yo‘q padre, borolmayman! Uorrenlar yaxshi, odam-oxun odamlar-u, lekin meni tushunishmaydi. Ular menga achinadilar – men buni ularning yuzlaridan sezib turaman... U yerga borsam, menga tasalli berishadi, onam to‘g‘risida gapira boshlashadi... Jemma unaqa emas, albatta... Nima to‘g‘risida gapirish kerakmasligini hamisha, hatto yosh bolalik chog‘larimizda ham sezar edi. Boshqalari unaqa ziyrak emas. E, gap bunda ham emas...

– Yana nimada, o‘g‘lim?

Artur yerda uzala tushib yotgan chirmovgullardan bir qanchasini uzib oldi-da, asabiy holda majaqlay boshladи.

---

<sup>1</sup> Livorno – Liguriy dengizida, Piza yaqinidagi katta port shahri.

— Men bu shaharda turolmayman, — deb bir daqiqagina davom etgan jimlikdan so‘ng Artur yana gapira boshladi. — Shaharda do‘konlar bor — onam u joylardan har doimo menga qo‘g‘irchoqlar sotib olib berardi. Onam kasal bo‘lmasdan avval dengiz bo‘yida u bilan birga o‘scha yerlarda sayr qilar edik. Qayerga bormayin — hamma yer shunday. Bozordagi gulchi qizlar, xuddi bir paytlardagi kabi, oldimga kelib, gul taklif qilishadi... Go‘yoki endi menga bu gullar kerakdek!.. Undan keyin, haligi qabriston... yo‘q, men bu yerda turolmayman — bularning barchasini ko‘rish men uchun juda og‘ir.

Artur jim bo‘ldi. Chirmovgul karnaychalarini parishonxotirlik bilan maydalab yular edi. Jimlik uzoq cho‘zildi. Bu shu qadar charchatuvchi jimlik ediki, Montanellining gapirmayotganiga Artur, nihoyat, hayron bo‘la boshladi. Magnoliya shoxlarining tagi g‘ira-shira quyuqlasha bordi. Hamma narsa g‘ira-shira ichida qoldi va g‘alati, dudmal tus oldi; lekin kanonikning o‘likniki singari qonsiz turqini ko‘rib bo‘lmaydigan darajada hali qorong‘i tushmagan edi. U boshini quyi solintirib, o‘ng qo‘li bilan o‘rindiqning bir chetini mahkam ushlab o‘tirardi. Artur bu sohir qalb egasi oldida chuqrur hurmat hissini uyg‘otuvchi bir hayrat bilan yuzini o‘girib oldi.

«O xudo, men qanday bachkana... xudbin odamman-a! Agar mendagi g‘am uning boshida bo‘lganda edi, u bundan badtar qiynalmas edi», deb o‘yladi Artur.

Montanelli boshini ko‘tarib tevarak-atrofga qaradi. Keyin mayin tovush bilan gapirdi:

— Xo‘p, u yerga bor, deb majbur qilmayman. Hoziroq bor ham demayman. Lekin yaxshilab dam olish va yozgi kanikul kunlaridan sog‘lig‘ing uchun foydalanish to‘g‘risida menga va‘da ber. Livornodan boshqa uzoqroq yerga borib tursang tuzuk bo‘larmikan degandim. Bira to‘la kasal bo‘lib qolishingni sira ham istamayman.

— Padre, seminariya yopilganda siz qayerga borasiz?  
— Har yilgiday, talabalarни toqqa olib chiqib joylashtirishim kerak. Avgustning o‘rtalarida rektor yordamchisi mehnat ta‘tilidan qaytadi. Ana undan so‘ng bo‘shab, Alp tog‘larini aylangani boraman. Balki, men bilan birga ketarsan? Tog‘larda ikkalamiz uzoq ekskursiyalarga chiqar edik, senga ham Alp maysalarini o‘rganish imkoniyati tug‘ilar edi. Biroq men bilan zerikib qolarmikansan deb qo‘rqaman.

— Padre! — Artur, Juli aytmoqchi, «qizg‘in tabiatli ajnabiyy» kabi, qo‘llarini yozib yubordi. Siz bilan birga borish uchun dunyodagi hamma narsani berardi. Biroq... ishonchim yo‘q...

Artur to‘xtadi.

— Mister Berton javob bermaydi senga, shunday demoqchimisan?

— Albatta, u to‘g‘onoq bo‘ladi, ammo bu ham meni ushlab qololmas edi. Axir men o‘n sakkiz yoshga to‘ldim, endi xohlagan ishimni qilaveraman. Bundan tashqari, u menga faqat ota tomonidan aka xolos. Meni uning mayli bilan hisoblashishga majbur qiladigan bironta sabab ham yo‘q.

— Mabodo chinakamiga qarshilik qilsa, yon bosganining ma‘qul bo‘lar deb o‘ylayman. Bo‘lmasa... uyda ahvoling badtar yomonlashadi.

— Sira ham! — deb Artur qizg‘inlik bilan uning so‘zini bo‘ldi. — Ular meni hech qachon sevgan emaslar va nimaiki qilmay, baribir sevishmaydi. Bundan tashqari, siz bilan, o‘zimning ruhoniylazratim bilan borishimga Jems nega rozi bo‘lmasin?

— Yodingda bo‘lsin — u protestant<sup>1</sup>. Har ehtimolga qarshi xat orqali xabar qilganining ma‘qul bo‘lar. Qani, nima

<sup>1</sup> Bir-birlari bilan uzoq vaqtlar qonli urushlar qilib kelgan katoliklar bilan protestantlarning o‘rtasidagi munosabat XIX asrda ham juda keskin edi. Protestantlar — katolik dinidan ajrab chiqqan xristianlar.

derkan. Ko'proq sabr qilaver, o'g'lim. Bizni yoqtirishadimi yo yoqtirishmaydimi, bunga qarab ish qilmasligimiz kerak.

Bu yumshoq o'git Arturga ta'sir qildi. U xiyol qizardi.

— Ha, bilaman, — u xo'rsinib javob qildi. — Lekin juda qiyin-da.

Montanelli gapni boshqa yoqqa burdi.

— Bilasanmi, seshanba kuni mening oldimga kelolmaganingga juda achindim-da. Aretssoli yepiskop kelgan edi, men uni bir ko'rsang degandim, — dedi u.

— O'sha kuni bir talabanikiga boraman deb va'da qilib qo'ygandim. Uning uyida majlis bor edi, meni kutib turishgan edi.

— Qanaqa majlis?

Artur biroz o'ng'aysizlandi.

— U... uni majlis deb ham bo'lmaydi, balki... — asabiy bir holda duduqlanib, xatosini tuzatdi. — Genuidan bir talabasi kelgan ekan, nutq so'zлади... To'g'rirog'i, leksiya o'qidi...

— Nima haqda?

Artur duduqlanib qoldi.

— Padre, talabaning ismini so'ramaysiz, a? Men va'da qilgandim.

— Men sendan hech narsani so'ramayman. Basharti sir saqlashga va'da qilgan bo'lsang, aytmasliging kerak. Lekin menga aystsang bo'lar deb o'ylayman.

— Albatta, padre. U... biz to'g'rimizda va bizning xalq oldidagi burchimiz haqida... bizning... bizning o'zimiz oldimizdagi burchimiz to'g'risida gapirdi. Undan keyin nima bilan yordam berishimiz mumkinligi haqida ham so'zлади.

— Yordam berish? Kimga?

— Xalqqa... undan keyin...

— Undan so'ng?

- Italiyaga...  
Oraga uzoq davom etgan jimlik cho'kdi.  
Montanelli jiddiy ohangda so'radi:
  - Menga qara, Artur, qachondan beri bu narsalarni o'ylaydigan bo'lning?
  - So'nggi yilgi qishdan beri...
  - Onang vafot etmasdan avval-a? Onam bilmas ham edi degin?
  - Yo'q, u vaqt bu narsalar meni o'ziga tortmas edi.
  - Endi-chi?..
- Artur chirmovgul novdasini qo'li bilan sindirib, karnaychalarini uzib oldi.
  - Bu voqeа shunday bo'ldi, padre, — deb ko'zlarini quyiga tikib, hikoya qila boshladi Artur. — O'tgan kuz universitetga kirish imtihonlariga tayyorlanib yurib, talabalar bilan tanishib qoldim. O'shalardan ba'zilari mana shu haqda menga gapiroshdi... O'qishga kitoblar berishdi. Lekin bu narsalar meni uncha qiziqtirmas edi. Men tezroq onamning oldiga qaytishni xohlar edim. Onam u yerda, Livornoda, o'gay akalarim orasida, ana o'sha uy turmasida batamom yolg'iz edi... Julining tiliyoq uni o'ldirishga kifoya qilar edi. Keyin qish kirdi. Onam kasal bo'lib qoldi... Men talabalarni ham, kitoblarni ham esdan chiqardim, keyin esingizdam? — Pizaga butunlay kelmay qo'ydim. O'sha vaqt bu masalalar meni qiziqtirgan bo'lsa, onamga aytgan bo'lardim. Lekin nima ham bo'ldi-yu, esimdan chiqib qoldi... Hademay onam so'nggi kunlarni kechirayotgani ma'lum bo'ldi. Onamning joni chiqquncha oldidan bir daqqa ham jilmadim. Uzoq vaqt onam yonida kechalari mijja qoqmay o'tirib chiqardim. Kunduzlari esa Jemma Uorren kelar, ana shundagina men kirib uxlар edim... Xuddi ana shu uzun kechalarda o'sha kitoblarni va o'rtoqlarim bilan bo'lgan gaplarni o'ylashga tushdim.

Ularning tutgan yo'llari to'g'rimi-yo'qligini anglashga urina boshladim. Bu masalalar haqida Iso nima deyar edi ekan, deb o'ylar edim.

Montanelli:

– Sen unga sig'inarmiding? – deb ishonchsizroq bir tovush bilan so'radi.

– Ha sig'inardim, padre. Ayrim paytlar, nima qilay, yo'l ko'rsat, deb madad ham so'rар edim, lekin javob ololmas edim.

– Bir og'iz menga aytmabsanda, Artur. Men bo'lsam, sirlaringni mendan yashirmaysan, deb o'ylab yurgan ekanman.

– Padre, bilasiz-ku, men sizga ishonaman! Lekin shunday narsalar borki, hech kimga aytib bo'lmaydi. Nazarimda, menga hech kim – siz ham, onam ham yordam qilolmaydigandek tuyilardi. Menga xudoning o'zidangina javob lozim edi. Axir o'zingiz ko'rib turibsiz: mening hayot-mamotim masalasi hal bo'layotgandi.

Montanelli yuzini teskari o'girib, magnoliya shoxlarni o'tab olgan g'ira-shiraga tikilib qaray boshladi.

– Xo'sh, keyin nima bo'ldi? – deb so'radi u.

– Keyinmi?.. Onam o'ldi... So'nggi uch kecha uning yonidan jilmadim.

U Jim bo'ldi. Montanelli qimir etmasdi.

– Onamning dafn etilishidan ikki kun oldin hech nima to'g'risida o'lay olmadim. Keyin, onam dafn etilgandan so'ng esa, yotib qoldim. Esingizdam, tavba<sup>1</sup> qilishga kelolmadim?

– Esimda.

– Ayni shu kecha o'mimdan turib, onamning xonasiga kirdim. Xona bo'm-bo'sh edi. Faqat taxmonda kattakon

<sup>1</sup> *Tavba* – katolik mazhabidagi odamlar haftada, oy yoki yilda bir marta din peshvolar oldiga kelib, butun gunohlarni ochiq aytadilar, ya'ni peshvo orqali xudo oldida tavba qiladilar. *Tarjimon.*

but turibdi. Menga parvardigor yordam qiladigandek tuyildi. Tiz cho'kib, kutdim... Kechasi bilan kutdim. Ertabilan, hushimga kelganimda esa... Padre! Bu befoyda... Tushuntirib berolmayman... Ko'rganlarimni sizga aytib berishga ojizman... o'zim ham es-es bilaman. Parvardigor menga javob qildi – faqat shunisi esimda. Endi men uning irodasiga qarshi chiqolmayman.

Ular qorong'ida bir necha daqiqa jim o'tirishdi. So'ngra Montanelli qo'lini Arturning yelkasiga qo'ydi.

– O'g'lim! – dedi u, nihoyat. – Parvardigor ruhing bilan gaplashmadi, deb aytishdan meni xudoning o'zi saqlasin. Lekin bu narsalar qanday vaziyatda yuz bergenini unutma va unutmaslik bilan birga, qayg'uga cho'mgan betob kishining orzularini parvardigoring tantanali chaqirig'i deb qabul ham qilma. Agar chindan ham parvardigor senga javob qilishni ixtiyor etgan bo'lsa, – tayyor bo'l, uning so'zlarini xato tushunib yurma tag'in. Jonsarak turgan joning seni qaysi tomonlarga chorlayapti?

Artur o'rnidan turdi-da, katekizisning<sup>1</sup> so'zlarini takrorlayotgandek, tantana bilan javob qildi:

– Hayotimni Italiya uchun fido etishga, uni qullikdan, qashshoqlikdan qutqazishga avstriyaliklarni haydashga va xudodan boshqa egasini bilmaydigan ozod respublika qurishga chaqiraman.

– Artur, aytgan so'zlarining o'ylab ko'r, axir! Sen hatto italyan ham emassan-a!

– Baribir. Men shundayligimcha qolaman.

Oraga yana jimlik cho'kdi.

– Sen aytmoqchisanki ... Iso alayhissalom, – sekin so'zjadi Montanelli.

Ammo Artur unga gapirishga qo'ymadidi.

---

<sup>1</sup> Katekizis – xristianlarning savol-javobi bo'yicha shariat kitobi.

– Iso alayhissalom aytdi: «Yo‘qolsin ruhingni men o‘zim sen uchun asrayman», dedi.

Montanelli magnoliya daraxtiga suyanib, ko‘zlarini qo‘li bilan to‘sdi.

– Bir daqiqagina o‘tir, o‘g‘lim, – dedi u, nihoyat.

Artur o‘rindiqqa o‘tirdi, Montanelli esa uning ikki qo‘lini ushlab, uzoq, qattiq qisdi.

– Hozir sen bilan bahslasholmayman, dedi u. Bu shunaqayam kutilmagan ish bo‘ldiki... Men bu haqda o‘ylab ham ko‘rmabman... Men buni uqib, tagiga yetishim uchun vaqt kerak. Keyinroq bafurja gaplasharmiz. Hozircha bir narsani esda tutishingni so‘rayman: agar sen g‘alayonga jalb etilsang va buning oqibatida halok bo‘lsang, – yuragim bardosh berolmaydi – o‘lamан.

– Padre!

– So‘zimni bo‘lma, fikrimni tugatay. Dunyoda sendan boshqa hech kimim yo‘qligini bir qur senga aytgandim. Nazarimda, buning ma’nisiga uncha tushunmagan ko‘rinasan. Tushunishing qiyin – juda yoshsan hali. Sening yoshingda bo‘lsam, men ham tushunmas edim, Artur. Sen men uchun – o‘z o‘g‘limdaysan. Tushunayapsanmi? Men sendan ayrilib ketolmayman – sen ko‘zlarimning nurisan. Seni xato yo‘ldan qaytarish va hayotingni saqlab qolish uchun o‘lishga ham tayyorman. Lekin hozir hech narsa qo‘limdan kelmaydi. Sendan va’dalar talab qilmayman... Faqat aytgan gaplarimni esda tutishingni va ehtiyyot bo‘lishingni so‘rayman, xolos. Bir qarorga kelishdan avval yaxshilab o‘ylab ko‘r. Men uchun, vafot etgan onang uchun shunday qil...

– Xo‘p, o‘ylab ko‘raman. Sizchi, padre, men uchun va Italiya uchun duo qiling.

Artur tiz cho‘kdi, Montanelli esa uning egilgan boshiga qo‘lini qo‘ydi. Oradan bir necha daqiqa vaqt o‘tdi. Artur

o‘rnidan turdi, padrening qo‘lini o‘pdi va shudring bosgan ho‘l ko‘katlar ustidan sekin-sekin yurib ketdi. Yolg‘iz qolgan Montanelli magnoliya ostida qorong‘ilikka termilib uzoq o‘tirdi.

### Ikkinchchi bob

Mister Jems Bertonga ota bir, ona boshqa ukasining Montanelli bilan Shveysariya sayohatiga borish to‘g‘risidagi fikri sira ham yoqmadidi. Din va xudo haqidagi ilmlar katta professori bilan birgalikda, ayniqsa, botanika bilan mashg‘ul bo‘lish kabi yaxshi niyatda qilinadigan bu zararsiz sayohatga ijozat bermaslik noqulay edi. Bu Arturga haddan ziyod zolimlik bo‘lib tuyilar va u, akasining unamaganligini hech nima bilan izohlab berolmay, buni darhol diniy va irqiy mavhumotlar natijasiga chiqarar edi. Bertonlar esa o‘zlarining ma’rifatli dindorliklari bilan faxrlanishardi. «Berton va o‘g‘illari», ya’ni Londondan kelgan kemasozlar, Livoronoda savdo korxonasi tashkil qilganlariga mana yuz yildan oshdi; ana shu korxona tashkil qilingan dastlabki kundan boshlab bu oilaning barcha a’zolari e’tiqodli protestant bo‘lib kelishdi. Shunday bo‘lsada, ular papachilar<sup>1</sup> bilan kurashda ham ingliz jentlmeni o‘zini vijdonli tutishi kerak, degan fikrda edilar.

Bu oilada shunday voqeal yuz bergen edi: oila boshlig‘i beva qolib, yolg‘izlik joniga tega boshladidi va kichik bolalarining katolik mazhabiga mansub yaxshigina tarbiyachisiga uylanib oldi. Ikki nafar katta o‘g‘il, ya’ni Jems bilan Tomas, o‘zлari bilan qariyb tengqur bo‘lgan o‘gay onaga ko‘nikishga har qancha qiynalishsa ham, lekin yurakda alam bilan taqdirga tan berishga majbur bo‘ldilar.

Ota vafotidan so‘ng oilada qo‘zg‘algan janjallar katta akaning uylanishi bilan yanada kuchaydi; shunday bo‘lsa

<sup>1</sup> Papachilar – katoliklar.

ham, har ikki aka Gledisni Julining shafqatsiz, zahar tilidan samimiyat bilan saqlashga harakat qilishdi va Artur oldidagi burchlarini o‘zları anglagan darajada bajarib keldilar. Ular Arturni yaxshi ko‘rmas va buni yashirishga ham intilishmasdi. Ularning akalik tuyg‘ulari mayda sarf-xarajatlar uchun mo‘l-ko‘l ionalar qilishdan va bolaga to‘la erkinlik berishdan nariga o‘tmas edi.

Artur yozgan maktubiga javoban yo‘l xarajatlarini ko‘tarishga yetgulik pul cheki va kanikul kunlarini xohlagan tarzida o‘tkaza bilishi to‘g‘risida sovuqqina ijozat oldi. Pulining yarmini botanikaga oid kitoblar va o‘simliklar quritiladigan papkalar sotib olishga sarf qildi. Keyin shu yuklarni olib, o‘zining birinchi Alp sayohatiga ruhoniy hazrati bilan birgalikda jo‘nadi.

Xuddi shu kunlarda Montanellining kayfiyati endi ancha yaxshi edi. Artur ko‘p vaqtidan beri uni bunday chehrasi ochiq ko‘rmagan edi. Bog‘dagi gap natijasida yuz bergen ko‘ngilxiralikdan so‘ng uning kayfiyati asta-sekin o‘rniga tusha boshladi. Endi u bo‘lib o‘tgan hodisalarga ancha xotirjam ko‘z bilan qaraydigan bo‘ldi. «Artur hali yosh va tajribasiz, — deb o‘ylardi u. — Shuning uchun qarori juda ham qat’iy bo‘lmasligi aniq edi. Uni shu qadar ehtiyoitsizlik bilan kirib qolgan xavfli yo‘ldan yumshoq nasihatlar, asosli dalillar bilan qaytarsa bo‘ladi, hali vaqt bor».

Ular Jenevada bir necha kun qo‘nishni mo‘ljallagan edilar; ammo Artur sayohatchilar to‘lib-toshib yotgan chang ko‘l bo‘ylarini va ko‘zlarini qamashtirgan oppoq ko‘chalarni ko‘rdi-yu, qosh-qovog‘i tushdi-qoldi. Montanelli miyig‘ida kulib, uni kuzatar edi.

- Nima gap, azizim? Senga yoqmadimi bu yer?
- Shunchalik boy taassurotlarimga o‘zim ham uncha tushunib yetganim yo‘q. Har holda boshqacha deb o‘ylagan

edim. Lekin ko'l – juda ajoyib. Qirlaming ko'rinishlari ham chiroqli. Ular Russo<sup>1</sup> orolida turar edilar. Artur Savoyya Alplarining uzun, salobatli qaddini ko'rsatdi.

– Lekin shahar... xuddi ohorlanganga, yalanganga o'xshaydi... o'larcha kerik protestantning o'zi! Yo'q, shahar menga yoqmadi. Shaharni ko'rsam, Juli esimga tushadi.

Montanelli kulib yubordi.

– Bechora, biram yuragim achishadiki senga!.. Shunga ham xafa bo'lib o'tirish kerakmi? Biz o'z kayf-safomiz uchun sayohat qilib yuribmiz, shuning uchun ketsak ketib ham yuboraveramiz. Unday bo'lsa, bugunoq yelkan qayiq olamiz-da, ko'lda suzib o'ynaymiz, ertaga erta bilan toqqa chiqib ketamiz.

– Lekin padre, sizning bu yerda yana turgingiz bordir?

– Jon bolam, men bu yerlarni o'n martalab ko'rganman. Seni vaqtning chog', xursand ko'rsam – shuning o'zi menga hordiq. Qani, qayerga borging bor?

– Mabodo sizga baribir bo'lsa, daryo bilan yuqoriga, suv boshiga borsak degandim.

– Ronadami?

– Yo'q, Arvada. U biram tez oqarkanki.

– Unday bo'lsa, Shamoniiga boramiz.

Ular choshgohdan to kechgacha bo'lgan vaqtlarini yelkanli qayiqda o'tkazdilar. Xushmanzara ko'l Arturda bo'z va loyqa Arvadan ko'ra kamroq taassurot qoldirdi. U O'rta Yer dengizi yaqinida o'sgani uchun ko'zlar moviy to'lqinlarga o'rganib qolgan edi. Lekin u tezoqar daryolarni jon-dili bilan sevar va muz tog'lardan shiddatla oqib tushuvchi suvlar uni g'oyatda sevintirardi.

– Suvlarning bu oqishida qanchalar jo'shqinlik bor!.. – deyar edi u.

<sup>1</sup> Russo oroli – Ronada fransuz mutafakkiri va yozuvchisi Jan Jak Russoning (1712–1778) byusti qo'yilgan orol. Jan Jak Russo Janvada tug'ilgan.

Ertasi kun saharlab Shamoniga jo'nadilar. Ular hosildor vodiyidan ketar ekanlar, Arturing kayfi nihoyat chog' bo'lib bordi. Ana, yo'l tuyulishiga keldilar. Cho'qqilari tishlarga o'xshagan azamat tog'lar halqasi to'rt tarafdan siqib oldi. Artur jiddiy lashdi, jim bo'lib qoldi. Ular Sen-Martendan vodiy oralab sekin-sekin yuqori ko'tarilib bordilar, kechalari esa yo'l bo'yalaridagi shaxslarda yoki tog'lardagi kichik-kichik qishloqlarda tunab, keyin yana yo'lga tushardilar. Artur tabiat go'zalligini ko'rganda mahliyo bo'lib qolardi. Ularning yo'lida uchragan birinchi sharshara Arturni tasvirlab bo'lmaydigan darajada xursand qildi. U sevinchdan o'zida yo'q shod, unga qaragan kishi ham sevinardi. Ammo qor bosib yotgan cho'qqilarga yaqinlashgan sari Arturdagi bolalarcha shodlik o'mini xayolparastlik egallab oldi. Montanelli bu o'smirga ajablanib qarar edi. Unga Artur bilan tog'lar orasida qandaydir qondoshlik bordek tuyilardi. Artur har qanday sharpaga javob beradigan qoramtilr, sirli qarag'ayzorga soatlab qimirlamay yotishga quyosh yog'dulariga cho'mib, yartirab turgan cho'qqilar va yalang'och toshlar dunyosiga baland, adl qarag'ay o'zaklari orasida qarab yotishga tayyor edi. Montanelli esa uni qayg'u va hasad bilan kuzatardi.

Ular tunashmoqchi bo'lgan shalega qoramtilr daraxt o'zaklari orasidan avaylashib tushib bordilar.

Montanelli xonaga kirganda, uni kechki ovqat tuzalgan stol yonida Artur kutib turgandi. Endi u qorong'ilik ta'siri ostida paydo bo'lgan yomon kayfiyatdan qutulgan, go'yoki boshqa odamga aylanib qolgandek edi.

— O padre, buyoqqa keling, tezroq kela qoling, mana bu alomat kuchukchani qarang! Orqa oyoqlarida o'yinga tushar ekan.

Arturing boyaga Alp go'zalligi qanchalik maftun etgan bo'lsa, hozir ham itga va uning o'yinlariga shunchalik mahliyo bo'lib tomosha qilardi.



Shale bekasi, oldiga oq peshband tutib olgan qizil yuzli xotin, qo'llarini beliga tirab olib kuchukcha bilan o'ynashayotgan bolaga kulumsirab qarab turardi.

— Tashvishi yo'q ko'rindi, dedi u, qiziga mahalliy shevada. — O'yinga berilib ketganini qara. Voy, muncha chiroyli bola ekan!

Artur maktab o'quvchisiga o'xshab qizarib ketdi. Uy bekasi esa o'zi aytgan gapni Artur tushunib qolganini sezdi-yu, uning qizarganiga kulib, nari ketdi.

Artur kechki ovqat mahalida qilinadigan sayohatlar haqida, tog'larga chiqish va o'simliklar terish to'g'risidagina gaplashib o'tirdi.

Ertalab Montanelli uyg'onganda, Artur o'mida yo'q edi. U «Gasparning tog' echkilarini boqishiga qarashish uchun» tong yorishmasdanoq yaylovgaga chiqib ketgandi.

Lekin uni uzoq kutishga to'g'ri kelmadidi. Hayal o'tmay, xonaga shlyapasiz yugurib kirib keldi. Uch yoshlar chamasida kichkinagina dehqon qizi yelkasida qushday o'tirar, qo'llarida esa yovvoyi gullardan yasalgan kattakon guldaста bor edi.

Montanelli unga kulumsirab qarab qoldi. Piza yo Livornodagi indamas Artur bilan hozirgi Artur o'rtasida odamni hayron qoldiradigan naqadar tafovut bor!

— Qayerlarda yuribsan, tentak? Nonushta qilmasdan tog'larda izg'ib yurdim degin?

— O, padre, biram yaxshiki uyoqlar! Quyoshning ilk yog'dulari tushganda tog'lar salobatini ko'rsangiz edi! Oyoq bosgan yeringizda shabnamalar silkillab yotadi!.. Mana, qarang!.. — U egilib, qo'l, kir oyoq kiyimlariga qaradi. — Ozgina non bilan pishloq olaketgan edik, keyin yaylovdan echki suti toptirdik... Voy, biram bemaza ekanki! Ha, hozir yana qormim ochib qoldi, undan so'ng, manavi kichkinaga ham biron narsa yegizish kerak. Annet, asal yeysanmi?

Artur o'tirdi, qizchani tizzasiga oldi va gullarni das-talashda qizaloqqa yordam berdi. – Yo'q, yo'q! – deb Montanelli gapga aralashdi. – Shamollab-netib qolishingga qo'ymayman. Yugur, tezroq borib quruq kiyim kiyib ol. Buyoqqa kel, Annet. Buni qayerdan topding, Artur?

– Qishloqning bir chekkasidan. Kecha biz uchrashgan dehqon esingizdadir, o'shaning qizi. Otasi shu jamoada etikdo'z ekan. Ko'zchalari juda chiroyli, a? Qizaloqning cho'ntagida tirik toshbaqasi ham bor, oti Karolina emish.

Artur ho'l paypoqlarini almashtirib, pastga nonushta qilgani tushdi. Annet padre tizzasida o'tirib, toshbaqasi to'g'risida dodajonlik qilar va toshbaqasi oyoqlarini qanday qimirlatganini monsieur! ko'rsin deb, momiq qo'lchalarida qornini osmonga qilib ushlab turar edi.

Qizaloq zo'rg'a tushuniladigan mahalliy shevada jiddiy qilib:

– Qarang, monsieur! – dedi. – Karolinaning kavushlarni qarang, qanaqa!

Montanelli qizaloqni kuldirar, toshbaqasiga havaslanib qarar, qizcha sochlarini silar va unga ajoyib ertaklar aytib berar edi. Uy bekasi stol ustini yig'ishtirgani kirdi-yu, Annetni ko'rib, hayron qoldi: Annet hazrat cho'ntaklarini ag'darmoqda edi.

– Bolalar yaxshi odamlarni darrov bilib olishadi, xudoning o'zi qo'llaydi-da ularni, – dedi xotin. – Annet chet el kishilaridan hamisha qo'rqib yurardi. Buni qarang, endi – hazratimdan zig'irchayam yotsiramaydi. Tavba! Annet! Darrov tiz cho'k, marhamatli hazratim ketib qolmasdan duosini olib qol. Baxting ochiladi...

Bir soatlardan keyin, quyosh nuriga cho'mgan yaylovdan o'tib borayotganlarida:

---

Monsieur (*fransuzcha*) – janob, taqsir.

– Bolalarni shuncha yaxshi o'ynata olasiz deb xayol ham qilmagan ekanman, padre, – dedi Artur. – Bola bechora bir daqiqa ham sizdan ko'zini uzmadi-ya! Bilasizmi, miyamga qanday fikr keldi?

– Qanday?

– Men shuni aytmoqchi edimki... Meningcha, cherkov ulamolarining uylanishlarini taqiq qilishiga achinish kerak. Nega bunaqaligiga sira tushunolmayman. Bola tarbiyasi – jiddiy ish, shu tufayli tug'ilgan kunlaridan boshlab yaxshi ta'sir ostida bo'lishlari ular uchun muhim narsa. Meningcha, odamning martabasi qancha baland va hayoti qancha pok bo'lsa, ota bo'lishga o'shanchalik loyiqidir. Padre, siz qasamyod bilan bog'lanmagan va uylangan bo'lsangiz, men ishonamanki, sizning bolalaringiz juda ham...

– Bas qil!

Bu xitob shoshqin, jo'shqin bir shipshi bilan aytildi va shundan keyin boshlangan jimjitlikni yanada badtar chuqurlashtirdi.

Artur Montanellining qosh-qovog'i tushib ketganiga o'kinib, yana gap boshladi:

– Padre, mening aytgan gapim nahotki noto'g'ri bo'lsa? Albatta, men xato qilgan bo'lishim mumkin, lekin miyamga kelgan fikrni aytdim, xolos.

Montanelli yumshoq javob qildi:

– Aytgan so'zlarining ma'nosini u qadar aniq tushunmassan, balki. Bir necha yildan keyin bu haqda boshqa fikrda bo'lasan... Kel, qo'y, boshqa narsalar to'g'risida gaplashaylik.

Bu kanikul mahalida ular o'rtasida vujudga kelgan to'la uyg'unlikning birinchi buzilishi edi.

Montanelli va Artur Shamonidan Martinega jo'nadilar-da, havo nafas olib bo'lmaydigan darajada issiq

bo'lgani uchun, yo'lda to'xtab dam oldilar. Tushdan so'ng mehmonxona ayvoniga chiqdilar. U yerga quyosh tushmas edi. Ayvondan juda ajoyib manzaralar ko'rinish turardi. Artur o'simliklar solingan qutini olib kelib, botanika haqida Montanelli bilan uzundan uzoq suhabat boshladi.

Ayvonda ikki nafar ingliz rassomi o'tirgan edi. Biri tabiatga qarab surat chizar, ikkinchisi esa o'z tilida valaqlab o'tirardi. U bu xorijliklar inglizchani bilishmaydi deb o'ylagan bo'lsa kerak.

— Qo'ysangizchi suvashni, Villi, — dedi u. — Undan ko'ra ho anavi qirqquloqqa hushi ketib o'tirgan chiroyli italyan o'smirning suratini chizing. Kamon qoshlariga qarang-a. Qo'lidagi lupa o'miga but ushlatib, ustiga rim yopinchig'ini kiydirsangiz — birinchi asr xristianining o'zi bo'ladi-qoladi.

— Xristian emish! Tushlik paytida yonida o'tirgan edim. Hozir mana shu ko'katlarga qanday havasi kelib o'tirgan bo'lsa, boyta tovuq qovurdog'iga ham shunday mehr bilan qarab turgan edi. Chiroyiga kelsak hech ta'rif yo'q; yuzi juda go'zal bug'doy rang; lekin unda otasining tashqi qiyofasidagi ajoyib go'zalligidan asar ham yo'q.

— Kimning otasi?

— Shu bolaning otasi-da, ro'parangizda o'tiribdi-ku. Hali payqaganim yo'q ham dersiz? Yuzi odamni hayron qoldiradi-ya!

— Eh, bechora metodist!! Qarshingizda turgan katolik ruhoniysiku, nahotki tanimasangiz?

— Ruhoniy deysizmi? Ha-ya, ruhoniy ekan! Iffat ahdi va hokazolar... esimdan chiqibdi. Xo'p, unday bo'lsa, katta ketmaylig-u, o'smir u kishining jiyani deyaylik.

— Qanday yaramas odamlar-a! — deb chaqnagan ko'zlari bilan Montanelliga qarab pichirladi Artur. — Lekin

meni sizga o'xshatganlari uchun minnatdorman. Chindan ham, sizga jiyan bo'lishni xohlardim... Padre, sizga nima bo'ldi? Juda yomon oqarib ketdingiz!

Montanelli o'midan turib, qo'lini peshonasiga qo'ydi. Keyin juda ham g'alati, past ovoz bilan:

— Ba'zi-ba'zida boshim aylanadigan kasalim bor, — dedi. — Bugun oftobda ko'p yurgan bo'lsam kerak. Borib, biroz yotay. O'tib ketadi... Bu issiqdan.

\* \* \*

Ular Livorno ko'li yonida ikki hafta turib, endi Sen-Gotard dovoni orqali Italiyaga qaytib kelishayotgandi. Havo har doim juda ajoyib bo'lib turdi. Ular bir qancha ko'ngilli ekskursiyalar qilishdi... Lekin tabiat go'zalliklari in'om etgan dastlabki shodliklar endi susaygan edi.

Keyin Artur bilan «bafurja gaplashamiz» degan fikr Montanellining miyasidan hech nari ketmasdi. Bu gapni kanikul paytida qo'zg'asa, juda yaxshi bo'lardi; lekin Arva vodiysida sayohat qilib yurganlarida, bog'dagi magnoliya, tagida muhokama qilishgan mavzuni jo'rttaga qo'zg'amadi. Montanelli Alp tabiatli o'smirning nozik qalbida uyg'otgan dastlabki sevinchni barbod qilgisi kelmadи, unga bu zolimlikdek tuyildi; agar shu haqda gap ochilsa, o'shanday bo'lishi turgan gap edi. Lekin Martinega kelgan kundanoq, Montanelli har kun ertalab o'ziga: «U bilan bugun gaplashaman», deyar, kech kirganda esa gapni yana keyinga qoldirib, o'zini «Ertaga gaplashamiz» deb yupatar edi. Kanikul kunlari tugay deb qolsa ham, u hamon: «ertaga» deb takrorlardi. Qandayligini aniqlab bo'lmaydigan, odamni ich-ichini muzlatib yuboradigan his, sekin-sekin bunyodga kelayotgan begonalik o'zi bilan Artur o'rtasiga tushgandek tuyulgan parda uni tutib turardi.

Kanikulning so'nggi kechasi kelguncha, kunlar shu zaylda o'taverdi. Montanelli gapirishni xohlar ekan, hozir uni aytib qolish kerak, deb tushundi.

Ular tunagani Luganova tushdilar, ertaga ertalab esa Pizaga jo'nashlari kerak edi. Montanelli italyan siyosatining sepiluvchi mash'um quliga o'z aziz o'g'lining loaqal qanchalik ko'milib ketganini bilishni istar edi.

— Yomg'ir tindi, — dedi u. — Agar ko'lni ko'radigan bo'lsak, tezroq borishimiz kerak. Jo'naylik, sen bilan gaplashadigan gapim bor.

Ular qirg'oq bo'yi bilan yurib borib jim, xilvat yerga keldilar-da, toshdan qurilgan pastgina devorga o'tirdilar. Yonida qip-qizil gullariga ko'milgan atirgul qad ko'tarib turardi. Kechikib qolgan bir qancha ochilmagan g'uncha yomg'ir tomchilari og'irlashtirgan baland shoxlarda osilib yotadi. Ko'lning zumrad yuzida yengil, oppoq yelkanlarini mayin shabada shishirgan kichkina qayiqcha suzib boradi. Qayiq suvga tashlangan bir dasta kumush gul kabi yengil va mo'rt ko'rinar edi. Monte-Salvator tepaligida allaqanday bir uycha derazasi tilla ko'zini ochdi. Atirgullar boshlarini solintirib, bulutli sentabr osmoni tagida mudrar, suv esa qirg'oq toshlariga urilib, mayingina jildirar edi.

— Endi sen bilan xotirjam, bafurja gaplashish payti keldi, keyin uzoq vaqtlargacha bunaqa payt topilmasligi mumkin, — deb Montanelli gap boshladi. — Sen universitetdagi ishingga, do'stlaring oldiga qaytasan, men ham shu qish bo'yi juda band bo'laman. Hozir mening butun tilagim — ikkalamiz o'rtamizdag'i munosabatning qandayligini aniqlash, agar sen...

U bir daqiqagini to'xtadi, keyin sekin-sekin gapirdi:

— Agar sen yana oldingiday menga ishona olishingga ko'zing yetsa, ayt, hov o'sha kechqurun seminariya bog'ida

aytganingdan ham aniqroq qilib aytgin. Qanday qadam bosayapsan...

Artur padrening so'zlariga jimgina qulq solib, suv mavjlariga qarar va hech qanday javob qilmas edi. Montanelli davom etdi:

– Basharti javob berishni istasang, men shuni bilmoqchi edim: sen o'zingni qasam-pasam bilan bog'laganmisan yoki, ehtimol...

– Men sizga hech nima deyolmayman, hurmatli padre. Men o'zimni hech nima bilan bog'lagan emasman, lekin bog'langanman...

– Gapingga tushunolmadim...

– Qasamdan nima foyda? Odamlarni qasam bog'-lamaydi. Agar sizni biror g'oya qamrab olganini sezsangiz, buni chuqur sezsangiz, shuning o'zi kifoya. Aks holda, sizni hech nima bog'lay olmaydi.

– Unday bo'lsa, menga qara, o'zing nima deb o'ylaysan: bu... nazaringda, o'sha hissing mustahkam-u, uni hech nima o'zgartira olmaydimi? Artur! Javob berishdan avval yaxshilab o'yla.

Artur qayrilib Montanellining ko'zlariga tikilib qaradi.

– Padre! Sizga ishonchimni so'rigan edingiz. Endi siz ayting: o'zingiz menga ishonasizmi? Agar aytadigan narsam bo'lganda edi sizga aytardim. Barisini aytib berardim. Lekin tushuning hech nima yo'q. To'g'rirog'i, bu narsalar haqida gaplashib o'tirishdan hech ma'no yo'q. O'sha kuni kechqurun menga aytgan gaplaringizni unutganim yo'q, hech qachon unutmayman ham. Ammo esingizda bo'lsin, men har holda o'z yo'lim bilan ketishim va ro'paramda ko'rinish turgan yorug'likka intilishim kerak.

Montanelli butadan bitta atirgul uzib oldi-yu, yap-roqchalarini yuldi, keyin hammasini suvg'a otib yubordi.

– To‘g‘ri aytasan, azizim. Bas... yetar bu haqda endi hech gaplashmaymiz. Baribir, bu masalada so‘z kor qilmaydi... Shunday emasmi? Xo‘p... Yur...

### **Uchinchi bob**

Kuz ham, qish ham hech qanday voqeа-hodisalarsiz Ko‘tdi. Artur tirishqoqliк bilan o‘qidi, shuning uchun bo‘s hаvoti juda oz bo‘ldi. Shunda ham Montanellining oldiga kirib chiqish uchun bir necha daqiqa vaqt topar edi. U har hafta, ayrimida bir marta, ba’zida bir necha marta padreni yo‘qlab turdi. Ayrimida uning oldiga kitob bilan borar, qiyin tushunmagan joylarini tushuntirib berishini so‘rar, ana shunday kezlarda faqat kitob ustidagina so‘z borar edi. Ular o‘rtasiga qo‘l bilan ushlab bo‘lmaydigan, elas-elash sezilib turgan g‘ov tushdi. Arturning kelib turishi Montanellini sevintirishdan ko‘ra, endi ko‘proq xafa qilar edi. O‘zini xotirjam qilib ko‘rsatish va hech nima o‘zgarmagandek bir taassurot qoldirish uchun hamisha nina ustida turish jonga tegar edi. Artur ham padrening muomalalarida uncha-muncha o‘zgarish yuz bergenligini sezardi-yu, lekin sababining tagiga u qadar yetolmas edi. Bu o‘zgarishning yangi g‘oyalalar, haqidagi hayajonli masalaga aloqador ekanligini biroz sezgани uchun Artur u g‘oyalarni tilga olishdan o‘zini olib qochar, ammo fikri-zikri hamон o‘sha g‘oyalarda bo‘lar edi.

Shunday bo‘lsa ham, u Montanellini hech vaqt hozirgidek qattiq sevmagan edi. Arturda hayotdan bezishlik na qalbi bo‘slik hissi bor edi; u o‘sha xunuk, xira hisni teologiyani<sup>1</sup> astoydil o‘rganish bilan daf

---

<sup>1</sup> Teologiya – din ilmi.

qilishga tirishib kelardi. Artur «Yosh Italiya»<sup>1</sup> ga birinchi marta duch kelishi bilanoq u hisdan asar ham qolmadı. Yolg'izlik o'lim to'shagida yotgan ona hujrasini har vaqt ko'rib turishlik barobarida vujudga kelgan bo'limg'ur xayol tasavvurlari, ibodat yo'li bilan saqlanmoqchi bo'lgan shak-u shubhalar yo'q bo'ldi. Talabalar harakati unga siyosiylikdan ko'ra diniy harakat bo'lib ko'rindisi, shuning uchun vujudini g'ayratga to'ldirgan yana ham pok va yuksak ideal uning xarakteriga tugallik, og'irlik berdi. O'ziga esa ahillik hissi va yaqinlariga xayrixohlik baxsh etdi. U ilgari o'ziga qarshi turgan odamlarda sevishga arziyadigan yangi fazilatlar topa boshladi. Montanelli besh yildan beri uning uchun bir ideal bo'lib kelgan bo'lsa, endi yangi dinning boshida yangi nur porlab turgan qudratli payg'ambari bo'lib tuyilardi. U padrening va'zlarini ehtiros bilan tinglar, ulardan respublika ideali bilan ichki qardoshlik izlarini topishga tirishardi. Berilib Injil kitobini o'qir va dastlabki davrlarda demokratik ruh bilan sug'orilgan xristianlikning ana shu ruhidan zavqlanar edi.

Yanvar kunlarining birida Artur seminariyaga olgan kitobini qaytargani kirdi. Hazrat rektorning u yerda yo'qligini bilib, har doim Montanelli ishlab o'tiradigan xonaga kirdi-da, kitobni javonga qo'yib, endi chiqib ketmoqchi edi, stolda yotgan bir kitobning nomi diqqatini jalb etib qoldi. U Dantening «De Monarchia»<sup>2</sup> nomli kitobi edi.

<sup>1</sup> *Yosh Italiya* – XIX asrning o'ttizinchi yillarda Shveysariyada bo'lgan va Madzini tomonidan rahbarlik qilingan revolusion tashkilot. Bu tashkilot Italiyani respublika asosida birlashtirishga harakat qilgan edi.

<sup>2</sup> «*De Monarchia*» (*«Monarxiya haqida»*) – ulug' italyan shoiri Aligieri Dantening (1265–1321) asari. Dante diniy hokimiyat emas, dunyoviy hokimiyat boshqaradigan kuchli, birlashgan italyan davlati barpo qilish g'oyasini oldinga surgan edi.

Artur o'qiy boshladi va hademay shunday berilib ketdiki, eshikning ochilganini ham sezmay qoldi. U orqasidan tanish ovozni eshitib o'midan turdi.

Montanelli kitob sarlavhasiga ko'z qirini tashlab:

– Bugun seni kutmagan edim! – dedi, – hozir senga odam yuborib, bugun kechqurun kelish-kelmasligingni so'ratmoqchi bo'lib turgan edim.

– Zarur ish bormi? Kechqurun bir yerga taklif qilingan edim, qolishim mumkin, agar...

– Yo'q, ertaga gaplashsak ham bo'laveradi. Seshanba kuni ketayapman, shuning uchun seni bir ko'ray degandim. Meni Rimga chaqirishyapti.

– Rimga? Uzoq turasizmi?

– Maktubda pasxaning oxirigacha deyilgan. Maktub Vatikandan<sup>1</sup>. Uni qo'lga olishim bilan senga xabar qilay desam, bir tomonda seminariyaning ishlari, ikkinchi yoqda yangi rektoring kelishiga tayyorgarlik ko'rish bilan bo'lib, qo'lim tegmadi.

– Padre, seminariyani butunlay tashlab ketmassiz deyman?

– Tashlab ketishga to'g'ri keladi. Ammo Pizaga yana kelsam kerak. Balki hech bo'lmasa bir necha kunga.

– Nega shu yerda qolavermaysiz-a?

– Senga aytsam... Bu narsa hali rasman e'lon qilingani yo'q, lekin menga yepiskoplilikni taklif qilishyapti.

– Padre! Qayerda?

– Rimga shuning uchun ketayapman-da. Apennina yeparxiyaligini olamanmi yo shu yerda vikariy bo'lib qolamanmi – bu hali hal qilingan emas.

– Yangi rektor tayinlanganmi?

– Ha, hazrat Kardi. U ertaga keladi.

<sup>1</sup> *Vatikan* – Rimda papa saroyi; bu so'zning papa hokimiyyati, rimkatolik cherkovining ish boshilari degan ko'chma ma'nolari ham bor.

- Birdaniga shunday bo'lib ketdi-ya!
- Ha, lekin... Ba'zida Vatikanning qarori so'nggi payt-gacha e'lon qilinmaydi.
- Yangi rektor bilan tanishmisiz?
- Shaxsan tanish emasman. Lekin uni juda maqta-shadi. Monsinor Belloni uni zo'r donishmand deb yozibdi.
- Sizning ketishingiz seminariyani juda ko'p narsadan mahrum qiladi.
- Seminariyani bilmayman-u, lekin mening yo'qligim senga juda bilinadi-da, men bunga aminman. Ehtimol, menikidan ko'ra sening yo'qliging ko'proq bilinar.
- Ha, to'g'ri aytasiz, padre. Shunday bo'lsa ham, men siz uchun xursandman.
- Xursandsan? Ammo men xursandman deb aytol-mayman.

U horg'in tarzda stol yoniga o'tirdi. U bu yuqori lavozimdan xursand emasdi.

— Tushdan keyin bandmisan? — deb bir daqiqagina davom etgan jimlikdan so'ng so'radi u. — Modomiki kechqurun kelolmas ekansan, ishing bo'lmasa, men bilan biroz o'tir. Kayfiyatim yo'qroq. O'tirgin! Ketgunimcha, diydoringga to'yib olay.

- Ko'p o'tirolmayman. Soat oltida borishim kerak...
- Majlisgami?

Artur boshini tebratdi. Montanelli mavzuni darhol o'zgartirdi.

- Men sen to'g'ringda gaplashmoqchi edim, — dedi u. — Mening yo'qligimda senga boshqa ruhoni y kerak.
- Qaytib kelganingizda, o'zingizga kelib tavba qili-shimga ijozat berasizku?
- Bu qanday so'roq, jon bolam? Men uch-to'rt oy bu yerda bo'lmayman, faqat shu to'g'risida gapiRAYAPMAN xolos, Santa Katarina<sup>1</sup> otalaridan birontasini ruhoni y qilib olishga rozimisan?

---

<sup>1</sup> Santa Katarina — Pizada avliyo Yekaterina cherkovi.

– Roziman, padre.

Ular yana boshqa mavzuda gaplashdilar. Keyin Artur ketishga chog‘landi.

– Men boray, padre. O‘rtoqlarim kutib qolishdi.

Montanellining yuziga yana g‘ashlik pardasi tushdi.

– Dartov-a? Yuragimdag‘i g‘ashlik endi tarqalay devdi-da. Nachora, xayr!

– Xayr, padre! Ertaga yana kelaman.

– Vaqtliroq kel, seni xoli ko‘rishga ulguray. Ertaga hazrat Kardi keladi. Artur, jon bolam, mening yo‘g‘imda ehtiyyot bo‘l, loaqla men kelgunimcha qadamingni qaltis bosma. Seni tashlab ketishga qanchalik qo‘rqayotganimni ko‘z oldingga keltirolmaysan.

– Bekor qilasiz, padre. Hozir hech narsa ma’lum emas, shu taxlitda yana ko‘p vaqt o‘tadi.

– Xo‘p, xayr, – dedi Montanelli, gapni cho‘rt kesib.

\* \* \*

Artur talabalar majlis qilayotgan xonaga kirganda, uning birinchi ko‘rgan kishisi doktor Uortrenning qizi, bolalik chog‘larida birga o‘ynab katta bo‘lgan o‘rtog‘i edi. U burchakda o‘tirib, eski kiyimli, novcha, yosh bir lombardiyalikning o‘ziga aytayotgan gaplarini diqqat bilan astoydil tinglayotgandi. Yosh lombardiyalik esa harakat tashabbuschilaridan biri edi. Shu so‘nggi bir necha oy ichida qiz juda o‘zgargan, yetilgan va endi voyaga yetgan qizga o‘xshab qolgandi. Faqat yelkalaridan tushib turgan ikkita yo‘g‘on qora kokili yaqinginada maktab o‘quvchisini esga solardi. Egnida qora kiyim, uy ichi sovuq va zax bo‘lgani uchun boshiga qora ro‘mol o‘rab olgan edi. Qiz ko‘kragiga «Yosh Italiya» tashkilotining alomati sarv novdasi qadalgandi. Lombardiyalik yigit

Kalabriya<sup>1</sup> dehqonlarining bechoraligini kuyib-pishib gapirar, qiz esa iyagini qo‘liga tiragan va ko‘zlarini yerga qadagan holda jim o‘tirib, tinglar edi. Qiz Arturing ko‘ziga respublikaning o‘limi ustida qon yig‘layotgan Ozodlik sharpasi kabi ko‘rinardi. Yuliyaga bo‘lsa qilig‘i sovuq, yuzi zahil, burni qing‘ir va yoshiga yarashmagan kalta, eski kiyimda haddan tashqari novcha, beso‘naqay ko‘ringan bo‘lar edi.

Lombardiyalik yigit uyning narigi burchagiga ketganda, Artur qiz yoniga keldi-da:

— Shu yerdamisiz, Jim? — dedi.

«Jim» — qizni cho‘qintirayotganlarida qo‘yilgan g‘alati Jenifer degan ismnning bolalar tomonidan o‘zgartirib olingen laqab edi. Maktabdosh italyan dugonalari esa Jemma deb atardilar.

U ajablanib boshini ko‘tardi.

— Artur! Sizmisiz? Voy, partiyada borligingizni bilmabman ham!

— Men ham sizni bu yerda uchratarman deb hech qachon kutmagan edim, Jim! Qachondan beri...

— Tushunmadingiz, — deb qiz shoshib uning so‘zini bo‘ldi. — Men hali a’zo emasman. Men faqat ikki-uchta topshiriqni bajardim, xolos. Men Bini bilan tanishuvdim... Karlo Binini bilasizmi?

— Ha, albatta.

Bini Livorno bo‘limini tashkil qilgan edi, shuning uchun uni butun — «Yosh Italiya» tanirdi.

— Shunday qilib, Bini menga ana shu narsalar haqida gapirib berdi. Men majlislardan biriga olib borishini so‘radim. Keyin u Florensiyadaligimda<sup>2</sup> maktub yozdi...

<sup>1</sup> Kalabriya — Neapol Qirolligidagi tog‘li viloyat.

<sup>2</sup> Florensiya — O’sha paytda Toskan poytaxti.

Rojdestvoda<sup>1</sup> Florensiyaga borganligimdan xabaringiz yo'qmi?

- Yo'q! Uydan hozir juda kam maktub olaman.
- Ha-ya! Xayr, buyog'ini qo'yavering. Raytlarnikiga mehmonga boruvdim (Raytlar Jemmaning maktabda birga o'qishgan dugonalari). Bini o'sha maktubida uyga qaytishimda Pizaga tushib o'tishimni va bugun bu yerga kelishimni so'ragan edi. Men ham shunday qildim. Mana, ko'rib turibsiz, bu yerdaman. A! Hozir boshlashadi.

Ma'ruzada ideal respublika haqida va yoshlар o'zlarini unga tayyorlashga majbur ekanliklari to'g'risida gapirildi. Mavzuga yaxshi tayyorlanmagan bo'lsa ham, Artur berilib tingladi. U hayotining shu davrida barcha narsaga imon-e'tiqod bilan qarar va axloqqa oid yangi ideallarni, hazm qilish mumkinmi-yo'qligi haqida o'ylab ham o'tirmay, butunligicha qabul qilaverar edi. Mana, ma'ruza tamom bo'lди, muzokaralar to'xtadi... Talabalar tarqala boshladilar. Artur hamon burchakda o'tirgan Jemma yoniga keldi.

- Sizni kuzatib qo'yay, Jim! Qayerda turasiz?
- Maretanikida.
- Otangizning keksa xizmatchisinikidami?
- Ha. Juda uzoqda turadi-da.

Ular anchagacha so'zlashmay borishdi. Keyin Artur birdan so'rab qoldi:

- Chamamda, o'n yettiga kirdingiz shekilli, a?
- Oktabr oyida o'n yettiga to'ldim.
- Men sizni ziyofatlar va bezaklarga uchib turadigan qizlarga o'xshagan bo'lmaysiz deb aytib kelardim. Jim, siz bizning saflarimizda bo'larmikansiz deb ko'p marta o'zimdan so'raganimni bilsangiz edi!

---

<sup>1</sup> Rojdestvo – Isoning tug'ilgan kuni.

- Men ham siz to‘g‘ringizda shunday o‘ylardim.
- Binining ba’zi ishlarini bajardim dedingiz. U bilan tanishligingizni men bilmas ekanman.
- U ishlarni Bini uchun qilganim yo‘q, boshqa kishi uchun.
- Kim uchun?
- Bugun men bilan gaplashib turgan yigit Bolla uchun.
- Siz uni yaxshi taniysizmi?

Artuning bu so‘zida rashk sezilib turardi. Bolla haqida gapirish – uningsiz ham Artur uchun og‘ir edi. «Yosh Italiya» komiteti Arturni hali yosh va tajribasiz hisoblab, bir ishni Bollaga topshirgan va buning natijasida ular raqib bo‘lib qolgan edi.

- Men uni juda yaxshi taniyman. U menga yoqadi<sup>1</sup>. Livornoda ko‘p turgan.
- Bilaman... U yerga noyabr oyida kelgan.
- Ha, o‘sha vaqtlar kitob yuklangan paroxod keladi deb kutib turilgan edi. Artur, sizlarning uyingiz bu ishga biznikidan ko‘ra bexatarroq emasmikan-a? Boy kemasoz oilasidan hech kim shubhalanib o‘tirmas edi. Bundan tashqari, siz doklardagi barcha odamni taniysiz.
- Sekinroq! Buncha qattiq gapirmang, azizim! Bundan chiqdi, Marseldan kelgan adabiyot sizlamikida saqlanibdi-da?
- Faqat bir kungina, xolos... Qaydam, balki buni sizga aytmasligim kerakmidi?
- Nega endi? Bilasizku, men axir partiya a’zosiman. Jemma, azizim, dunyoda meni hech bir narsa u qadar baxtli qilolmas edi, agar bizga siz va...
- Sizning padreyingizga qo‘silsak! U hali...

---

<sup>1</sup> O‘sha vaqtlar Marseldan Livornoga «Yosh Italiya» jamiyatining yashirin yuklari – Madzini Marselda chiqqargan «Yosh Italiya» gazetasi, siyosiy risololari va kitoblari kelib turar edi.

– Yo‘q, uning maslagi biznikidan farq qiladi. Lekin ba’zida o‘ylardim... Umid qilardim...

– Artur, axir u ruhoniy-ku!

– Ruhoniy bo‘lsa nima qipti? Bizning partiyamizda ruhoniylar ham bor. Ulardan ikkitasi gazetalarda maqlular yozib turishadi. Axir ruhoniylarning vazifasi dunyonи oliy ideallarga oborishdan iborat, biz ham xuddi shu maqsadga intilamiz. Bu axir siyosat masalasidan ko‘ra din va axloq masalasiku. O‘ylab ko‘ring-a, agar insonlar dilda ozod va mas’ul shaxslar bo‘lib qolsalar, u holda qullikka hech o‘rin qoladimi?

Jemma qoshlarini jiyirdi.

– Menimcha, mantig‘ingiz ancha jo‘n ko‘rinadi... Ruhoniy diniy qonunlarni o‘qitadi. Demak, buning avstriyaliklarni quvib chiqarish istagi bilan hech qanday aloqasi yo‘qdir, deyman?

– Ruhoniy – xristianlikni targ‘ib qiladi, Iso esa ulug‘ islohotchi edi.

– Bilasizmi, men ruhoniylar haqida otam bilan gaplashgan edim, u...

– Jemma, otangiz protestant-ku.

Bir daqiqagina davom etgan jimlikdan so‘ng qiz birdan boshini ko‘tardi-da, unga ochiq, do‘stona ko‘z bilan qaradi.

– Menga qarang, yaxshisi bu haqda gaplashmaylik. Gap protestantlarga borib taqalganda, siz har doim bezovta bo‘lasiz.

– Bu gapingiz noto‘g‘ri. Aksincha, protestantlarning o‘zlarini katoliklar haqida g‘ashi kelib gapirishadi.

– Xo‘p mayli, siz aytganingiz bo‘la qolsin. Bu haqda juda ko‘p gap talashdik, yana boshlashning hojati yo‘q. Bugungi ma’ruza to‘g‘risida fikringiz qanday, shuni ayting?

– Menga ayniqsa so‘nggi qismi yoqdi. His qilib turgan narsalarimizga orzu-havas bilan qarab o‘tirmay, ularni har

bir kishi darhol amalga öshirishi zarurligi haqida aytgan otashin so‘zlarini zavq bilan tingladim.

— Menga esa xuddi shu joyi yoqmadi. U g‘oyaviy fikrlar va hislarni bizga juda yaxshilab tushuntirdi, hech qanday amaliy yo‘l-yo‘riq ko‘rsatmadni, nima qilishimiz kerakligini gapirmadi.

— Vaqt-soati kelganda hammamizga ham ish yetib ortadi. Biroq bardosh kerak. Ulkan o‘zgarishlar bir kun ichida sodir etilmaydi.

— Ish qancha chigal bo‘lsa, unga shuncha tez kirishish zarur. Siz o‘zimizni ozodlikka tayyorlashimiz kerak, dedingiz. Siz ozodlikka onangizchalik yaxshi tayyorlangan biron ta odamni bilasizmi? U dunyodagi eng mukammal xotin, farishtaday ayol emasmidi? Qalbida to‘lib yotgan mehr-u shafqat uni oxiri nima qildi? U so‘nggi kunigacha qul bo‘lib o‘tdi. Jems akangiz va uning xotinidan qancha azob-u uqubat, qancha haqorat ko‘rdi! Agar uning ko‘ngli shunchalik yumshoq bo‘lmasa, shunchalik sabr-toqatli bo‘lmasa, hayoti ancha baxtli kechgan bo‘lar edi. Unga hech vaqt bunaqa muomala qilishmagan bo‘lardi. Italiya haqida ham xuddi shuni aytish mumkin: unga sabr-toqat lozim emas... aksincha! — unga o‘z manfaatlarini qo‘riqlash uchun qo‘zg‘alish lozim.

— Jemma, azizim, agar Italiyani azob va ehtiros qut-qazishi mumkin bo‘lsa, u allaqachon ozod bo‘lgan bo‘lur edi. Unga nafrat emas, muhabbat kerak.

Artur mana shu bir necha og‘iz so‘zni aytganda, yuziga bir qon yugurdi-yu, yana tarqaldi. Jemma buni sezmadni, u ro‘parasiga qarab turardi. Qizning qoshlari chimirilgan, lablari mahkam qisilgan edi.

— Mening gaplarim sizga erish tuyulyapti, Artur, — dedi qiz, biroz jimlikdan so‘ng. — Yo‘q, haqiqat men tomonda. Axir bir kun ko‘rarsiz... Mana bizniki. Balki, uyga kirarsiz?

— Yo‘q, vaqt ziq. Yaxshi qoling, azizim!  
Eshik yonida qiz qo‘lini mahkam qisib turar edi.

— «Xudo va xalq uchun...»

Qiz aytib tugatilmagan shiorning oxirini salmoq berib,  
dona-dona qilib tugatdi:

— «... hozir va har qachon».

Keyin qo‘lini tortib oldi-da, yugurib uyga kirib ketdi.  
Orqasidan eshik yopilganda, Artur engashib qizning ko‘ksidan tushib qolgan sarv novdachasini yerdan oldi.

### To‘rtinchi bob

**A**rtur bir olam quvonch ichida uyga qanot chiqarib, uchib keldi. Hammasi ko‘ngildagidek borayotgandi. Majlisda qurolli qo‘zg‘olon haqida ishoralar bo‘ldi. Jemma uning maslakdosh o‘rtog‘i edi, u Jemmani sevardi. Jemma bilan birga ishlaymiz, kelajak ozodligi kurashida balki birga o‘larmiz deb xayol qilardi. Ularning umidbaxsh bahori kelgan edi. Padre ko‘rib, bularning haqli ekanligiga ishonadi. Ammo u ertasiga ancha xotirjam kayfiyatda uyqudan uyg‘ondi. Jemmaning – Livornoga, padrening esa Rimga jo‘namoqchi bo‘lib turganlarini esladi.

Pasxaga uch uzun oy – yanvar, fevral, mart bor. Kim bilsin, Jemma uyiga qaytganidan keyin protestantlar ta’siriga tushib qoladimi hali («protestant» bilan «filister»<sup>1</sup> so‘zining Artur tilida ma’nosи bir xil edi) ... yo‘q! Uning Jemmasi Livornoning boshqa oyimqizchalari singari hech qachon past ketmaydi. Ammo bebaxt bo‘lishi ehtimol baxtsiz bo‘lar. O‘zi ham juda yosh, do‘stlari nihoyatda kam, undan keyin bu yog‘och to‘nka singari hissiz odamlar

<sup>1</sup> *Filister obivatel* – dunyoga meshchanlik ko‘zi bilan qarovchi ikkiyuzlamachi kishi.

orasida, o'zini yolg'iz sezsa ham ajab emas!.. O, qaniydi onasi tirk bo'lsa!

Artur kechqurun seminariyaga borganda, Montanelli yangi rektor bilan suhbat qilib o'tirgan edi. U charchagan horg'in ko'rinardi. Padre Arturni ko'rgach, nafaqat xursand bo'ldi, har doimgidek yanada oqarib ketdi.

Montanelli Arturni yangi rektorga tanishtira turib:

– Mana men sizga aytgan talaba, o'zi ham kelib qoldi, – dedi quruqqina qilib. – Bundan keyin ham kutubxonadan foydalanib turishiga ijozat bersangiz, sizdan benihoyat minnatdor bo'lur edim.

Hazrat Kardi Artur bilan darhol universitet talabalari hayoti haqida ezmalana boshladi. O'zini majburlamay, bahuzur, bemalol gapirishidan kollej hayoti bilan yaxshi tanishligi bilinib turardi. Gap tezda universitetdagi qattiq tartibga ko'chdi; bu o'sha davrning qizg'in masalalaridan biri edi.

Yangi, rektor universitet rahbarlari talabalarning jolalariga tekkan bema'ni taqiqlari bilan olib borgan siyosatini qattiq tanqid qilib Arturni darrov o'ziga qaratib oldi.

– Yoshlarni tarbiyalash ishida katta tajribam bor, – dedi u. – Yetarli asos bo'lmay turib, yoshlarning ishiga sira aralashmaslik kerak – men hamisha shu qoidani qo'llab kelaman. Dunyoda tabiatini jihatidan beboshlilikka uchib turgan yoshlar ko'p deb o'ylamayman, shuning uchun ularning shaxsiga kattalar hurmat bilan qarashsa, meningcha, ular ortiqcha tashvish tug'dirishmas. Axir yuvosh ot ham, hadeb jilovini tortaverilsa, oldingi oyoqlarini ko'tarib oladi.

Artur unga hayron bo'lib qaradi. Yangi rektorning talabalar manfaatini bu qadar qizg'in himoya qilar deb o'ylamagan edi. Montanelli gapga aralashmadidi. U shu qadar horg'in, shu qadar umidsiz, g'amgin ediki, hazrat Kardi birdan:

– Sizni charchatib qo‘ydimmi deb qo‘rqaman, hazrat kanonik, – dedi. – Men bu masalaga jon-dilim bilan kirishib ketib, boshqalarning ko‘ngliga tegishi mumkinligini nazardan qochirib qo‘yaman.

– Aksincha, bu masalalar meni juda qiziqtiradi.

Montanelli soxta mulozamatni hech eplay olmasdi, shuning uchun uning gap ohangi Arturga sovuq eshitildi.

Hazrat Kardi uyiga chiqib ketgandan keyin Montanelli Artur tomonga o‘girilib, unga butun kecha yuzidan arimagan o‘ychan, tashvishli bir nazar bilan qaradi.

– Artur, jon bolam, – deb gap boshladi u, – senga aytadigan so‘zlarim bor.

Artur uning hayajonli yuzini ko‘rganda, miyasiga: «biron xunuk gap eshitgan shekilli» degan fikr keldi.

Oraga uzoq jimlik cho‘kdi.

– Yangi rektor yoqdimi senga? – deb birdan so‘radi Montanelli.

Artur nima javob qilishini bilmay, bir daqiqagina hayron bo‘lib turdi.

– Men... menga juda yoqdi... Lekin o‘zim ham hali uncha yaxshi bilmayman. Padre, odamni bir ko‘rishdayoq darrov bilib olish juda qiyinku.

Montanelli kursi suyanchig‘ini barmoq bilan sekinskin tiqillatib o‘tirardi; uni biron narsa tashvishga yoki hayajonga solsa, shunaqa tiqillatish odati bor edi.

– Rimga borishim to‘g‘risida senga shuni aytishim mumkin, – deb yana gap boshladi u, – agar senda qarshilik bo‘lsa... Agar xohlasang, Artur, borishdan voz kechib, Rimga maktub yozib yuboraman.

– Padre! Vatikan nima deydi?

– Vatikan boshqa birontasini topadi. Men uzr so‘rayman.

– Nega edi? Sizni tushunolmadim.

Montanelli peshonasini siladi.

— Sen to‘g‘ringda xavotir qilayapman. Miyamdan bir fikr hech qachon ketmaydi, sen... Bundan tashqari, ketishimning hech hojati ham yo‘q.

— Yepiskoplik nima bo‘ladi?

— O, Artur! Sendan ajralsam, yepiskoplikdan menga nima foyda!..

U to‘xtadi, Artur uni hech qachon bu ahvolda ko‘rmagan edi, juda yomon tashvishga tushdi.

— Men hech tushunolmay qoldim, — dedi u. — Padre, yolvorib so‘rayman: miyangizda nima o‘y bor, nima istaysiz ochiqroq ayting...

— Hech narsa istamayman. Meni yomon bir vahima qiynayapti, xolos. To‘g‘risini ayt: boshingda biron xatar bormi?

Artur qurolli qo‘zg‘olon haqidagi mish-mishlarni eslab, «qulog‘iga bir nima yetganga o‘xshaydi» deb o‘yladi.

Lekin sir uniki emasdi, uni aytishga haqi yo‘q edi. Shu sababli savol bilan javob qildi:

— Boshimda qanday xatar bo‘lsin?

— Mendan so‘rama, javob ber.

Montanellining ovozi g‘azabdan biroz keskin tus oldi.

— Boshingda biron xatar bormi? Menga sening sirlaring kerak emas. Xatarning bor-yo‘qligini aytsang bo‘ldi.

— Hammamiz xudoning ixtiyoridamiz, padre. Hamma narsa bo‘lishi mumkin. Lekin siz qaytib kelguningizcha, meni sog‘-salomat qolmaydi deb o‘ylashga hech qanday asos yo‘q.

— Men qaytib kelguncha... Menga qara, jon bolam! Ixtiyorni o‘zingga berdim, o‘zing hal qil. Menga sening izohlaring kerak emas. Faqatgina «qol» desang bas, borishdan voz kechaman — qolaman. Bundan hech kimga ziyon yetmaydi, balki ancha tinchiyman: men yoningda bo‘lsam, nazarimda, sen ham xavf-xatardan xoli bo‘lasan.

Artur unga xavotirlanib qaradi. Hech vaqt bemor kishining xayolini qilmaydigan padrening xarakteridagi bu yangi nuqta uni ajablantirdi.

— Padre, tobining yo‘qmi deyman. Rimga albatta borishingiz, yaxshilab dam olishingiz va uyqusizlik hamda bosh og‘riq kasallaridan qutulib olishingiz kerak.

— Xo‘p, xo‘p, — deb Montanelli xuddi bu haqda gapirishdan charchagandek, uning so‘zini bo‘ldi. — Xo‘p, ertaga birinchi pochta foytuni bilanoq jo‘nayman.

Artur unga anqayib qaradi.

— Menga yana bir nima demoqchi edingiz shekilli? — dedi u.

— Yo‘q, yo‘q. Boshqa gapim yo‘q, muhim hech nima yo‘q.

Montanelli ko‘zlarida xavotirli vahima qotib qoldi.

\* \* \*

Montanelli jo‘nab ketgandan bir necha kundan so‘ng Artur seminariya kutubxonasiga kitob olgani kelib, zinapoyada hazrat Kardiga duch keldi.

— Ha, mister Berton! — deb qichqirdi rektor. — Menga judayam kerak edingiz-da. Qani, yuring, marhamat. Boshimga bir qiyin ish tushib qoldi, qarashib yuboring.

U ish kabinetining eshigini ochdi, Artur allaqanday yoqimsiz, g‘alati his bilan ichkari kirdi. Padrening bu ish kabinetini begona bir odam tomonidan band qilingan tabarruk hujrasini ko‘rish unga og‘ir edi.

— Men hech to‘yib o‘lolmaydigan kitobsevarman, — dedi rektor. Bu yerga kelib dabdurustdan qo‘l urgan ishim — kutubxonani ko‘zdan kechirish bo‘ldi. Kutubxona juda boy, lekin kitoblarning qo‘yilish tartibiga tushunolmadim.

— Katalog to‘la emas. Qimmatli kitoblarning ko‘pchiligi yaqinginada keltirib qo‘yilgan.

— Kitoblarning qo‘yilish tartibini aytib bersangiz, yarim soatcha vaqtingiz bormi?

Ular kutubxonaga kirdilar. Artur lozim bo‘lgan narsalarni tushuntirdi. U endi ketmoqchi bo‘lib shlyapasini qo‘liga olganda, rektor kulumsirab uni to‘xtatib qoldi.

— Yo‘q, yo‘q! Sizni buncha tez qo‘yib yubormayman. Bugun shanba, shuning uchun darsingizni dushmanba kuni ertagacha yig‘ishtirib qo‘ysangiz bo‘laveradi. Qolning, birgalikda ovqatlanamiz, baribir, vaqt kech bo‘ldi, sizni ko‘p ushlab qoldim. Men yolg‘izman, birga suhbat qursak juda xursand qilgan bo‘lardingiz.

Uning muomalasi shu qadar sermulozamat, yoqimli ediki, Artur o‘zini hademay batamom erkin his eta boshladi u yoq-bu yoqdan biroz gaplashib o‘tirganlardan so‘ng, rektor undan Montanellining qachondan beri tanishligini so‘radi.

— Yetti yildan beri, — deb javob qildi Artur. — U Xitoydan qaytib kelganda, men o‘n ikki yoshga kirgan edim.

— Ha darvoqe! Uning ajoyib va’zchi-missionerlik shuhrati o‘sha yerdan boshlangan edi. O‘sandan beri sizning o‘qishingizga rahbarlik qilib keladimi?

— Padre men bilan oldiga kelib birinchi marta tavba qilgan kunimdan boshlab bir yildan keyin shug‘ullana boshladi. Satsiyensega kirganimdan keyin esa universitet kursiga kirmaydigan barcha fanlardan menga yordam bera boshladi. U meni jonidan ham ortiq ko‘rardi, menga qanchalik mehribonlik qilganini siz ko‘z oldingizga keltira olmaysiz!..

— Juda yaxshi keltiraman-da. U kishiga hammaning havasi keladi: oliyanob, ajoyib kishi. U kishi bilan birga Xitoya bo‘lgan ba‘zi missionerlarni ko‘rganman. Ular hazrat kanonikning g‘ayratini, og‘ir damlardagi mardligini, mustahkam imonini ta’riflashga munosib so‘z topolmas edilar. Yoshlik paytlaringizda shunday insonning tarbiyasida

bo'lganingiz uchun baxlisiz. U kishidan eshitdim ota-onangiz ham o'tishgan ekan.

– Ha, otam – go'dakligimda vafot etgan, onam bo'lsa o'tgan yili olamdan o'tdi.

– Aka-ukalaringiz, opa-singillaringiz bormi?

– Yo'q, faqat ota bir, ona boshqa akalarim bor... Biroq ular men chaqaloqligimdayoq voyaga yetib qolishgan va savdo-sotiq ishlari bilan mashg'ul bo'lib yurgan edilar.

– Chamamda, yolg'iz o'sgan ko'rinasiz. Shuning uchun ham Montanellining mehribonchiligini juda qadrlaysiz. Aytmoqchi, u kelguncha tavba qilib turgani biron ruhoniy topdingizmi?

– Muqaddas Katarina cherkovining hazratlariga murojaat qilmoqchi edim.

– Menda tavba qilib qo'ya qolmaysizmi?

Artur unga hayrat bilan qaradi.

– Hazratim, albatta, men... men shod bo'lardim, lekin...

– Lekin diniy seminariya rektori odatda oddiy kishilar tavbasini qabul qilmaydi demoqchisiz-da? Bu to'g'rida haqlisiz. Biroq, gap shundaki, kanonik Montanelli sizga juda ham g'amxo'r, undan so'ng nazarimda, sizning salomatligingiz to'g'risida xavotir ham qilib yuradi. Bu bejiz emas... Agar yaxshi ko'rgan shogirdimdan ajrasam, mening o'zim ham xavotirga tushar edim. Men aminmanki, agar hamkasabasi sizni o'z panohiga olganini eshitsa, joni ancha tinchiysi. Mendan tortinmang, o'g'lim: ochig'ini aytинг meni ruhoniy ota qilib olishga rozimisiz? Ko'nglimga siz o'tirib qoldingiz, sizga yaxshilik qila olsam, xursand bo'laman.

– Agar shunday bo'lsa, sizdan cheksiz minnatdor bo'laman, albatta.

– Juda soz. Unday bo'lsa, kelasi oyda kelib tavba qilib keting. Bundan tashqari, bo'sh vaqtlar singildingizda mening oldimga kelib turing, o'g'lim.

Pasxa oldidan Montanellining Etrus Apenninalaridagi kichkina Brizigella okrugiga yepiskop qilib tayinlanganligi rasmiy ravishda ma'lum bo'ldi. Buni Arturga Montanel-lining o'zi ham Rimdan xotirjam shod-u xurram bir tarzda yozib yubordi. Yuragidagi qabziyatning tarqala boshlagani ravshan edi. «Har kanikulda oldimga kelib turishing kerak, men ham Pizaga borib turaman. Xohlaganimday tez-tez bo'lmasa ham, har holda ko'rishib turishimizga umidvorman» – deb yozibdi.

Doktor Uorren pasxa bayrami kunlarini hozir Yulianing bir o'zi hukm surib yotgan va kalamushlar kemirib tashlagan bahaybat eski saroyda xunob bo'lib o'tkazgandan ko'ra, o'zim va bola-chaqalarim bilan birga o'tkazsin deb, Arturni uyiga taklif qildi. U maktubga bolalarcha qing'ir-qiyshiq qilib bitilgan kichkina bir xatcha ham qo'shib yuborilgandi; Jemma ana shu xatchada otasining taklifiga qo'shilib, Arturni o'zlarinikiga kelishini iltimos qilgan. «Siz bilan ba'zi masalalar to'g'risida gaplashib olmoqchiman», debdi.

Arturni yana ham ko'proq hayajonga solgan va shod-lantirgan narsa – talabalar bir-birlariga shipshib yurgan ovozalar edi. Hamma pasxadan keyin katta hodisalar bo'ladi deb kutardi.

Bu narsalarning hammasi Arturda shodiyona bir intitorlik kayfiyati tug'dirib bordiki, eng dahshatli narsalar ham unga tabiiydek, bajarilishi va yaqin ikki oy ichidayoq amalga oshirilishi mumkindek tuyilardi.

U pasxa oldidagi so'nggi haftada, payshanba kuni uyiga borishga va uning dastlabki kunlarini o'sha yerda o'tkazishga qaror qildi. Jemmani ko'rganda vujudga keladigan shodlik shu kunlarda cherkov o'z bolalaridan talab qilgan tantanali diniy kayfiyatdan uni yiroqlashtirib

qo'yadi deb qo'rqrar edi. Artur chorshanba kuni kechqurun Jemmaga javob yozib, ularnikiga pasxanining dushanba kuni borishini va'da qildi va ko'ngli batamom to'lgan holda kirib uxladi.

Artur yotoqxonaga kirib, but oldida tiz cho'kdi. Ertaga ertalab hazrat Kardi uning tavbasini qabul etishga va'da qilgan edi. Endi u pasxa oldidan qiladigan ana shu tavbatazartuga uzoq va astoydil ibodat bilan o'zini tayyorlashi kerak. U tiz cho'kkani, qo'lllarini qovushtirgan va boshini quyi solintirgan holda fikran orqaga, o'tgan oyga qaradi va chidamsizlik, yengiltaklik, tajanglik qilgan kezlarini eslab, mayda-chuyda gunohlarini bir-bir sanab chiqdi. Ammo bular uning toza qalbiga zaifgina dog' bo'lib tushgan mayda gunohlar edi. U cho'qinib, o'midan turdi-da, yechina boshladi.

Artur ko'ylagining yoqasini yechganda, qo'ynidan bir parcha qog'oz polga uchib tushdi. Bu Jemmaning xatchasi bo'lib, uni Artur kun bo'yi ko'kragida saqlab yurgan edi. Xatchani yerdan olib ochdi, keyin o'pdi; so'ng yarashmagan ish qilib qo'ydim, degan o'ng'aysiz bir tushuncha bilan qog'ozni yana taxlay boshlagan edi, ko'zi qog'oz orqasidagi satrlarga tushdi; uni hali o'qimagan edi. «Albatta biznikiga keling, mumkin qadar tezroq keling. Sizni Bolla bilan tanishtirib qo'ymoqchiman, u bilan shu yerda, har kun birga kitob o'qiymiz».

Bu satrlarni o'qiganda, Arturing yuzi qip-qizarib ketdi.

«Har doim o'sha Bolla! Livornoda yana nima qilib yuribdi u? Nega endi Jemma u bilan kitob o'qiydi. Uning kontrabanda ishlarida nima qiziqtirarkan Jemmani? Bolla uni butunlay sehrlab oldi. Jemmani yaxshi ko'rib qolganligi yanvardagi majlisdayoq sezilib turgan edi. Shuning uchun

o'shanda yonib gapi rayotgan edi-da! Endi u qiz yonida, har kun birga, birga kitob o'qiydi».

Artur keskin bir harakat bilan xatchani bir yoqqa otib yubordi-da, yana but oldiga tiz cho'kdi.

Gunohlari uchun tavba-tazarrular qilishga, pasxa duolarini o'qishga tayyor turgan qalbning o'z taqdiriga tan berishi, butun olam bilan, tangri bilan orani yaxshilashi lozim bo'lган qalbning holi shu bo'ldimi! Yana bu qalb pastkashlarcha rashk etishga, iflos shubhalar qilishga qodir, bachkana hasadlarda bo'lishga qodir-u, tag'in o'z o'rtog'iga-ya! Artur o'ziga achchiq-achchiq dashnom bera turib, yuzini qo'llari bilan to'sib oldi. Atigi besh daqiqagini oldin mazlumlik orzulari bilan ko'klarda uchar edi, mana endi jinoyatchi singari turibdi, vijdoni azoblayapti.

Payshanba kuni ertalab seminariya ibodatxonasiga kirib hazrat Kardini yolg'iz topdi. U din simvolini o'qib bo'lib, darrov kecha kechqurun o'zida yuz bergen vijdon tushkunligidan gapira ketdi.

— Hazratim, men gunohkorman, menga hech qanday yomonlik qilmagan bir kishiga rashk etganim, g'a-zablanganim, noloyiq fikrlarda bo'lганим uchun gunohkorman.

Hazrat Kardi qoshida turgan yigitchaning qanday odamligini juda yaxshi bilardi. U yumshoq qilib gapirdi:

— Ko'ngildagi hamma gapingizni aytmadingiz, o'g'-lim.

— Hazrat! Men xristianlikka yarashmagan ko'z bilan qarab kelgan kishimni sevishim, hurmat qilishim kerak edi.

— Siz unga qarindoshlik ipi bilan bog'langanmisiz?

— Undan ham yaqinroq, undan ham mahkamroq ip bilan bog'langanman.

— Masalan, qanday, o'g'-lim?

— O'rtoqlik ipi bilan bog'langanman.

— O'rtoqlik ipi bilan? Nimada?

— Ulug' va muqaddas ishda.

O'rtaga qisqagina jimlik cho'kdi.

— Sizning o'sha o'rtog'ingizga bo'lgan g'azabingizga, unga qilgan hasadingizga, uning o'sha siz aytgan ishdagi yutug'i, siznikidan ko'ra dabdabaliroq yutug'i sabab bo'lmadimi?

— Ha biroz. Men uning tajribali ekanligiga hasad qildim, hamma uni shu tajribasi uchun qadrlaydi. Bundan tashqari... men o'ylardim... sevgan qizimni ilib ketadimi deb qo'rqardim.

— Siz sevgan qiz – muqaddas cherkov qizimi?

— Yo'q, protestant qiz.

— Badmazhab deng?

Artur kuyinib qo'lini qisdi.

— Ha, badmazhab, — dedi u. — Birga tarbiyalanganmiz. Onalarimiz do'st edi. Uning ham qizni sevganini ko'rib hasadim keldi. Undan keyin.

— O'g'lim, — hazrat Kardi, biroz jim turgandan keyin shoshmasdan, jiddiy ohangda gapirdi, — siz hali hamma narsani ochiq aytganingiz yo'q. Ichingizda ko'p muhim narsalar bor.

— Hazrat, men...

Artur duduqlanib, yana jim bo'lib qoldi. Tavba qabul qiluvchi hazrat uning yana gap boshlashini kutib turdi.

— Unga shuning uchun hasad qildimki, men mansub bo'lgan «Yosh Italiya» tashkiloti...

— Xo'sh?

— Tashkilot unga bir ishni topshirdi, uni menga topshirishar deb umid qilgandim, chunki men o'zimni u ishga juda loyiq deb bilardim.

— Qanaqa ish edi u?

- Paroxodlardan kitoblarni, siyosiy kitoblarni qabul qilib olish. Keyin ularni shahardan qulay joylarni topib yashirish lozim edi.
- Tashkilot bu ishni ham raqibingizga topshirdimi?
- Bollaga topshirdi, shunga ham hasad qildim.
- U ko'nglingizni o'zidan sovutadigan biron narsa qilib-netib qo'ygani yo'qmi? Siz uni topshirilgan vazifaga e'tiborsiz qaradi deb ayblamaysizmi?
- Yo'q, hazrat. Bolla dadil va fidokorona ish qildi. U asl vatanparvar, men unga muhabbat va hurmat bilan qarashim kerak edi.

Hazrat Kardi o'ylanib qoldi.

- O'g'lim, agar qalbingizni yangi bir nur yoritgan bo'lsa, agar qalbingizda og'a-inilaringiz baxti-saodati uchun ulug' ishlar qilish orzusi tug'ilgan bo'lsa, agar horigancharchaganlar va ezilganlar yukini yengillashtirishga umidvor bo'lsangiz, – o'ylab ko'ring: Parvardigorning beba ho hadyasiga qaysi ko'z bilan qaraysiz? Barcha ne'matlarni bergen uning o'zi. Sizni yangi hayotga qadam bostirgan ham uning o'zi. Agar fidokorlik yo'lini, osoyishtalikka olib boruvchi yo'lni topgan bo'lsangiz, agar yashiriqcha ko'z yoshlari to'kib, o'zining sho'r peshonasi g'ami bilan qaddi bukilib yotganlarga ozodlik keltirish uchun qadrdon o'rtoqlaringiz bilan birlashgan ekansiz, endi qalbingizni hasad va ehtiroslardan tozalash g'amini yeng, dilingizni esa tabarruk shamchirog'i sira o'chmaydigan namozgohga aylantiring. Buning muqaddas va ulug' ish ekanligi esingizda bo'lsin, shuning uchun ana shu muqaddas va ulug' ish orzusi jo bo'lgan qalb tamagirlilik fikri, niyatlariga yot bo'lsin. Bu burch ham cherkov xizmatchilarining burchi singari ayol kishiga bo'lgan sevgiga, o'tkinchi havaslarga bog'lanib qolmasin. «Xudo va xalq uchun, hozir va har vaqt».

- A! – Artur qattiq ajablanib qo'llarini yozdi.

U tanish shiorni eshitib, yig'lab yuborishiga oz qoldi.

— Hazratim, cherkov fotihasini berdingizmi bizza! Iso — biz bilan.

Ruhoniy tantanali javob qildi:

— O'g'lim, Iso sarroblarni haramdan quvib chiqardi, zero uning uyi — toat-u ibodat uyidir, ular esa uyni qaroqchilar uyiga aylantirdilar<sup>1</sup>.

Uzoq jimlikdan keyin Artur qaltiroq tovush bilan shivirladi:

— Ular quvib chiqarilgandan keyin Italiya ham xudoning harami bo'ladi...

Artur to'xtadi. Yumshoq ovoz javob qildi:

— Yer va uning barcha boyliklari — meniki, degan parvardigor.

### Beshinch bob

**Sh** u kuni Arturning ertadan kechgacha yurgisi keldi. Yukini bir talaba o'rtog'iga topshirib, o'zi Livornoga piyoda jo'nadi.

Havo zax va bulutli bo'lsa ham, sovuq emasdi, shuning uchun tekis sayhon unga hech vaqt bu qadar chiroyli ko'rinnagan edi. Oyoqlari ostidagi ho'l ko'katlarning yumshoqligidan va yo'l bo'yidagi yovvoyi bahor gullarining hurkayotganga o'xshab g'alati ko'ringanidan ichiga sig'may xursand bo'lib bordi. Kichik bir o'rmon yalangligidagi bir tup zarangda qush uya solayotgan ekan, Artur kelishi bilan qo'rqiб qichqirdi va qoramtil qanotlarini lapanglatib osmonga uchdi.

U ulug' juma arafasida talab qilinganidek, pok fikrlarga berilishga urinar, lekin ikki siymo — Montanelli

<sup>1</sup> Iso Quddus haramida savdo qiluvchilarning hammasini quvib chiqargani va sarroflar hamda kaptar sotuvchilar kursisini ag'darib tashlagani haqida Injilda hikoyat bor.

bilan Jemma – uning bu toza niyatlariga hadeb xalaqit berishardi. Ana shundan keyin o‘zini mo‘min kayfiyatga kiritish harakatidan nihoyat voz kechdi-da, mayli, bo‘lg‘usi qo‘zg‘olon mo‘jizalari hamda shon-u shavkatlari sari o‘sha qo‘zg‘olonda o‘zining ikki sanamiga ajratgan roli sari uchaversin deb, xayolining jilovini bo‘shatib qo‘ydi. Padre uning nazarida yo‘lboshchi va muqaddas g‘azabi oldida butun jaholat kuchi yo‘q bo‘lib ketadigan payg‘ambar edi. Ozodlikning yosh himoyachilari padrening oyoqlariga yiqilib, eski imon, eski haqiqatlarni o‘zlarining yangi, hali nomalum ma’nolarida yana tag‘in o‘rganishadi.

Jemmi-chi?

O, Jemma barrikadalar himoyachisi bo‘ladi. U kelajak qo‘zg‘olonida qahramon bo‘lish uchun tug‘ilgan. Asl o‘rtoq, pok va qo‘rqmas qiz bo‘ladi, bir emas, behisob shoirlar ilhomlanib kelgan ideal obraz bo‘ladi. U Artur bilan yonma-yon, elkama-elka turadi va o‘limlar keltiruvchi qanotli bo‘ron yuziga kulumsirab qaraydi. Ular birga o‘ladilar va bu o‘lim, balki, g‘alaba ostida yuz berar, chunki g‘olib bo‘lishi muqarrar. Artur qizga bo‘lgan sevgisi haqida hech nima demaydi. Uning yuragidagi osoyishtalikni buzishi va o‘rtog‘iga nisbatan yuragida bor hislarni qora qilishi mumkin bo‘lgan narsalar haqida churq ham etmaydi. Unga Jemma xalq ozodligi yo‘lida mehrob qo‘yilishi uchun dunyoga kelgan tabarruk narsa pok qurban bo‘lib ko‘rinar edi. U o‘zi nima degan odamki, xudoga va Italiyaga bo‘lgan sevgidan boshqa sevgini bilmaydigan eng ezgu qalblar ezgusiga daxl qila olsin.

Xudo va Italiya... Artur old tomonga saroylar ko‘chasiga qaragan kattakon va bahaybat uyga kirayotganda birdan yomg‘ir tomchilab yubordi. Yuliyaning bejirim kiyangan, bosiq, har doimgiday sermulozamat va kekror gumashtasi zinapoyada kutib oldi.

- Salom, Jibbons. Akalarim uydami?
- Mister Tomas uydalar. Missis Berton ham mehmonxonadalar.

Artur og'ir, dilgir his bilan ichkariga kirdi. Odamni qanchalik siqib tashlaydigan uy! Hayot oqimi unga hech tegmasdan, yonginasidan o'tib ketgan. Uyda hamma narsa ilgarigiday: odamlar, oilaviy suratlar, qimmatbaho, didsiz anjom, beso'naqay idishlar, boylikdan meshchanlarcha kerilishlar, barcha narsada aks etib turgan o'lgunlik. Jez tuvaklarda turgan gullar ham yasamadek, metalldan kesib qilingandek, ko'klamning iliq kunlarida, bahor yog'dusida tomirlarida Yugurgan yosh hayot suvining o'yini ularga tanish emasdek.

Tush paytida juda ham yasanib-tusangan va borlig'inining markazi bo'lgan o'z mehmonxonasida mehmon kutib o'tirgan Yuliyaning o'zi esa lablarida qotib qolgan sun'iy tabassumi, chekkalaridagi jingalak, oqish gajjaklari va tizzasida yotgan kuchukchasi bilan qo'g'irchoqqa juda o'xshar edi.

Yuliya barmoqlarining uchini bir zumgina Arturga uzatib, sovuqqina!

– Qalaysiz, Artur? – deb hol so'radi-da barmoqlarini darrov tortib olib, laychasining qo'l huzur qiladigan ipakday yumshoq yunglari ichiga tiqdi. – Eson-omonmisan, universitetda yaxshi o'qib yuribsanmi?

Artur miyasiga kelgan birinchi so'zni aytди: o'rtaga yana og'ir jimlik tushdi. Kerilgan, dimog'dor Jemsning kelishi ham bu holni jonlantirib yubormadi: yonida allaqanday paroxodchilik jamiyatining yoshi o'tinqiragan bir takabbur vakili bor edi. Ovqat tortilganligi aytilganda Artur, ustidagi yuk ag'darilgandek, yengil tin olib o'midan turdi.

– Men bugun tushlik qilmayman, Yuliya. Kechirasizlar, men o'z xonamga kirib ketaman.

– Ro'zani haddan tashqari qattiq tutasan, – dedi Tomas. – Bunday qilsang og'rib qolasan.

– Be. Tinch uxlanylari.

Artur yo'lakda xizmatkor qizni uchratib, unga o'zini soat oltida uyg'otib qo'yishini so'radi.

- Sinorino! cherkovga boradilarmi? – deb so'radi.
- Ha. Yaxshi tushlar ko'ring. Tereza.

U o'z hujrasiga kirdi. Bu hujra onasiniki edi. Deraza ro'parasidagi taxmon onasi uzoq kasal yotgan kunlarda ibodatgohga aylantirilgan edi. Qora taglikdagi kattakon but mehrobning qoq o'rtasida turardi. Onasi shu hujrada olamdan o'tdi. Devorga o'rin ustiga onasining surati osib qo'yilgan. Stolda – chinni guldon, unda onasi yaxshi ko'rgan bir dasta binafsha. Onasining vafot etganiga roppa-rosa bir yil bo'ldi. Uni italyan xizmatkorlar eslaridan chiqarmagan edilar.

Artur romga solinib, yaxshilab o'rab qo'yilgan chemodandan uni oldi... U Montanellining qalam bilan ishlangan surati edi. Artur o'z javharini avaylab ocha boshladi. Xuddi shu paytda Yulianing yugurdak bolasi kirib keldi. Qo'lida patnis bor edi. Uyda yangi qattiqqo'l beka paydo bo'lganiga qadar Gledis xizmatini qilib kelgan qora italyan oshpaz xotin patnisga har xil lazzatli taomlar to'ldirib kirgizibdi. U o'zining hurmatli sinorasi bu taomlarni yesa, cherkov qoidalari buzilmasligini bilar edi. Artur bir burda non olib, boshqalarini qaytardi. U mehrobga kirdi va ibodatga hamda pok fikrlarga berilishi uchun butun kuchini sarf qilib, but oldida tiz cho'kdi. Lekin niyatiga tez yeta olmadi. Tomas aytgandek, chinakamiga ham ro'za qoidasiga juda qattiq rioya qilardi. Qilayotgan qattiq parhezi kuchli vino singari miyasiga ta'sir qilmoqda edi. Yag'rinida yengil bir qaltiroq turdi. Ko'z oldidagi but tuman bosganday ko'rinardi. Uzun duoni bir necha bor mexanik ravishda takrorladi. Ana shu yo'llar bilangina

---

*Sinorino (italyancha)* – yosh sinor, janob.

o‘zining parishon xayolini toatlar dunyosiga qaytara bildi. Jismoniy horg‘inlik asabiy hayajondan nihoyat ustun keldi. U talvasali va og‘ir o‘ylardan qutulib uqlashga yotdi.

Artur dang qotib uqlab qoldi. Birdan eshik qattiq taqilladi.

«Terezadir-da», — deb o‘yladi u, erinchoqlik bilan narigi yoniga ag‘darilib.

Eshik yana taqilladi. Artur vahima bilan uyg‘ondi.

— Sinorino! Sinorino! — deb kimdir italyan tilida qichqirdi.

Artur o‘rnidan sapchib turdi.

— Nima bo‘ldi? Kim u?

— Men, Jian Battistaman. Xudo xayringizni bersin, turing, tezroq turing.

Artur apil-tapil kiyinib, eshikni ochdi. U kucherning qo‘rquvdan rangi qochgan, qiyshaygan yuziga o‘zini yo‘qotib qaradi. Yo‘lakdan oyoq dupurlari va metall jaranglari eshitildi. Artur buning ma’nosini darhol tushundi.

— Menga kelishayaptimi? — deb so‘radi u, xotirjam.

— Sizga... O, sinorino, tez bo‘ling! Berkitadigan narsangiz bormi? Menga...

— Menda hech nima yo‘q. Akalarim bilishdimi?

Yo‘lak tuyulishida birinchi mundir ko‘rindi.

— Sinorni uyg‘otishdi. Butun uy uyg‘ondi! Voy sho‘rim!

Bu qanday yomon falokat bo‘ldi! Pasxa oldidagi jumada-ya tag‘in! O, azizlar, avliyolar, bizga rahm qilinglar!

Jian Battista ho‘ngrab yig‘lab yubordi.

Artur bir necha qadam oldinga tashlab, jandarmalarni kutib turdi. Ular hujraga ro‘para kelgan narsani egnilariga tashlab yugurishgan xizmatkorlar olomoni bilan ichkariga kirdilar. Arturni soldatlar o‘rab olishdi. Bu taajjub marosim oxirida uy egasi bilan bekasi kelardi. Uy egasining oyoqlarida tufli, egnida — xalat, bekaning egnida esa menyuar, sochlarda — qisqich.

«Xuddi ikkinchi to‘fon yaqinlashib kelayotir-u, bu juftliklar Nuh payg‘ambar kemasiga qochib ketayotirlar! Mana, masalan, bir juft g‘alati hayvon!»

Artur oldida qatorlashgan kulgili odamlarga qarab turganda, miyasidan shu o‘xshatishlar barq urib o‘tdi.

Shunday jiddiy bir paytda u o‘xshatishlarning o‘rinsizligini sezib, Artur kulib yuborishdan o‘zini zo‘rg‘a tutib qoldi. Keyin:

— Ave, Maria, Regina Coel<sup>1</sup> — deb pichirladi-da, Yuliyaning odam kulgisini qistatuvchi dikkaygan qis-qichlarini ko‘rmaslik uchun, yuzini teskari o‘girib oldi.

— Marhamat qilib tushuntirib bersangiz menga, — dedi mister Berton, jandarm zobitiga yaqin kelayotib, — xususiy bir uyga zo‘rlik bilan bostirib kirishning ma’nosini nima? Men sizni ogohlantirib qo‘yishim kerak menga aniq izoh bermagan taqdiringizda, ingliz elchisiga arz qilaman.

— Bu siz uchun ham, ingliz elchisi uchun ham yetarli bo‘lsa kerak deb o‘ylayman, — dedi zabit, o‘ziga bino qo‘yib.

U falsafa fakultetining talabasi Artur Bertonni qamash to‘g‘risidagi buyruqni ochdi va uni Jemsga bera turib, sovuqqina ilova qildi:

— Agar sizga yana izoh kerak bo‘lsa, politsiya boshlig‘iga murojaat qilishingizni maslahat beraman.

Yuliya erining qo‘lidan qog‘ozni yulib olib, ko‘z yogurtirib chiqdi-da, yaxshi tarbiyalangan oyim g‘azabga kelgan paytda qilishi mumkin bo‘lgan eng qo‘pol muomala bilan Arturga tashlandi.

— Hali siz uyimizga isnod keltirdingizmi! — deb baqirdi u. Butun shahar avomi, bozorga yig‘ilganday to‘planib olib, siz tufayli bizdan kulayapti endi! Tuzuk, chakki emas! O‘zingizning taqvodorligingiz bilan, jon-

<sup>1</sup> Ave, Maria Regina Coli (*lotincha*) — «Sevin, Mariya, osmon Malikasi...» Bibi Maryamga qaratilgan duo so‘zlari.

ginam, turmaga tushdingiz. Albatta-da, katolik xotinning bolasidan nimani ham kutib bo'lardi!

— Xonim, mahbus bilan xorij tilida gaplashib bo'l-maydi, — deb zabit Yuliyaning so'zini bo'lgan bo'lsa ham, lekin uning tanbehi Yuliya og'zidan quyilayotgan inglizcha so'kishlar girdobida ko'milib ketdi.

Bir vaqlar doktor Uorren Yuliyani oshpaz ustiga bir shisha sirka quyib yuborgan salatga o'xshatgan edi. Yuliyaning qulqoni qomatga keltiradigan chinqiroq tovushi Artumi g'ijintirdi. Ana shunda doktorning taqqoslashi birdan esiga tushib ketdi.

— Bu haqda gapirib o'tirishdan nima hojat, — dedi u. — Siz qo'rmasangiz ham bo'ladi, hammaga ma'lumki, sizda hech qanaqa gunoh yo'q, — keyin, jandarmlarga qarab ilova qildi: — Fikrimcha, buyumlarimni ko'zdan kechirsangiz?

Jandarmlar hujrani tintish, maktublarni o'qish universitet qog'ozlarini ko'zdan kechirish va qutilarni jildirish bilan mashg'ul ekanlar, Artur karavotining chetida kutib o'tirdi. Tintuvdan xavotirda emasdi, chunki birovni yomonotliqqa chiqara biladigan maktublarni har vaqt kuydirib tashlar edi. Shuning uchun ham, jandarmlar yarim revolutsion, yarim sufiyona bir nechta qo'lyozma she'rdan va «Yosh Italiya»ning ikki-uchta sonidan boshqa mehnatlariga siylov bo'ladigan hech nima topolmadilar.

Yuliya qaynisining talablariga uzoq qarshilik qilgandan so'ng oxiri ko'ndi va Arturga nafrat ko'zi bilan bir qarab olib, yotgani chiqib ketdi. Jems xotiniga itoatkorona ergashdi.

Tomas o'zini parvosiz ko'rsatishga tirishib, qachondan beri u yoq-bu yoq yurib turgan edi; akasi bilan kelinoyisi chiqib ketgandan keyin zabit yoniga kelib, mahbus bilan gaplashishga izn so'radi, rmxsat olgach Arturga yaqin kelib, shosha-pisha to'ng'illadi:

— Juda xunuk ish bo'ldi-da! Yuragim yomon g'ash bo'ldi.

Artur unga ravshan ko'z bilan qaradi.

— Har doim menga mehribon edingiz, — dedi u. — Xavotir qilmang. Boshimni baloga qo'yadigan jiddiy bir nima yo'q.

— Menga qarang, Artur! — Tomas ta'bni tirriq qiladigan savol berishga botinmay, mo'ylovlarini tajanglik bilan burar edi. — Hay, bu g'ishavaning pul ishlariga biron aloqasi yo'qmi? — deb so'radi, nihoyat. — Ha-da, agar aloqasi bo'lsa, men...

— Pul ishlariga deysizmi? Yo'q, albatta. Buning pulga nima aloqasi bo'lsin?..

— Unday bo'lsa, bu siyosiy mashmasha deng? Ilgarilari ham gumon qilib yurardim-a. Xayr, nachora... Xijolat ham bo'lman, Yulianing bema'ni qiliqlariga e'tibor ham qilmang: tilining qandayligini bilasizku o'zingiz. Gap shunday: agar mendan yordam kerak bo'lsa, puldanmi yo'boshqa narsadan — xabar qiling.

Artur indamay qo'l cho'zdi, shundan keyin Tomas, yuziga beparvolik ifodasini berishga tirishib, uydan chiqdi.

Bu orada jandarmalar tintuv qilib bo'ldilar. Zobit Arturdan paltosini kiyib olishni so'radi. Artur iltimosni darrov bajarib, tashqari chiqishga yuzlandi-yu, ikkilanib to'xtab qoldi.

— Sizlar hujradan... sizlar hujradan bir zumgina chiqib turolmaysizlarmi? — deb so'radi u, jandarmalarning biridan. — Qochishga qochib ketolmayman, yashirishga esa bekitadigan hech nimam yo'q.

— Afsuski, chiqib ketolmaymiz: mahbuslarni yolg'iz qoldirish taqiqlab qo'yilgan.

— Xo'p, mayli.

Zobit stol yonida turib, Montanellining suratini ko'rayotgandi.

— Bu qarindoshingizmi? — deb so'radi u.

– Yo‘q, u mening ruhoni otam, Brizigellaning yangi yepiskopi.

Italian xizmatkor xotin zinapoyada xafa bo‘lib, xavotirlanib kutib turardi. Ilgari Arturning onasini qanday yaxshi ko‘rsalar, uni ham shunday yaxshi ko‘rishardi. Mana endi yuzlarida chuqur qayg‘u bilan tevaragida uymalanishar edi. Jian Battista ham shu yerda edi, ko‘z yoshlari oppoq mo‘ylovlariga oqib tushardi. Bertonlardan hech biri mahbusni kuzatishga chiqmadi. Ularning sovuq muomalalari xizmatkorlarning Arturga bo‘lgan sadoqat va muhabbatlarini yana ham ravshanroq ko‘rsatdi, shuning uchun ham Artur o‘ziga cho‘zilgan qo‘llarni qisarkan, ichichidan ta’sirlandi.

– Xayr, Jian Battista, bolalaringizni o‘pib qo‘ying!  
Xayr, Tereza! Xayr, xayr...

U zinapoyadan ko‘cha eshigiga yugurib tushdi.

Bir daqiqadan so‘ng xomush erkaklardan va piq-piq yig‘layotgan ayollardan iborat bir to‘da odam eshik oldida turib, uzoqlashayotgan arava ortidan qarab qoldi.

### Oltinchi bob

**A**rtur nihoyat darajada katta qilib, limanning qoq bo‘yiga solingan o‘rta asr qal’asiga qamaldi. Turma hayoti unga ancha yengil ko‘rindi. Kamerasidagi qorong<sup>1</sup>ilik bilan zaxlik ko‘nglini ancha xijil qilgan bo‘lsa ham, o‘zi eski palassoda<sup>1</sup> o‘sgani uchun, dimiqqan havo ham, kalamushlar ham, sassiq hidlar ham uning uchun yangi bir narsa bo‘lmadi. Turma ovqati yomon bo‘lishi ustiga yana oz berilardi, lekin turmaga zarur narsalarni yuborib turish uchun akasi Jemsga tez orada ruxsat berildi. Artur qamoqda yolg‘iz o‘tirardi; nazoratchilarining muomalasi u kutganday

---

<sup>1</sup> Palasso (*italyancha*) – qasr, alohida qilib solingan hovli.

qattiq bo'lmasa ham, har holda, qamalishining sababiga izoh ololmadi. Bunga qaramasdan, ko'ngli hamon tinchligini yo'qotmagan edi. Kitob o'qishga ijozat bermadilar, shuning uchun hamma vaqt vaqt toat-ibodat bilan, yaxshi niyatlar qilish bilan o'tib turdi.

Artur hodisalarining ketishini chidam bilan, xotirjamlik bilan kutdi.

Kunlardan bir kun soldat kamera eshigini ochib: «Marhamat qiling!» dedi. Artur o'zi bergan ikki-uch savolga: «Gapirish taqiq etilgan» javobini oldi-yu, taqdirga tan berib, hovlilar, yo'laklar va zinapoyalardan iborat butun bir lahim orqali soldat ketidan yurib ketdi. Nihoyat, kattakon, yorug' xonaga yetib keldi; u yerda yashil movut yopilib, ustiga doroz o'yib tashlangan uzun stol orqasida uch nafar harbiy kiyimli odam zerikib, bir-biriga ora-chora gap tashlab o'tirardi. Artur kirishi bilanoq ular darrov ish qilib turgan kishilardek jiddiy tus oldilar; ularning kattasi chekka soqollari oqarib qolgan va olifta kiyangan keksa polkovnik Arturga stolning narigi tomonida turgan stulni ko'rsatdida, Artur o'tirgandan so'ng dastlabki tergovni boshladi.

Artur ulardan do'q va po'pisalar, haqorat va so'kishlar kutgan, shuning uchun chidam va vazminlik bilan javob berishga tayyorlanib qo'ygan edi. Lekin kutgan narsasi bo'lmay, ko'ngli huzur topdi. Polkovnik takabbur, sovuq, idora kishilari singari quruq bo'lsa ham, lekin nihoyatda muloyim edi. Ismi, yoshi, millati, ijtimoiy ahvoli haqida qolipga tushib qolgan savollar berildi. Arturing javoblarini odamning uyqusini keltirib yuboradigan bir xil tartibda yozib bordilar.

Artur zerikib, toqati toq bo'la boshlaganda, polkovnik birdan:

— Qani endi, mister Berton, bizga «Yosh Italiya» haqida bilganlaringizni aytib bering, — deb qoldi.

- Men uning siyosiy jamiyatligini, u jamiyat Mapselda gazeta chiqarib, Italiyada tarqatishligini, bundan maqsad xalqni qo‘zg‘olonga tayyorlash va Avstriya armiyasini mamlakat chegaralaridan quvib chiqarish ekanligini bilaman.
- O‘sha gazetani o‘zingiz o‘qiganmisiz?
- Ha. Mazmuniga qiziqar edim.
- Gazetani o‘qiyotganingizda, qonunga qarshi harakat qilayotganligingiz miyangizga kelarmidi?
- Albatta.
- Uyingizdan topilgan nusxalarini qayerdan olgan edingiz?
- Bunisini sizga aytolmayman.
- Mister Berton, «aytolmayman» deb bo‘lmaydi bu yerda. Hamma savollarimga javob berishga majbursiz.
- Agar «aytolmayman» degan so‘zim sizga yoqmasa, savollaringizga javob berishni istamayman.
- Men bilan shu ohangda gaplashadigan bo‘lsangiz, keyin o‘zingiz pushaymon yeysiz, – dedi polkovnik.

Artur churq etmagach, u so‘zini yana davom ettirdi:

- Yana shuni ham aytib qo‘yayki, sizning jamiyatga bo‘lgan munosabatingiz taqiq qilingan adabiyotni shunchaki o‘qish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan munosabatdan ancha yaqin: qo‘limizda buni ko‘rsatuvchi kuchli dalillar bor. Hamma aybingizga ochiq-oshkor iqror bo‘lsangiz, o‘zingizga yaxshi. Baribir, haqiqat yuzaga chiqadi, ana shunda qashshanglik va o‘jarlik bilan o‘zingizni saqlab qolishga bekor harakat qilganingizni ko‘rasiz.
- Hech bir o‘zimni saqlab qolish niyatim yo‘q. Nimani bilmoqchisiz?
- Avvalo, shuni ayting: siz chet el kishisi bo‘la turib, bunday ishga qanday bosh qo‘sdingiz?
- Men bu haqda ko‘p o‘yladim, shu masalalarga oid kitoblardan qanchasini topgan bo‘lsam, hammasini o‘qib chiqib keyin ma’lum xulosaga keldim.

- Sizni bu tashkilotga kim jalb etdi?
- Hech kim. O‘zim xohladim.
- Siz boshimni qotirayapsiz! – dedi polkovnik, keskin qilib, polkovnikning sabr kosasi to‘la boshlagani ravshan edi. – Birov yordam qilmay turib, hech kim o‘zicha tashkilotga kirmaydi, – dedi u. – Tashkilotga kirish to‘g‘risidagi istagingizni kimga aytgansiz?

Jimlik.

- Marhamat qilib javob bering.
- Yo‘q, bunday savolga javob bermayman.

Artur g‘azab bilan gapirardi. Uni allaqanday asabiy tajanglik qamray boshlagan edi. U Livorno bilan Pizada anchagina odamning qamoqqa olinganini allaqachon bilsa ham, tor-morning haqiqiy miqyosini hali ko‘z oldiga keltirolmas edi. Lekin qulog‘iga yetib kelgan narsalarning o‘ziyoq Jemma bilan boshqa do‘sstlarining taqdirlari haqida juda yomon talvasaga tushirib qo‘ygan edi.

Janob zabitlarning yasama muloyimliklari ko‘ngilni aynitar darajada joniga tegdi, bu so‘z o‘yini, zeriktiruvchi makrli savollar va quv javoblar nayrangi bezor qildi. Artur bu narsalardan charchadi, buning ustiga qorovul eshik orqasida u yoqdan-bu yoqqa yurar, og‘ir dupuri bilan Arturning qulq-miyasini yeyar edi.

Polkovnik mensimay aytgan bir necha og‘iz so‘zdan keyin:

- Aytmoqchi, Giovanni Bolla bilan so‘nggi marta qachon ko‘rishgansiz? – deb so‘radi. – Pizadan jo‘nash oldidanmi?
- Men unday odamni bilmayman.
- Nima, nima! Giovanni Bollani-ya! Siz uni bilasiz, men bu haqda sizni ishontirishim mumkin. Novchadan kelgan yigit, hamisha qirinib yuradi. Axir u ham sizning universitetingizda o‘qiydi-ku.
- Universitetda men tanimaydigan talabalar ko‘p.

— Ammo Bollani tanimay bo'psiz. Mana, ko'ring, uning maktubi. Qarang, sizni qanday yaxshi taniydi u.

Polkovnik sarlavhasiga «Bayonnom» deb yozilib, ostiga «Jiovanni Bolla» imzosi chekilgan bir qog'ozni Arturga parvosizgina uzatdi. Artur uning satrlari ustida ko'z yogurtirib borib, o'z ismiga duch keldi. Ajablanib; ko'zlarini qog'ozdan oldi.

- O'qisam bo'ladimi? — deb so'radi u, polkovnikdan.
- Ha, albatta. Sizga aloqador.

Artur o'qiy boshladi, zabitlar esa uning yuzida ko'ringan o'zgarishlarni jimgina kuzatib o'tirdilar. Hujjat bir qator savollarga berilgan javoblar-ko'rsatmalar bilan to'lgan edi. Demak, Bolla ham qamalgan. Ko'rsatmalarning avvalida hech qanday yangilik yo'q. Ular har tergovda qaytariladigan odatdagi javoblar edi. So'ngra Bollaning tashkilotga aloqasi, taqiq etilgan adabiyotning Livornoda tarqatilishi, talabalar majlislari haqida hisobot berilib, oxirida: «Bizga qo'shilganlar orasida Livornodagi badavlat kema egalari oilasidan chiqqan Artur Berton ismli yosh ingliz ham bor edi», deb yozilgandi.

Arturning yuziga qon urdi. Bolla unga xiyonat qilibdi. Rahbarlik kabi mas'uliyatli bir vazifani o'z zimmasiga olgan Bolla-ya! Jemmani sevgan va uni tashkilotga olib kirgan Bolla-ya! Artur qog'ozni qo'yib, yerga qarab oldi.

- Bu kichkina hujjat miyangizga aniqlik kiritib berar deb umid qilaman, — dedi polkovnik, zaharli qilib.

Artur boshini chayqadi. Keyin, xo'mrayib turib:

- Bunaqa odamni tanimayman, — deb takrorladi. — Bu yerda anglashilmovchilik borga o'xshaydi.

— Anglashilmovchilik? Bekorlarni aytibsiz! Menga qarang, mister Berton, botirligam, shotirligam — yaxshi narsa, lekin haddidan oshirib yubormaslik kerak. Bu hamisha yoshlari qiladigan xato. O'ylab ko'ring: sizga xiyonat qilgan bir kishini ayayman deb behuda ras-

miyatchilik qilish orqasida o'zingizni badnom etishdan va obro'yingizni yerga urishdan nima foyda? Siz to'g'ringizda ko'rsatma berayotganda Bollaning unchalik andisha qilib o'tirmaganiniku o'zingiz ko'rib turibsiz.

Polkovnikning tovushida masxaraga o'xhash bir narsa eshitildi. Bu Artuning jahlini chiqardi. Birdan miyasidan lop etib bir fikr yarq etib o'tdi.

— Yolg'on! Qog'ozingiz qalbaki! Yuzingizdan ko'rib turibman! Siz past odamsiz! Maqsadingizni bilib oldim: siz bitta-yarimta odamni badnom qilmoqchi yo meni qo'lga tushirish uchun tuzoq qo'ymoqchisiz! Siz aldamchi, yolg'onchi, razil odamsiz!

— Jim! — deb qichqirdi polkovnik, o'midan qutirib turayotib.

Ikkala sherigi allaqachon turib olgan edi. Polkovnik ulardan biriga qarab:

— Kapitan Tommasi, — dedi, — nazoratchini chaqiringda buyuring: bu yigitni bir necha kunga karserga solsin. Aqlini joyiga tushirish uchun tarbiyaga muhtoj ko'rindi.

Karser kalamush iniga o'xshardi. Ichi qorong'i, zax va toqat qilib bo'lmaydigan darajada iflos edi. Bularning hammasi Artuni polkovnik xohlaganidek aqlini joyiga tushirish o'rniga qattiq g'azabga keltirdi. U badavlat uyda o'sgandi, bu esa Artuni pokizalikka juda ham e'tibor bilan qaraydigan qilib qo'ygan edi.

Endi u mog'or bosib yotgan yopishqoq devorlarga tegishga, har xil iflos narsalar va axlatlar uyilib yotgan polda turishga, yomg'ir suvlari oqadigan tom karnaylaridan va chirigan daraxtlardan anqigan sassiq hidlarni iskashga majbur edi. Dastlabki taassurot shu qadar kuchli bo'ldiki, haqorat qilingan zabit olgan qasosidan bahuzur qanoatlanishi mumkin edi. Artuni mana shu inga itarib kirgizib, orqasidan eshikni yopganlarida, u yo'lni qo'li bilan paypasladi-da, devorni qoplagan yopishqoq kir-mog'orlar barmoqlariga

tekkanda jirkanib, ehtiyyotlik bilan oldinga qadam tashladi. O'tirishdan avval qorong'ida qo'li bilan timirskilab yurib, polning tozaroq yerini topdi.

Butun kunni qorong'i-zulmatda, chuqur sukonatda o'tkazdi. Kech kirdi, lekin u ham hech qanday o'zgarish keltirmadi. Uni hamon o'sha bo'shliq qurshab yotar edi. Tashqi dunyo bilan tamom aloqasi uzilgani uchun vaqt tasavvurini asta-sekin yo'qotib bordi. Ertasiga eshik qulfida kalit shiqirladi. Kalamushlar qo'rqib, Artur oyoqlari yonidan chiyillashib qochib o'tishdi. Arturni birdan dahshat bosdi. O'midan irg'ib turib ketdi. Yuragi dukurlab urar, quloqlari shang'illar edi. Nazarida ko'p oylar na yorug'ni ko'rgan va na tovush eshitgan kishiga o'xshar edi.

Eshik ochilib, qo'l chirog'inинг zaif yog'dusini karser zulmatini parchaladi. Yorug' Artur ko'zini qamashtirdi. Nazoratchilarning boshlig'i kirdi. U bir burda non bilan bir krujka suv keltirdi. Artur eshikka qarab yurdi. Nazoratchi meni olib chiqib ketgani keldi, deb ishongan edi. Lekin nazoratchi Artur bir nima deyishga ulgurmasdan, non bilan suvni topshirib, indamay chiqib ketdi. Eshik yana yopildi.

Artur depsindi. Umrida birinchi marta o'zini tutolmadi. Soatlar ketidan soatlar o'tib borardi. Vaqt va o'rin tushunchasi uni tark etmoqda edi. Zulmat chegarasiz, boshadoqsiz ko'rinardi. Hayot ham, uning nazarida, to'xtab qolganday edi.

Uchinchi kun kechqurun karseda yana nazoratchi paydo bo'ldi. Endi yonida soldat bor edi. Artur alanglab qaradi. U ko'zlarini yorug'dan yashirib turar va bu zulmatda qancha soat, necha kun yo necha hafta qolib ketganini hisoblashga bekor urinardi.

— Marhamat qiling, — dedi nazoratchi, sovuqqina qilib. Uning ovozida ishga sho'ng'igan kishining tovushidagi ohang bor edi.

Artur xuddi kayfi bor odamdek, qoqinib va tentiraklab, qaltis qadamlar bilan beixtiyor unga ergashdi. Nazoratchi hovlining tik va tor zinapoyasidan chiqishda unga yordam qilmoqchi bo'lgan edi, ko'nmadi. Zinapoyaning eng yuqori pog'onasiga chiqqanda, boshi aylandi. Agar nazoratchi yelkasidan ushlab qolmasa, Artur gandiraklanib borib yiqligan bo'lardi.

\* \* \*

— Bo'ldi, o'tdi endi, — dedi muloyim bir ovoz, — u yerdan toza havoga chiqqanda, hamisha shunaqa bo'ladi.

Uni hushiga keltirish uchun yuziga suv sepishdi, ana shundan keyin Artur zo'rg'a nafas olishga tirishdi. Zulmat uni tark qilarkan, guldirab parchalangandek bo'lib tuyulardi.

Artur o'ziga kelib, nazoratchining qo'lini itarib yubordida, shaxdam qadamlar bilan yo'lak va zinapoyalardan yurib ketdi. Eshik oldiga kelib, biroz to'xtab turishdi. So'ngra eshik ochildi va Artur o'zining qayoqqa olib kelinganini payqab ulgurmasdan yorug' xonaga kirib qoldi. Qog'ozlar uyilib yotgan stolga va odatdag'i o'rinnarida o'tirgan zabitlarga hayron bo'lib qaradi.

— Ha, mister Berton! — dedi polkovnik. — Endi yaxshiroq gaplasharmiz deyman. Xo'sh, karser yoqdimi? Akangizning mehmonxonasiday hashamatli emas-a, to'g'rimi?

Artur ko'zlarini polkovnikning kulumisrab turgan yuziga o'girdi. Chekka soqollar ni oqargan bu oliftaga tashlangisi, uni bo'g'ib o'ldirgisi kelib ketdi. Yuzida xuddi shunga o'xshash bir niyat alomati paydo bo'lgan bo'lsa kerak, polkovnik darhol boshqa ohangda ilova qildi:

— O'tiring, mister Berton, biroz suv ichib oling. Bezovta bo'layotganingizni ko'rib turibman.

Artur o'ziga uzatilgan suv to'la bordoqni itarib yubordi. Stolga tirsagi bilan suyanib, qo'lini peshonasiga qo'ydida,

fikrini bir joyga to'plashga tirishdi. Polkovnik unga razm solib o'tirdi. Uning tajribali ko'zi Artur qo'llaridagi qaltiloqni, lablaridagi titroqni, sochlarning zaxdan iviganligini, ko'zları sulayganligini ko'rib turardi; bular Arturning majoli quriganligidan va asablari buzilganligidan dalolat berardi.

Polkovnik bir necha daqiqa davom etgan jimlikdan so'ng yana gap boshladi:

– Endi, mister Berton, o'sha o'tgan safar to'xtagan joyimizdan boshlaymiz. U gal oramizda kichik bir ko'nigsizlik bo'lib o'tdi. Endi minbad unday bo'lmas deb o'ylayman. Hozir mening birdan-bir tilagim sizga xayrixoh bo'lishdan iboratdir, har holda, men gapimni shuni e'lon qilishdan boshlayman. Agar odob saqlasangiz va mo'min, qobil aqli-hushli bo'lsangiz, sizga qattiq muomala qilishmaydi, bu haqda ham sizni ishontirib aytishim mumkin.

– Menden nima istaysiz?

Artur bu gapni zarda bilan, o'zining tovushiga sira ham o'xshamagan g'azabli bir tovush bilan aytdi.

– Tashkilot va uning a'zolari to'g'risida bilganlaringizni yashirmsandan, samimiyat bilan aytib bersangiz, menga shuning o'zi kifoya. Eng avval shuni aytib bersangiz: Bolla bilan qachon tanishgansiz?

– Men uni hech vaqt ko'rgan emasman. U to'g'risida hech nima bilmayman ham.

– Nahotki? Mayli, bu masalaga yana qaytamiz. Karlo Bini ismli yigitni bilarsiz?

– Eshitgan ham emasman.

– Bu gapingiz juda qiziq bo'ldi-yu. Bo'lmasa, Franchesko Keri to'g'risida nima deysiz?

– Bu ismni endi eshitayapman.

– Lekin bizda o'z qo'lingiz bilan unga yozilgan maktub bor axir. Mana, ko'ring.

Artur maktubga parvosizgina ko‘z tashladi, keyin bir chetga surib qo‘ydi.

- Xo‘sh? Tanimadingizmi?
- Yo‘q.
- O‘z qo‘lingiz bilan yozilganini inkor etasizmi?
- Men inkor qilayotganim yo‘q. Faqat yozganim esimda yo‘q.
- Balki, bunisi esingizdadir?

Unga ikkinchi maktubni berishdi. Artur xatni tanidi: uni kuzda bir talaba o‘rtog‘iga yozgan edi.

- Yo‘q, – deb javob qildi Artur.
- Bu maktub yuborilgan kishini ham bilmaysizmi?
- Bilmayman.
- Esingiz hayron qoladigan darajada qisqa ekan.
- Bu kamchilik menda azaldan bor.
- Qarang-a! Universitet professorlarining biridan eshitishimga qaraganda, siz sira ham zehni past emas ekansiz? Aksincha, sizni juda aqli yigit hisoblashar ekan.
- Siz aql masalasiga politsiya nuqtayi nazaridan qarab gapirayotgan bo‘lsangiz kerak. Universitet professorlari bu so‘zni birmuncha boshqa ma’noda ishlata dilar.

Arturning ovozida kuchayib borayotgan tajanglik ohangi eshitildi. Ochlik, yomon havo va uyqusiz o‘tgan kechalar uni majoldan ketkizgan edi. Butun vujudida og‘riq his etar, har bir suyagi zirqirardi. Polkovnikning ovozi uningsiz ham xarob bo‘lgan asablariga tegar edi, u taxtada kirtillagan toshqalam singari tishlarini zirillatardi.

Polkovnik kursida kerilib o‘tirgan holda:

- Mister Berton, yana haddingizdan oshib ketayapsiz, – dedi. – Sizni yana bir karra ogohlantiraman: bu taxlitda gap qiladigan bo‘lsangiz, oqibati yaxshi bo‘lmaydi. Karsernening nimaligini yetarli darajada bilib chiqdingiz, yana uning gashtini sursam deb o‘ylab turmagan bo‘lsangiz kerak. Ochig‘ini aytib qo‘ya qolay: agar insofga

kelmaydigan bo'lsangiz, sizga nisbatan qattiq choralar ko'raman. Esingizda bo'lsin: men aytgan yigitlardan ba'zilari taqiq etilgan adabiyotni shu yerdagi limanga yashiriqcha keltirish bilan mashg'ul bo'lganlar; bu haqda qo'limda kuchli dalillar bor. Bundan tashqari, siz ular bilan aloqa qilib kelgansiz, bu ham menga ma'lum. Qani, shu ish to'g'risida bilganlaringizni majbur qildirmasdan aytasizmiyo'qmi?

Artur boshini yana ham solintirdi. Basir g'azab, xuddi joni bordek, ichida qimirlardi. O'zini yo'qota boshlagani uni polkovnikning do'stlaridan ham ortiqroq qo'rqtardi. U madaniyatli kishi va yuvosh xristian qiyofasi pardasi tagida nimalar yashirinib yotganini birinchi marta ko'rib, dahshatga tushdi.

- Javobingizni kutib turibman, — dedi polkovnik.
- Sizga beradigan javobim yo'q.
- Javob berishdan qat'iyan bosh tortasizmi?
- Sizga hech nima aytmayman.
- U holda sizni yana karserga qaytartirib, qaroringiz o'zgarguncha o'sha yerda saqlatishga majbur bo'laman. To'polon qilguday bo'lsangiz, kishan soldiraman,

Artur kallasini ko'tardi. Badaniga titroq yugurdi.

- Bilganizingizni qiling, — dedi u, sekin. — Lekin aybi bo'yniga qo'yilmay turib, bir Britaniya fuqarosiga shunday muomala qilinishiga Angliya elchisi yo'l qo'yarmikan?

Arturni kameraga olib ketdilar. U kira solib, o'zini koykaga tashladi va u yerda ertalabgacha uxladi. Unga kishan ham solmadilar, uni dahshatli karserga ham tashlamadilar. Lekin u bilan polkovnik o'rtasidagi dushman-chilik tergovlar jarayonida kuchayib bordi.

Artur o'zida uyg'ongan yomon hislarni yengishga kuch so'rab xudoga sig'inar, lekin sig'inishlari bekor ketardi. Uni movut yopig'liq o'sha stol turgan uzun, qariyb bo'sh xonaga keltirishlari bilanoq polkovnikni ko'rishi va

shopday mo'ylovlariga ko'zi tushishi bilan yana g'azabli bir nafrat qamrab olar, unda xunuk so'zlar aytish, u janobning birinchi savoligayoq qaytarajak jirkanch javob bilan yuziga urish istagi uyg'onar edi. Turmaga tushganiga bir oy ham bo'lmay, ikkalalari orasidagi tajanglik shu darajaga yetdiki, ular bir-birlariga g'azabsiz qarolmaydigan bo'lib qoldilar.

Nihoyatda cho'zilib borayotgan bu og'ir kurashning Artur asablariga ta'sir qilayotgani ochiq-ravshan ko'rina boshladi.

Qotib uqlab qolishdan yo biron narsa yeb qo'yishdan qo'rqib, vahmi kun sayin ortib bordi; u o'zining qattiq ko'z-qulqoq ostida ekanini juda yaxshi bilar va mahbuslardan birontasi valaqlab aytib qo'yishi mumkin bo'lgan gaplarni yozib olish uchun ularga sezdirmasdan belladonna<sup>1</sup> ichirib qo'yisharmish degan mish-mishlar miyasidan ketmas edi. Kechasi yonidan sichqon yugurib o'tsa, o'midan irg'ib turib ketar, butun vujudini dahshat, titroq va ter bosar edi. Unga kameraga birov yashirinib olganday, tushida gapirmasmikan deb poylab yotganday tuyular edi.

Artuning Bolla sirini fosh qila biladigan bironata gapini qo'lga tushirsak, deb jandarmlarning o'lib-tirilishayotganlarini ko'rib turardi. Asablari chindan ham shu qadar tarang ediki, jandarmlar tuzog'iga tushib qolishi hech gap emasdi. Bollaning ismi kecha-yu kunduz qulqlari ostida jaranglaydi. Pok qalb bilan ibodatga berilgan chog'larida ham u nom tilidan tushmaydi va tasbeh o'girib, pichirlab duo o'qirkan, «Bibi Maryam» deyish o'miga yana o'sha nomni beixtiyor aytib yuboradi. Hammasidan yomoni shu ediki, kunlar o'tgan sayin dindorlik kayfiyati ham undan uzoqlashib boradi. Har kun bir necha soatlab ibodat qilar, bu so'nggi tayanchga tish-tirnog'i bilan yopishib olar

---

<sup>1</sup> *Belladonna* – dori qilinadigan o'simlik – giyoh.

edi. Lekin fikr-xayoli tez-tez Bollaga ketib qolar, ibodatlari sovuq, quruq chiqardi.

Turma nazoratchilarining kattasi uning uchun zo'r yupanchiq edi. Jussasi kichkina, yumaloqqina, taqirbosh kishi edi. Dastavval o'zini juda siyosatli qilib ko'rsatishga intiladi. Lekin lo'ppi yuzining har bir chuqurchasida ko'rinish turgan tug'ma mehribonlik xizmatdagi kishi rasmiyatçiligidan ustun keldi. Tez orada kameradan kameraga xat-xabar berib turadigan bo'ldi.

May oylarining o'rtalarida, tushlikdan so'ng, nazoratchi Arturning kamerasiga kirib, unga shunday xo'mrayib qaradiki, Artur hayron bo'lib qoldi.

– Nima gap, Enriko? – dedi u, xitob qilib. – Sizga nima bo'ldi bugun?

– Hech nima, – deb Enriko qo'pol javob qildi, keyin koyka yoniga kelib, Arturning narsalarini yig'ishtira boshladi.

– Narsalarimni nimaga olayapsiz? Meni boshqa kamerasaga ko'chirishyaptimi?

– Yo'q, bo'shatishyapti.

– Bo'shatishyapti? Bugun-a? Butunlay bo'shatishayaptimi?

Artur hovliqib ketib nazoratchining qo'lini ushlab olgan edi, u jerkib tortib oldi.

– Enriko, sizga nima bo'ldi? Gapisangizchi, hamamiz chiqamizmi hozir?

Bunga nazoratchining nafrat bilan ming'illashigina javob bo'ldi.

– Menga qarang, – deb Artur kulumtsirab turib cholling qo'lini ushladi. – Menga ming jahl qilsangiz ham, baribir, xafa bo'lmayman. Undan ko'ra, boshqalar nima bo'ldi, shuni aytинг.

– Boshqalar? – deb to'ng'illadi Enriko. – Bollani so'rayotganingiz yo'qmi mabodo?

— Ha, o'shani ham, boshqalarni ham, Enriko, nima bo'ldi sizga?

— Eh-ha, uni hali-beri bo'shatishib bo'pti. O'z o'rtog'i tuhmat qilipti-ya! Tfu, shunaqayam past odam bo'lar ekan-a!

Enriko shu so'zlardan keyin yana u-bu narsalarga qo'l urdi.

— O'rtog'i tutib beribdi deysizmi? Naqadar yaramas odam ekan! — deb Artur ko'zlarini chaqchayti.

Enriko yalt etib unga qaradi.

— Iye, tutib bergen hali siz emasmisiz?

— Men? Jinni bo'psiz! Men-a?!

— Qaydam, tergovda unga shunday deyishibdi ishqilib, xoin siz bo'lmasangiz, bo'ldi-da, shunisi meni xursand qiladi. Men sizni durust yigit deb yurardim hamisha. Yuring! — shunday deb Enriko yo'lakka chiqdi, Artur orqasidan bordi. Uning birdan miyasi ravshanlashdi, darhol gapning tagiga yetdi va:

— Ha-a, gap bunday deng! Bollaga meni tutib berdi deyishibdi, menga esa Bolla aytdi deyishuvdi, Enriko! Lekin Bolla bunday gaplarga uchadigan esipast odamlardan emas, — dedi.

— Hali rostdanam bo'htonmi bu? — deb Enriko zinapoya pog'onasida to'xtab, Arturga sinovchi ko'z bilan qaradi; Artur hayron bo'lib kift qoqdi.

— Albatta, bo'hton.

— Ana xolos! Bunisiga biz qoyil. Hamma gapingizni Bollaga borib aytaman. Lekin bir gap bor: ular sizni chaquv yetkazgan, deyishibdi... Nima edi? Ha, rashk qilib deyishibdi. Ikkovlaringiz ham bir qizni yaxshi ko'rarmishsizlar.

— Yolg'on — dedi Artur, shoshqaloqlik bilan nafasi tigilib. Uni shol qiluvchi nogahon bir qo'rquv bosdi. — Bir qizni! Rashk qilib? Buni qayerdan bilishibdi? Qanday bilishibdi?

Enriko tergov qilinadigan xonaga kelib, yo'lakda to'xtadi-da, yumshoq qilib gapirdi: – Biroz sabr qiling! Men sizga ishonaman. Lekin bir gap bor, shuni aytib bering-a menga. Bilaman, siz katoliksiz. Tavba mahalida og'zingizdan biron gap chiqib ketgani yo'qmidi?

Artur qichqiriqqa yetib borgan bir ovoz bilan:

– Yolg'on – deb yubordi.

Enriko yelkasini qisib, yurib ketdi.

– Albatta, bu yog'i sizga ko'proq ma'lum. Ana shu taqdirda ham, baribir, bu qarmoqqa ilingan soddalarning birinchisi bo'l maysiz. Hozir Pizadagi bir ruhoni y to'g'risida duv-duv gap yuribdi. Do'stlaringiz uni fosh qilishibdi, josus, ogoh bo'linglar deb varaq bosib chiqarishibdi.

U tergov xonasining eshigini ochdi-da, Arturing qimir etmasdan, ro'parasiga xayolchan qarab turganini ko'rib, ostonadan sekin itarib yubordi.

– Salom, mister Berton, – dedi polkovnik, muloyimgina irjayib. – Sizni tabriklash sharafiga erishganimdan xursandman. Sizni ozod qilish to'g'risida Florensiyadan buyruq keldi. Marhamat, mana bu qog'ozga qo'l qo'ying.

Artur yaqin keldi.

– Aytingchi, – dedi u, tushkun tovushda, – meni sizlarga kim tutib berdi?

Polkovnik kulumsirab qoshlarini chimirdi.

– O'zingiz payqamadingizmi? O'ylab ko'ringchi.

Artur kallasini chayqadi. Polkovnik taajjublanganini muloyim bir ishora bilan bildirdi.

– Payqamayapsizmi? Nahotki? Siz, sizning o'zingiz-ku, mister Berton. Sizning ishq savdoingizni sizdan boshqa yana kim bilishi mumkin?

Artur indamay yuzini o'girib oldi. Devorda yog'ochdan yasalgan kattakon but osig'liq turar edi. Artur unga uzoq tikildi. Lekin bu tikilishda yordam tilab sig'inuvchi kishi nigohi emas, tavba sirini fosh qilgan ruhoni yini

momaqaldoiroq chaqmog'i bilan o'ldirmagan xudoning haddan tashqari sabr-toqatiga ajablanish bor edi.

Polkovnik yumshoqqina qilib:

– Qog'ozlaringizni olganingiz haqida marhamat qilib qo'l qo'ysangiz, – dedi. – Sizni ortiq ushlab o'tirmayman. O'zingiz ham tezroq uyg'a borsam, deb o'ylab turgandirsiz. Mening ham hamma vaqtim o'sha yosh telba Bollaning ishi bilan band. Sizday mo'min bir xristianning boshiga qanday kulfatlar solmadi u! Qattiq jazo olmasa deb qo'rqaman. Xayr.

Artur qo'l qo'yib qog'ozlarini oldi-da, chuqur sukut saqlab chiqib ketdi. Turmaning haybatli darvozlarigacha Enriko orqasidan bordi. Keyin bir og'iz so'z bilan ham xayr ma'zuriashmay, bir o'zi qirg'oqqa tushdi. U yerda kanaldan o'tkazib qo'yish uchun solchi kutib turgan edi. Tosh zinapoya bilan ko'chaga chiqib borayotgan paytida odmi jun ko'ylik kiygan poxol shlyapali qiz ro'paradan quchoq ochib yugurib kelayotgandi.

– Artur! Men naqadar baxtli, naqadar baxtliman!

Artur kutilmagan uchrashuvdan titroqqa tushib, qo'lini tortib oldi.

– Jim! – dedi u, o'ziga yet bir tovush bilan. – Jim!

– Rosa yarim soatdan beri kutib turibman. Sizni soat to'rtida chiqarishadi deyishuvdi. Artur, nega menga bunaqa g'alati-g'alati qaraysiz? Bir nima bo'ldimi? Bu nimasi? To'xtang!

Artur teskari burildi va Jemmani unutganday, ko'chada sekin-sekin yurib ketdi. Uning g'alati qilig'i qizni qo'rqtidi. U Arturning qo'lidan ushlab, orqadan bordi.

– Artur!

Artur to'xtab, qizga alanglab qaradi. Jemma uni qo'lting'idan oldi. Bir necha daqiqagacha gapirishmasdan, yonma-yon bordilar.

– Menga qarang, azizim, – deb muloyim gap boshladi qiz, – bu qayg'uli anglashilmovchilikka achinib, o'zingizni

koyimang. Bilaman, bu sizga nisbatan juda xunuk ish bo'ldi, lekin hamma tushunadiki...

Artur boyagi ma'yus tovush bilan so'radi:

- Qanaqa anglashilmovchilik?
- Bollaning maktubi.

Bu nomni eshitganda, Arturning yuzi bemor kishiniki singari burishib ketdi.

– Siz ham u gapni eshitgandirsiz, – deb qiz davom etdi. – Bolla shunaqa bema'ni o'ylarga borgan bo'lsa, qip-qizil jinni ekan-da.

– Qanaqa bema'ni o'ylar?

– Hali hech gapdan xabarim yo'q deng? Bir yomon xat yozibdiki! Paroxod masalasini siz aytib qo'ygan emishsiz, shuning uchun uni qamashgan emish. Qanday bema'ni gap! Sizni taniydig'anlar buning bekorchi gapligini tushunishadi. Faqat sizni tanimaydig'anlargina g'azablanishi mumkin. Shuning uchun ham bu yerga chopdim; guruhimizda hech kim xatning bir og'iz ham so'ziga ishonmaydi, shuni sizga aytib qo'yay dedim-da.

– Jemma! Lekin bu... bu axir rost!

Qiz o'zini sekkingina nari oldi va toshday qotdi-qoldi. Qoramtil shahlo ko'zlariga dahshat to'ldi. Yuzi bo'yniga bog'lab olgan sharfi singari oqarib ketdi.

Artur nihoyat pichirladi:

– Ha, paroxod... paroxodni aytganman, Bollaning nomini ham tilga olganman. Yo parvardigor! Yo parvardigor! Endi nima qilsam ekan?!

Artur birdan o'ziga keldi. Endi u qizning yonida ekanini ravshan sezar, qiz yuzidagi dahshatni ko'rib turardi. Ha, chindan ham dahshatli! Qiz, bo'lsa-bo'lmasa...

– Jemma, mening gapimga tushunmadingiz!

Artur qiz tomon bir qadam tashladi. Qiz esa keskin qichqiriq bilan orqaga sakradi:

– Menga tega ko'rmang!

Artur jo'shib, qizning o'ng qo'lini ushlab oldi.

- Quloq soling, xudo haqi! Ayb menda emas... men...
- Qo'ying meni o'z holimga! Qo'limni qo'yvoring!

Qo'yvoring deyman!

Shundan keyin qo'lini tortib oldi-da, yigit yuziga shapaloq tortib yubordi.

Arturing ko'z o'ngini quyuq tuman qoplab oldi. U bir daqiqagacha o'z oldida Jemmaning g'azabga to'liq qonsiz yuzidan va ko'ylagining etagiga artayotgan qo'lidan boshqa hech nima ko'rmadi. Keyin tuman tarqaldi... U tevaragiga qaradi – yolg'iz qolgan edi.

### Yettinchi bob

**A**rtur Via-Borra ko'chasidagi kattakon uyning tashqi eshigini qoqqanda butunlay qorong'i tushib qolgan edi. Ko'chalarda daydigani esida bo'lsa ham, lekin qayerlarda, qancha vaqt va nega daydiganini hech eslay olmasdi. Artur zinapoya bilan yuqoriga chiqib, birinchi qavatda Jibbonsga yo'liqdi; u yuzida ta'na alomati bilan kerilib, tushib kelayotgan edi. Artur, odatdagicha, «salom» deb Jibbons yonidan lip etib o'tib ketmoqchi bo'lgandi. Lekin Jibbons xohlamaganda yonidan o'tib ketish oson emas edi.

U Arturing kir ust-boshiga va to'zg'ib yotgan sochlari jirkanib qararkan:

– Xo'jayinlar uyda yo'q, ser, – dedi. – Hammalari mehmondorchilikka ketishgan, soat o'n ikkidan oldin qaytishmaydi.

Artur soatga qaradi. Endi o'n bo'lgan edi. Ha! Vaqti yetib ortadi. Xonim: ovqat yemasmikan, so'ragin degandilar, ser. Undan keyin, men qaytguncha yotmay tursin deb tayinladilar, siz bilan gaplashadigan zarur gaplari bor ekan.

– Rahmat, Jibbons, ovqat yemayman. Xonimingizga aytib qo'ying: u kelguncha yotmayman.

Artur o‘z hujrasiga ketdi. U Artur qamalgan kuni qanday bo‘lsa, hozir ham xuddi shunday edi. Montanellining surati Artur qo‘ygan joyda, stolda yotar, but esa burungiday mehrobda turar edi. U xalaqit berayotgan bormi-yo‘qligini bilgisi kelganday ostonada bir daqiqagina to‘xtab, quloq soldi. Ehtiyyotlik bilan bir necha qadam tashlab xonaga kirdi-da, ichkaridan berkitib oldi.

Shunday qilib, hamma narsa tamom. O‘ylab o‘tirishga ortiqcha hojat ham yo‘q. Faqat keraksiz va ko‘ngilsiz fikrlardan qutulib olsa bo‘lgani, keyin... tamom. Lekin bu naqadar bema’nilik, maslaksizlik!

Unda o‘z-o‘zini o‘ldirish to‘g‘risida aniq bir qaror yo‘q edi. U buni uncha o‘ylamas edi ham, shunday bo‘lsada, o‘lishi muqarrardek ko‘rinardi. O‘z-o‘zini qanday o‘ldirishini aniq-taniq tasavvur ham qilmas edi. U o‘zini tezroq o‘ldirishga, o‘z masalasini hal qilib, o‘ylardan qutulishga shoshilardi. Hujrada hech qanday quroq, hatto qalamtarosh ham yo‘q. Ammo buning ahamiyati qancha! Sochiq yoki parcha-parcha qilib yirtilgan choyshab bo‘lsa kifoya-ku!

Derazaning qoq ustida kattakon mix bor edi. Arturing miyasidan: «Chakki emas» degan fikr o‘tdi. Lekin u odam og‘irligini ko‘tara oladigan darajada mahkam bo‘lishi kerak. Artur stulga chiqib, osilib ko‘rdi – mix mahkam edi. Ana shundan keyin stuldan tushdi, qutidan bolg‘ani oldi, mixga bir necha marta urdi, keyin o‘rnidan choyshabni olaman deb turganda, birdan ibodat qilmagani esiga tushib qoldi.

U mehrobga borib but oldida tiz cho‘kdi.

– Yo qudrat va mehr-u shafqat sohibi xudo!

Artur baland ovoz bilan munojot boshladi-yu, ortiq bir og‘iz ham so‘z qo‘sholmay to‘xtab qoldi. Hayot endi unga shu qadar qorong‘u ko‘rinardiki, unda ibodat qilib so‘ragulik biron narsa qolmagan edi.

Artur o'midan turdi, eski odatini qilib, cho'qindi. Keyin stol yoniga kelib, Montanelli qo'li bilan o'z nomiga yozilgan maktubni ko'rди. Maktub qalam bilan yozilgan edi.

Maktubda shunday deyilgan ekan:

«Jon bolam! Ozod qilingan kuningda sen bilan ko'risha olmaganim uchun qattiq xafaman. Meni jon berayotgan bir kishi yoniga chaqirib ketdilar. Yarim kechagacha kelolmayman. Ertaga ertalab barvaqtroq mening oldimga kel».

Imzo: L.M.

U xo'rsinib maktubni joyiga qo'yib qo'ydi. «Bechora padre» deb o'yladi.

Ko'chalarda esa odamlar kulishar, chaqchaqlashardilar. U hayot ekanligidan beri dunyoda hech bir narsa o'zgarmagan. Har kun tevaragida ko'rib kelgan ikir-chikirlardan bittasi ham o'zgarmagan; odam qalbi, tirik inson qalbi o'zgalar darajasida barbod qilingan bo'lsa ham boshqa tus olmagan. Hamma narsa ilgarigicha. Favvoralarda suvlari g'ishlab otiladi, piramonlarda chumchuqlar chirqillashadi, kecha ular qanday chirqillashgan bo'lilar, ertaga ham yana shunday chirqillashadi... Artur bo'lsa... Artur o'lgan edi. Artur karavoti chetiga osilib tiz cho'kdi, qo'llarini uning panjarasiga xoch shaklida tashladi, boshini qo'llariga qo'ydi.

Tashqi eshikning qo'ng'irog'i keskin jiringladi. U vahima kuchliligidan nafasi tiqilib, irg'ib o'midan turdi va ikki qo'llab bo'g'iziga yopishdi. Kelishdi, u bo'lsa qimmatli fursatni qo'ldan boy berib, mudrab o'tiribdi. U o'zini o'ldirmadi, mana endi ularning yuzlarini, nafratlanib qiladigan zaharxandalarini ko'radi, yovlashuvchi ovozlarini, yuraklarni qon qiluvchi ta'nalarini eshitadi. O, koshkiydi, loaqal qalamtarosh bo'lsa!..

Artur shoshib-pishib uyga ko‘z yogurtirdi. Stolchada onasining ish savati turgan edi. «Ichida qaychi bo‘lsa kerak, – degan o‘y keldi miyasiga. – Tomirni o‘sha bilan ham kesish mumkin. Yo‘q, choyshab bilan mix bop, ishqilib, vaqtim yetsa bo‘lgani».

Artur o‘rnidan choyshabni tortib oldi-da, telbalarcha shoshib, uzunasiga yirta boshladı. Zinapoyada oyoq tovushlari eshitildi. Yo‘q, choyshabni keng yirtib yuboribdi: qattiq chigib bo‘lmaydi; hali sirtmoq ham qilish kerak. U shoshib qoldi. Dupur yaqinlashmoqda edi. Chekkalarida qon urar, quloqlari shuvullar edi. Tezroq, tezroq! Yo xudo! Yana besh daqiqagina!

Eshik taqilladi. Yirtilgan choyshab qo‘llaridan tushdi. Nafas olmaslikka tirishib, quloqlarini ding qilib, qimir etmay qoldi. Eshik sopi buraldi. Keyin Yuliyaning tovushi eshitildi:

– Artur!

Artur nafasini zo‘rg‘a-zo‘rg‘a olib, o‘rnidan turdi.

– Artur eshikni oching. Kutib qoldik.

U choyshab yirtiqlarini yig‘di, yashikka soldi va shoshib o‘rinni tuzatdi.

– Artur! – bu eshik sopini chidamsizlik bilan tortayotgan Jemsning tovushi edi. – Uxlayapsizmi? Artur uyga bir ko‘z yogurtirib chiqib, eshikni ochdi.

Yuliya quturib uyga kirib kelarkan:

– Gapimni ikki qilmay, kelgunimizcha o‘tirib tursangiz bir nima bo‘lib qolmas edingiz-ku, Artur! – dedi zaharli qilib. – Eshik tagida yarim soat qaqshab tursin, keyin ochaman degansiz-da.

Jems Yuliyaning pushti rang uzun atlas etagi orqasidan kirib kelayotib, xotinining yolg‘oniga qo‘rqib-pisib tuzatish kiridi:

– Faqat to‘rt daqiqagina, jonim. Haqiqatdan ham, Artur, biroz andisha...

- Nima kerak sizlarga? — deb Artur uning so‘zini bo‘ldi.  
Mister Berton xotiniga stul qo‘ydi; keyin yangi kiygan shiminining tizzasini avaylab o‘zi ham o‘tirdi.
- Yuliya ikkalamiz, — deb gap boshladи u, — siz bilan jiddiy gaplashib olishni o‘zimizning burchimiz deb bilamiz, shuning uchun...

— Hozir gapingizni eshitolmayman. Mening... mening mazam yo‘qroq. Boshim og‘riyapti... Keyin gaplasharsizlar...

Artur ora-sira duduqlanib, g‘alati, bo‘g‘iq tovush bilan gapirdi.

Jems unga hayron bo‘lib qaradi.

— Sizga bir nima bo‘lgani yo‘qmi? — deb so‘radi u, xavotirlanib. Arturning har xil kasallar yuqumi bijillab yotgan yerdan kelganligi birdan esiga tushib ketgan edi. — Kasal-masal bo‘lib qolganingiz yo‘qmi haytovur? Ahvolingizdan xuddi bezgakka o‘xshaysiz.

— Bekor gap! — dedi Yuliya, uning so‘zini bo‘lib. — Bu odadagi nayrangbozlik! Yuzimizga qarashga beti shuvutlik qilayapti, xolos. Bu yoqqa keling Artur, o‘tiring. Artur sekin-sekin yurib borib, o‘rniga o‘tirdi.

— Xo‘s? — dedi u, horg‘in tovushda.

Mister Berton tomog‘ini qirib yo‘taldi, keyin shunday ham silliq bo‘lib turgan soqolini siladi-da, puxta qilib tayyorlagan so‘zini davom ettirdi:

— Sizning juda ham kelishmagan xulqingiz to‘g‘risida hamda qonun buzarlar... janjalkashlar va... shular singari odamlar bilan bo‘lgan... aloqalaringiz to‘g‘risida gaplashib olishni o‘zimning burchim... og‘ir burchim deb hisoblayman. Bu narsalarni beboshlik orqasida emas, yengiltaklik orqasida qilgansiz, men bunga ishonaman...

Jems to‘xtadi.

— Yana? — dedi Artur.

Jems Artur yuzidagi horg‘inlik va umidsizlik nishonalarini ko‘rdi-yu, ixtiyorsiz yumshalib davom etdi:

– Xullas, men sizga zulm qilmoqchi emasman. Menga qolsa, sizni yomon o'rtoqlaringiz yo'ldan ozdirgan degim bor, shu bilan birga yoshligingizni, tajribasizligingizni, xo'sh... haligi... haligi... yengiltaklik va ta'sirchanligingizni jonim bilan e'tiborga olaman; ta'sirchanligingiz onangizdan meros qolmaganmikan degan hadikdaman.

Artur ko'zlarini sekin onasining surati tomonga burdi, lekin hech nima demadi.

Jems yana davom etdi:

– Lekin o'zingiz tushunasiz, albatta: bizni hamma hurmat qiladi, shunday bo'lgandan keyin bizga isnod keltirgan kishining mening uyimda turishiga sira toqat qilolmayman.

– Yana? – deb Artur yana boyagi so'zini takrorladi.

Yuliya yelpig'ichini sharaq-shuruq taxlab va uni o'z tizzasiga otaturib, shang'illadi:

– Bu nimasi! Artur, ana shu: «Yana, yana»dan boshqa ham biron narsa aytasizmi-yo'qmi?

– Nimani ma'qul ko'rsangiz, shuni qilaverishingiz mumkin, albatta, – deb javob qildi u, so'zlarni terib, qimirlamay o'tirib. – Ma'qul ko'rgan narsangizning esa men uchun ahamiyati yo'q. Artuming javobi Jemsni qattiq ajablantirdi.

– Ahamiyati yo'q? – dedi u cho'zib.

Xotini xaxolab stuldan turib ketdi.

– Hali shunaqami? Mayli, mayli! Jems, bundan qanaqa minnatdorchilik kelishini ko'rgandirsiz endi?

– Papachi qiliviri xotinlarga, ularning haromilariga yonbosishning oqibati qanaqa bo'lishini aytuvdima sizga.

– Sekinroq, sekinroq! Qo'ying, jonim...

– Bema'nilik bu, Jems! Shirin so'zlikning ham o'mida qilish kerak edi, biz haddidan oshirib yubordik. Juda nari borsa, oilamizga a'zoman deb suqilib kirib olgan bitta haromi-da! Bas, onasining qanaqa xotinligini bilib qo'ysin endi! Katolik popining o'g'lini shuncha arzanda qilishning nima keragi bor ekan? Mana: o'qing!

Yuliya cho'ntagidan g'ijimlangan bir varaq qog'ozni olib, stol orqali Arturga irg'itdi. Artur qog'ozni ochib, onasining qo'lini tanidi.

Sanasidan ma'lum bo'lishicha, maktub Artur tug'ilmasdan to'rt oy burun yozilgan edi. Maktub onasining eriga qilgan e'tiroflaridan iborat bo'lib, ostida ikki kishining imzosi bor edi.

Artur sahifaning oxiriga yetguncha ko'zlarini satrdan satrga sekin-asta ko'chirib bordi; sahifaning oxirida esa onasining qo'li bilan yozilgan shikasta harflardan so'ng «Lorenzo Montanelli» degan puxta imzo turar edi. Artur qog'ozga bir necha daqiqa serrayib qarab turdi. Keyin indamay varaqni taxlab, stolga qo'ydi.

Jems o'midan turib, xotinining qo'lidan ushladi.

— Bas endi, Yuliya. Tushing pastga, vaqt ham ketib goldi. Mening Artur bilan gaplashadigan biroz gapim bor.

Yuliya etagini yig'ishtirib uydan chiqib ketgandan so'ng Jems eshikni yaxshilab berkitdi-da, stol yonida turgan stulga qaytib kelib o'tirdi.

Artur boyagiday qimir etmay, bir og'iz ham so'z aytmay o'tirardi.

— Artur, — Jems mayin tovushda gapira boshladи (endi uning gapini Yuliya eshitmas edi). — Attang, juda xunuk ish bo'ldi. Bu gaplarni asli bilmasangiz bo'lardi. O'zingizni bardam tutganingizni ko'rib juda xursand bo'ldik. Yuliya tezlik qildi... Ko'pincha xotin kishi... Xo'p, buni qo'yib turaylik. Men sizga zulm qilmoqchi emasman... — U yumshoq ko'ngillik bilan aytayotgan gaplari qanaqa ta'sir qilganini bilish uchun biroz to'xtab oldi.

Artur ilgarigiday qimirlamay o'tirar edi.

— Albatta, bu juda xunuk voqeа, jon ukam, — deb Jems qisqagina pauzadan so'ng gapini yana davom etirdi, — lekin bu haqda og'iz ochmay qo'ya qolgan yaxshi

edi. Mening otam juda olıyanob odam edi, onangiz qilgan xiyonatini bo'yniga olgandan keyin ham ajrashib ketmadı. Faqat onangizni yo'ldan urgan odamning Italiyadan darhol chiqib ketishini talab qildi, xolos. O'zingiz bilasiz, u Xitoya missioner bo'lib ketdi. Xitoydan qaytgach, siz bilan ko'rishib turishiga men shaxsan qarshi turdim. Otam so'nggi kunlarigacha Montanellining sizni tarbiya qilish masalalari bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yib keldi, lekin onangiz bilan ko'rishmaslikni shart qilib qo'ydi. Ularga qoyil qolish kerak – to oxirigacha bu shartni hech-hech buzmadilar. Bular – odamni xafa qiladigan narsalar, lekin...

Artur kallasini ko'tardi. Yuzidan hayot nishonasi batamom ketgan, mumdan yasalganga o'xshab qolgan edi.

– B-bu n-nars-salar, s-sizga jud-da qiziq; t-tuyil-mayaptimi? – dedi u, g'alati duduqlanib, yumshoq qilib.

– Qiziq deysizmi? – Jems stulni stol yonidan nariga surdi va Arturga anqayib qarab qoldi, jahunga o'rin qolmagan edi. – Qiziq deysizmi, Artur? Nima balo, jinni-minni bo'lganmisiz!

Artur birdan boshini orqaga tashlab, qattiq xaxolab yubordi.

– Artur! – deb qichqirdi hurmatli kemalar xo'jayini, stuldan kerilib turayotib. – Sizning yengiltakligingiz meni hayron qoldiradi.

Javob bo'lmadi, balki tutib bo'lmaydigan, biridan biri qattiqroq qahqaha ko'tarilaverdiki, Jems bu yerda shunchaki yengiltaklikdan ortiqroq narsa yuz bermaganmikan, deb gumon qila boshladı. Keyin u:

– Xuddi jazavasi tutgan xotinning o'zi-ya! – deb ming'illadi-da, nafratlari bir alpozda kiftlarini qoqib, teskari qarab oldi, keyin tajang bo'lib uyda u yoq-bu yoq yura boshladı. – To'g'risini aytsam, Artur, Yuliyadan ham badtarsiz. Bas qiling kulishni! Kulgingiz qachon to'xtarkan deb, kechasi bilan poylab o'tirolmayman, axir!

Jems xuddi shu muvaffaqiyat bilan butga murojaat qilishi va undan pastga tushishini iltimos qilishi mumkin edi. Artur hozir o'git va nasihatlarga kar edi. U hamon kular, to'xtamasdan kulardi.

— Bu nodonlik, — dedi Jems, u yoq-bu yoqda yurishini to'xtatib. — Chamamda asablaringiz juda balandparvoz ko'rindi: shunday paytda o'zingizni og'irroq ham tutolmaysiz-a. Hadeb shunday qilaversangiz, siz bilan ish to'g'risida gaplasholmayman. Ertaga nonushtadan keyin yonimga keling. Hozir, yaxshisi, yotib uxlang. Xayr.

Jems eshikni yopib, chiqib ketdi.

— Endi jazava pastda bo'ladi, — deb ming'illadi u, zinapoyadan pastga og'ir-vazmin tushib borayotib. — U yerda ko'z yoshlari ham bo'lsa kerak hali.

\* \* \*

Artunning telbalarcha kulgisi birdan to'xtadi. Stolda yotgan bolg'ani olib, mehrobdag'i butga xezlanib bordi.

Taraqa-turuq eshitildi. U hushiga keldi. Mehrob bo'shagan, bolg'a qo'lida turgan edi.

Pachaqlangan butning sinqlari polda, oyoqlarining ostida yotardi.

Bolg'ani otib urdi. Keyin:

— Qanday oson ekan! — deb yuzini o'girib oldi. — Men bo'lsam... Toza ahmoq bo'lib yurgan ekanman! — Nafasi tiqilib, stol yonidagi stulga o'zini tashladi, kallasini qo'llari orasiga olib qisdi. Keyin o'rnidan turib, qo'l yuvgichga keldi-da, boshiga bir choygum sovuq suv quydi. Tinchidi, keyin boyagi yeriga qaytib, o'yga cho'mdi.

U ana shu yolg'onchi odamlar, qul bo'lib qolgan max-luqlar tufayli uyat, g'azab va alam azoblarini tortdi!.. Arqon tortdi, o'zini osmoqchi bo'ldi, chunki cherkov xizmatidagilardan birialdoqchi bo'lib chiqdi. Go'yo ularning hammasi rostgo'ydek! Bas, bo'lar ish bo'ldi. Endi

aqli joyiga tushdi. Endi egnidagi bu qabohatni yo‘q qilib tashlash va yangi hayot boshlash kerak.

Doklarda dengiz kemalari ko‘p. Ulardan birontasiga yashirinib olish va boshi oqqan tomonga jo‘nab ketish qiyin emas. Kanadagami, Avstraliyagami, Janubiy Afrikagami – baribir emasmi? Qaysi elga borsa ham hechqisi yo‘q, ishqilib, nariroq ketsa bo‘lgani. U yerda bir ish qilib kuni o‘tib qolar, yoqmasa – boshqa yerga ketadi qo‘yadi.

Artur kartmonini oldi. Ichidan o‘ttiz uch paoli<sup>1</sup> chiqdi. Hech boisi yo‘q, qimmatbaho soati ham bor-ku! Asliga qaraganda, bular hech ham kerak emas, bir amallab evini qiladi. Bu yerdagi odamlar qidirishadi, doklarga kelib surishtirishadi yo‘q, ularni chalg‘itish kerak.

Arturni o‘lgan deb ishonishsin. Ana shundagina erkini topadi, qush kabi erkin bo‘ladi. U Berthonlarning o‘z o‘ligini qidirayotganlarini ko‘z oldiga keltirib, sekin kulib qo‘ydi. Qanday masxarabozlik-a bu!

U bir varaq qog‘oz olib, miyasiga kelgan birinchi so‘zlarni yozdi: «Men sizga xudoga ishonganday ishonar edim. Siz bo‘lsangiz, umr bo‘yi menga yolg‘on gapirib kelgan ekansiz».

Artur qog‘ozni taxlab, ustiga Montanellining manzilini yozdi. Boshqa bir varaqda: «Jasadimni Darsen daryosidan qidiringlar» deb yozdi. Keyin shlyapasini kiyib, uydan chiqdi. Onasining surati yonidan o‘ta turib, unga bir qaradi, achchiqquina kulib, yelkalarini qisib qo‘ydi. Axir u Arturni aldab kelgan edi!

Artur yo‘lakda sharpasiz odimlar bilan yurib borib, eshik dambasini ochdi-da, har sharpani aksi sado bilan eshittiruvchi qoramtil marmar zinapoya oldidan chiqdi.

U pastga tushib borarkan, oyoqlarining ostida bahaybat quduq yiltirab ko‘rinayotgandek tuyular edi.

<sup>1</sup> Paoli (*italyancha*) – tanga.

Artur pastki qavatda yotuvchi Jian Battistni uyg'otib yubormaslik uchun iloji boricha sekin yurishga tirishib, hovlidan o'tdi. O'tin saroyining orqa devorida panjaralı deraza bor edi. U yerdan to'rt futcha balandlikda bo'hb, kanal tomonga ochilar edi. Artur shu derazani esladi, zang bosgan panjaraning bir yeri siniq edi – shu esiga tushdi. Panjarani kengaytirib, orasidan o'tsa bo'lardi. Lekin panjara mahkam ekan. Qo'llarini tilib, yenglarini yirtib oldi. Axiri ko'chaga chiqib, atrofiga qaradi. Ko'chada zog' uchmasdi. Qora kanal adl ketgan sirg'anчиq devorlar orasida xunuk yoriqdek jimgina oqib yotardi. U ko'rмаган, bilmagan dunyo qop-qorong'i xandaq bo'lib chiqishi mumkin; ammo u yerda Artur tashlab ketayotgan dunyodagi qadar pastlik, ifloslik topilmas. Achingulik, qarab turgulik hech nima yo'q. Orqada hayotning iflos yolg'onlar, qo'pol aldovlar va sassiq hidlar bilan to'lib yotgan, hatto odamni ko'mib tashlashga ham sayozlik qiladigan turg'un botqog'i qolayotir.

U Medichi<sup>1</sup> qasri oldidagi kichkina maydonchaga chiqquncha, kanal bo'yida shularmi o'ylab bordi. Jemma yuzi sevinchdan porlab, quchoqlarini ochib, uning qarshisiga shu yerda yugurib kelgan edi. Mana kanalga tushiladigan ho'l, tosh pog'onalar. Ana qal'a iflos suv yuzida xo'mrayib turibdi.

Artur tor ko'chalar bilan yurib borib Darsenaga chiqidda, boshidan shlyapasini olib, suvgaga tashladi. O'ligini izlashganda, shlyapani albatta topishadi. Keyin, nima qilsam ekan deb, qirg'oq bo'ylab ketaverdi. Kemalardan birontasiga berkinib olish chorasini o'ylash kerak edi. Berkinib olish uncha oson emas. Hozircha qo'lidan keladigan birdan-bir ish – qadimgi azamat Medichi to'g'oniga borish va uni bo'ylab ketishdir. U yerda bitta mayxona bor, zora bironta matrosni topib, qo'lga olsa...

---

<sup>1</sup> Medichi – Florensiya hukmdorlarining qadimgi avlodи.

Dok darvozasi berk edi. Endi qanday kiradi, bojxona chinovniklariga ko‘rinmay qanday o‘tadi? Puli bo‘lsa juda oz, ozgina pul bilan dokka o‘tkazishib bo‘pti! Kechasi o‘tkazishadigan bo‘lishsa, haqni ko‘p olishadi, buning ustiga pasporti ham yo‘q hali tanib qolishlari ham mumkin.

Bronzadan ishlangan To‘rt mavr haykali<sup>1</sup> yonidan o‘tib ketayotganda narigi yoqdagi eski uydan bir kishi chiqdi. U ko‘prik tomonga kelayotgandi. Artur o‘zini darhol haykal orqasidagi quyuq ko‘lkaga oldi-da, qorong‘ida o‘tirib, supa chetidan mo‘ralab turdi.

Javhar yanglig‘ tiniq oq bulutlar qoplagan va yulduzlar charaqlab turgan osmonda kemalar qorasigi ko‘zlarga yaqqol chalinadi; ular zanjirlarini irg‘itib tashlashga chog‘langanday ko‘ringan kishanband qo‘llar qorasiga o‘xshab ketadilar. Haligi uydan chiqqan kishi qirg‘oqqa taytanglab va inglizcha ko‘cha ashulalaridan birini tomog‘ini yirtar darajada baqirib aytib borar edi. U aftidan, ichkilikdan mast bo‘lib kelayotgan matros edi. Tevarakda hech kim yo‘q edi. Artur yaqinlashganda dengizchi ashulasini to‘xtatib, so‘kindi, keyin o‘zi ham to‘xtadi.

– Sizga gapim bor, – dedi Artur, italyancha qilib. – Tilimga tushunayapsizmi?

Matros boshini chayqadi.

– Menga g‘alcha tilida gapirishdan foyda yo‘q, – dedi u, inglizcha qilib. Keyin fransuz tilining xunugini chiqarib, zarda bilan so‘radi: – Nima gapingiz bor menga? Yo‘limni nimaga to‘sasiz?

– Bir daqiqaga bu yoqqa keling. Sizda gapim bor.  
– Ha-a, shunaqa deng! Pichoq-michog‘ingiz ham yo‘q emasdир?

<sup>1</sup> *To‘rt mavr haykali* – Livornodagi Toskan gersogi Fernando I Medichining haykali. Shu haykal supasiga bronzadan yasalgan to‘rt mavr gavdasi kishanlangan.

– Yo‘q, yo‘q, sizga nima bo‘ldi? Sizdan yordam olmoqchimanku, ko‘rayotganingiz yo‘qmi? Haqini to‘layman.

– A! Nima-a? Ust-boshingiz juda bashangku!

Dengizchi yana inglizcha gapirdi. Keyin soyaga o‘tib, haykal panjarasiga suyandi.

– Xo‘sish? – U endi o‘zining fransuzchasiga ko‘chdi. – Nima qil deysiz?

– Shu yerdan jo‘natib yuborsangiz meni.

– Ana xolos! Yashirinmoqchisiz-da, a! Nima, meni berkitib qo‘y deysizmi? Bir balo ish qilib qo‘ygansiz deyman-da. Bitta-yarimtani sevib qoldingizmi? Bu yer-lilarning barisi ham shunaqa! Qayerga qochmoqchisiz? Politsiya uchastkasiga emasdир, har holda, a?

U mastlarcha kulib, bir ko‘zini qisib qo‘ydi.

– Qaysi kernadansiz?

– «Karlotta»dan. Livornodan Buenos-Ayresga qatnaydi. U yoqdan yog‘ keltirib, bu yoqdan ko‘n olib ketadi. Hu anavi yerda turibdi, – matros barmog‘ini bigiz qilib tosh devor tomonni ko‘rsatdi. – Rasvosi chiqib ketgan eski tog‘ora.

– Buenos-Ayresga boradi dedingizmi? Kemangizning biron yeriga berkitib qo‘ysangiz meni.

– Necha pul berasiz?

– Ko‘p berolmayman. Atigi bir necha paoli pulim bor xolos...

– Yo‘q, ellik paolidan kamiga bo‘lmaydi. Sizdaqa oliftaga hali bu ham oz.

– Kiyimim yoqqan bo‘lsa, mayli, alishtiraylik. Qo‘limda boridan ortiq pul berolmayman axir.

– Soatingiz borku. Bering-qo‘ying-da.

– Artur juda nozik qilib sirlangan zaifona tilla soatini chiqardi. Orqadagi qopqog‘iga «G.B.» harflari o‘yilgan edi. Soat onasiniki edi. Endi baribir emasmi?

– Ha-a! – deb qichqirib yubordi matros, soatga o‘zini urib. – O‘g‘irlilik, a? Qani, bir ko‘raychi!

Artur uning qo'lini itarib tashladi.

— Yo'q, buni kemaga chiqqanimizda beraman, oldin bermayman, — dedi u.

— Aqli yo'qqa o'xshaysiz-u, lekin ishingiz pishiq. Mayli, garov o'ynayman: bu sizning birinchi ovingiz. Rost-a?

— Unisi bilan ishingiz bo'lmasin. Uh! qo'riqchi kelayapti.

Qo'riqchi o'tib ketguncha, haykal orqasida pisib turishdi. Keyin matros qaddini rostladi-da, Arturni orqasidan ergashtirib, o'zi oldinda ketdi, miyig'ida mastlik bilan tirjayib bordi. Artur orqada indamay borardi. Matros uni Medichi qasriga tutashgan kichkina qing'ir maydonchaga qaytarib keldi. Shu yerda qorong'i burchakda to'xtab, maxfiy gapni aytayotgandagi singari, sirli qilib pichirladi:

— Shu yerda kutib turing.

— O'zingiz qayerga ketayapsiz?

— Kiyim-piyim topib kelay. Shu yengingizning qoni bilan olib ketib bo'lmaydiku sizni! Artur deraza pardasi yirtib yuborgan yengiga qaradi. Tilingan qo'lidan yengiga bir necha tomchi qon tomgan ekan. Shuning uchun u kishi buni odam o'ldirgan deb o'ylagan bo'lsa kerak. O'ylasa nima? Odamlar nima o'ylashsa o'ylashaversin, bu bilan Arturning nima ishi bor?..

Birozdan keyin matros qaytib keldi. Avzoyi tantanali ravishda edi. Qo'ltig'ida tuguncha.

— Kiyimlaringizni o'zgartiring, — deb pichirladi, — tezroq bo'ling! Kemaga yetib borishim kerak.

Artur kiyimlarini o'zgartira boshladi. Badaniga eski kiyimlar tekkanda, jirkanib, junjikdi. Baxtiga, kiyimlar qo'pol va beso'naqay bo'lsa ham, lekin ancha toza edi. Artur o'zgartirgan kiyimlari bilan yoruqqa chiqqanda, matros unga mast kishi tantanasi bilan qarab, «Juda soz» deganday, kallasini qimirlatib qo'ydi.

– To‘g‘ri keldi, – dedi u. – Ketdik. Lekin sharpasiz yuring.

Artur yechib tashlangan kiyimlarini qo‘liga olib, qorong‘i, tor ko‘chalarda va ilonizi bo‘lib oquvchi kanal lahimlarida matrosga ergashib bordi.

Matros ko‘prikcha oldida to‘xtadi. Keyin birov sezib qolmadimikan deb u yoq-bu yoqqa qaradi-da, tosh zinapoya bilan tor limanga tushdi. Ko‘prik tagida bitta iflos qayiq chayqalib turardi. Matros: «Qayiqqa irg‘ib tushingda, ostiga yotib oling» deb Arturga qo‘pol tarzda buyurgach, o‘zi eshkak yoniga o‘tirib, qayiqni gavanga haydaydi. Artur sirg‘anchiq taxtada yotdi, ustini matros Artur ochgan kiyimlar bilan yopib qo‘ydi. Artur yonda suzib o‘tayotgan tanish imoratlarga, ko‘chalarga qarab bordi.

Qayiq zanjirlar bilan bog‘lanib, uzunasiga qatorlashib ketgan ustunlar yonida to‘xtadi; ustunlar bojxona bilan qal‘a o‘rtasidagi tor suv yo‘lini to‘sib, kanałning butun enida ko‘ndalang tushib yotardi. Uyqu bosgan bojxona xodimi qo‘lida qo‘l chiroq bilan esnab chiqdi-da, suvgaga engashib:

– Hujjatingizni ko‘rsating, – dedi.

Matros qog‘ozlarini uning qo‘liga tutqazdi. Artur boshini mahkam yopib, nafas olmaslikka tirishdi va ularning gapiga quloqlarini ding qilib yotdi.

– Buning topgan vaqtini qarang-a, – deb ming‘illadi xodim, – kemaga shunaqa bemahal qaytadimi odam? Hoynahoy, ichkilikbozlikdan kelayotgandirsiz-da? Qayiqdag'i nima?

– Eski kiyim. Arzon tushib qoldi.

U shu so‘zlarni aytta turib, nimchani ko‘rsatdi. Xodim qo‘l chiroqni tutib engashib qaradi.

– Bo‘pti. O‘tavering.

– Xodim shlagbaumni ko‘tardi, qayiq qoramtil suvda chayqalib, sekin suzib ketdi. Artur birozdan so‘ng, yotgan yeridan turib, ustidagi lattalarini olib tashladi.

Indamay uzoq suzib borgandan so'ng matros:

— Ana mening kemam, — dedi pichirlab. — Ortimdan boravering, lekin dampingizni chiqarmang.

Matros juda ham katta, qoramtil kemaning bo'lmasiga tirmashib chiqar va ividik shergini ichida g'udranib so'kar edi; holbuki Artur tug'ilishdan chaqqon edi, uning o'rniда boshqa har qanday odam bo'lsa ivirsib qolardi.

Ular kemaga chiqdilar-da, qoramtil arqonlar orasidan aylanib borib, axiri kema tryumiga yetib oldilar. Matros sekkingina qopqoqni ochdi.

— Pastga tushing! Yarim daqiqadan keyin kelaman, — deb pichirladi u.

U xandaq zax va qorong'igina bo'lib qolmay, nafas olib bo'lmaydigan darajada dim ham edi. Artur chirik ko'n sassig'idan va achchiq moy hididan nafasi bo'g'ilib, tisarildi. Lekin shu payt karsen esiga tushdi-yu, jirkanib pastga tusha boshladi.

Bir necha daqiqadan so'ng matros keldi. Qo'lida bir nima bor edi, lekin nimaligini Artur qorong'ida bilolmadi.

— Endi pul bilan soatni cho'zing. Tezroq!

Artur qorong'idan foydalanib, bir necha paolini bukib qoldi.

— Menga biroz ovqat bersangiz. Qormim juda och.

— Olib kelganman. Mana.

Matros unga bitta ko'za, toshday qotib ketgan bir necha burda qurnaq non va bir parcha tuzlangan go'sht bo'lagidan berdi.

— Menga qarang, ertaga ertalab bojxona xodimlari keman ko'rgani kelishadi. Siz biron ta bo'sh yog'och xumga kirib olishingiz kerak. Ochiq dengizga chiqqunimizcha, inidagi sichqonga o'xshab jim yoting. Chiqadigan paytingizni o'zim aytaman. Ehtirot bo'ling, kapitanning ko'ziga sira ko'rinmang. Xuddi shundoq bo'lsin! Suvni boptaroq; joyga qo'yanmisiz? Endi xayr, yaxshi tush ko'tib uxlang.

Tryum yopildi. Artur qimmatbaho suvli ko‘zani xatarsiz yerga qo‘ydi-da, bir bo‘s sh yog‘och xumga kirib olib, tuzlangan go‘sht bilan nonni ura boshladi. Keyin g‘ujanak bo‘lib olib, umrida birinchi marta ibodatsiz uyquga yotdi. Qorong‘ida kalamushlar uning yon-belida yugurishib yurardi. Na kalamushlarning tinimsiz chiyillashlari, na kemaning chayqalishi, na ko‘ngilni ozdiruvchi moy hidi va na ertaga yuz berajak dengiz kasalining vahmi Artur uyqusiga xalaqit bera olar edi. Kecha u sajda qilgan, bugun esa o‘zi buzib, pachaqlab tashlagan sanamlar uni qancha kam tashvishga solsa, bu narsalar ham uni shunday ozgina tashvishga solardi.



# IKKINCHI

---

## QISM



*O'n uch  
yildan so'ng*

---



## Birinchi bob

**1846**-yil kech iyul oqshomlarining birida, Florensiyada, oldinda turgan siyosiy ishlar rejasini<sup>1</sup> muhokama qilish uchun professor Fabrissining uyida bir talay odamlar yig'ilishdi. Ulardan ba'zilari Madzini<sup>2</sup> partiyasiga mansub bo'lib, mamlakatda demokratik respublika o'rnatish va Italiyani birlashtirish masalasida qattiq turar, bundan boshqasiga rozi emas edilar.

Boshqalari konstitutsiyali monarxiya tarafдорлари va har xil tusdagi liberallar edilar. Lekin bir masalada – Toskan senzurasidan norozilikda barchalarining fikri bir xil edi. Dongdor professor Fabrissi bir-birlaridan ayrilib borayotgan siyosiy guruhlarning vakillarini hech bo'lmasa og'ir matbuot sharoiti biriktirar va ularni ortiqcha xarxasha qilmasdan biron murosaga kelishga majbur qilar, degan umidda shu majlisni chaqirishgandi.

---

<sup>1</sup> O'sha vaqt Toskanda nisbatan liberal rejim o'rnatilgani sababli Florensiya boshqa italyan davlatlarida quvg'inga uchragan arboblar uchun boshpana bo'lib qolgan edi.

<sup>2</sup> *Madzini (1805–1872)* – Italiyadan quvg'in qilingan italyan revolusioneri. O'z mamlakatida demokratik respublika o'rnatish uchun Marselda «Yosh Italiya» nomli yashirin tashkilot tuzgan. Shu ishi uchun sirtdan o'limga hukm etilgan. 1842-yildan boshlab Londonda turgan. Italiya revolutsiyasi uchun bir jurnalist sifatida hormay-tolmay ishlab kelgan kishi.

Papa Piy IX<sup>1</sup> taxtga o'tirib, Papa oblastidagi siyosiy jinoyatkorlarga bergen o'sha shovqinli amnistiya e'lon qilinganiga atigi ikki hafta bo'lgan esa-da, bu hodisa orqasida tug'ilgan liberallarcha shod-u xurramlik to'lqinlari butun Italiyaga tarqalib bormoqda edi. Bu hodisa hatto Toskan hukumatiga ham ta'sir qildi. Professor Fabrissiga va Florensiyadagi siyosiy gruppalarining ba'zi bir liderlariga bu hodisa matbuot haqidagi qonunni isloh qildirishga butun kuchni sarf etsa bo'ladigan o'ng'ay fursat bo'lib ko'rindi.

Ular Fabrissi kutubxonasida majlis qilib o'tirishib, liberallarning hozirgi paytda qanday pozitsiya tutishi kerakligini aniqlamoqda edilar.

Majlisdagilardan biri, yoshi qaytib qolgan oqsoqol advokat, yoqimli tovush bilan gap boshladi:

— Fursatdan foydalanishimiz kerak, bunisi aniq. Endi bunaqa qulay siyosiy vaziyat bo'lmaydi ham, jiddiy islohotlar kiritilishini talab etish bizga nasib qilmaydi ham. Lekin pamfletlar<sup>2</sup> ularni yumshata olmas deyman. Pamflet jig'iga tegadi-yu, hukumatni cho'chitib, bizdan butunlay bezdirib yuboradi. Holbuki biz hukumatni o'zimizga yon bostirmoqchimiz. Hukumat kishilarida bizni xavfli agitatorlar degan tasavvur tug'ildimi, bo'ldi, ulardan yordam olamiz deb xayol qilishga aslo o'rinn qolmaydi, shu narsa esimizda bo'lishi kerak.

— Bo'lmasa, nima qilaylik deysiz?

<sup>1</sup> Papa Piy IX 1846-yilda Grigoriy XVI o'miga papalik taxtiga o'tirib, bir qator liberal tadbirlar o'tkazish yo'li bilan revolutsiya xavfini yo'q qilishga va intelligensiya maylini qozonishga tirishgan. Siyosiy mahbuslarga va emigrantlarga berilgan amnistiya o'sha tadbirlardan biridir. Keyinchalik papa Piy IX 1848-yilgi revolusion hodisalaridan cho'chib, o'z izboshilarining odatdagi teskaricha siyosatini davom ettirdi.

<sup>2</sup> Pamflet – ko'pincha biron siyosiy arbobni juda yomon tanqid qiluvchi siyosiy adabiyotning keng tarqalgan xillaridan biri.

- Petitsiya<sup>1</sup> yozsak deyman.
- Ulur gersoggami?<sup>2</sup>
- Ha. Matbuot erkinligini kengaytirish to‘g‘risida petitsiya yozsak.

Deraza yonida o‘tirgan, aqli ko‘zlar chaqnab turgan qora sochli kishi kulib o‘girildi-da:

- Petitsiyangiz nima qilib berardi? – dedi. – Rensi<sup>3</sup> ishining oqibati shunaqa xayolparastlarga saboq bo‘lishi kerak edi shekilli.

– Rensining tutib berilishiga monelik qilolmaganimiz uchun men ham siz singari xafaman, sinor, gapning xunuk tomoniga o‘tmoqchi emasman, shunday bo‘lsa ham, bizning muvaffaqiyatsizligimizga ba‘zi a’zolarimizning chidamsizligi, tezligi sabab bo‘ldi, deb o‘ylamaslikka ilojim yo‘q. Men-ku, albatta, botinmasdim...

– Pemontlilarning hammasi shunaqa: hech nimaga botinisholmaydi, – dedi qora sochli kishi, uning so‘zini cho‘rt bo‘lib. – Bilmadim, chidamsizlik, tezlik deb nimani aftyapsiz, ming ehtiyotlik bilan o‘zimiz yozib yuborgan o‘sha bir necha petitsiyani aytayotganingiz yo‘qmi? Toskan bilan Pemontda bu tezlik deb atalsa ajab emas, lekin Neapolda biz unday demaymiz.

– Xayriyatki, neapolliklarga faqat Neapoldagina harakat qilishga to‘g‘ri keladi, – dedi pemontli.

– Bas qilinglar, janoblar! Grassini petitsiya yuborish tarafdori, Galli bo‘lsa qarshi. Xo‘sish, siz nima deysiz, doktor Rikkardo?

– Men petitsiya yozsak chakki bo‘lmas deyman, agar Grassini petitsiya yozsa, bajonidil qo‘l qo‘yaman. Lekin shunda ham, bu yo‘l bilan qo‘lga ko‘p narsa kiritish mumkin

<sup>1</sup> *Petitsiya* – ittifoqnomma, ko‘plashib berilgan ariza.

<sup>2</sup> *Ulug‘ gersog* – Leopold II, Toskan gersogi.

<sup>3</sup> *Rensi* – 1846-yilda Riminida (Papa oblastida) uyuştirilgan qo‘zg‘olon yo‘lboshchisi; uni Toskan hukumati papaga tutib bergen.

bo‘lar deb o‘ylamayman. Shoshmanglar, ham pettsiyadan, ham pamfletdan foydalansak bo‘lmaydimi?

— Yo‘q, bo‘lmaydi, nimagaki pamfletlar hukumatni bizga qarshi qilib qo‘yadi, ana shundan keyin pettsiyamizga qayrilib ham qarashmaydi, — dedi Grassini.

— Uningsiz ham qarashmaydi, — neapolli kishi, shu so‘zlarni ayta turib, o‘rnidan qo‘zg‘aldi-da, stol yoniga keldi. — Tutgan yo‘lingiz to‘g‘ri emas, janoblar. Hukumat bilan murosangiz sizga hech nima bermaydi. Xalqni qo‘zg‘atish kerak.

— Buni amalga oshirish haqida aytish oson. Qanday qilib qo‘zg‘atasiz?

— Bu narsani Gallidan so‘rab o‘tirishning o‘zi qiziq. Albatta, senzorning kallasini pachoqlashdan boshlaydi-da.

— Hech-da, — dedi Galli. — Oldingizdagি kishi neapolli bo‘ldimi, — tamom, siz uning pichoqdan boshqasiga kuchi yetmaydi deb o‘ylaysiz.

— Bu gaplarni qo‘yib turaylik. Nima taklif qilmoqchisiz? Jim! Janoblar, diqqat, Galli taklif kiritmoqchi.

Ikki-uch kishidan bo‘lib, burchak-burchakda gap talashib o‘tirgan jamoat endi Gallining so‘zini tinglash uchun stol tevaragiga yig‘ildi.

— Yo‘q, janoblar, bu taklif emas, shunchaki miyamga kelgan fikr. Men sizga aystsam, yangi papaning qilig‘i hammani xursand qilayapti-yu, lekin bu xursandchilikning oqibati, chamamda, xunuk bo‘lib chiqadi. Uning siyosatda yangi yo‘l tutganiga va amnostiya e’lon qilganiga ko‘p kishilar uchib, o‘zimizni, barimizni, barcha Italiyani papa hazratlarining ixtiyoriga topshiraylik, u bizni jannati makonga olib borsin, degan xulosa chiqarib o‘tirishibdi. Mening o‘zim ham, boshqalar singari, yangi papadan ajablanishga tayyorman. Amnostiya ajoyib ish bo‘ldi.

— Papa hazratlari, nazarimda, buni eshitsa, terisiga sig‘may quvonardi... — deb Grassini gap boshlagan edi, Rikkardo gapini kesib qo‘ydi:

– Bas qiling, Grassini. Notiqning so‘zini bo‘lmang, gapirsin. Tavba, Gallining jig‘iga tegmay hech o‘tirolmay-siz-da! It-mushuk-a! Gapiring, Galli.

Neapolli so‘zini davom ettirdi:

– Men papa hazratlari yaxshi niyat bilan ish ko‘rayapti demoqchi edim, bu shubhasiz. Ammo islohotlar o‘tkazish qo‘lidan keladimi-yo‘qmi – bu boshqa masala. Hozircha hamma narsa silliq ketayapti. Amnistiya munosabati bilan tug‘ilgan shod-u xurramlik to‘lqinlari bosilguncha, Italiyadagi hamma reaksiyonerlar bir-ikki oy jim o‘tirishadi, albatta. Lekin hokimiyatni qo‘llaridan kurashsiz berib yuborishlariga hech aql ishonmaydi. Mening shaxsiy fikrim bunday: iyezuitlar<sup>1</sup>, grigoriychilar<sup>2</sup>, sanfedistlar<sup>3</sup> va ularning barcha dumি-quyruqlari qish yarim bo‘lmasdanoq yangi nayrang boshlaydilar-da, ularga sotilmagan odamlarning boshida danak chaqishga kirishadilar.

– Bu ehtimoldan uzoq emas.

– Modomiki ahvol shunday ekan, Lambruchini<sup>4</sup> va uning ichi qora sheriklari ulug‘ gersogning qulog‘iga so‘z quyib, bizni iyezuitlarga bo‘ysundirguncha paydar-pay petitsiyalar yuborib jim o‘tiraveramizmi yo ulardan oldin harakat boshlab, birinchi zarbani o‘zimiz berish uchun shu

---

<sup>1</sup> Iyezuitlar (*isochilar jamiyat*) – 1539-yilda Ignatiy Loyola katolikchilikni yoyish uchun ta’sis qilgan va feodal-katolik reaksiyasining tayanchi hamda quroli bo‘lib kolgan katolikchilar diniy tashkiloti.

<sup>2</sup> Grigoriychilar – papa Grigoriy XVI olib borgan siyosat tarafdlari, papa Piy IX o‘tkazgan liberal islohotlarning dushmanlari.

<sup>3</sup> Sanfedistlar – ozodlik harakatiga qarshi kurashish uchun 1799-yilda italyan jaholatparvarlari ta’sis qilgan «Muqaddas dinga ergashuvchilar jamiyat»ning a’zolari. Sanfedistlar xalqni yomon ko‘rib, necha qur avstriyaliklarni qo‘llaganlar.

<sup>4</sup> Lambruchini – papa Grigoriy XVI mahalida Papa oblastining davlat sekretari, kardinal; avstriyaliklarga yordamchilar va italyan xalqiga qarshi kurashda o‘zi ham ularga tayanar edi.

kunlardagi shoshqinlikdan foydalanib qolamizmi? Hali ular tartib saqlatish va bizni intizomda tutdirish uchun Avstriya gusarlarini chaqirishlari ham mumkin.

— Avvalo, shuni aytsangiz: birinchi zarba nimadan iborat bo‘lishi kerak?

— Menga qolsa, iyezuitlarga qarshi tashkiliy ravishda targ‘ibot va tashviqot boshlasak demoqchiman.

— Amalda bu urush e’lon qilish degan so‘z-ku.

— Ha, biz ularning fitna va nayranglarini ochib tashlaymiz, xalqni iyezuitlarga qarshi kurashda birlashishga chaqiramiz.

— Lekin bu yerda iyezuitning urug‘i ham yo‘q-ku! Ularning nimasini ochib tashlaysiz?

— Iezuitning urug‘i ham yo‘q? Uch oygina sabr qiling, ana undan keyin ko‘rasiz ularning qanchalik ko‘payganini. Ammo unda fursat qo‘ldan ketadi, ularning siqig‘iga turish berolmay qolamiz.

— Ha. Shoshmang bo‘lmasa, shahar aholisini iyezuitlarga qarshi oyoqlantirish uchun-ku ochiq gapirish kerak bo‘ladi; bunisini bilasiz. Bunday bo‘lgandan keyin senzuraning ko‘zini qanday shamg‘alat qilasiz?

— Shamg‘alat qilib o‘tirmayman. Senzura bilan ishpishim bo‘lmaydi.

— Demak, imzosiz nashr qilaverasiz, shunaqa-da? Bunisi yaxshi, lekin yashirin nashr hammamizni ham shuncha ovora qildi, yana u ishni qo‘msagan odam topilarmikan.

— Men unday deyayotganim yo‘q. Men pamfletlarni ochiqchasiga nashr qilaveraylik, imzolarimizni qo‘yaylik, manzillarimizni ham ko‘rsataylik, demoqchiman. Mayli, yuraklari dov bersa, ta’qib qilaversinlar.

— Borib turgan devonalik bu! — deb yubordi Grassini. — Bu nima-yu — botirman deb kallani sher og‘ziga tutib berish nima.

– E, sizning yuragingiz chiqmasin! – dedi Galli, uning so‘zini cho‘rt kesib. – Bizning gunohimiz uchun turmaga borib o‘tiring deyayotgan kishi yo‘q sizga.

– Qaltis gaplarni qo‘ying, Galli, – dedi Rikkardo. – Gap birovning yuragi chiqishi ustida ketayotgani yo‘q. Arziyidigan narsa bo‘lsa, hammamiz ham siz singari turmada o‘tirishdan qochmaymiz. Lekin bo‘lmaq‘ur narsalar uchun jonni xatarga qo‘yish – bolalik bo‘ladi. Menga kelsak, men o‘rtaga tashlangan taklifga tuzatish kiritmoqchiman.

– Qanday?

– Men, iyezuitlarga qarshi kurashish uchun nozikroq yo‘l topish mumkin bo‘lar deyman. U yo‘l bizni senzuraga to‘qnashtirmaydigan yo‘l bo‘lishi kerak.

– Hayronman, qanaqasiga to‘qnashtirmas ekan?

– Men ishonamanki, gapirmoqchi bo‘lgan kishi o‘zining gapini pardali qilib, imo-ishoralar bilan bayon qilsa bo‘ladi, u vaqtda...

– Senzor fahmlay olmaydi demoqchi bo‘lasizmi? Shoshmang, bordi-yu, siz aytganingizga ham xo‘p dedik, u holda bechora kosib yo dehqon, o‘zi jaholatda yotadiyu, siz imo-ishora bilan aytgan gapingizning tagiga qanday yetib oladi? Yo‘q, bu gapingiz to‘g‘ri kelmaydi.

Professor o‘z yonida o‘tirgan keng yag‘rinli, sersoqlanob tomon o‘girila turib, so‘radi:

– Martini, siz nima deysiz?

– Faktlar ko‘paymaguncha bir nima deyolmayman. Avval tajriba o‘tkazish, keyin natijasini ko‘rish kerak.

– Siz-chi, Sakkoni?

– Sinora Bolla nima deyar ekan, men u kishining gapini eshitmoqchi edim. Sinoraning mulohazalari hamisha o‘tkir bo‘ladi.

Hamma xonada o‘tirgan birdan-bir ayol tomonga o‘girildi: u supada iyagini qo‘liga tirab, muzokaraga jimgina quloq solib o‘tirgan edi. Qora ko‘zlari chuqr, xayolchan.

Mana endi, u ko'zlarini ko'targanda, ko'zlarida istehzo olovi chaqnab ketdi.

– Hech kimning fikriga qo'shilolmaganim uchun biroz xijolatdaman, – dedi u.

Rikkardo o'rtaga gap qistirdi:

– Hamisha siz shunaqasiz, lekin eng yomoni shuki, hamisha siz haqli bo'lib chiqasiz.

– Iyezuitlar bilan qanday bo'lsa ham kurashishimiz zarur, men bu masalaga tamoman qo'shilaman. Agar bunda bir qurol kor qilmasa, ikkinchisini qo'llash kerak. So'zbozlik qilgan bilan bir nima chiqmaydi, bu kuchsiz qurol; o'zini goh u yoqqa, goh bu yoqqa tashlash taktikasi ham ishni osonlashtirmaydi. Petitsiyalar masalasiga kelsak – u bolalaming o'yinchog'idek gap bu.

– Umid qilamanki, sinora, – dedi Grassini kerilib, kurashning odam o'ldirish kabi usulini taklif qilmassiz?

Martini mo'ylovini yular, Galli esa tortinmasdan kular edi. Hatto og'ir tabiatli sinora Bolla ham o'zini kulumshirashdan tutib qololmadidi.

– Mabodo shunday narsalarni o'ylagudek bag'ritosh bo'lginimda ham, – dedi sinora, – har holda, bunaqa gaplarni aytib o'tiradigan yosh bola emasmanda, ishonavering. Men biladigan eng dahshatli qurol – kulish, masxara qilish. Agar iyezuitlarni kulgi qilish baxtiga erishsak, xalqni iyezuitlarning o'zları va qilmishlari ustidan kuldira olsak, – qon to'kmasdanoq g'alaba qozonamiz.

– Shunday, men bunga ishonaman, – dedi Fabrissi. – Lekin rejangizni qanday amalga oshirmoqchisiz, bunisiga aqlim yetmay turibdi.

– Nega endi amalga oshirolmaymiz deb o'ylaysiz? – deb so'radi Martini. – Har qanday jiddiy narsadan ko'ra satira senzuradan osonroq va tezroq o'tadi. Bordi-yu, imo va ishoralar bilan yozilsa, o'rta saviyali kitobxon hajvii asar tagida yotgan ikkinchi ma'noni ilmiy iqtisodiy asar

mazmunidan ko'ra osonroq tushunib oladi. Shunday qilib, sinora, siz hajviy manfaatlar nashr etishimiz, yo bo'lmasa hajviy gazeta chiqarishimiz kerak degan fikrdasiz-da, a? Dangaliga aytib qo'ya qolay: bunaqa gazetani senzura hech qachon o'tkazmaydi.

— Men faqat shunaqa qilaylik demoqchi emasman. Meningcha, tizma yoki sochma shaklda yozilgan kichik-kichik hajviy varaqalar nashr etib, arzon baho bilan sotdirsak yoxud butunlay bepul tarqatsak juda foydali bo'lardi. Qani endi, bizning g'oyamizga tushunadigan yaxshi bir rassom topilsa! Varaqani suratl qilib chiqarar edik.

— Ana bu quling o'rgilsin degan gap bo'ldi! Lekin amalga oshira olarmikanmiz? Gap shundaki, bu ishga qo'l urganimizdan keyin uni qoyil qilish kerak. Bizga yaxshi yozadigan satirik lozim. Bunaqasini qayerdan topamiz?

— O'zingiz yaxshi bilasiz, — deb Lega gap qotdi, — bizning ko'pchiligidan jiddiy asarlar yaratib kelgan yozuvchilarmiz. Bu yerda o'tirgan kishilarni har qancha hurmat qilsam ham, lekin shuni aytishim kerak: bizning hajviy narsalar yozamiz deb kuchanishimiz tarantellaga' tushayotgan filning qilig'iga o'xshab qolmasmikan deb qo'rqaman.

— Men qo'limizdan kelmagan ishni qilaylik deb hech qachon aytganim yo'qku. Men talantli satirik topishga harakat qilaylik, uni zarur narsalar bilan ta'minlaylik, degan ma'noda gapirgandim; shunaqa odam Italiyada topilar-ku. O'z-o'zidan ma'lumki, topadigan kishimiz biz bilan maslakdosh bo'lishi, biz borgan yo'lidan borishi va bunga bizda ishonch bo'lishi kerak.

— Bunaqa odamni qayerdan topasiz? Ozmi-ko'pmi talantli satiriklarning hammasini barmoq bilan sanab berishim mumkin, lekin bittasi ham yaramaydi.

---

*Tarantella* — juda tez tushiladigan italyan xalq raqsi.

— Justi<sup>1</sup> busiz ham juda band. Lombardiyada bir-ikitta biz bop yozuvchi bor-u, lekin ular Milan shevasida<sup>2</sup> yozishadi!

— Bundan tashqari, — dedi Grassini, — Toskan xalqiga faqat balandmaqom vositalar bilangina ta'sir qilish mumkin. Men ishonamanki, grajdanilik va diniy erkinlik masalasi kabi jiddiy masalaga hazil va mazaxday qarash hech bo'Imaganda siyosiy odobsizlik bo'ladi. Florensiya London singari fabrika va savdo korxonalar shahri emas, shuningdek, Parij singari bekorchilar tomosha maydoni ham emas. Bu shaharning buyuk o'tmishi bor.

— Afina ham shunaqa edi, — deb sinora Bolla kulumtsirab turib uning so'zini bo'ldi, — lekin Afina grajdaniları shunchalik lapashanglik qilishganki, ularni qimirlatish uchun So'na kerak bo'ldi.

Rikkardo qo'lini stolga popillatib urdi.

— E, So'na bor-ku! Nega esimizga tushmapti-ya u? Bizga xuddi shu odam kerak-da!

— Kim ekan u?

— So'na — Feliche Rivares. Bilmaysizmi? Muratori gruppasingin a'zolaridan. Apennina tog'laridan<sup>3</sup> ketib qolganiga uch yil bo'ldi-yu.

— O, u azamatlarni bilarmidingiz? Darvoqe, esimda: ular Parijga jo'nashganda birga kuzatib borgan edingiz.

<sup>1</sup> Justi Juzippe (1809–1850) — yirik italyan shoirlaridan biri, talantli satirik.

<sup>2</sup> Milan shevasi — italyan tilidagi shevalardan biri; adabiy tildan juda katta farq qiladi.

<sup>3</sup> 1843-yil yozida Bolone bilan Ravenneda (Papa oblasti) tayyorlanayotgan qo'zg'olon fosh qilindi. Qo'zg'olon rahbarlari — aka-uka Muratorilar — bir to'da do'stlari bilan Apennina tog'lariga chiqib ketdilar, u yerda partizan urushi olib bormoqchi bo'ldilar-u, lekin yengilib qoldilar. Qo'zg'olonning ba'zi qatnashchilari, hukumat qo'shinlari tomonidan qo'lga tushirilib, Boloneda qatl qilindi.

– Ha. Rivaresni Livormoga olib borib, Marsel paroxodiga tushirib yuborgan edim. Toskanda qolgisi kelmadi da. Qo‘zg‘olon muvaffaqiyatsizlikka uchragandan keyin Toskanda faqat kulishdan boshqa nima ham qoldi, undan ko‘ra Parijga ketganim yaxshi degandi. Agar taklif qilsak, qaytib kelar deyman, nimagaki Italiyada harakat qilish uchun hozir ozmi-ko‘pmi imkoniyat bor.

– Otini nima dedingiz.

– Rivares. Braziliyalı bo‘lsa kerak. Har holda, Braziliyada turganini bilaman. Men ko‘rgan eng aqlli odamlardan birisi shu. Yuzida kattakon qilich izi bor... G‘alati odam, uning hazillari u vaqt o‘scha baxtsizlarning ko‘pchiligidagi juda katta dalda bo‘ldi.

– Fransuz jurnallarida Le taon<sup>1</sup> laqabi bilan siyosiy maqolalar yozib yurgan kishi o‘scha emasmi?

– O‘scha. Ko‘pincha qisqa-qisqa maqolalar va hajviy feletonlar yozadi. Apennina tog‘laridagi kontrabandistlar unga achchiq tili uchun So‘na deb laqab qo‘yishgan ekan, o‘shandan beri shu laqab bilan imzo qo‘yib keladi.

– Bu janob haqida men ham ba’zi narsalar bilaman, – deb Grassini tagdor qilib gap qotdi, – lekin men bilgan, eshitganlarim unga xayrixohlik tug‘diradi deb aytolmayman. To‘g‘ri, bunday qaraganda, tashqaridan ko‘zga chalinib turadigan aqli bor, bunisi shubhasiz, ammo talantini, nazarimda, oshirib ko‘rsatishadi. Dadillik va jasurlikda oqsamasligi ham mumkindir, ehtimol. Lekin Parij bilan Venada qoldirgan shuhratini beg‘ubor deb hech aytib bo‘lmaydi. U tom ma’nosi bilan o‘tmishi qorong‘i bir firibgar. Odamlar uni issiq Janubiy Amerikaning qaysi bir cho‘lidan Dyupre ekspeditsiyasi rahm qilib olib kelgan deyishadi. Mening bilishimcha, u o‘zining shu ahvolga qanday tushib qolganligini hech vaqt qanoatlanarli

<sup>1</sup> Le taon (*fransuzcha*) – so‘na, bo‘ka.

qilib aytib bergen emas. Endi Apennina tog‘larida bo‘lib o‘tgan qo‘zg‘olonga kelsak, u musibatli ishga har qanaqa yalangoyoqning ham qatnashgani hech kimga sir emas. Boloneda qatl qilinganlar esa oddiy jinoyatchilardan o‘ta odamlar emasdi, buni hamma biladi. Qochib ketganlardan aksariyatining basharalari ham tasavvur qilib bo‘lmaydigan darajada ayanchli. Ammo qatnashchilardan ba’zilari, shubhasiz, oliyanob qalbga ega bo‘lgan kishilar edi.

— O’shalardan ba’zilari shu uyda o‘tirganlarning aksariyati bilan yaqin do’st edi, — deb Rikkardo uning so‘zini bo‘ldi; ovozida norozilik ohangi bor edi. — Boshqalar to‘g‘risida xunuk gap qilish oson, Grassini lekin shuni esdan chiqaramaslik kerakki, o‘sha «oddiy jinoyatchilar» o‘z maslaklari yo‘lida jonlarini fido qildilar, bu esa siz bilan biz qilgan fidokorlikdan ortiqroq!

Galli uning so‘ziga qo‘shimcha qildi:

— Shuni ham esda tuting: basharti bitta-yarimta kishi chirib ketgan Parij g‘iybatini sizga takrorlaydigan bo‘lsa, mening nomimdan aytinki, u Dyupre ekspeditsiyasi to‘g‘risida xato qiladi. Men Dyupre adyutanti Martel bilan shaxsan tanishman, ularning boshidan o‘tgan hamma so‘zlarni shaxsan uning og‘zidan eshitganman. Rivaresni o‘sha yerlarda sargardon bo‘lib yurganda topganlari to‘g‘ri. Argentina respublikasi<sup>1</sup> uchun jang qilib, asir tushib qolgan yeridan qochgan ekan. Buenos-Ayresga qaytib kelguncha, yo‘llarda ust-boshini necha qur o‘zgartiribdi, sarson bo‘pti. Ekspeditsiya uni rahm qilib olib kelgan degan gapga kelsak, bu qip-qizil yolg‘on. Haqiqatda esa ekspeditsiya tarjimoni og‘rib qolib, orqaga qaytishga majbur bo‘lgan. Hech kim yerli tilni bilmas ekan. «Rivaresga tarjimonlikni

<sup>1</sup> XIX asming o‘ttizinchi-qirqinchchi yillari Janubiy Amerikada milliy-ozodlik urushlari davri bo‘ldi. Yevropadan qochib borgan siyosiy qochoqlardan anchagini ana shu urushlarda qatnashgan edilar.

taklif qilishgan ekan «xo‘p» depti, Amazonka daryosining irmoqlarida rosa uch yil ekspeditsiya bilan birga bo‘pti. Martel: Rivares bo‘lmasa, ekspeditsiya o‘z zimmasiga yuklangan vazifani hech bir yo‘sin bilan bajara olmas edi, men bunga qattiq ishonaman», deb aytди.

Fabrissi gapga aralashdi:

— Qanaqa odam bo‘lishidan qat’i nazar, lekin Martel bilan Dyupredek ikki veteranni rom qila olgan kishida biron ajoyib fazilat bo‘lmasdan iloji yo‘q, bu aniq fakt. Sizning fikringiz qalay, sinora? Men u kishi to‘g‘risida hech nima bilmayman. Qochoqlar Toskandan o‘tishganda men Angliyada edim. Lekin u bilan birga uch yil jahongashtalik qilgan sheriklari va qo‘zg‘olonda birga qatnashgan o‘rtoqlari u to‘g‘risida yaxshi fikrda ekanlar, shuning o‘zi yetib ortadi.

— O‘rtoqlari to‘g‘risida bir nima deyishning hojati yo‘q, — dedi Rikkardo. — Muratoridan tortib to eng yovvoyi tog‘lilargacha Rivaresni yoppasiga hurmat qilishib kelgan! Bundan tashqari, u Orsinining<sup>1</sup> yaqin do‘sti. To‘g‘ri, Parijda uning to‘g‘risida har xil bo‘limg‘ur gaplar tarqalgan, lekin dushman orttirgisi kelmagan kishi siyosiy satirklik qilmasligi kerak-da.

— Qochoqlar shu yerga qo‘nganda, u odamni bir ko‘rgandek bo‘laman, lekin ko‘rdim deb aniq aytolmayman, — dedi Lega. — U bukir edi yo oqsoq, yoki shunga o‘xhash biron kamchiligi bor edi shekilli.

— Ha-ya, uning alomatlarini politsiya tasvir qilib chiqqan varaqa menda bor edi shekilli. Esingizdadir, ular qochib, tog‘ jilg‘alariga yashirinib olishganda, alomatlari yozilgan varaqalar tarqatishgan; kardinal, — hah, o‘sha

<sup>1</sup> *Orsini Feliche (1819–1859)* – Italiya ozodligi yo‘lida kurashgan kishi Fransiya imperatori Napoleon III ga qilingan muvaffaqiyatsiz suiqaiddan keyin Parijda qatl etilgan.

yaramasning oti nima edi? – ha, kardinal Spinola<sup>1</sup> uning kallasi uchun hatto mukofot ham e'lon qilgan edi. Rivares bilan ana shu politsiya qog'ozi to'g'risida juda qiziq hangoma bor. Rivares bir mahal soldat kiyimini kiyib oladi, xizmat burchini bajarib turganda yaralangan va o'z otryadini qidirib yurgan karabinyor qiyofasida mamlakatda sanqib yuradi. Qarangki, shu yurishida otryadga duch keladi, yana qanaqa otryadga deng, Spinola yuborgan josuslar otryadiga! Ular bilan bitta aravaga tushib olib, rosa bir kun yuripti, vahimali gaplarni gapirib, xo'p yuraklarini chiqaribdi, meni qo'zg'olonchilar asir qilishib, tog'dagi qaroqchilar unguriga olib ketishdi debdi, shundan so'ng meni juda yomon qiynashdi deb lof uribdi. Ular bunga o'zining alomatlari tasviri yozilgan qog'ozni ko'rsatishgan ekan. «So'na» deb nom chiqargan «kallakesar» to'g'risida shunaqayam bo'limg'ur gaplarni qilibdiki, tavba deb yoqangizni ushlaysiz. Kechasi hamma uxlab qolgandan keyin, poroxlariga bir chelak suv quyibdi-da, cho'ntaklarini oziq-ovqat va o'q-dori bilan to'ldirib olib, hayt deb qochib qolibdi. Mana, qog'ozni topdim, – dedi Fabrissi, qilib turgan hikoyasini bo'lib «Feliche Rivares, laqabi So'na. Yoshi – o'ttizlarda. Tug'ilgan yeri – noma'lum, lekin ba'zi xabarlarg'a qaraganda – Janubiy Amerika. Kasbi – jurnalist. Bo'yi – o'rtacha. Sochlari qora. Soqoli ham qora, terisi – bug'doy rang. Ko'zları ko'k. Peshonasi – keng, kvadrat. Burni, og'zi, iyagi... «Ha, mana yana: «Maxsus alomatlari: o'ng oyog'i oqsoq. Chap qo'li mayib: ikkita barmog'i yo'q. Yuzida hali bitmagan yara izi bor. Duduqlanib gapiradi! Ha, yana bunaqa ogohlantirishi ham bor ekan: «Juda o'tkir mergan, qamash paytida ehtiyyot bo'lish kerak».

---

<sup>1</sup> Kardinal Spinola – papa amaldorlaridan biri, XIX asrning o'ttizinchi-qirqinchi yillardagi qo'zg'olonlar va g'alayonlar qatnashchilaridan juda qattiq qasos olgan kishi.

— Qo'lida shunchalik alomatlar ro'yxati bilan o'zini qidirib yurgan otryadniki aldabdimi, qoyil o'shang-a-ey!

— Dovyurak bo'lganki qutulgan-da. Mabodo gumonsiratib qo'ysa bormi, boshi ketardi-da. U shunaqa: xohlasa o'zini bechoraga soladi, bunga hammani ishontira oladi, har qanaqa qiyin ahvoldan ham ustalik bilan yo'l topib chiqib ketadi... Qani endi, janoblar, taklif qilish to'g'risida nima deysizlar? Rivares ba'zilarimizga yetarli darajada ma'lum ekan. Shu yerga kelib yordam qilsa, xursand bo'lardik deb aytaylikmi yo yo'qmi?

— Meningcha, — dedi Fabrissi, — eng avval rejamiz bilan tanishtirsak yaxshi bo'larmidi, nimagaki — rejaga qo'shiladimi-yo'qmi, so'rardik-da.

— O, gap iyezuitlar bilan kurashishi ustida ketayotganini bilsa, jon-jon deb qo'shiladi, ha, xo'p deyavering. Men ko'rganlarning eng ashshadiysi u.

— Bo'lmasa, o'zingiz yozasizmi unga, Rikkardo?

— Albatta. Shoshmay turing, hozir qayerda ekan, eslab olay, Shveysariyada bo'lsa ham ajab emas. Hech qo'nimi yo'q odamda, hayron qolasiz, doim ko'chib yurgani yurgan. Xo'sh, endi pamphlet to'g'risida...

Ular yana qizg'in muzokaraga kirishib ketdilar. Nihoyat majlis tugab, hamma tarqala boshlaganda Martini sinora Bolla yoniga keldi.

— Sizni kuzatib qo'yay, Jemma.

— Rahmat. O'zim ham siz bilan bir ish to'g'risida gaplashib olmoqchi bo'lib turgan edim.

— Yana manzillarga bir balo bo'ldimi deyman? — deb Martini pichirlab so'radi.

— Aytarlik hech gap yo'q. Shunday bo'lsa ham, hozir ba'zi narsalarni o'zgartirish kerakka o'xshab turibdi. Shu hafta ikkita xat pochtada tutib qolindi. Ikkovi ham unaqa muhim xat emas, kim biladi deysiz, balki tasodifan to'xtab qolgandir. Shunday bo'lsa ham, tavakkal qilib o'tirishimiz

to‘g‘ri kelmaydi. Manzillarimizdan birontasi politsiyada gumon tug‘dirdimi, darrov o‘zgartirishimiz kerak.

- Bugun charchagan ko‘rinasiz, ertaga kela qolay.
- Charchaganim yo‘q.
- Bo‘lmasa, yuragingizga yana xafahollik tushibdi-da?
- Hechqisi yo‘q, o‘zim.

### Ikkinchি bob

— **S**inora Bolla uydami, Ketti?

— Ha, uydalar, afandim, kiyinayaptilar. Mehmonxonaga marhamat qilsinlar, sinora bir necha daqiqadan keyin tushadilar. Ketti uni mehmonxonaga boshlab kirdi. Martini uning o‘ktami edi. Martini chet el kishisi bo‘lgani uchun inglizcha gapirar, gapirganda ham ancha tuzuk so‘zlardi; Martinining boshqa odamlarga o‘xhash yarim kechagacha o‘tiradigan va uy egasining charchaganiga ham qaramay siyosat to‘g‘risida tomog‘ini yirtib bahs qiladigan odati yo‘q edi; sinoraning bolasi o‘lib, eri o‘lim to‘sagida yotarkan, og‘ir musibat ichida qoldi; eng muhim shu bo‘ldiki, xuddi ana shu kunlarda Martini Devonshirga<sup>1</sup> tez-tez kelib, sinoraga dalda berib turdi. Ana shu paytdan beri bu po‘rdoq, no‘noq, kamgap kishi Ketti uchun, hozirgina uning tizzasiga chiqib olgan tanbal qora mushuk singari oila a’zosi bo‘lib qoldi. Mushuk esa Martiniga ro‘zg‘or asboblari orasidagi foydali anjomga qaraganday qarar edi. Mushuk bilan Martini o‘rtasidagi do‘stlik uzoq vaqtlardan beri davom etib keladi. Mushuk kichkinaligida, uy egasi kasal bo‘lib unga qarolmay qolganda, Martini uni o‘z panofiga olgan va savatga solib, Angliyadan olib kelgan edi. Ana o‘shandan beri oshirgan tajribasi bu ayiqqa o‘xshagan beso‘naqay kishining

<sup>1</sup> Devonshir – g‘arbiy-janubiy Angliyada bir graflik.

suyansa bo‘ladigan do‘st ekaniga uni uzil-kesil ishontirdi. Ikkovingiz biram yarashib o‘tiribsizlarki, — dedi Jemma, uyga kirib kelayotib.

Martini mushukni avaylab tizzasidan tushirdi.

— Yo‘lga chiqishdan avval bir finjon choy berarsiz, degan umidda ertaroq kelaverdim, — dedi Martini. — Odam juda ko‘p kelsa kerak, undan keyin Grassinilar bizni uncha to‘ydirib ham qo‘yishmas. Bu aristokrat uylarda odamni hech to‘ydirishni bilishmaydi.

— Ana xolos, — dedi Jemma, kulumtsirab, — sizning tilingiz ham Gallinikiga o‘xhash achchiq bo‘lib ketayapti. Bechora Grassinining gunohi o‘ziga yetib ortadi, endi xotinining noshudligini unga to‘nkamasak ham bo‘lar. Xo‘p, choy hozir tayyor bo‘ladi.

— O‘ho‘, axiri shu ajoyib ko‘ylakni kiyibsiz-a. Kiy-maysiz deb qo‘rquvdim.

— Kiyaman deb va’da qiluvdimku sizga, garchi bugungi kechaga issiqqlik qilsa ham.

— Lekin Fezoleda<sup>1</sup> ancha salqin bo‘ladi, bundan tashqari, hech qaysi kiyimingiz shu oq kashmirschalik yarashmaydi. Shu ko‘ylagingizga taqib olarsiz deb gullar keltirdim.

— Voy, qanday ajoyib atirgullar-a! Men biram yaxshi ko‘ramanki atirgulni! Yo‘q, bularni suvga solib qo‘yaylik, men gul taqishni yoqtirmayman.

— Ana xolos. Bu endi sizning mavhum fantaziyalaringizdan biri.

— Yo‘q-yo‘q, unaqa emas. Shunday chiroyli gullar quruq bir kishining ko‘kragida kecha bo‘yi osilib turishsa, qon bo‘lib ketishar deyman.

— Bu kechada o‘zimiz ham qon bo‘lib ketmasak deb qo‘rqaman. Suyuq gaplar bo‘ladi.

— Nima uchun?

---

<sup>1</sup> *Fezole* — Florensiyaga yaqin bir shahar.

– Qisman shuning uchunki, Grassini nimaga qo'l urmasin, hamma narsa o'shaning o'zi singari tussiz, bemaza bo'lib qoladi.

– Qo'ying, bunaqa zahar bo'lmang. Mehmoni bo'lib ketayotgan kishimizning sha'niga bunaqa deyish yarashmaydi.

– Har doimgiday, gapingiz to'g'ri, sinora! Shunday bo'lsa ham men sizga aytib qo'yay: kecha sovuq o'tadi, nimagaki bama'ni odamlarning yarmi kelmaydi.

– Nima sababdan?

– Sababini o'zim ham bilmayman, bir xillari shahardan ketib qolgan, boshqalari kasal yo shunga o'xshash bir sababi bor. Bir-ikkita elchi, bir necha nemis olimi, kimligi noaniq odatdag'i sayyoohlар va albatta, rus knyazlari bo'ladi. Adabiy dunyodan bir-ikki odam, fransuz zabitlaridan besh-oltitasi kelsa kelar, boshqa hech kim bo'lmaydi; ha, aytmoqchi, bilishimcha, yangi satirik ham kelsa kerak. U kechaga hammani tang qoldiradigan yangilik bo'lib keladi.

– Yangi Satirik? Shunaqami? Rivares-a? Grassini uni hech yoqtirmas edi shekilli!

– Yoqtirmaslikka yoqtirmas ediku-ya, bunisi to'g'ri, lekin birov to'g'risida duv-duv gap tarqalsa va u odam shaharda bo'lsa, albatta, Grassini yangi jamiyat yetakchisini eng avval o'z uyida ko'rsatishga tirishadi. Bundan tashqari, Rivares Grassininining o'ziga nisbatan shunday munosabatda ekanidan bexabar bo'lsa ham kerak, ha deyavering. Lekin payqab olishi mumkin, u yer tagida ilon qimirlasa sezadigan kishi.

– Uning bu yerdaligini men bilmabmanam!

– Kecha kelibdi... Ana choy ham kelib qoldi. O'rningizdan turmang, aslo urinmang, choynakni o'zim olib beraman.

Martini o'zini hech qayerda mana shu kichkina mehmonxonadagiday yaxshi his etmas edi. Jemmaning do'st-

larcha muomalasi, Martinini o'ziga ilhaq qilgan jozibasini oq ko'ngillik bilan guman qilmaganligi do'stligining sodda va astoydilligi – bularning hammasi Martinining sevinch va quvonchlardan yiroq hayotiga nur berardi. Qachon yuragi siqilsa, xafaligi ortsa, ishdan keyin darrov shu yerga kelar va Jemmaning boshini solintirib bir nimalar tikayotganini yoki choy quyib turganini ko'rganiga shukur qilib, jim o'tirardi. Nimaga xafaligini Jemma undan hech vaqt so'ramas, unga achinganligini so'z bilan aytmas edi. Shunday bo'lsa ham, Jemma oldidan ruhlanib, ko'ngli tinchib qaytar, «yana bir-ikki haftaga sabrim yetib beradi endi» deb ketardi. Jemma odamlarni yupatish masalasiga, garchi buni o'zi sezmasa ham, kamdan kam iste'dodga ega edi; ikki yil bundan avval Martinining eng jonajon do'stlari Kalabriyada<sup>1</sup> xiyonatkorona tutib berilib, keyin xuddi bo'rilarни otganday otib tashlaganlarida, uni jar yoqasidan saqlab qolgan narsa faqat Jemmaning mustahkam irodasi bo'lgan bo'lsa ajab emas.

U yakshanba kunlari ba'zan «ish to'g'risida gaplashish uchun» ertalab Jemmaning oldiga kirib kelardi; bu ibora Madzini partiyasi qilayotgan amaliy ishga ishora bo'lib, bularning ikkovi ham o'sha partiyaning harakatchan a'zosi edi. Ana shunday kezlarda Jemma butunlay boshqa: to'g'ri harakat qiladigan, qizishmaydigan, qattiq mantiq bilan ish ko'radigan, har narsaga xuddi o'z vaqtida kirishadigan va masalaga tamoman xolis qaraydigan odam bo'lib qolardi. Faqat partiyadagi ishi orqali biladiganlar uni ancha mashq olgan va mustahkam intizomga ega bo'lgan hamda to'la-to'kis ishonsa bo'ladigan xodim deb, partiyaning dadil va

---

<sup>1</sup> 1844-yilda kichikroq bir revolusion otryad bilan harbiy kemadan qirg'oqqa tushishga va Kalabriyada qo'zg'olon ko'tarishga uringan flot zabitlari – aka-uka Bandierlar taqdiriga ishora bo'lsa kerak. Aka-uka Bandierlar ustidan chaquv o'tkazilgan, keyin qo'lga tushirilib, tutilgan yerda otib tashlangan edi.

hamma masalalarda qimmatli a'zosi, lekin oddiy hayotda ko'zga ko'rinxaymaydigan tussiz kishi deb hisoblardilar. «U tug'ma inqilobchi<sup>1</sup>, bizga o'xshaganlarning o'n ikkitasiga bas keladi, lekin bundan ortiq hech narsasi yo'q», degan edi Galli. Martini juda yaxshi bilgan «madonna<sup>2</sup> Jemma» bu Jemmaga sira-sira o'xshamas edi.

Jemma bufetni oolib turgan yerida yelkasi orqali qarab:

– Yangi satiricingiz qanaqa odam o'zi? – deb so'radi. – Mang sizga, Chezare arpadan qilingan qand, mana bunisi qandli meva. Tavba, revolutsionerlar muncha ham shirinlikka o'ch bo'lar ekan-a?

– Revolutsioner bo'limganlar ham shirinlikni yaxshi ko'rishadi-yu, lekin yaxshi ko'ramiz deb aytishni ep ko'rishmaydi... Xo'sh, yangi satirik to'g'risida bir nima deymi?.. Men sizga aytsam, u oddiy xotinlarni tushida jovidiratadigan odam, sizga bo'lsa yoqmaydi. U o'ziga xos professional askiyaboz, askiyaboz bo'lganda ham, achchiq tilli askiyaboz. Yoniga yaxshigina balet raqqosasini olivolib, dunyoda sanqib yurar ekan.

– Olib yursa nima bo'pti? Ehtimol, raqqosa to'g'risidagi gap afsonadir. Ehtimol, ta'bingiz tirriqdir-u, siz ham achchiq tillikdaunga taqlid qilgingiz bordir.

– Xudo saqlasin meni! Aslo bunday emas. Balet raqqosasi haqiqatan ham bor, shu bilan birga dag'al go'zallik havaskorlari uchun yetarli darajada chiroyli emish. Mening didim bo'lsa boshqacha. Raqqosa venger lo'lisi yo shunga o'xhash bir narsa emish, – har holda, – Rikkardo shunday dedi-yu. Galisiyadagi allaqanday viloyat teatridan, deyishadi. Lekin u janobda uyat degan narsa yo'qqa o'xshaydi; raqqosani erga tegmagan qarindoshiday o'tirishlarga bahuzur olib kelaverar ekan.

<sup>1</sup> Inqilobchi – revolutsioner ma'nosida emas, suiqasd-fitnachisi ma'nosida olindi. Tarj.

<sup>2</sup> Italyancha – xonim demak.

– Uni o'shanday muhitdan olib chiqib ketgan bo'lsa, yaxshi ish qipti-da. Masalaga siz shunday ko'z bilan qarashingiz mumkin, albatta, azizim madonna, lekin jamoat boshqacha qaraydi. U ma'shuqasini tappa-tuzuk odamlarga tanishtirib o'tirsa, ko'pchilik mamnun bo'lmas deyman.

– O'zi ma'shuqam deb aytmagandan keyin odamlar qayerdan biladi?

– Manaman deb ko'rinish turadi; o'sha xotinni ko'r-sangiz, o'zingiz ham darrov bilib olasiz. Lekin Grassininikiga olib kelishga yuragi dov bermas, har holda men shunday deb o'ylayman.

– Olib kelganda ham kirgizishmaydi. Sinora Grassini odob qoidalarini buzishga yo'l qo'yadigan xotinlardan emas. Lekin men Rivares-satirik to'g'risida bir nima eshitsam deyman, uning shaxsiy hayoti to'g'risida emas. Fabrissi menga aytgan: unga maktub yozishibdi, u kelishga va iyezuitlarga qarshi kampaniya boshlashga ko'nibdi. Eng oxirgi eshitgan gaplarim shu. Shu hafta ishim biram ko'p bo'ldiki...

– Siz bilmagan yana bir-ikkita narsa bor xolos. Chammada, pul masalasida hech qanday qiyinchilik tug'ilmagan ko'rindi, biz bir vaqt shu to'g'risida xavfsirab yurgandik. Pulga muhtoj emasga o'xshaydi, tekin ishlaydigan bo'pti.

– Demak, mablag'i bor ekan-da?

– Bor shekilli. Lekin bu gaplar Fabrissining uyida eshitgan gaplarimizga tamoman qarama-qarshi. Esingizdam, Dyupre ekspeditsiyasi uni juda yomon ahvolda topib olgan emish, deyishgan edi? Odamlarning gaplariga qaraganda, Braziliya konlarida hissasi bor emish; undan keyin Parij bilan Venada feletonchilik qilib juda katta muvaffaqiyat qozonibdi. Kamida besh-oltita tilni bilar ekan, bilganda ham siqib suvini ichib yuborgan deyishadi. Mabodo shu yerda qolsa, chet el gazetalarida ham bemalol ishlayveradi. Butun vaqt iyezuitlarni so'kish bilangina o'tmaydiku, axir.

– To‘g‘ri... Endi boraylik, Chezare, vaqt bo‘ldi. Biroz turib turing, faqat gul taqib chiqaman.

Jemma yuqoriga g‘izillab chiqib ketdi-da, bir nafasdan keyin ko‘kragida gul, boshida qora ispan to‘ridan qilingan uzun sharf bilan qaytib tushdi. Martini uni ko‘zi bilan suzib chiqib:

– Malikaning o‘zi – ulug‘ va dono malika Savskayaning o‘zginasi bo‘libsiz, – dedi.

– Bunaqa o‘xshatishlaringiz bilan meni sirayam suyuntirmaysiz-da, – deb Jemma kulib turib e’tiroz qildi. – Oddiy ayolga o‘xhash uchun qanchalik jon kuydirganligimni koshkiydi bilsangiz! Malika Savskayaga<sup>1</sup> o‘xshagan inqilobchi qanaqa inqilobchi bo‘lsin! Unaqa inqilobchi faqat josuslarga nishon bo‘ladi, xolos.

– Qancha jon kuydirmang, baribir, o‘zingizni sodda oddiy ayolga hech o‘xhatolmaysiz.

Martini o‘tirishga odam ko‘p keladi, lekin sovuq bo‘ladi deb to‘g‘ri aytgan edi. Adabiyotchilar bir-birlariga balandparvoz gaplar otishar, zerikkanlari basharalaridan ko‘rinib turar, tasvirga kelmaydigan sayyoohlar bilan rus knyazlari esa majlisdagи hazratli zotlarning kimligini bir-birlaridan so‘rashib, uyma-uy kezishar va bama’ni suhbat qilishga tirishar edilar. Grassini nozik bir mulozamat bilan mehmonlarni kutardi.

Grassini Jemmani ko‘rdi-yu, yoqimsiz yuziga jon kirdi. Aslida u Jemmani yoqtirmas va undan biroz hayiqar edi, lekin Jemma bo‘lmasa, mehmondorchiligi o‘z malohatini anchagina yo‘qotib qo‘yishiga aqli yetar edi. Uning ishlari yaxshi borardi, kasb-korida yuqori ko‘tarildi, davlat va shuhrat topdi, mana endi o‘z uyini intelligent va liberal jamiyat markaziga aylantirish fikriga tushib qoldi. U

<sup>1</sup> *Malika Savskaya* – tavrotdagi rivoyatlarga ko‘ra, qadimgi Sharq davlatlaridan birida hukmdorlik qilgan va afsonaviy bir go‘zallikka ega bo‘lgan dono xotin. Sharq afsonalarida buning nomi Zulayhodir. Tarj.

yoshligida nodonlik qilib uylanib qo‘ygan ana shu basti kichik satang xotini bema’ni valaqlashlarini va so‘lib borayotgan chehrasi bilan kattakon bir adabiy dargohning bekasi bo‘lishga yaramaganligini sezib yuragi achishardi. Shuning uchun Jemma keldi deguncha, o‘tirish muvafqaqiyatlari o‘tadi deb ko‘ngli taskin topardi. Jemmaning o‘zini og‘ir va bosiq tutishi, odamlar bilan chiroyli muomala qilishi majlisga erkinlik va soddallik kiritar, o‘zining majlisdaligi esa, Grassinining nazarida, hamisha uyidan arimagan bachkana gaplarga xotima berar edi.

Sinora Grassini Jemmani juda yaxshi kutib oldi.

– O, bugun muncha ham kuydirmajon bo‘psiz! – dedi u baland shipshi bilan, Jemmaning oq kashmiriy ko‘ylagini ziqnalarcha tanqidiy ko‘zdan kechirib, u Jemmani butun borlig‘i bilan yomon ko‘rar, Martinini maftun qilgan fazilatları, xarakteridagi vazmin kuch, jiddiy, samimiy haqgo‘yligi uchun, aql va idrokining bir zayldaligi uchun, hatto yuz ifodasi uchun ham yomon ko‘rar edi. Sinora Grassini biron ayolni yomon ko‘rsa, u yomon ko‘rganligini o‘sha xotinga ortiqcha mulozamat qilish yo‘li bilan bildirardi. Jemma bu xil xushomad va nazokatlarning ma’nosini yaxshi bilar, shuning uchun ham bir qulog‘idan kirsa, ikkinchi qulog‘idan chiqarib yuborar edi. Josuslarni aldamoqchi bo‘lgan har bir inqilobchi istar-istamas u yoqbu yoqqa chiqib turishi kerak, bu esa Jemmani toliqtirar, unga malol kelardi. U bu ishni shifr bilan yozishdan ham mushkulroq deb hisoblar va yaxshi kiyingan xotin kishining izzat-ikromi shubhalarni qaytarishda qanchalik muhim o‘rin tutganligini bilgani uchun moda jurnallarni ham, xuddi shifr sirlarini o‘rganganidek diqqat bilan o‘rganib borar edi.

Zerikishib o‘tirgan adabiyotchilar Jemmaning kelganligi e’lon qilinishi bilan jonlanib ketdilar. Jemmaning ular orasida obro‘yi zo‘r edi. Shuning uchun zalning Jemma o‘tirgan tomoniga radikal oldindagi jurnalistlar birin-ketin

oqa boshladilar; lekin u radikallar qo‘liga tushib qoladigan darajada sir saqlay bilmaydigan tajribasiz emasdi. Jemma radikallar bilan har kun uchrasha olardi; shuning uchun o‘zini hozir o‘rab olgan radikallarga ularning qiladigan haqiqiy ishlarini muloyimgina betlariga solib, hozir sayyohlar to‘lib yotgan bir yerda o‘ziga ovora bo‘lishdan hojat yo‘qligini kulumisrab turib ta’kidlab o‘tdi. O‘zi esa respublika partiyasi uchun xayrixohligi juda muhim bo‘lgan bir ingliz parlament a’zosi bilan gapga kirishib ketdi; u moliya ishlarining mutaxassisi edi, shuning uchun Jemma unga qiziqib, Avstriya pul tizimining allaqanday texnik moddasi haqida fikrini so‘radi; ana shundan keyin ustalik bilan gapni Lombardiya – Venetsiya shartnomasining moddalariga burib yubordi. Undan yengiltaklik g‘amzalari kutib o‘tirgan ingliz josusning qo‘liga tushib qolmadimi deb Jemmaga hayron bo‘lib qaradi; lekin uning chiroyli va maroqli ekanini ko‘rib, qarshilikni qo‘ydi va Jemmaning o‘rnida Metternix<sup>1</sup> bo‘lganda ham taft tortmaydigan bir alpozda italyan moliyasi masalalarini qizg‘in muhokama qilishga kirishdi, Grassini «Yosh Italiya» tashkilotining barpo bo‘lish tarixini sinora Bolladan so‘rab olmoqchi bo‘lgan bir fransuzni Jemma oldiga boshlab kelganda, parlament a’zosi g‘alati bir his bilan, ehtimolki, «Italiya norozi bo‘lishga men taxmin qilgandan ham ortiqroq asosga ega» degan o‘y bilan o‘rnidan turdi.

Havoning dimligi va odamlarning u yoq-bu yoq o‘taverishlari Jemmaning boshini og‘rita boshladi. U sekin ayvonga chiqdi: qalin o‘sib yotgan baland bo‘yli savsar va tol gullar panasida yolg‘iz o‘tirgisi kelgan edi. Ayvonning oxirida katta-katta tuvaklarga o‘tqazilgan

<sup>1</sup> Metternix (1773–1859) – knyaz, Napoleon I davrida Avstriya bosh vaziri, 1815–1848-yillarda Yevropa reaksiyasining ko‘zga ko‘ringan arbobi. Uning buyrug‘i bilan o‘tkazib turilgan qattiq terror va ta’qib siyosati uchun Italiyada uni juda yomon ko‘rardilar.

xurmo va zo'ryaprod o'simliklar qatori cho'zilib ketar, lekin safsar gullar va boshqa gullovchi o'simliklar gulshani panalab olgan edilar. Bularning hammasi qalin bir parda bo'lib yotgan bo'lsa ham, lekin orqada, panjara yonida o'simliklardan xoli bir go'sha bo'lib, u yerdan vodiy go'zal manzaralari bilan ko'rinish turardi. Kechki gullarga ko'milgan va o'simliklar orasidagi torgina yo'lni to'sib turgan anor shoxlarini qayirib, u yerga o'tsa bo'lardi.

Jemma o'zining qayerdaligini hech kim payqamaydi degan umidda o'sha yerga o'tib oldi. Dam olsam, zora boshimning og'rig'i tarqalsa, deb o'ylar edi.

Uni mudroq bosa boshlaganda ayvonda yaqinlashib kelayotgan oyoq dupuri bilan ovozlar ko'zlarini ochirib yubordi. Go'shadaligini hech kimga sezdirmaslik va xilvatda kechayotgan qimmatli daqiqalaridan yana bir qanchasini qo'ldan bermaslik umidida o'zini qalin yaproqlar orasiga oldi; buni shuning uchun qildiki, hali suhabat uchun mavzular qidirib, charchab turgan miyasini yana badtar charchatishga to'g'ri kelardi. Lekin yonginasida, qalin butalar orqasida to'xtagan odimlar uning umidini uzdi. Hech ham tinmay sayrayotgan sinora Grassinining ingichka, chinqiroq tovushi eshitildi. Ana u to'xtadi, endi boshqa ovoz, nihoyatda muloyim, musiqa kabi yoqimli erkak tovushi keldi; lekin so'zlarni allaqanday cho'zib aytishi ovozidagi chiroqli ohangni buzar, unga yoqimsiz tus berardi. Ehtimol, jo'rttaga berilgan bir rangdir, lekin, to'g'rirog'i, tilida bir kamchilik bordir-u shuni yashirish uchun ana shunday qilib gapirayotgandir.

— Ingliz dedingizmi? — deb so'radi u ovoz. — Lekin familiyasi italyancha-ku. Nimaydi: Bolla dedingizmi?

— Ha. U boyaqish Jiovanni Bollaning bevasi; eri Angliyada vafot etganiga to'rt yil bo'ldi, balki esingizdadir? Aytmoqchi, siz hamisha u yoqdan-bu yoqqa ko'chib yurasiz-a, esimdanam chiqibdi. Baxtsiz vatanimiz yo'lida



musibat chekib yurganlar shuncha ko'pki, hammasini qayoqdanam bilasiz. Biram ko'p!

Sinora Grassini xo'rsindi. Chet el kishilari bilan u hamisha shu yo'sinda gaplashardi. Uning bu qiling'ida Italiya sho'ri ustida g'am yeguvchi vatanparvar ayol roli maktab qizining nozi-yu, bolalar injiqligi juda alomat bo'lib qorishib ketdi.

— Angliyada o'lgan... — dedi erkak tovushi yana bir bor. — Demak, chet elga qochib ketgan ekan-da? Shu ismni qayerdadir eshitganday bo'laman. «Yosh Italiya» yangi tashkil topgan yillarda o'sha tashkilotga aloqasi yo'qmidi?

— Bor edi, bor edi. O'ttiz uchinchi yilda qamoqqa olingan baxtsiz yigitlardan birida. Esingizdami o'sha voqeа? Bir necha oydan keyin uni ozod qildilar, ikki yildan so'ng esa yana qamoqqa olish to'g'risida buyruq bo'ldi, ana shunda Angliyaga qochib ketgandi. Keyin eshitsak, o'sha yerda uylanibdi. Bu juda alomat ish bo'lgan, unday desa Bollaning o'zi alomat odam edi.

— Angliyada o'ldi dedingizmi?

— Ha, sil bo'lib o'ldi. Angliyaning rasvo iqlimiga chidash berolmadi-da. Eri dunyodan o'tishdan ozgina oldin esa o'g'lidan ham ayrıldi, yagona farzandi edi, bo'g'ma kasaliga yo'liqib o'ldi. Sho'rlik ckanmi bechora, a? Bu juvonni hammamiz ham yaxshi ko'ramiz, ajoyib xotin! Lekin boyaqishning ko'ngli o'yin-kulgini uncha ko'tarmaydi, unday desak hamma ingliz xotinlar shunaqa. Undan keyin, xarakterining qattiqligiga qayg'u-alamlari...

Jemma o'rnidan turib, shoxlarni chetga surdi. Mehmon ko'nglini olish uchun uning qayg'u-alamlari haqidagi vaysash Jemmaga og'ir botdi; Jemma yoruqqa chiqqanda g'azablangani yuzidan ko'rinish turardi.

— Ana o'zi ham kelib qoldi! — dedi uy bekasi, hayron qoladigan darajada darrov o'zini qo'lga olib. — Men sizni, jonginam, qayoqqa ketib qoldingiz deb hayron bo'lib edim. Sinor Feliche Rivares siz bilan tanishmoqchilar.

«So'na shu odam ekan-da!» deb o'yladi Jemma, unga maroq bilan qarab.

U hurmat bilan ta'zim qildi-da, badan-badanni teshib o'tguvchi bir nazar bilan Jemmani tez suzib chiqdi; bu Jemmaga qo'pol ko'rindi.

Jemma hozir chiqib kelgan qalın butalar orasiga qarab turib:

- Topgan go'shangiz juda ajoyib, – dedi u.
- Ha, yaxshi joy. Toza havo olay deb chiquvdim.
- Shunday ajoyib kechada uyda o'tirish ham gunohda, – dedi uy bekasi, ko'zlarini osmonga qaratib. (Uning kipriklari chirolyi edi, ularni ko'z-ko'z qilishni yaxshi ko'rardi.) – Bir qarang, sinor: agar ozod bo'lsa, bizning go'zal Italiyamiz jannat-a, jannat! Shunday ajoyib mamlakatning shunday chirolyi gullari, shunday go'zal osmoni bilan qul bo'lib o'tirishini o'ylasang, yuraging tars yorilay deydi!
- Yana shunday vatanparvar xonimlari bo'lgan holda! – deb So'na yumshoq tovush bilan g'udrandi; u so'zlarini cho'zib-cho'zib aytди.

Jemma unga yuragi chiqqunday bo'lib qaradi: u aytgan so'zlarda oshkor masxara bor edi. Lekin sinora Grassini gap tagidagi ma'noga tushunmadи, u xo'rsinib, ko'zlarini quyи tushirdi.

– Oh, sinor, xotin kishining qo'lidan nima kelar edi deysiz! Kim biladi, men o'zimni italyan qiziman deb atashga haqli ekanligimni bir kun emas bir kun isbot qilib berishga tuyassar bo'larman... Endi men mehmonlarimni kuzatishga boray. Fransuz elchisi tarbiya qilib olgan qizini mehmonlar bilan tanishtirib qo'ysangiz degandi. Sizlar ham tanishishlaringiz kerak. Juda chirolyi qiz. Azizim Jemma, sinor Rivaresni bu yerdagi go'zal manzaralarni ko'rsatgani olib chiqqan edim. Endi bu kishini sizning panohingizga qoldirib ketaman. G'amxo'rlik qilib, hamma narsa bilan tanishtirsangiz, ana bizning sehrkor rus knyazimiz! Siz

u bilan hali uchrashganingiz yo‘qmi? U kishi imperator Nikolayning o‘ktamlaridan biri emish. Polshada allaqanday bir qal’aning komendanti ekan, ismiga odamning tili ham kelmaydi.

Sinora Grassini ko‘kragida ordenlar yaraqlab turgan harbiy kiyimli, budanikiga o‘xhash yo‘g‘on bo‘yinli, nihoyatda katta, beso‘naqay iyakli janob oldiga tez yetib bordi-da, u bilan g‘ijillashib ketdi; «charmant» va «top prince»<sup>1</sup> nidolari qorishgan «baxtsiz vatanimiz» to‘g‘risidagi mungli oh-vohlari uzoqda g‘oyib bo‘ldi.

Jemma hamon anor butasi tagida turardi. Aqli qisqa, basti kichkina u bechora xotinga achinar, qo‘pol gap qilgani uchun So‘nadan jahli chiqar edi. So‘na uzoqlashib borayotgan xotin qorasini shunday bir ko‘z bilan kuzatib qoldiki, bu Jemmaning jahlini chiqardi. Shunday ayanchli kishilar ustidan kulish Jemmaga pastkashlikday ko‘rindi.

— Ana, italyan vatanparvarligi bilan rus vatanparvarligi qo‘l ushlashib ketayotir, — dedi u, tabassum bilan Jemma tomonga o‘girila turib. — Ikkovlari ham bir-birlaridan juda mamnun. Qaysi biri sizga ko‘proq yoqadi?

Jemma xiyol qovog‘ini solib, javob ham bermadi.

So‘na so‘zini davom ettirdi:

— A-albatta, ha-har kimning didi ha-har xil. Lekin meningcha, bu ikki vatanparvarlik ichida rus vatanparvarligi durustroq, nimaga desangiz, rus vatanparvarligi ishni oxiriga yetkazadi. Agar Rossiya o‘z qudratini to‘plar asosiga emas, gullar va ko‘klar asosiga qurgan bo‘lsa, ana shu knyaz polyak qal’asida ko‘p turadi deb o‘ylaysizmi?

— Meningcha, uy bekasini mazax qilmasdan ham fikr yuritsa bo‘lar deyman, — deb Jemma sovuqqina javob qildi.

---

<sup>1</sup> Charmant (fransuzcha) — ajoyib; top prince — knyaz.

– To‘g‘ri, to‘g‘ri, Italiyada mehmondo‘stlik qonuni baland turishi esimdan chiqibdi. Italianlar xo‘p mehmondo‘st odamlar-da. Avstriyaliklar ham shu fikrda bo‘lsalar kerak, deyman...

U oqsoqlanib borib, Jemmaga ayvondan stul keltirib berdi, o‘zi esa Jemma ro‘parasidagi panjaraga suyanib oldi. Derazadan yuziga yorug‘ tushib turar, endi uni Jemma boshdan oyoq ko‘zdan kechira bilar edi.

Jemmaning umidi puchga chiqdi. U yoqimli bo‘lmasa ham, har holda, qarashlari yurakni o‘ynatadigan, zabit etadigan ajoyib bir siyemoni ko‘rish umidida edi. Lekin bu odamda eng oldin ko‘zga chalinib turgan narsa – kiyimga o‘chlik va yuz ifodasida hamda qiliqlarida bo‘lgan oshkor takabburlik bo‘ldi. So‘na duragay singari bug‘doyrang va oqsoqligiga qaramay, mushuk kabi chaqqon edi.

Butun gavdasi, qomati bilan qora qoplonni eslatardi. Peshonasida chap yuziga qarab ketgan uzun kesik izi (aftidan, urilgan qilich izi bo‘lsa kerak) yuzini ancha xunuklashtirgan. Jemma So‘na duduqlana boshlaganda yuzining shu yog‘i asabiylik bilan qaltirab turganini sezdi. Agar shu kamchiliklar bo‘lmasa, u o‘ziga xos bir husnga ega bo‘lishi mumkin edi; lekin yuzida joziba yo‘q desa bo‘ladi.

U yana yumshoq, muloyim tovush bilan xuddi miyovlayotgandek gapira boshladi. Bu Jemmaning g‘ashini oshirdi. «Qoplonning o‘zginasi, – deb o‘yladi u, – agar biron qoplonning tili bo‘lsa-yu, hushi kelib gapisra, xuddi shu xil gapirgan bo‘lar edi».

– Radikal matbuotga qiziqar va hatto gazetalariga yozib ham turarmishsiz deb eshitdim, – dedi So‘na.

– Ba’zi-ba’zida yozib turaman; lekin bu ishga uncha qo‘lim tegmaydi.

– Ha, darvoqe: sinora Grassini boshqa muhimroq narsalar bilan bandsiz deb aytgandi.

Jemma hayron bo'lib qoshlarini jiyirdi. Undan daqqaq sayin ko'ngli qolib bormoqda edi. Aftidan, sinora Grassini anqovroq qilib, bu esi pastroq kishiga ortiqcha laqillab yuborgan ko'rindi.

— To'g'ri, juda bandman, lekin sinora Grassini ishimning ahamiyati to'g'risida mubolag'a qiladi, — dedi u, quruqqina qilib. — Haqiqatda unday emas, ko'pchiligi jo'n ish.

— To'g'ri-da, erta-yu kech Italiyaning yig'isini qilib o'tirishimizdan nima yaxshilik chiqardi ham. Meningcha, uy egalarining ulfatlari har birimizni yengiltak kishi kayfiyatiga tushirib qo'yishlari mumkin, hech bo'limganda o'z izzat-nafslari uchun... O, nima demoqchiligidengizni bilib turibman, — to'g'ri, siz haqsiz, — lekin ular o'zlarining ingillab turgan vatanparvarliklari bilan juda ham kulgili-da... Uyga kirmoqchimisiz? Bu yer biram yaxshiki.

— Kirish kerak. Voy, sharfim tushdi... Rahmat.

So'na sharfni yerdan oldi, keyin qaddini rostlab, Jemmaga tiniq, mehrli ko'z bilan qaradi. Katta ochilgan havorang shahlo ko'zlar suv bo'ylarida o'suvchi bo'ta-ko'zni eslatar edi.

— Bilaman, hammayog'ini bo'yab olgan ana shu qo'g'irchoqdan kulganim uchun achchig'ingiz kelayapti, — dedi u, o'kinch tovush bilan. — O'zingiz ayting, shunday odamdan kulmay bo'ladimi?

— Endiki so'radingiz, xo'p, javob beray: meningcha, birovdan kulish uchun aqli kaltaligini dalil qilish — oliyjanoblikka sira ham kirmaydi, balki uyat ham. Bu nima-yu, mayib odamdan kulish nima, yoki...

So'naning nafasi ichiga tushib ketdi, bir yeri og'rigan kishiday yuzi burishdi. Orqaga bir qadam tashladi, keyin oqsoq oyog'i bilan mayib qo'liga nazar soldi. Bir zum o'tar-o'tmas yana o'zini qo'lga oldi-yu, qah-qah urib kulib yubordi.

– Bu o'xshatishingizga qoyil emasmiz, sinora, o'z nodonligini hammaga pesh qilaveradigan anavi xotinga o'xhash, biz mayib-majruhlar nogironligimiz bilan hammaga egov bo'lavermaymiz. Har holda, bizga insof ko'zi bilan qarashingiz kerak: yag'rinning qing'irligi ko'ngilning qing'irligidan zarrachalik yaxshi emasligini har vaqt anglaymiz... Bu yerda zinapoya bor – qo'limga suyanib ola qoling.

U tamom bir hayrat ichida indamasdan bordi, So'nadan bu qadar mehribonlik kutmagani uchun qattiq xijolatda edi.

So'na katta zalning eshigini ochib, uni ichkari kirgizdi; Jemma o'zlarining yo'qligida bu yerda allaqanday voqeа bo'lib o'tganligini sezdi. Erkaklarning ko'pchiligi tumtayib olgan, xotinlar esa yuzlari qizarib, bo'zarib, zalning bir chetiga to'plangan edilar. Hamma ham o'zini xotirjam ko'rsatishga tirishardi. Xo'jayin yashirib bo'lmaydigan bo'g'iq bir g'azab bilan ko'zoynaklarini tuzatar edi. Sayyoohlар esa bir burchakda g'uj bo'lishib olib, zalning u burchiga qiqir-qiqir kulib qarashardi. Sayyoohlarga qiziq, boshqalarga esa haqoratli tuyilgan voqeа o'sha tomonda yuz bergen bo'lsa kerak.

Sinora Grassinining bir o'zigina hech narsadan xabarsizday ko'rindirdi. U noz-karashma bilan yelpig'ichini o'ynab, Gollandiya elchixonasining sekretariga hadeb bir nimalar deb valaqlar, sekretar esa unga quloq solib, kulumsirab o'tirardi.

Jemma ostonada bir nafasgina to'xtab, So'naga o'girilib qaradi: zaldagi umumiylar sarosimani So'naning sezganmi-yo'qligini bilmoqchi edi. So'naning nazari avval hech nimadan bexabar yoyilib o'tirgan uy bekasiga, keyin esa sayyoohlар tikilishib turgan zalning u burchagiga tushganda, shubhasiz, yuzida makrli bir tantana alomati yaraqlab ketdi. Jemma sirga tushundi: So'na dugonasini olib kelgan edi.

Lo'li qiz divan orqasiga suyanib o'tirar, jirttaygan oliftalar va yarim nazokat-yarim kinoya bilan kulumsirab turgan kavaleriya zabitlari uni o'rabi olgan edilar. Qiz egnida qizil-sariq rangli bashang shoyi ko'ylak. Ko'ylagining sharqqa xos yarqiroq rangi va o'zi taqqan bortalay qimmatbaho bezaklari bu Florensiya adabiy majlisida ko'zga yaqqol chalinib turardi. U issiq ellardan uchib kelib, chumchuqlar va maynalar orasiga kirib qolgan g'alati qushga o'xshar edi. Aftidan, qiz ham o'ng'aysiz holga tushib qolganligini sezayotgan bo'lsa kerak, o'zining shu yerdaligi tufayli xo'riigi kelgan xonimlarga oshkor bir nafrat bilan yovlashib qarab-qarab qo'yardi.

Lo'li qiz Rivaresning Jemma bilan zalda o'tib borayotganini ko'rishi bilanoq irg'ib o'midan turdi-da, yugurib So'na oldiga keldi.

– Mose Rivares, sizni izlamagan joyim qolmadi, – dedi u shoshib, nihoyatda buzuq fransuz tilida. – Graf Saltikov ertaga kechqurun chor bog'iga sizni borarmikan deb so'rayapti. Tansa bo'larmish.

– Afsuski, borolmayman. Undan keyin, borganimda ham, baribir, tansaga tusholmayman... Sinora Bolla, ruxsat eting, sizni Zitta Renni xonim bilan tanishtiray.

Lo'li qiz qariyb o'chakishuvchi bir ko'z bilan Jemmaga qaradi, keyin quruqqina qilib ta'zim qildi. Martini to'g'ri aytibdi, shubhasiz, chiroyli, lekin chiroyli o'xshovsiz, hursiz va hayvoni chiroy edi. Harakatlarining erkinligi va uyg'unligi kishini hayratga solmay qolmasada, peshonasining tor va qambarligi, burun kataklarining nozik quyilishi uning bag'ritoshligidan, zahar-zaqqumligidan xabar berar edi. Jemma So'naning shu yerdaligi tufayli siqilib turgan edi, lo'li qiz paydo bo'lishi bilan siqilishi yana ortdi. Bir daqiqadan keyin uy egasi kelib, narigi xonadagi mehmonlar bilan birga gaplashib o'tirishni taklif qilgandi, Jemma ustidan og'ir yuk qulaganday yengil tortdi.

Martini bilan Jemma yarim kechada Florensiyaga qaytdi.

— Xo'sh, So'na to'g'risida fikringiz qalay, madonna? Grassinining bechora xotinini shunday sharmanda qilish pastkashlik emasmi? — deb so'radi Martini yo'lida.

— O'yinchi qizni aytayapsizmi?

— Albatta. Bu qiz kechaning yulduzi bo'ladi, deb sinora Grassinining qo'ynini puch yong'oq bilan to'ldiribdi. Bilasiz-u, sinora Grassini dovtuqli mehmonlarni deb poyi patak bo'ladi.

— Juda ham yarashmagan ish qilibdi. Ikki o'rtada Grassinilarni xijolatga qoldirdi; undan keyin qizning o'ziga ham bu xunuk muomala. Qiz sho'rlik juda uyalgan bo'lsa kerak.

— Siz u bilan gaplashdingiz shekilli? Qanaqa taassurot qoldirdi?

— O, Chezare, tezroq undan qutula qolsam deb toqatim toq bo'ldi. Odamni bunaqa qon qilib yuboradigan suhabatdoshni umrim bino bo'lib ko'rgan emasman. O'n daqiqacha gaplashibman, boshim tars yorilib ketay dedi. Turish-turmushi bilan vahim devining o'zi.

— Men ham sizga yoqmas deb o'ylovdim-a. To'g'risini aytsam, o'zimga ham yoqmaydi. Baliqqa o'xshash sirg'anchoiq, men unga ishonmayman.

### Uchinchi bob

**S**o'na shahar tashqarisidan, Rim darvozasiga yaqin yerdan bir uyni ijaraga oldi. Zitta ham shu atrofdan joy topdi. So'na borib turgan bir sibarit<sup>1</sup> singari hayot kechirardi. Ro'zg'or asboblari uncha hashamatli bo'lmasa ham, lekin har bir mayda-chuydada go'zallikka intilish borligi sezilib

<sup>1</sup> *Sibarit* – chiroyli buyumlarga va bekorchilikka o'rganib, taltayib qolgan kishi.

turar va injiq, nozik didi Galli bilan Rikkardoni juda hayron qoldirar edi. Ular Amazonka qirg‘oqlarining yovvoyi tabiatini orasida necha yillar yashagan kishi odati soddaroq bo‘lar deb o‘ylagan edilar. Shunday bo‘lsa ham, ular So‘na bilan yaxshi chiqishardilar. U hammani, ayniqsa Madzini partiyasining yerli a’zolarini shodiyona va do’stona qabul qilar edi. Aftidan, Jemma bu hisobga kirmasdi: So‘na dastlab ko‘rgan kunidan boshlab uni yoqtirmagandek, undan o‘zini olib qochib yurar edi. Ikki-uch marta Jemmaga qattiq muomala qilgan paytlari ham bo‘ldi, buning orqasida Martinini o‘ziga qattiq dushman ham qilib oldi. So‘na bilan Martini boshdanoq bir-birlariga yoqmadilar, ularning tabiatlari shu qadar qarama-qarshi ediki, o‘rtada bir-birlarini yoqtirmaslik hissidan boshqa narsa bo‘lishi mumkin emasdi. Lekin Martinidagi bu his hademay oshkora dushmanlikka aylandi.

– U meni yoqtiradimi-yo‘qmi, parvoymga ham kelmaydi, – dedi u, bir kun tutaqib Jemmaga. – Mening o‘zim uni yoqtirmayman, shuning uchun tengma-teng. Lekin sizga qilayotgan muomalasiga sira toqat qilolmayman. Nega bunday qilayotganligining sababini talab etishim mumkin edi-ya, lekin partiya ichida janjal chiqmasin deyman; chaqirishga chaqirib kelib, endi janjallahib o‘tirsak...

– O, Chezare, qo‘ysangizchi bunday gaplarni! Menga qilayotgan muomalasining ishga hech daxli yo‘q. Undan keyin, bu to‘g‘rida o‘zim ham undan kam aybdor emasman.

– Siz nima ayb qilibsiz?

– Grassinilar ziyofatida birinchi uchrashganimizda og‘zimdan qo‘pol tanbeh chiqib ketuvdi.

– Qo‘pol tanbeh? Kechirasiz, madonna, men bunga ishonolmayman.

– To‘g‘ri, bexosdan chiqib ketdi-yu, keyin o‘zim ham pushaymon yedim. Mayiblarni masxara qilish to‘g‘risida bir nima deb yuboribman, o‘ziga olib xafa bo‘ldi. Uni

mayib deb aytish – yetti uxbab tushimga ham kirmagan edi. O'zi ham unchalik mayib emas-ku.

– To'g'ri. Faqat bir yelkasi ikkinchisidan pastroq, undan keyin chap qo'li ancha pachoq; lekin bukir ham emas, oyog'i qing'ir ham emas... Oqsoqligini aytib o'tirmasak ham bo'ladi...

– Shunday bo'lsa ham, o'sha topda qaltirab, yuzi o'zgarib ketdi. Men, albatta, juda katta odobsizlik qildim, lekin uning tegmanozikligi judayam qiziq. Tavba, yo shunaqa mazaxlarni eshitaverib yuragi bezillab qolganmikan-a?

– Qayoqda deysiz, o'zi boshqalarni ko'proq mazax qiladi u. Qiliqlari judayam chiroylig-u, lekin tabiat o'lguday qo'pol. Ko'rsam ko'nglim ayniydi.

– Bu gapingiz judayam insofsizlik, Chezare. Men ham yomon ko'raman uni. Lekin kamchilagini oshirib gapirishning nima keragi bor? O'zini allaqanday kerik tutar ekan, bu ko'rigan kishining g'ashini keltiradi, bunisi to'g'ri. So'ngra, yalang gap bilan sanchib olishga harakat qilishadi, hadeb gap bilan sanchib olaverish ham odamni betoqat qilib yuboradi, bunisi ham to'g'ri. Lekin jo'rttaga, yomon niyat bilan shunaqa qiladi deb aytolmayman.

– Unda niyat degan narsa bormikan o'zi, hayronman, hadeb birovchlarni mazax qilaverishi bejiz emasmi ham deyman-da. Fabrissinikida bo'lgan majlislarning birida Rimdag'i islohotlarni<sup>1</sup> yerga urganini ko'rib, ko'ngillarim aynidi.

Jemma xo'rsindi.

– Bu masalada sizdan ko'ra u bilan hamfikr bo'lmasam deb qo'rqaman, – dedi u. – Sizga o'xshagan yumshoq ko'ngilli kishilarning hammasi yaltiroq; umidlarga va intizor qilgan paytlarga tez uchadi; papalikka hilvirab qolgan chol

<sup>1</sup> Papa Piy IX tomonidan o'tkazilgan islohotlar ustida gap ketayapti.

emas, tetik va yaxshi niyatga ega bo‘lgan kishi saylandimi – bo‘ldi, qolgan ishlarning hammasi to‘g‘ri bo‘lib ketadi, deb o‘ylashga tayyor turasizlar. Turmalarning eshiklarini lang ochib qo‘yib, chap-u o‘ngiga duoyi fotiha bera boshlasa – bas, juda borsa uch oydan keyin yer yuzi jannat bo‘lib ketadi deb xayol qilasizlar. Papa xohlagan taqdirda ham, baribir, yer yuzida adolat o‘rnata olmaydi, sizlar buni hech vaqt tushunolmaysizlar. Bunda biron-bir kishining qanday ish ko‘rayotgani ayb emas, yo‘q, masalaning qo‘yilishi noto‘g‘ri.

– Qanaqa prinsip? Papaning dunyoviy hokimiyatimi?

– Faqat shuning o‘zagina emas. Bu umumiy ofatning bir qismi xolos. Boshqalar ustidan hukmronlikni bir kishining qo‘liga berib qo‘yilishi yomon. Bu odamlar orasida yolg‘on munosabatlar tug‘diradi.

Martini cho‘ntagidan bir qo‘lyozma chiqardi.

– Yangi pamfletmi?

– Yana bir bema’ni narsa, la’nati Rivares komitetning kechagi majlisiga yuboribdi. Eh, yaqinda u bilan jan-jallashamiz deb sezib yuruvdim-a!

– Nima gap o‘zi? Hay, Chezare, muncha yeb yubor-gingiz kelmasa-ya uni! Rivares, ehtimol, noxush odamdir, lekin ahmoq emas, har holda.

– Men ham unday demoqchi emasman, pamflet bema’ni yozilmagan...

– Pamflet muallifi Italiyada yangi papani boshga ko‘tarib qilinayotgan yovvoyilarcha shov-shuvdan kulardi. Bu ham So‘naning qalami bilan yozilgan hamma asarlari singari achchiq til bilan zaharli qilib yozilgan edi. Yozilish ohangining dag‘alligi Jemmaning ta’bini xira qilsa ham, lekin u yuragining chuqur bir yerida tanqidning to‘g‘riligini iqror qilishga majbur bo‘ldi.

– To‘g‘ri, fikringizga tamoman qo‘shilaman: haddan tashqari achchiq yozilgan, – dedi Jemma, qo‘lyozmani

stolga qo'yib. – Lekin butun fojia shundaki, bu yerda aytilgan gaplarning hammasi rost.

– Jemma!

– Ha, rost gaplar! U kishini sovuqqonli, sirg'anchiq baliq deb atasangiz – atayvering, lekin haqiqat uning tomonida. Pamfletni mo'ljalga tegmaydi deb isbot qilishga urinishdan foyda yo'q, tegadi.

– Hali buni bosib chiqarish kerak ham dersiz?

– Shoshmang, bu butunlay boshqa masala. Men buni shu holda bosib chiqaraylik deb aytayotganim yo'q, albatta. Shu ahvolda bossak, hammani haqorat qilamiz, o'zimizdan butunlay bezdiramiz, sariq chaqalik ham naf ko'rmaymiz. Basharti Rivares, shaxslarga bo'lgan hujumlarni chiqarib tashlab, biroz o'zgartirib bersa, qimmatli bir narsa chiqarmidi deyman. Siyosiy ma'nodagi tanqidlar juda bop. Rivares shuncha yaxshi yozar deb hech o'ylamagan edim. Bizdan hech birimiz aytishga botinolmaydigan, lekin aytilishi kerak bo'lgan narsalarni aytibdi; masalan, Italiyani o'g'rining yelkasiga boshini qo'yib olib ho'ng-ho'ng yig'layotgan aroqxo'rga o'xshatgan joyi juda alomat chiqqan; aroqxo'r o'g'riga suyanib yig'layapti-yu, o'g'ri uning cho'ntagini kovlayapti!

– Jemma! Axir pamfletning eng xunuk joyi shuku! Hammaga va hamma narsaga mana shunaqangi xunukdan xunuk huraverish jahlimni chiqaradi.

– Mening ham. Lekin gap bunda emas. Rivares yozgan narsalarning ohangi juda-juda yoqimsiz; darvoqe, o'zini ham uncha istarali deb bo'lmaydi. Lekin tantanali marosimlar, og'a-inilarcha og'iz-burun o'pishishlar, muhabbat va sabr-toqatga chaqirishlar savdoyisi bo'lib ketganligimizni, bulardan iyezuitlar bilan sanfedistlar foydalanishlari mumkinligini gapirgan ekan, u bu gapida ming martalab haqli... Afsuski, komitetning kechagi majlisiga borolmadim. Axir nima qarorga keldinglar?

— Sizdan iltimos qiladigan bo‘ldik: So‘naning oldiga borasiz-u, pamfletni yumshatishga ko‘ndirib kelasiz. Men qarorimizni eshittirgani kelgan edim.

— Oldiga qanday boraman? Axir juda kam taniymanku uni. Undan keyin meni yomon ham ko‘radi. Nega boshqa birov emas, men borishim kerak ekan?

— Shuning uchungi, bugun hammaning qo‘li band. Bundan tashqari, siz ichimizda eng vazminimizsiz: gap talashib o‘tirmaysiz, urishib-netib ham qolmaysiz.

— Albatta, urishmaslikka harakat qilaman. Xo‘p, xohlasalaringiz, borib kelaman, lekin ogohlantirib qo‘yay: bir nima chiqishiga ko‘zim yetmaydi.

— Meningcha, xohlasangiz, bir amallab yo‘lga solasiz. Butun komitet pamphetingizga qoyil bo‘pti, deb qo‘ying, — albatta, adabiy jihat. Shunday desangiz, kayfiyat ko‘tariladi, undan so‘ng o‘zi rostdan ham shunday.

\* \* \*

So‘na gullar qo‘yilgan yozuv stoli yonida parishonlik bilan yerga qarab o‘tirar, tizzasida bir ochiq xat yotar edi. Jemma qiya yopilgan eshikni qoqqanda, So‘naning oyoqlari yonida, gilamda yotgan qora baroq it boshini ko‘tarib irilladi. So‘na shoshib o‘rmidan turdi-da, rasmiyat bilan quruqqina qilib ta‘zim qildi. Yuzi har qanday ifodasini yo‘qotib, birdan qotib qoldi.

— Shunchalar hurmat qildingiz, — dedi u, sovuq bir ohangda. — Meni ko‘rishingiz kerakligini bildirsangiz edi, o‘zim darrov huzuringizga yetib borardim.

Jemma So‘naning yer yorilsa-yu, uni yerga kirgizib yuborish fikrida ekanini anglab, ish bilan kelganini uqtirishga shoshildi. U yana bir qur ta‘zim qilib, Jemmaga kursi qo‘ydi.

— Men komitetning topshirig‘i bilan keldim, — dedi u. — Pamfletingizning ba’zi bir moddalariga u yerdagilarning ko‘pchiligi qo‘shilmayapti.

— Shunday bo‘lishini bilardim.

U kulumsirab, Jemmaning ro‘parasiga o‘tirdi. Xrizantemalar solingen stoldagi kattakon guldronni yuziga yorug‘ tushirmaydigan qilib yaqiniga surib qo‘ydi.

— A’zolarning ko‘pchiligi adabiy asar sifatida pamphletdan juda xursand bo‘ldi, bunisi to‘g‘ri, lekin shu holda bosib chiqarish o‘ng‘aysiz bo‘lar deyishadi. Pamfletning juda qattiq ohangda yozilganligi odamlarni xafa qilib qo‘yarmikan deb hadiksirashadi, chunki ularning qo‘llab-qo‘ltiqlashi partiya uchun juda ham muhim narsa.

So‘na guldondan bitta xrizantemani uzib oldi-da, oq yaproqchalarini sekin-sekin, bitta-bitta yula boshladi. So‘naning qo‘llari nozik edi, Jemmaning ko‘zлari qo‘qqisidan uning barmoqlariga tushdi. Uni qandaydir g‘alati, hayajonli bir his qamrab oldi: shu xil gul yulish qilig‘ini u ilgarilari qayerdadir ko‘rganday bo‘lib ketdi.

— Adabiy asar sifatida, — dedi u, o‘zining yumshoq tovushi bilan, lekin sovuqqina qilib, — pamphlet ham hech nimaga arzimaydi, bu tomonidan faqat adabiyotdagि farosati yo‘qlargina xursand bo‘lishlari mumkin. Xafa qilish masalasiga kelsak, mening o‘zim shuni xohlagan edim.

— Gapingizga tushunib turibman. Lekin masala shundaki, siz yuborgan zARBALARINGIZ tegishi kerak bo‘lgan kishilarga emas, boshqalarga borib tegadi.

— Nazarimda, siz xato qilayapsiz, — dedi u. — Masala bunday: komitettingiz meni bu yerga nima maqsadda chaqirgan? Mening bilishimcha, iyezuitlarning sirlarini fosh qilish, ulardan qutulish uchun. Bu vazifani qo‘limdan kelganicha bajarayapman, albatta.

— Sizning na qobiliyatingiz va na yaxshi niyatingiz to‘g‘risida hech kim shubha qilmaydi, bu haqda sizni ishontirib o‘tishim mumkin. Lekin komitet sizning pamphetingiz liberal partiyaga haqorat bo‘lib tuyilishi va bizni shahar ishchilarining ma’naviy madadidan mahrum

etishi mumkin deb qo'rqadi. Siz yoylaringizni sanfedistlarga qarab otgansiz-u, lekin kitobxonlarning aksariyati cherkov bilan yangi papani nazarda tutgansiz deb o'ylaydi, komitet taktik mulohazalarga borib, buni muvofiq deb topmayapti.

– Endi tushuna boshladim. Ruhoniylarning partiya yomon munosabatda bo'lgan vakillariga hujum qiladigan bo'lsam, xohlaganimcha ro'yirost gapirishim mumkin ekan. Bordi-yu, partianing asosiy ruhoniylariga tegizadigan bo'lsamchi, o, u holda «haqiqat – zanjirda saqlanishi lozim bo'lgan it» bo'lib qoladi. Ha, masxaraboz to'g'ri aytgan... Lekin men har nima bo'lishga roziman, faqt masxaraboz bo'lishga emas. Komitet qaroriga bo'ysunishim kerak, albatta, lekin mening nazarimda, komitet mayda-chuyda narsalarga e'tibor qiladi-yu, eng katta narsani ko'zdan qochiradi: m-mon-sinor<sup>1</sup> M-mmon-tan-n-nelli...

– Montanellini? – deb Jemma qaytarib so'radi. – Gapin-gizga tushunmadim. Brizigella yepiskopini aytayapsizmi?..

– Ha, xabarlarga qaraganda, yangi papa uni shu kunlarda kardinal<sup>2</sup> qilib ko'taribdi. Montanelli to'g'risida maktub oldim. O'qib beraymi, eshitaszimi? Chegaraning u yog'ida turuvchi do'stlarimdan biri yozibdi.

– Qaysi chegaraning? Papa oblasti chegarasiningmi?

– Ha. Mana bunday deb yozibdi:

«S-siz yaqinda b-bizning eng ashaddiy dushmanlarimizdan b-biri, B-brizigella yepiskopi k-kardinal Lorenso M-montanelli bilan uchrashish sh-sharafiga erishasiz. U-u-u...».

So'na o'qishni to'xtatib, nafasini o'nglab oldi. Keyin kishining g'ashini keltirib yuboradigan darajada so'zlarni cho'zib, sekin-sekin o'qiy boshladi, ammo ortiq du-duqlanmadni:

<sup>1</sup> Monsinor – oliv katolik ruhoniylariga, chunonchi kardinallarga aytildigan hurmat so'zi.

<sup>2</sup> Kardinal – katolik cherkovida yuqori mansab.

«Kelasi oyda Toskanga bormoqchi bo'lib turibdi. «Odamlarni tinchitish» masalasida maxsus vazifa bilan boradi. Avval Florensiyaga tushib va'z aytadi, u yerda, uch haftacha turadi, keyin Siena<sup>1</sup> va Pizada bo'ladi, oxirda Pistoyya orqali Romanyaga<sup>2</sup> qaytadi. U cherkov liberal partiyasiga ochiq-oshkor qo'shildi. Bundan tashqari, papa bilan kardinal Ferettining<sup>3</sup> yaqin do'sti. Papa Grigoriy zamonida xushlanmas, shuning uchun uzoqqa, Apennina tog'larining allaqaysi xilvat yerida saqlab kelinardi. Endi martabasi juda tez ko'tarilib ketdi. Haqiqatda esa har qanday sanfedistga o'xshash, iezuitlarning nog'orasiga o'ynaydi. Zimmasiga yuklangan, vazifa ham iezuit-hazratlarining g'ulg'ulasi bilan yuklangan. U katolik cherkovining eng porloq va'zchilaridan biri hisoblanadi, shuningdek, Lamburuchini qanday zararli bo'lsa, u ham shunday zararli. Unga yuklangan hozirgi vazifa – yangi papa saylanishi munosabati bilan xalq ichida tug'ilgan shod-xurramlikni mumkin qadar uzoqroq davom ettirish va iyezuitlarning agentlari tayyorlayotgan loyihaga ulug' gersog qo'l qo'yguncha, jamoat fikrini band qilib turishdan iborat. Bu loyihaning qandayligini bilolmadim». Keyin bunday yozadi: «Toskanga qanday maqsadda yuborilayotganini Montanelli tushunadimi yoki iyezuitlar qo'lida shunchaki qo'g'irchoqmi – aniqlay olmadim. U yo odatdan tashqari aqli bir mug'ambir yo bo'lmasa borib turgan maxluq. Bir narsasi qiziq: surishtirib yurib qo'lga kiritgan bir ma'lumotimga qaraganda pora ham olmas ekan, jazman ham tutmas ekan, bunaqasini umrimda birinchi ko'rishim».

So'na maktubni qo'ydi-da, nima der ekan deb, Jemmaga yarim yumuq ko'zları bilan qarab o'tirdi.

<sup>1</sup> *Siena va Pistoyya* – Toskandagi shaharlar.

<sup>2</sup> *Romanya* – Papa oblastidagi viloyat.

<sup>3</sup> *Kardinal Feretti* – papa Piy IX tarafdarlaridan biri.

– Muxbirlaringiz faktlarni to‘g‘ri yozib yuborganiga ishonasizmi? – deb so‘radi Jemma, biroz jim o‘tirgandan so‘ng.

– Monsinor Montanelli shaxsiy hayotining pokligi to‘g‘risidami? Yo‘q. Xabar qilgan narsalarining so‘zsiz to‘g‘riligiga o‘zi ham ishonmaydi. O‘zingiz yuqorida eshitdingiz: «Surishtirib yurib qo‘lga kiritgan bir ma’lumotimga qaraganda» deb izoh bergan...

– Buni so‘rayotganim yo‘q, – deb Jemma uning so‘zini sovuqqina bo‘ldi, – vazifasini so‘rayapman.

– Ha bu to‘g‘rida muxbirimga to‘la ishona bilaman. U eski do‘stim, qirq uchinchi yildagi o‘rtoqlarimdan biri. Hozir shunday vazifadaki, bunaqangi narsalarni bemalol bilib olaveradi.

Jemmaning miyasida: «Vatikan chinovniklaridan shekilli» degan fikr yarq etib o‘tdi.

– O, shunday odamlarim bor deng! O‘zim ham shundaydir deb o‘ylovdim-a.

So‘na so‘zini davom ettirdi:

– Bu shaxsiy xarakterdagи maktub, albatta, shuning uchun mazmunini komitet a’zolaringizdan boshqa hech kim bilmasligi kerak.

– Albatta. Xo‘p, endi pamfletga qaytaylik: ba’zi o‘zgartishlar kiritishga va ohangini birmuncha yumshatishga ko‘ndi deb aytsam bo‘ladimi komitetga, yo...

– Nima deb o‘ylaysiz sinora, o‘zgartirishlar satira kuchini bo‘sashtiribgina qolmay, shu bilan birga «adabiy asar» mavqeyini ham buzib qo‘ymaydimi?

– Siz mening o‘z fikrimni so‘rayapsiz, men bo‘lsam sizning oldingizga komitet nomidan gaplashgani kelganman.

– Bu gapingizdan komitet fikriga siz shaxsan qo‘silmaysiz degan xulosa chiqarish mumkinmi?

– Shaxsan mening qanday fikrda ekanligimni bilgingiz kelsa, – marhamat: har ikki moddada ham ko‘pchilikning

fikriga sherik emasman. Pamflet meni adabiy jihatdan qoyil qilgani yo‘q, – lekin faktlarni yoritishda – to‘g‘ri va taktik ma’noda – muvofiq deb bilaman.

– Masalan?

– Siz Italiya yo‘ldan ozdiruvchi sarob orqasidan ketayotir, bu shod-xurramliklar uni axiri chiqib bo‘l-maydigan botqoqqa keltiradi degan ekansiz, bu fikringizga men to‘la qo‘shilaman. Agar bu gaplar ochiq va dadil aytilsa, men benihoyat xursand bo‘lardim, mayliga edi tarafдорларимиздан ба‘зиларини xafa qilsa yoki bizdan bezdirsa. Lekin a’zolarining ko‘philigi boshqa fikrda bo‘lgan tashkilotning a’zosi bo‘lganim uchun men o‘z fikrimda qattiq turolmayman. Undan keyin, agar gapirish kerak bo‘lsa, og‘ir-bosiq, beg‘araz gap qilish kerak, lekin siznikiday ohangda emas.

– Bir daqiqagina sabr qiling, qo‘lyozmani bir qarab olay.

So‘na qo‘lyozmani olib, boshdan oyoq ko‘z yogurtirib chiqdi; yuzida norozilik paydo bo‘ldi.

– Ha, gapingiz to‘g‘ri. Maqola bemaza tilda yozilgan, siyosiy satira tilida emas. Xo‘s, endi nima qilsam ekan? Odobli qilib yozsam jamoat tushunmaydi, achchiq so‘zlar bo‘lmasa, odam zerikadigan bo‘lib chiqadi.

– Achchiq so‘zlar ham me’yorida ortib ketsa, odamni juda zeriktirib yuborsa kerak, buyog‘ini o‘ylaysizmi?

So‘na badan-badanni teshib o‘tuvchi bir nazar bilan unga yalt etib qaradi-da, xaxolab kulib yubordi.

– Siz deyman, gapi har vaqt to‘g‘ri chiqadigan batarin odamlar xilidan ko‘rinasiz, sinora. Bordi-yu, pamfletdan shaxsiy hujumlarning hammasini chiqarib tashlab, uni hozirgi mag‘izi bilan qoldirsam, komitet bosish javobgarligini ustimizga ololmaymiz deb taassuf bildiradi; yo‘q, siyosiy jihatdan to‘g‘ri tomonlarini qurban qilib, butun zarbani partianing ayrim dushmanlariga qaratsamchi. O, komitet

asarimni ko'klarga ko'taradi. Siz bilan biz bo'lsak, uning bosishga arzimagan narsa ekanligini bilib o'tiraveramiz. Mana sizga alomat metafizik bir savol: bosilishga noloyiq bo'lgani holda bosilgani yaxshimi yoki bosilishga tamoman loyiq bo'lgani holda bosilmagani yaxshimi? Bunga nima deysiz, sinora?

— Sizni mana shunday bir alternativa<sup>1</sup> qo'l-oyog'ingizni bog'lab qo'yagan bo'lsa kerak deyman? Agar shaxslar masalasini chiqarib tashlasangiz, komitet pamfletingizni bosib chiqarishga unar, garchi bunga uncha-buncha odam qarshi tursa ham, men bunga ishonaman. Shunday qilinsa, chamamda, ancha foydali bo'ladi. Ammo qattiq ohangingizni yumshatishingiz kerak.

So'na yelkalarini qisib, itoatkorona xo'rsindi.

— Men itoat qilaman, sinora lekin bir shart bilan. Agar hozir kulish huquqimdan mahrum etayotgan ekansizlar, bu huquqni yaqin kelajakda yana o'z ixtiyorimga berasizlar. Tabarruk kardinal hazratlari Florensiyaga kelganlarida, xohlaganimcha achchiq tillik qilishimga na siz va na komitetingiz xalaqt bermasligingiz kerak. Ha, buni menga qo'yib berasizlar.

So'na parvosiz, sovuq ohangda gapirar, guldondan xrizantemalar uzar, uning tiniq yaproqchalarini yoruqqa tutib qarar edi. Jemma gullarning titraganini ko'rib: «Qo'lining qaltiraganini, aroqxo'r emasku», deb o'ylardi.

— Bu haqda komitetning boshqa a'zolari bilan gaplashsangiz tuzuk bo'lar. Nima deyishlarini men bilmasam, — dedi u, o'midan tura solib.

— Siz o'zingiz nima der edingiz? — deb so'radi So'na ham o'midan turayotib. Keyin qo'llaridagi gullarini yuziga bosib, stolga suyanib oldi.

---

<sup>1</sup> Alternativa – ikki qarordan birini qabul qilish zarur bo'lgan holat, arosat.

Jemma nima deyishini bilmay turdi. So‘naning savoli uning qalbida eski, og‘ir xotiralarni uyg‘otgan edi.

— Bir nima deyishga qiynalaman, — dedi u, nihoyat. — Bundan ko‘p yillar ilgari monsinor Montanelli haqida anchagina narsalar eshitgan edim. U vaqtlar Montanelli kanonik bo‘lib, men yoshlik chog‘larimda yashagan viloyat diniy seminariyasida rektoriik qilardi... Uni juda yaxshi biladigan bir kishi u to‘g‘risida ko‘p gapirardi, gapirganda ham eng yaxshi narsalarni gapirar edi. Meningcha, haqiqatan ham u ajoyib odam edi, hech bo‘limganda, o‘sha vaqtida. Lekin bunga ko‘p yillar bo‘ldi, u vaqtidan beri o‘zgarib ketgan bo‘lishi mumkin. Birov tekshirib turmaydigan amal odamni buzadi!

So‘na boshini ko‘tarib, Jemmaga qattiq tikilib qaradi.

— Agar monsinor Montanelli razil odam bo‘lmasa, — dedi u, — har holda, razillar qo‘lidagi qurol. Lekin menga va mening chet ellardagi do‘stilarimga buning hech ahamiyati yo‘q. Yo‘l o‘rtasida yotgan toshning o‘ziga yarasha xosiyati bor, lekin shunday bo‘lsa ham uni olib tashlash kerak... Ruxsat eting, sinora, — u oqsoqlanib borib eshikni ochib berdi. — Mening oldimga kelish bilan juda katta muruvvat qildingiz, sinora. Izvosh chaqirtiraymi?

— Yo‘q?

— Bo‘lmasa, xayr.

Jemma ko‘chaga chuqur bir xayol ichida chiqqdi:

«Chet ellardagi do‘stilarim». Qanaqa odamlar ekan? Undan keyin, yo‘lda yotgan toshni nima bilan olib tashlamoqchi? Faqat satira bilan bo‘lsa, nega endi bunchalik siyosat bilan gapirdi?»

### To‘rtinchi bob

Monsinor Montanelli Florensiyaga oktabrning boshlarida keldi. Uning kelishi shaharda sezilarli hayajon uyg‘otdi. U mashhur va‘zchi bo‘lish bilan birga, isloh

qilingan papachilik oqimining vakili ham edi. Xalq undan yangi ta'limotni, ya'ni Italiyaning barcha yaralariga malham bo'lishi nazarda tutilgan muhabbat va sabr-toqatni tushuntirib berishini intizorlik bilan kutar edi. Hamma yomon ko'radigan Lambruchinining o'rniga kardinal Gissining Rim davlat sekretari qilib tayinlanishi hammaning ruhini ko'tarib yubordi. Ana shu shod-xurramlik kayfiyatini saqlab turish qo'lidan keladigan odam – Montanellining xuddi o'zi edi. Montanellining beg'ubor hayot kechirishi Rim cherkovining oliymaqom ruhoniylari orasida shunday kam uchraydigan hodisa ediki, shuning o'ziyoq aldash, pora berish, vijdonsizlarcha gij-gijlash cherkov xiz-matchilarining martabalarini oshirishda zarur shart deb hisoblashga o'rganib qolgan xalq maylini qozonish uchun yetarli edi. Haqiqatan ham ajoyib va'zchilik talanti, o'ziga rom qiluvchi ovozi va yoqimli siymosi u sifati ustiga-ustak edi.

Montanelli shuncha fazilatlari bilan har vaqt juda katta muvaffaqiyat qozona olardi.

Grassini, har doimgiday, bu yangi atoqli kishini ham o'z mehmonlari orasida ko'rishga jon kuydirib harakat qildi. Lekin Montanellini ilintirish oson bo'lmadi; u Grassinining har bir taklifiga hamon muloyim, lekin qat'iy raddiya bilan javob qilib keldi.

Martini yakshanba kunlarining birida, ertalab, sovuqda Jemma bilan Sinoriya maydonidan o'tib ketayotib:

– Voy, bu er-u xotin Grassinilar-ey, ro'para kelganini jirkanmay yeyishaveradi-ya! – dedi. – Kardinal izvoshi kelganda, ikki bukilib ta'zim qilishganini ko'rdingizmi? Qanaqa odamligi bilan ishlari yo'q, ishqilib uning dovrug'i doston bo'lsa kifoya. Bunaqa sher ovlovchi dovyuraklarni umrim bino bo'lib ko'rgan emasman. Yaqinda, avgustdagina – So'nani ovlashdi, mana endi Montanelli orqasidan yugurishib yuribdi. Chamamda, monsinor hazratlari bu xil

e'tibordan boshlari osmonga yetayotgandir. Buni hali bir to'da firibgarlarg'a ko'z-ko'z qiladi.

Ular bugun Montanelli va'z aytgan cherkovdan kelayotgan edilar. Kattakon cherkov binosi mashhur va'zchining so'zini eshitishga intizor bo'lgan xalq bilan liq to'lib ketgan edi; shuning uchun Martini, Jemmaning boshi og'rib qolmasin deb, uni marosim oxirini kutmay ketishga ko'ndirdi. Bir hafta surunkasiga yomg'ir yoqqandan keyin, faqat shu bugun ertalabgina oftob ko'ringan edi, Martini shundan foydalandi: San-Nikoloni qurshab olgan qirlar yonbag'ridagi bog'larda o'ynab kelaylik deb Jemmaga taklif qildi.

— Yo'q, — dedi Jemma, — vaqtingiz bo'lsa, aylanib kelishga jon deb boraman, lekin u yoqqa emas. Yaxshisi — Lung-Arnoga boraylik, Montanelli cherkovdan qaytishda o'sha yerdan o'tadi. Men ham, Grassiniga o'xshash, mashhur kishini ko'rgim kelyapti.

— Iye, hozirgina ko'rdingiz-ku!

— Yaqindan ko'rganim yo'q. Cherkovda odamlar biram tijilinch bo'lib ketdiki... Yonimizdan o'tganda, faqat orqasidan ko'rdik xolos-da. Ko'prikka yaqinroq borib tursak, yaxshilab ko'rib olamiz. O'zi Lung-Arnoda turadi-ku.

— Nega endi Montanellini shuncha ko'rgingiz kelib qoldi? Ilgarilari mashhur va'zchilarga qayrilib ham qaramas edingiz-ku?

— Hozir ham meni va'zchi emas, odam qiziqtirayapti. So'nggi marta ko'rganimdan beri qanchalik o'zgarganligini bilgim kelyapti.

— Qachon ko'rgan edingiz?

— Artur vafotidan ikki kun keyin.

Martini Jemmaga xavotirlanib qaradi. Mana endi Lung-Arnoga ham yetib keldilar. Jemma hech nimani ko'r-

maydigan bir nazar bilan suvgaga parishon qarab qoldi; uning bu xil qarashi Martinini hamisha qo‘rqitar edi.

— Jemma, azizim, — dedi u, bir daqiqadan keyin, — nahotki bu alamli xotira umringiz bo‘yi sizni ta’qib etsa? O’n yetti yoshimizda qaysi birimiz xato qilmaganmiz?

— Lekin hech birimiz o’n yetti yoshida eng yaxshi do’stini o‘ldirgan emasmiz, — deb horg‘in tovush bilan javob qildi u. Ko‘priknинг toshdan yasalgan panjarasiga tirsagini qo‘yib, pastdagи daryoga tikilib oldi. Martini indayolmay qoldi: Jemma shunaqa ahvolga tushgan kezlarda, u bilan gaplashishga yuragi dov bermas edi.

Ular ko‘prikdan jim o‘tishib, suv bo‘ylab ketishdi. Bir necha daqiqadan keyin Jemmaning o‘zi gapirdi:

— Ovozi biram chiroyli ekanki uning! Ovozida juda ham alomat narsa bor, hech bir odamning ovozida bunaqa narsani sezgan emasman. Meningcha, hamma sir shundada, hech bo‘limganda, undagi malohat sirining yarmi shunda.

— Ha, ovozi ajoyib, — Martini daryo manzarasi uyg‘otgan dahshatli xotiralardan Jemmani uzoqlashtirish uchun yangi mavzudan foydalanib, so‘zini darrov ilib ketdi. — Ovozidan tashqari, men eshitgan va’zchilar ichida o‘zi ham eng yaxshisi-da. Lekin mening fikrimcha, mulozamatining siri bunda ham emas, uning sababi chuqurroq: uni cherkovning boshqa ruhoniylaridan ajratib turgan hayotining beg‘uborligida, pokligida. Papani hisobga olmaganda, butun Italiyada Montanelli singari ismi sira ham bulg‘anmagan bironqa oliymaqom ruhoniyni topib berolmassiz. Esimda, bultur Romanyaga borganimda u yepiskoplik qilib turgan yerlarida bo‘ldim; uni uzoqdan bo‘lsa ham bir ko‘rib qolish yo‘kiyimi silab ko‘zga surtish uchun johil tog‘liklarning yo‘lga chiqib, yomg‘ir tagida kutib o‘tirishganlarini ko‘rdim. Ular Montanellini avliyoday ko‘rishadi, bu hazilakam gap emas: axir Romanyada poplik kiyimida

yurganlarning hammasini o'lguday yomon ko'rishadi-ya! Kontrabandistikning uchchiga chiqqan bitta keksa dehqonga bir kun: «Xalq yepiskopni juda yaxshi ko'rар ekan», devdim, «Biz poplarni yomon ko'ramiz, hammasi yolg'onchi. Lekin monsinor Montanellini yaxshi ko'ramiz. Yolg'on gapirganini yoki noinsoflik qilganini hech kim hech vaqt eshitgan emas», dedi.

Jemma Martiniga aytayotgandan ko'ra, o'zicha ovozini chiqarib o'layotganday bir avzoda:

- Qiziq, xalq uning to'g'risida nimalar o'ylashini o'zi bilarmikan? – dedi.
- Qayerdan biladi? Axir o'zi to'g'risida o'ylangan narsalar to'g'ri-ku.
- Yo'q to'g'ri emas.
- Siz qayerdan bilasiz?
- O'zi aytgan menga.
- O'zi? Montanelli-ya? Jemma, nima demoqchisiz?

Jemma peshonasiga tushib turgan sochlarni orqasiga tashlab qo'yib, Martini tomonga o'girildi.

Ular yana daryo ustiga kelib turdilar. Martini panjaraga suyandi, Jemma bo'lsa qo'lidagi yomg'irpo'shi bilan toshga sekin-sekin bir nimalar chizardi.

– Chezare, siz bilan uzoq vaqtdan beri do'stmiz-u, lekin Artur voqeasini shu mahalgacha mukammalroq qilib aytib bergenim yo'q sizga.

– Aytib bermang ham, azizim, – deya Martini shoshib uni to'xtatdi. – U voqeani ipidan ignasigacha bilaman.

– Jiovanni aytib bergenmi?  
– Ha, yonida o'tirib chiqqan kechalarimning birida, o'limi oldida aytgan. Yana menga aytdiki... Jemma, azizim, endi gap ochilishga ochildi, yaxshisi to'g'risini aytib beraqolay... bu badbaxt hodisa hamma vaqt ko'z o'ngingizda turib, sizni ezib keladi dedi. Keyin meni do'stingiz bo'lib qolishimni va sizni bu fikrlardan uzoqlashtirishimni so'radi.

Men ham, garchi befoyda ketayotgan bo'lsa-da, qo'limdan kelganini qilib keldim.

— Bilaman, — deb javob qildi Jemma, unga ko'zlarini ko'tarib qarab. — Sizning do'stligingiz bo'lmasa, holim xarob bo'lar edi. Aytmoqchi, monsinor Montanelli to'g'risida hech nima degani yo'qmi?

— Yo'q. Bu voqeaga Montanellining aloqasi bor deb gumon ham qilgan emasman. U shu ishga daxli bo'lgan xiyonat to'g'risida gapirdi, undan keyin...

— Shundan so'ng, men Arturni urganim va u o'zini suvga tashlab o'lgani to'g'risida, shundaymi? Xo'p, unday bo'lsa, endi Montanelli to'g'risida gapirib beray.

Ular hademay kardinal o'tadigan ko'prikkka qaytdilar. Jemma ko'zlarini suvdan uzmay gapira boshladi:

— Montanelli u vaqtlar kanonik va Piza diniy semi-nariyasida rektor edi. U Arturga falsafadan dars berar, Artur universitetga kirganda esa birgalashib kitoblar o'qishar edi. Bir-birlarini shuncha yaxshi ko'rardilarki, o'qituvchi bilan o'quvchidan ko'ra qadrdon do'stlarga o'xshardilar. Artur Montanellining bosgan izini ko'ziga tabarruk qilib surtar edi. Bir kun: «Padreyimdan ayrlisam, o'zimni suvga tashlab o'ldiraman», dedi — hali-hali esimda. Montanellini padre deyar edi. Keyin josus yetkazgan chaquv bilan nima bo'lganini o'zingiz bilasiz... Ertasiga otam bilan Bertonlar — Arturning ota bir, ona boshqa akalari, juda rasvo odamlar — jasad qidirib, butun kunlarini daryoda o'tkazdilar, men bo'lsam, nima qilib qo'ydim-a deb, uyda qon bo'lib o'tirdim.

Jemma bir necha sekund jim turdi, so'ng yana davom etdi:

— Yarim kechaga yaqin otam hujramga kirib: «Jemma, yur pastga, oppoq qizim, seni bir kishi kutib turibdi, ko'rmoqchi emish» dedi. Pastga tushdik, qabulxonada bir talaba o'tiribdi u guruhimiz a'zolaridan biri edi. Rangi

oppoq oqarib, dag'-dag' titrab o'tirib, Jiovanni turmadan yana bitta maktub chiqarganini aytib berdi. U Arturning tavba mahalida qo'lga tushganini, uni Kardi tutib bergenini va bu narsalarni Jiovanni turma nazoratchilarining biridan surishtirib bilib olganini yozibdi. Shunda talaba: «Xayriyat, ayb Arturda emas ekan, endi ko'nglimiz to'q bo'ldi», degani – esimda. Otam qo'limni ushlab, meni yupatishga urindi. Men qilib qo'ygan narsadan bexabar edi. Hujramga qaytib keldim va butun kechasi bilan mijja qoqmay chiqdim. Ertalab otam bilan Bertonlar tag'in daryo bo'yiga ketdilar. Ular hamon jasadni topishdan umidvor edilar.

– Lekin topishmagan bo'lsa kerak?

– Topisholmadi. Qanday topilsin, dengizga oqizib ketilgan bo'lsa kerak. Shunday qilib, men uyda yolg'iz qoldim. Bir mahal xizmatkor xotin kirib, hozir bir ruhoni kelganligini, otamning uyda emasligini eshitib, yana chiqib ketganligini aytdi. Men uning Montanelli ekanligini payqadim-u, orqa eshikdan yugurib chiqib, bog' darchasi oldida yetib oldim. «Hazrat Montanelli, sizga gapim bor» deb aytgandim, darrov to'xtadi, nima gapi bor ekan, deb jim kutib turdi. O, Chezare, qani endi o'sha damdag'i yuzini bir ko'rsangiz! Necha oylab ko'z oldimdan ketmadi yuzi! «Men doktor Uorrenning qiziman... Arturni men o'ldirdim», dedim. Keyin hamma gapni aytib berdim; u bo'lsa, toshdan yo'nilgan haykalday, qimir etmay eshitdi. So'zim tamom bo'lgandan keyin u: «Xotirjam bo'ling, qizim, Arturni o'ldirgan siz emas, men. Men uni aldab kelardim, bilib qoldi», dedi. Shundan keyin tez o'girildi-yu, ortiq bir og'iz ham so'z aytmay, darchadan chiqib ketdi.

– Keyin nima bo'ldi?

– Keyin unga nima bo'lganidan bexabarman. Aytmoqchi, o'sha kuni kechqurun allaqanday bir tutqanoq bilan gavan yonidagi ko'chada yiqilib qolgan ekan, yaqin uylarning biriga ko'tarib kirishibdi. Boshqa hech nima

bilmayman. Otam meni yupatish uchun qo‘lidan kelganini ayamadi. Men bo‘lgan gaplarning hammasini ayтиб beruvdim, otam ishini tashladi-yu, darrov Angliyaga olib ketdi. U yerda o‘tmish xotiralarini yodimga soladigan hech nima yo‘q edi. Otam meni ham o‘zini o‘ldirib qo‘ymasin deb qo‘rqrar, haqiqatda men shunga yaqin bir holatda yurar edim. Otamning rak kasaliga yo‘liqqani ma’lum bo‘lgandan keyin esa, bilasiz, o‘zimni qo‘lga olishga majbur bo‘ldim. Axir mendan boshqa unga qaraydigan hech kim yo‘q edi-da. Otam vafot etgandan keyin kichik bolalari mening qo‘limda qoldi. Akam qurbi yetib, uyiga olib ketguncha, bolalarni o‘zim tarbiya qilib turdim. Undan keyin Jiovanni keldi. Men sizga aytsam, dastlabki vaqtarda bir-birimiz bilan ko‘rishishga qo‘rqardik: u dahshatli xotira o‘rtamizda jar bo‘lib yotar edi. Bu to‘g‘rida o‘zining ham qo‘li boriigi uchun, ya’ni turmadan o‘sha badbaxt xatni yozib chiqargani uchun, ichini yeb yurardi. Meningcha, bizni yaqinlashtirgan narsa – ikkovimizning ham boshimizdagи bir alam bo‘lsa kerak.

Martini kulumsirab, boshini tebratdi.

– Ehtimol, siz shundaydirsiz, – dedi u, – lekin Jiovanni sizni birinchi ko‘rgandayoq yaxshi ko‘rib qolgan ekan. Livornoga birinchi marta borib, Milanga qanday qaytib kelgani esimda. Siz to‘g‘ringizda javragani-javragan edi. Ingliz qiz Jemma to‘g‘risida shunaqayam ko‘p gapirardiki, miyamni qoqib qo‘limga berardi. Sizni yomon ko‘rib qolarmikanman deb yurar edim. Ana, kardinal ham kelib qoldi!

Foytun ko‘priдан o‘tib, suv bo‘yidagi kattakon bino tomonga ketdi. Montanelli yostiqqa suyanib o‘tirar edi. Aftidan, juda qattiq charchagan edi, sal bo‘lsa ham ko‘rib qolish niyatida uyi oldiga to‘plangan shod olomonni sezmadи ham. Cherkovda chehrasini parpiratib turgan ildamlik endi batamom yo‘qolgan va uning o‘rnini horg‘inlik bilan

ezginlik egallagan edi. Foytundan tushib, keksalik og‘ir odimlar bilan uyga kirib ketgandan so‘ng, Jemma orqaga qaytib, sekin-sekin ko‘prik tomon yurib ketdi.

— Montanelli Arturni nima deb aldagan ekan, deb juda ko‘p o‘ylar edim, — deb Jemma yana gap boshladı. — Ba‘zida miyamga shunday o‘ylar kelardiki... sizga, ehtimol, g‘alati tuyilar... o‘rtalarida juda ham qattiq o‘xshashlik bor edi...

— Kimlarning o‘rtasida?

— Artur bilan Montanellining-da. Buni bir mengina sezganim yo‘q. Bundan tashqari, Artur oilasi o‘rtasidagi a’zolarning o‘zaro munosabatlari ham juda g‘alati, tushunib bo‘lmaydigan edi. Arturning onasi, missis Berton, men bilgan eng yaxshi xotinlarning biri edi, uning chehrasidan ham, Arturniki singari, nur yog‘ilib turar, xarakterlari ham bir-birlariga o‘xshar edi. Lekin u jinoyati fosh qilingan xotin singari, hamisha qo‘rqib-pisib yurardi. O‘gay o‘g‘lining xotini bo‘lsa, uni oyog‘i uchida ko‘rsatar edi. Unday desa, Arturning o‘zi ham o‘sha dag‘al Bertonlarga sira o‘xshamasdi... Yoshligingda ko‘rgan-bilganlaringning ma’nosiga uncha yetmaysan kishi. Yoshlikda bo‘lib o‘tgan narsalarni keyinchalik o‘ylab qarasam, Artur – Bertonlardan emas, degan o‘y keladigan bo‘lib qoldi miyamga. Balki onasi to‘g‘risida biron gap eshitgandir?

— Agar shunday bo‘lsa, uning o‘limiga Kardining xoinligi emas, onasi to‘g‘risida eshitgan gapi sabab bo‘lib chiqadi, — Martini o‘zining shu xulosasi bilan Jemma ahvolini ozroq bo‘lsa ham yengillashtirish uchun shu tariqda gap qotgan edi, Jemma bosh chayqadi.

— Yo‘q, Chezare, shapati tortib yuborganimda yuzini bir ko‘rsangiz, bunday deb o‘ylamas edingiz. Montanelli haqidagi taxminlar, ehtimol, to‘g‘ridir – u taxminlarda aqlga to‘g‘ri kelmaydigan hech nima yo‘q... Lekin men qilgan ish – haqiqat.

Bir necha daqiqagacha gaplashmasdan bordilar.

— Azizim Jemma, — deb Martini nihoyat gap boshladi, — yo‘l qo‘yilgan xatoliklarni yer yuzida o‘zgartirish imkonи bo‘lsa edi, oldingi xatoliklar to‘g‘risida bosh qotirishga arzirdi; o‘zgartirishning iloji bo‘lmagandan keyin, qo‘ying, o‘lganlar azasini o‘lganlar tortaverishsin. Voqeа haqiqatan ham mudhish, bunisi to‘g‘ri. Lekin u boyaqish tirik qolganlarning ko‘pchiligidan har holda baxtliroq, nimagaki, ular turmalarda o‘tirishibdi yo quv-g‘inda yurishibdi. Biz mana shular to‘g‘risida o‘ylashimiz kerak. Butun fikri-zikrimizni o‘lganlar bilan band qilib qo‘yishga haqqimiz yo‘q. Siz yaxshi ko‘rgan Shellining’ gapini bir eslang-a: «O‘tmish – o‘limniki, kelajak bo‘lsa – seniki», deydi u. Hali kelajak sizniki ekan, oling uni va bir vaqtlar qilib qo‘ygan yomon ishingizni emas, balki hozir bajarishingiz lozim bo‘lgan yaxshi ishni o‘ylang.

Martini unga tasalli berish uchun kuyib-yonib uning qo‘lini ushladi, lekin orqasidan yumshoq, miyovlovchi tovushni eshitib, darrov qo‘yib yubordi, o‘zini bir qadam orqaga tashladi.

— Hurmatli doktor, monsinor Montanelli siz aytgan yaxshi fazilatlarning hammasiga ega, bu shubhasiz. U shunchalik yaxshiki, biz yashab turgan bu gunohkor dunyo uchun hayf, shu tufayli, hurmat shartini bajo keltirib, u dunyoga jo‘natish kerak edi. Aminmanki, u dunyoda ham bu dunyodagi singari shuhrat topadi. U yerda ana shu vijdonli kardinalga o‘xshagan ajoyibotni hech ko‘rmagan qari arvoхlar, ehtimol, ko‘pdir. Arvoхlar bo‘lsa yangilikka ishqivoz emishlar...

Rikkardonning:

— Siz qayerdan bilasiz? — degan ovozi eshitildi. Uning ovozidan jahlini zo‘rg‘a tutib turgani sezilib turar edi.

– Muqaddas kitoblardan, azizim. Agar shu o‘gitga ishonilsa, aziz arvoхlar ham xayol qilib bo‘lmaydigan juftlikka o‘ch bo‘lisharmish. Kardinal bilan vijdon esa, meningcha, juda ham g‘alati bir juftki, qisqichbaqani asalga bulab yegan singari, tami juda ham bemaza... A! Sinor Martini va sinora Bolla! Yomg‘irdan keyin havo naqadar ajoyib, a? Yangi Savonarollaning<sup>1</sup> va’zini sizlar ham eshitdinglarmi?

Martini shitob bilan o‘girildi. So‘naning og‘zida sigara, izmasida gul bor edi. U nafis qo‘lqop kiyilgan nozik qo‘lini uzatdi. Laklangan bejirim poyafzallarida oftob shu’lasi jilvirab, kulumsirovchi yuzini yoritib turgan shu damda, u Martiniga badbashara ko‘rinmadni, balki xudbin ko‘rindi. Ular bir-birlarining qo‘llarini siqdilar: biri – ochiq yuz bilan, ikkinchisi – xo‘mraygan ko‘z bilan.

– Bir yeringiz og‘riyaptimi, sinora Bolla? – deb yubordi Rikkardo birdan.

Jemmaning yuzi shunday oqarib ketgan ediki, shlyapasingning cheti tushirib turgan soyada o‘lik yuziga o‘xshar edi. Ko‘kragidagi lentalarining dildirab turishi esa yuraginiq naqadar qattiq urayotganligini bildirardi.

– Men uyga ketaman, – dedi u, zaif tovush bilan.

Izvosh chaqirdilar. Martini Jemmani uyiga eltib qo‘ymoqchi bo‘lib, yoniga o‘tirdi. So‘na Jemmaning izvosh yoniga osilib tushgan ko‘ylagini shoshib tuzatdi-da, birdan unga tikilib bir qarab qo‘ydi. Martini Jemmaning qattiq dahshat ichida seskanib ketganini sezdi.

Izvosh jilar-jilmas:

– Nima bo‘ldi sizga, Jemma? – deb so‘radi u, inglizcha qilib. – Nima dedi sizga u yaramas?

<sup>1</sup> *Savonarolla Jirolamo (1452–1498)* – ruhoniylar va amaldorlarining axloqsizligini fosh qilgan mashhur florensiyalik va’zchi. Hukumat amaldorlari ta’qibida bo‘lib, 1498-yilda dinsizlikda ayblangan va qatl qilingan.

- Hech nima, Chezare. Uning – bunga hech daxli yo‘q.  
Men... qo‘rqib ketdim.  
— Qo‘rqib ketdingiz?  
— Ha... Ko‘zimga...

U qo‘li bilan ko‘zlarini to‘sib oldi. Martini uning o‘ziga kelishini jim kutib o‘tirdi. Jemmaning yuziga oz-ozdan jon kirib bordi. Keyin Martiniga o‘girilib, odatdagi tetik tovushi bilan dedi:

— O‘tmishning dahshatli xotiralariga berilish zararli deb to‘g‘ri aytgan ekansiz. Odamning asablarini shunday ishdan chiqarar ekanki, aqlga sig‘maydigan narsalarni o‘ylaydigan bo‘lib qolar ekansan kishi. Endi shu to‘g‘rida hech gaplashmaylik, Chezare, bo‘lmasa har uchragan kishini Arturga o‘xhataverar ekanman. Bu yomon sarob bo‘ldi, kuppa-kunduzi ko‘zga ko‘ringan dahshatli tushning o‘zi. Qarang, hozir haligi kishi yaqinimga keluvdi, xuddi Arturga o‘xshab ketdi.

### Beshinchchi bob

**S**o‘na o‘ziga dushman orttirishda g‘alati qobiliyatga ega bo‘lib chiqdi. Florensiyaga avgustda kelgan bo‘lsa, uni chaqirib keltirgan komitet a’zolarining to‘rtidan uchi oktabr oyining oxirlariga borib Martini tomoniga o‘tib ketdi. Montanelliga quturib qilgan hujumlari eng otashin muxlislarini ham bezdirib yubordi. Avvallari o‘tkir satirik nimaiki demasin, hammasini himoya etishga va qo‘llab-qo‘ltiqlashga tayyor turgan Gallining o‘zi ham, Montanelliga tegmaganimiz tuzuk bo‘lardi, deb pushaymon yeya boshladи.

So‘naning qalami ostidan sel suviday oqib chiqayotgan karikaturalar va paskvillarga<sup>1</sup> beparvo qarab kelayotgan

<sup>1</sup> Paskvil – faktlar jo‘rttaga buzib ko‘rsatiladigan hajviy asar.

birdan-bir kishi – Montanellining o‘zi edi. Bu narsalarni shuncha ololyanoblik bilan qabul qilayotgan kishidan kulishga vaqt sarflab o‘tirishning hojati yo‘q, derdi Martini. Ovozalarga qaraganda, Montanelli bir kun Florensiya arxiyepiskopi bilan ovqat qilib o‘tirib, o‘z uyidan So‘naning eng achchiq til bilan yozilgan paskillaridan birini topib olibdi-da, oxirigacha o‘qib chiqibdi; keyin arxiyepiskopga bera turib: «Chakki yozilmagan-a, to‘g‘rimi?» depti.

Hademay oktabrning o‘rtalarida shaharda «Vali sirlari» sarlavhali varaqa paydo bo‘ldi. Agar unga qanotlarini yozib turgan So‘na surati solinmaganda ham (Rivares o‘z imzosi o‘rniga shu suratni qo‘yardi), zahar va achchiq uslubini o‘zidayoq o‘quvchi uning kim tomonidan yozilganligini bilib olardi. Pamflet madonna qiyofasidagi Toskan bilan farishta qiyofasidagi Montanelli o‘rtasida borgan dialog shaklida yozilgan; farishtaning boshida olivka shoxidan yasalgan gulchambar (tinchlik belgisi), qo‘lida – oq gul (poklik belgisi) bo‘lib, u iyezuitlarning tashrifini e’lon qilmoqda. Asar shaxsiyatni haqorat etguvchi ishoralar va dadil taxminlar bilan to‘lgan. Satiraning achchiq va nozikligini butun Florensiya sezar, sezsa-da, kular edi. Jiddiy ohangda yozilgan va butun pamfletda to‘lib yotgan behuda gaplarda shu qadar kuchli hajv bor ediki, So‘naning eng ashaddiy dushmanlari ham, muxlislari singari, astoydil kuldilar. Shuning uchun, satiraning oshkor nozikligiga qaramay, varaqa shahar aholisiga o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Montanellining shaxsiy obro‘yi shu qadar baland ediki, uncha-muncha paskvil yerga urolmas edi, shunday bo‘lsa ham, u jamoat nazaridan qolgan payt bo‘ldi. So‘na nishini qayerga sanchishni bilardi; kardinal izvoshga tushayotganda yoki uyiga qaytayotganda bir ko‘rsak deb, uyi oldiga haligacha xaloyiq to‘plansa ham, endi duo va fatvolar orasida «Iyezuit!», «Sanfedistlar josusi!» degan g‘alati qichqiriqlar eshitiladigan bo‘lib qoldi.

Lekin Montanellining himoyachilardan kamchiligi yo‘q edi. Paskvil paydo bo‘lgandan ikki kundan so‘ng diniy tashkilot rahbarlik organi bo‘lgan «Dindor» gazetasida «Vali sirlariga javob» sarlavhali chaqmoqdek bir maqola bosilib chiqdi. Maqolaga «Cherkov o‘g‘li» imzosi qo‘yilgan edi. Bu So‘naning Montanelliga qilgan tuhmatlarcha hujumiga qarshi munosib bir himoya edi. O‘z nomini yashirgan muallif yer yuzida «tinchlik va yaxshilik» o‘rnatish ta’limotini (buning jarchisi yangi papa emish) jo‘shqin va chiroylis o‘zlar bilan izoh qilishdan boshlab, keyin So‘nani jang maydoniga chaqiradi, da’volaridan hech bo‘lmasa birontasining to‘g‘riligini isbot qilib berishini so‘raydi va maqolasining oxirida odamlarni la’natga sazovor bo‘lgan tuhmatchiga ishonmaslikka chaqiradi. «Javob» ham o‘rinli himoyati, ham adabiy layoqati jihatidan oddiy gazeta maqolalaridan shu qadar baland turardiki, unga butun shahar aholisi qiziqdi, hatto gazeta chiqaruvchining o‘zi «Cherkov o‘g‘li» imzosi ostida kim yashirinib yotganini bilolmay hayron edi. Maqola tez orada alohida risola bo‘lib chiqdi, ana shundan keyin Montanellining «imzosiz homiysi» haqida butun Florensiya qahvaxonalarida duvduv gap tarqaldi.

So‘na o‘z javobida yangi papaga va uning barcha hamfikrlariga, ayniqsa Montanelliga juda qattiq hujum qilib, Montanellini himoya etguvchi maqola uning o‘z rizoligi bilan yozilgan, degan ehtiyyotli ishorani ham qistirib ketdi. Imzosiz homiy «Dindor» gazetasida bunga qattiq norozilik bildirdi. Bu tortishuv Montanelli to Florensiyadan ketgungacha davom etdi va bora-bora xalq e’tiborini o‘ziga shunchalik qattiq tortdiki, hamma va’zchining o‘zini esdan chiqarib qo‘yayozdi.

Liberal partiya a’zolaridan ba’zi birlari Montanelli sha’niga achchiq til bilan yozayotgan narsalarining o‘rinsiz ekanligini So‘naga isbot qilib berishga urinsalar ham, lekin

bundan bir nima chiqara olmadilar. U faqat muloyimlik bilan kulumisirar va odatdag'i duduqlanish bilan javob qilar edi:

— T-to'g'risiii aytsam, janoblar, insofdan chiqib k-ketayapsizlar. Montanelli kelganda undan bir kulib, maza qilib olay, meni bu duduqimdan mahrum etmaysizlar, degan shart bilan sinora Bollaning iltimosini qabul qilganman. Shartimiz shunaqa edi.

Oktabrning oxirida Montanelli o'zining Romanyadagi yeparxiyasiga jo'nab ketdi. Ketur oldidan xayrashuv va'zini aytib, shov-shuvli adabiy tortishuvga ham to'xtab o'tdi. Har ikkala yozuvchining haddan tashqari qizg'inligi tufayli muloyimgina taassuf bildirgach, o'zining noma'lum homiysidan og'irlilik namunasini ko'rsatishni va bu noloyiq, befoyda so'z urishini to'xtatishni iltimos qildi. Ertasiga «Dindor» gazetasida kichik bir xabarcha bosilib chiqdi, unda: «Monsinor Montanelli xaloyiq oldida istak bildirgani uchun, «Cherkov o'g'li» tortishuvni davom ettirishdan voz kechadi» deyilgan edi.

Noyabr oxirlarida So'na dengiz bo'yiga borib, u yerda ikki haftagini turib kelajagini komitetga bildirdi. O'zi aytgandek, to'g'ri Livornoga jo'nab ketdi. Hademay u yerga doktor Rikkardo ham yetib keldi, lekin So'nani ko'raman deb har qancha qidirsa ham urinishi bekor ketdi. Beshinchi dekabrda Papa oblastida va Apennina tog'lari tizmasining bo'ylarida zo'r siyosiy harakat boshlanib ketdi. Ko'p odamlar So'naning qish yarmida birdan kanikul qilgisi kelib qolganligi sababini ana shundagina payqadilar. So'na qo'zg'olon bostirilgandan keyingina Florensiyaga qaytib keldi. Rikkardoni ko'chada ko'rib, kulumisiradi-da:

— Meni Livornoda qidirgan emishsiz deb eshitdim; men Pizada tutilib qolgan edim. Qanday ajoyib qadimiyl

shahar-a! U yerda kishi o'zini xuddi baxtli Arkadiyada<sup>1</sup> yurgandek sezadi, — dedi.

U rojdestvo kunlari adabiy komitetning doktor Rikkardo uyiga chaqirilgan majlisida hozir bo'ldi. Majlisda odam benihoyatda ko'p edi. So'na biroz kechikib keldi. Kechirim so'rayotgan bir qiyofada kulimsirab va ta'zim qilib kirib kelganda bitta ham bo'sh o'rin qolmagan edi. Rikkardo qo'shni xonadan stul keltirish uchun o'midan qo'zg'alganda, So'na uni:

— G'am yemang, joy topib olaman, — deb to'xtatdi.

So'na uydan o'tib borib, Jemma yaqinidagi deraza tokchasiga kelib o'tirdi. Jemma So'naning o'ziga sirli bir nazar bilan qarab turganini sezar, bu qarash So'nani Leonardo da Vinci<sup>2</sup> chizgan portretlarga o'xshatib yuborar edi. Jemmada bu odamga bo'lган instinctiv ishonchsizlik ana shundan keyin o'z o'mini telbalarcha qo'rquvga bo'shatib berdi.

Majlisda Toskanga xavf tug'dirib turgan ochlik munosabati bilan varaqcha chiqarlsh masalasi muhokamaga qo'yildi. Varaqada falokatning oldini olish uchun ko'rildigan choralar haqida komitetning fikri bayon qilinishi lozim edi. Bir qarorga kelish juda qiyin bo'ldi, chunki fikrlar har vaqtiday qarama-qarshi chiqib qoldi. Komitetning Jemma, Martini va Rikkardo mansub bo'lган radikal qismi aholiga o'z vaqtida yordam berish uchun to'xtovsiz ravishda chora ko'rish haqida hukumat bilan jamoatga qaratib dadil xitobnomha chiqarish zarurligini

<sup>1</sup> *Arkadiya* — qadimiy Gretsiyada cho'ponlar osoyishta kun kechirib kelgan bir o'lka sifatida antik shoirlar tomonidan kuylangan mamlakat. Birmuncha keyingi adabiyotda esa hayajonlardan va kundalik tashvishlardan yiroq baxtli, afsonaviy bir mamlakat.

<sup>2</sup> *Leonardo da Vinci* (1452–1519) — ulug' italyan rassomi. Bu yerda lablarida sirli, yarim mazaxli tabassum bilan tasvir qilingan o'smirning surati nazarda tutilayotir.

aytdi. O'rtaroq oqimdag'i qism esa, shu jumladan, albatta, Grassini ham, xitobnomaning qattiq ohangda yozilishi hukumatni yo'lga solmaydi, balki jahlini chiqaradi, deb qo'rqrar edi.

Grassini hovliqib o'tirgan radikallarga achingansimon qarab:

– Bu gaplarning hammasi yoqimli, qani endi darrov yordam qilina qolsa, janoblar, – deyar edi, xotirjamlik bilan. – Hammamiz, hech bo'lmaganda ko'pchiligidimiz, talay narsalarni xohlaymiz-u, lekin hech vaqt qo'limizga kirgizolmaymiz. Bordi-yu, sizlar taklif qilayotgan ohangda gap qiladigan bo'lsak, chinakam ochlik boshlanmaguncha, hukumat hech qanday chora ko'rmasligi mumkin, bu ehtimoldan uzoq emas. Agar hukumat hosilning qandayligi to'g'risida aholiga anketa to'lg'izdirsa, ya'ni biz shunga hukumatni majbur qila olsak, bu oldinga bir qadam bosganimiz bo'lardi.

– Bir qadam? Yo'q, marhamatli janob. Ochlik bizni kutib o'tirmaydi. Agar shunaqa qadam bilan boradigan bo'lsak, bizning yordamimiz borguncha, xalq qirilib ketadi.

– Bu to'g'rida... – deb Sakkoni gap boshlagan edi, har qayoqdan ovozlar ko'tarilib qoldi:

– Qattiqroq gapiring, eshitilmayapti!

– Ko'chada qiyomat qo'porilyapti-yu, eshitib bo'ladi-mi, – dedi Galli, zarda qilib. – Deraza yopiqmi, Rikkardo?

Jemma derazaga qaradi.

– Ha, yopiq, – dedi u. – Lekin ko'chadan yo sayyor sirk yo shunga o'xshagan bir narsa o'tayapti shekilli.

Ko'cha tomondan hayqiriqlar, kulgilar, oyoq dupurlari, qo'ng'iroq jaranglari eshitilar va rasvo duxovoy orkestr o'kirigi hamda nog'oralarning dahshatli taraqa-turug'i u ovozlarga qorishib, quloqlarni qomatga keltirar edi.

– Hozir kunimiz shunaqa bo'lib qoldi, shovqinga ham ko'nikmasdan iloj yo'q, – dedi Rikkardo. – Ulug' ayyom

kunlar hamisha sershovqin bo‘ladi... Siz nima demoqchi edingiz Sakkoni?

— Bu to‘g‘rida Piza bilan Livornoda nima o‘ylashayapti ekan, bilsak yomon bo‘lmasdi demoqchi edim. Sinor Rivares shu haqda bir nima aytib bermasmikan? Yaqinda keldi o‘sha yoqdan.

So‘na javob bermadi. Derazadan ko‘chaga tikilib qarar, bu yerdagи gaplarni eshitmayotgandek ko‘rinar edi.

— Sinor Rivares! — deb chaqirdi Jemma. U So‘naga hammadan ko‘ra yaqinroq yerda o‘tirgan edi. So‘na javob beravermagandan keyin, egilib, qo‘lini nuqidi. So‘na sekin o‘girildi; Jemma uning ko‘zlarida qotib qolgan dahshatli ifodani ko‘rib, seskanib tushdi. Unga oldida o‘lik yuzi turganday bo‘lib ketdi. Keyin So‘na lablari dahshatli bir alpozda qimirladi.

— Ha, sayyor sirk, — deb shivirladi u.

Jemmaning birinchi ixtiyorsiz harakati uni boshqalar-ning qiziqib qarashidan to‘sish bo‘ldi. So‘naga nima bo‘lganini bilmasdan, uning butun vujudi va ruhini qamrab olgan dahshatli bir sarob ichida ekanini payqadi. O‘rnidan jadal turdi-da, ko‘chaga qaramoqchi kishiday derazani ochib, uni odamlar ko‘zidan o‘z gavdasi bilan to‘sib oldi.

Ko‘chada eshak minib olgan fokuschi va ola-quroq kiyimli masxarabozlari bilan sirk o‘tib bormoqda edi. Bekorchi odamlar olomoni kular, bir-birini itarib suqilar, o‘zaro hazillashar, masxarabozlar bilan qog‘oz lentalar otishar va peshonasida ulama gajak, bo‘yalgan lablarida yasama tabassum bilan yaltiroq tangalar, turli patlar ichida aravasida nozlanib o‘tirgan o‘yinchи qizga konfetli xaltachalar tashlardi. Ola-quroq odamlar: arablar, gadolar, yo‘l-yo‘lakay juda qaltis hunarlar ko‘rsatguvchi huqqabozlar va har xil ikir-chikirlar, shirinliklar sotib yuruvchi attorlar aravaga ergashib borar edilar. Bular kulishib, qiyqirishib,

allakimni itarishar, urishar edi. Ammo u sho'rlikning kimligini Jemma avval olomon ichidan topolmadi, keyin qarasa: badbashara, pakana bukur kishi ekan. Beso'naqay masxaraboz libosini kiyib, boshiga qo'ng'iroqchalar osilgan qog'oz qalpoq qo'ndirib olgan bu sho'rlik, aftidan, truppaga tegishli bo'lsa kerak, basharasini burishtirib, qilpanglab odamlarni kuldirib borar edi.

– Nima gap ko'chada? – deb so'radi Rikkardo, derazaga yaqin kelib.

Rikkardo bularning shunchaki daydi aktyorlar tufayli komitetni kutdirib qo'yganlariga birmuncha hayron bo'ldi.

Jemma u tomonga o'girildi.

– Hech qanaqa qiziq narsa – dedi u, – sayyor sirk o'tib ketayapti. Biram shovqin solib yuborishdiki, bir nima bo'ldimi deb o'yabman.

Jemma deraza tokchasiga suyalib turgan edi, birdan qo'lini So'nanning sovuq barmoqlari siqayotganini sezib qoldi.

So'na yumshoq tovush bilan:

– Rahmat, – deb pichirladi-da, derazani yopib, yana tokchaga o'tirdi. Keyin hazilkashlik bilan: – Kechirasizlar, ishlaringizga biroz xalaqit berdim, janoblar, – dedi. – Tomoshaga esim ketib qoldi. Xo'p alovat tomosha-da.

– Sakkoni sizdan bir nima so'ragan edi, – dedi Martini, g'ashi kelib. So'nanning qilig'i unga kelishmagan taranglik bo'lib tuyildi, shuning uchun Jemma o'ylamay-netmay uning qilig'ini qildi, deb jahli chiqqan edi. Nazarida, bu o'zi bilgan Jemmaga sira ham o'xshamasdi.

So'na Pizadagi kayfiyat to'g'risida hech nima deya olmasligini, u yerga faqat «dam olish» uchun borganligini aytdi. Keyin yaqinlashib kelayotgan ochlik to'g'risida o'z mulohazalarini bayon qilishga kirishib ketdi. Uzundan uzoq so'zi va hadeb duduqlanaverishi bilan hammani

qiynab tashladi. Ko'rgan kishi: o'z ovozidan huzur qiladi shekilli, deb o'yldi. Majlis tugab, komitet a'zolari tarqala boshlaganda, Rikkardo Martinining yoniga keldi.

– Biznikida ovqatlanib ketarsiz, xo'pmi? Fabrissi bilan Sakkoni qolishadigan bo'ldi.

– Rahmat, men sinora Bollani kuzatib qo'ymoqchi edim.

Jemma o'midan qo'zg'alib va egniga plashini kiyaturib:

– Rostdan ham meni bir o'zi ketolmaydi deb o'ylaysiz shekilli, a? – dedi. – Albatta, qoladi, doktor. Odamlar bilan o'tirib, bunday bahridili ochilsin axir. Ko'chaga hech chiqmaydigan bo'lib qoldi-ya.

O'rta So'na tushdi.

– Ijozat bersangiz, men kuzatib qo'yay, – dedi u. – Baribir, men o'sha tomonga boraman.

– Chindanam yo'lingiz o'sha tomonda bo'lsa...

– Rivares, kechqurun vaqtningiz bo'lmaydimi: biznikiga bir kelib-ketsangiz? – deb so'radi Rikkardo, ularga eshikni ochib bera turib.

So'na kulib, yelkasi orqali qayrilib qaradi.

– Menmi, do'stim? Men sirkka bormoqchiman.

Rikkardo mehmonlar oldiga qaytib kelgandan keyin:

– Voy, tentag-ey, masxarabozlarni shunaqayam yaxshi ko'radimi odam-a! – dedi.

– Hayron bo'lmasangiz ham bo'ladi: qonida borda masxarabozchilik, – dedi Martini. – O'zi nima – borib turgan bir nayrangboz-da.

Fabrissi jiddiy gap bilan o'rta tushdi:

– Faqat nayrangbozgina bo'lib qolsa-ku hech gap emas-a, lekin nayrangboz bo'lganda ham, ha, xavfli nayrangboz deb qo'rqaman.

– Xavfli? Qaysi ma'noda?

– Birdan g'oyib bo'lib ketadi, buning sirini ham, qayerga borganini ham bilmaysiz – menga shu qilig'i

hech yoqmadı. Qarang qayoqlargadir allaqachon uch marta borib keldi. Keyingi safarida Pizaga borganiga hech ishonmayman.

— Lekin tog'larga borib kelayotgani hech kimga sir emas-ku, — dedi Sakkoni. — Savino g'alayoni vaqtida tanishib olgan kontrabandistlari bilan hozirgacha aloqa qilib kelayotganini yashirishga uncha tirishmaydi ham. Pamfletlarini Papa oblasti chegarasidan o'tkazishda ana shu kontrabandistlardan foydalanayotgan bo'lishi mumkin, bu tabiiy.

— Ha, barakalla, men siz bilan xuddi shu to'g'rida gaplashmoqchi edim, — dedi Rikkardo. — Rivaresdan iltimos qilsak, bizning kontrabandamiz rahbarligini ham zimmasiga olsa yomon bo'lmasdi, degan o'y kelib yuribdi miyamga. Biz chiqarayotgan adabiyotlami Pistoyyaga olib borish ishlari, meningcha, juda yomon ahvolda. Pamfletlarni hadeb sigaralar ichiga tiqib yuboraverish to'g'ri kelmaydi, haddan tashqari ibtidoiy usulda.

— Ibtidoiy bo'lsa ham, haligacha korimizga yarab turibdi, — dedi Martini, o'jarlik bilan bunga qarshi chiqib. Galli bilan Rikkardoning So'nani hadeb ibrat qilib ko'rsataverishlari joniga tekkan edi; u bu «ikkiyuzlamachi qaroqchi» hammaga aql o'rgatgani kelmasdan burun hamma ishlarni ko'ngildagiday ketayotgan edi, deb hisoblardi.

— To'g'ri, yaxshiroq usul topishning iloji bo'limgani uchun bizni shu vaqtgacha qanoatlantirib keldi. Lekin keyingi paytlarda ko'p odamlarimiz qamalib, mollar musodara bo'lib ketdi, buni o'zlarining bilasizlar. Shuning uchun Rivares bu ishlarni o'z zimmasiga olsa, bundan buyon bunaqa bo'lmasmikan deb o'ylayman.

— Nega endi shunday deb o'ylaysiz?  
— Birinchidan, kontrabandistlar bizga begona odamlarga qaraganday qarashadi, ehtimol, sog'in sigirga

qaraganday qarashar ham, Rivares esa ularning sardori bo'lmaganda ham, har qalay do'sti. So'naga ishonishadi, gapiga ham kirishadi. Ikkinchidan, oramizda tog'larni Rivareschalik yaxshi biladigan odam topilishi juda qiyin. U tog'larda yashirinib yurgan, undan keyin kontrabandistlarning har bir so'qmog'ini besh barmog'iday biladi, ha, bilib qo'ying. Uni bitta ham kontrabandist aldayolmaydi, mabodo aldamoqchi bo'lganda ham, baribir, eplayolmaydi.

— Gapning qisqasi, nima qilaylik deysiz? Chiqarayotgan adabiyotlarimizni Papa oblastiga yetkazib berish — taqsimlash, manzillar, qo'yiladigan joylar va shunga o'xshash ishlarni bajarish vazifasini unga topshiraylik deysizmi yoki yuklarni chegaradan o'tkazib turishnigina so'raymizmi?

— Manzillar va mol qo'yiladigan joylar masalasiga kelsak, bulardan bizga ma'lum bo'lganlarining hammasi unga ham ayon bo'lsa kerak. Bundan tashqari, biz bilmagan narsalarni ham bilishi ajabmas. Shuning uchun unga biron yangilik beramiz deb o'ylamasak ham bo'ladi. Endi taqsimlash to'g'risiga kelsak, bu masalani, albatta, ko'pchilik hal qiladi. Lekin eng muhimi, meningcha, chegaradan o'tkazish. Kitoblar bir amallab Bolonyaga keltirib olinsa bo'lgani, odamlarga tarqatish hech gap emas.

— Agar mening fikrimni bilmoqchi bo'lsangiz, — dedi Martini, — men bu rejaga qarshiman. Rivaresni bu ishga mos deymiz-u, lekin bu bir taxmin xolos. Haqiqatan ham, hech birimiz uni bunaqa ishda sinab ko'rganimiz yo'q, shuning uchun og'ir paytda aqlini yo'qtib qo'ymaydi, deb hech qaysimiz aytolmaymiz.

— O, bu to'g'rida xotirjam bo'ling, — dedi Rikkardo, uning so'zini bo'lib. — Savino voqeasi hech vaqt esini yo'qtib qo'yadigan odam emasligini isbot etdi.

Martini so'zini davom qildi:

– Bundan tashqari, garchi men uni kam bilsam lekin partiyaning hamma sirlarini bildirib bo‘lmaydi deb aytishga, meningcha, yetarli asosga egaman. U maqtanishni yaxshi ko‘radigan yengiltak odam ko‘rinadi. Partiyaning yashirin yo‘llar bilan mol jo‘natish ishlarini bir kishining qo‘liga topshirib qo‘yish – juda ham xatarli ish. Bu haqda siz nima deysiz, Fabrissi?

– Menda uning na dadilligiga, na dalolligiga va na irodasining mahkamligiga shubha bor. Tog‘lar unga qanchalik tanish bo‘lsa, tog‘lilar ham shunchalik yaxshi tanish, bunga ham shubha qilib bo‘lmaydi. Lekin boshqa ma’noda shubha bor. Tog‘larga o‘z pamphletlarini kontrabanda yo‘li bilan o‘tkazish uchungina borayotganiga ishonmayman. Chamamda, boshqa maqsadi ham bor chiqar. Bu gap, albatta, o‘rtamizda qolishi kerak, – bu mening gumonim xolos. Nazarimda, bitta-yarimta to‘da bilan, to‘da bo‘lganda ham, ehtimol, eng xavflilari bilan yaqin aloqasi borga o‘xshaydi.

– Masalan, qaysi to‘da bilan deb o‘ylaysiz? «Qizil belbog‘lilar» bilanmi?

– «Pichoqbozlar» bilan.

– «Pichoqbozlar» bilan? Yo‘g‘-ey, axir ular ko‘pchiligi dehqonlardan iborat qip-qizil savodsiz, siyosiy tajribasiz sayoqlar to‘dasiku!

– Savinodagi qo‘zg‘olonchilar ham shunaqa odamlar edi. Lekin oralarida rahbarlik qilib turgan bir necha ilmli kishilar bor edi. Bu to‘dada ham shunaqa odamlar bor bo‘lishi mumkin. Mana bu inobatli desa bo‘ladigan faktga e’tibor qiling: Romanyadagi eng o‘taketgan partiyalar a‘zolarining ko‘pchiligi – qo‘zg‘olonga qatnashgan odamlar. Ular ochiq qo‘zg‘olon qilish yo‘li bilan din peshvolarini yengib bo‘lmasligiga aqlari yetgach, yashirin ravishda o‘ldirish ko‘chasiga kirib oldilar. Qo‘lda miltiq bilan jangga

kirdilar-u, yengilib qoldilar. Ana shundan keyin pichoqqa yopishdilar.

– Nega endi Rivares o'shalar bilan aloqa tutadi deb o'ylaysiz?

– Guman qilaman xolos. Adabiy kontrabandamizni unga topshirishdan avval, ehtiyyot shartdan shu yog'ini aniqlab olish kerak edi. Ikkovi ishga baravar qo'l uradigan bo'lsa, partiyamizga qattiq zarar yetkazib qo'yishi mumkin. Juda qilsa partiyaga isnod keltiradi-yu, boshqa hech nima qilmaydi. Mayli, bu to'g'rida keyin bafurja gaplasharmiz, hozir sizlarga Rimdan olgan xabarlarimni aytib bermoqchiman. Shahar boshqarmasining loyihasini ishlab chiqish uchun komissiya belgilanmoqchi degan mish-mishlar bor.

### Oltinchi bob

Jemma bilan So'na Lung-Arno bo'yida jimgina borardilar. So'naning ezmaligi poyoniga yetgan ko'rindari. Rikkardolarnikidan chiqishgandan beri bir og'iz ham so'z aytmadi. Uning indamaganligidan Jemma benihoyat shod edi. U yonida bo'lganda Jemma o'zini og'ir his etar, bugun esa har vaqtdagidan ham ortiqroq qiyalar edi.

So'na birdan to'xtab, Jemmaga yuzlandi.

– Charchaganingiz yo'qmi?  
– Yo'q. Nima edi?  
– Kechqurun ishingiz ham uncha ko'p emasmi?  
– Yo'q.  
– Sizdan iltifot tilamoqchi edim – men bilan bir aylanib kelsangiz.

– Qayerga?  
– Shunday, xohlagan yeringizga.  
– Nega endi aylangingiz kelib qoldi?

— Negaligini aytolmayman. Aytish juda qiyin. Yo‘q demang, o‘tinib so‘rayman.

U ko‘zlarini ko‘tarib, Jemmaga qaradi. Ko‘zlaridagi ifoda Jemmani hayron qoldirdi.

— Sizga bir nima bo‘ldi shekilli, — dedi u, yumshoq qilib.

So‘na izmasidagi guldan bir yaproqcha uzib oldi, keyin maydalab tashlay boshladi. Bu barmoqlar ana shunday asabiy-shoshqin harakat qiluvchi allakimni Jemmaning esiga tushirdi.

So‘na ko‘zlarini o‘z qo‘llaridan olmay, eshitilar eshitilmas tovush bilan:

— Menga og‘ir, — dedi. — Bugun yolg‘iz qolgim kelmayapti. Qani, yuramizmi?

— Albatta. Undan ko‘ra, biznikiga bora qolaylik-da?

— Yo‘q, restoranda tushlik qilamiz. Sinoriya maydonida restoran bor. Yo‘q demang, iltimos qilaman, va’da bergansiz.

Restoranga kirdilar. So‘na tushlik buyurdi, ammo o‘zi qariyb og‘ziga olmadi. Bir og‘iz ham gapirmay jim o‘tirar, non uvar, dasturxon popugini burar edi.

Jemma o‘zini o‘ng‘aysiz holatda his eta boshladi. Birga borishga rozilik bergani uchun afsuslanardi. Indamay o‘tiraverish oxiri jonga tegdi. O‘zining shu yerdaligini esdan chiqarib qo‘ygandek ko‘ringan kishi bilan Jemmaning behuda gap ochgisi kelmasdi. Axiri u Jemmaga qaradi va kutilmaganda:

— Sirkni tomosha qilasizmi? — deb so‘rab qoldi.

Jemma hayron qolganidan ko‘zlarini katta ochdi.

— Shunaqa tomoshalarni hech ko‘rganmisiz? — deb so‘radi u, Jemma javob berishga ulgurmasdan.

— Yo‘q, ko‘rgan emasman.

— Bekor qilgansiz. Juda qiziq tomosha. Meningcha, shu xil tomoshalarni ko‘rmay turib, xalq hayotini o‘rganib bo‘lmaydi.

Sayyor sirk shahar darvozasining tashqarisiga qo‘ngan edi. So‘na bilan Jemma yetay deb qolganida, skripkalarning quloqlarni yeguvchi g‘ijillashi va nog‘oralarning daranglashi tomoshaning boshlanganidan xabar berdi.

Tomoshaning raqamlari aytarlik jozibali emasdi. Butun truppa bir necha qiziqchi, taqlidchi va huqqabozlardan hamda chambar orasidan sakrovchi chavandoz, hammayog‘ini bo‘yab olgan o‘yinchi qiz, ahmoqona qiliqlari bilan hammani zeriktiruvchi bukurdan iborat edi. Hazil va payrovlar quloqqa uncha taqillab tegmasa ham, lekin chaynalgan va mazasi shuncha ketgan ediki, hammasidan juda ham xunuk odobsizlik anqib turardi. Tomoshabinlar toskanlilarga xos bir muloyimlik bilan kulishar, chapak chalishar edi; hammasidan ularni bukurning qiliqlari kuldirar, bu esa Jemmaga bema’ni, sovuq tuyilardi. Bukur tomdan tarasha tushganday qiliqlar qilar, qilpanglar, qiyshayar, ishshayardi, xolos. Tomoshabinlar uni ermak qilishar, bolalarni yelkalariga olib, «nogironi» ko‘rsatardilar.

– Sinor Rivares, nahotki shularni durust narsalar desangiz? – deb so‘radi Jemma, chodirning yog‘och tiranchig‘iga suyanib turgan So‘naga o‘girilib. – Meningcha...

Uning yuzini ko‘rib, Jemma birdan to‘xtab qoldi. Jemma bu qadar poyonsiz, to‘zimsiz azob alomatini Livornoda, bog‘ darchasi oldida, Montanelli bilan turgan chog‘da ko‘rgan bo‘lmasa, inson qiyofasida bir umr ko‘rgan emasdi.

Ana bukur qiziqchilarning biridan tepki yeb, o‘mbaloq oshib tushdi va xunuk tugunga o‘xshab sahnadan qulab ketdi. Endi ikki qiziqchi o‘rtasida gap otishuv boshlandi. Ana shundagina So‘na xuddi uyqudan uyg‘ongandek qimirladi.

- Ketaylik, – dedi u. – Yo ko‘rgingiz bormi?
- Menga qolsa, ketgim bor.

Ular chodirdan chiqdilar-da, qorong'i daraxtlar oralab daryo tomon ketdilar. Bir necha daqiqa ikkalasi ham jim bordi.

– Xo'sh, tomosha qalay, yoqdimi sizga? – deb so'radi So'na.

- Ancha zerikarli ba'zi joylari bezor ham qilib yuboradi.
- Masalan, qaysi joylari bezor qilib yuboradi?
- Ana o'sha qiyshayish-ishshayishlar-da. Biram xunukki. Juda bema'ni.
- Bukurni aytayapsizmi?

So'naning o'z jismoniy kamchiliklariga tegadigan narsalarni ko'ngliga yaqin olishligini eslab, Jemma tomoshaning shu qismi to'g'risida kamroq gapirishni xohlar edi. So'naning o'zi so'ragandan keyin, tasdiqlashga majbur bo'ldi:

- Ha, eng yomoni o'sha.
- Iye, xalqni ko'proq kuldirgan o'sha bo'ldi-ku.
- O'sha bo'ldi, lekin bunga ham achinish kerak.
- Nima uchun? Didi dag'allarga mo'ljallangan uchun emasmi?
- Y-yo'q. U yerda hamma narsa dili dag'al kishilarga mo'ljallangan, lekin bunda bag'ritoshlik ham qorishib yotibdi.

So'na kulumsiradi.

- Bag'ritoshlik? Bukurga nisbatanmi?
- Men demoqchimanki... Uning o'zi bu narsaga, albatta, parvo qilmaydi. Chavandoz sakrash va o'yinchi qiz o'ynash bilan non topib yesa, bukur ham shu ishshayish, qiyshayish bilan non topib yeydi. Lekin ahvolini ko'rsang, yuraging achishib ketadi. Roli odamni xo'rlaydigan rol: unda inson qadr-qiymati oyoq osti qilinadi.
- Kim bilsin, balki u shu rolida truppaga kirmasdan oldin ko'rgan xo'rlichalik xo'rlik ko'rmas.

Hammamizning ham qadr-qimmatimiz u yo bu tariqada oyoq osti qilib kelinadi.

– Ajab emas. Lekin bu yerda... Sizga bu narsa kelishmagan eskilik bo‘lib tuyulishi mumkin, lekin odam vujudi, meningcha, tabarruk bo‘lishi kerak. Inson vujudini masxara etishlariga, uni jo‘rttaga mayib qilishlariga sira-sira chidab turolmayman.

– Inson vujudini?.. Jonini-chi?

So‘na birdan to‘xtadi-da, daryo bo‘yidagi tosh panjaraga qo‘li bilan suyanib, Jemmaning ko‘zlariga tikilib oldi: u shu taxlit javob kutar edi.

Jemma ham to‘xtadi, keyin unga ajablanib qaradi-da:

– Jonini? – deb qaytarib so‘radi.

So‘na birdan qo‘llarini siltab yozdi.

– Ana shu ayanch qiziqchida ham jon borligi – o‘scha gavda nimtasiga tiqib qo‘ylgan va unga qullik qilishga majbur bo‘lgan tirik jon, kurashib yotgan insoniy jon borligi – nahotki esingizga kelmagan bo‘lsa? Siz har narsaga shafqat ko‘zi bilan qaraysiz, qo‘ng‘iroqchalar taqilgan ahmoqona kiyim ichidagi vujudga achinasiz-u, panohsiz yalang‘ochligini yashirishga aqalli masxaraboz kiyimiga ham ega bo‘limgan bebaxt jonni esdan chiqarasiz! O‘ylab ko‘ring, u yalang‘och jon sovuqda qanday titraydi, el ko‘zida uyat naqadar bo‘g‘ib qiynaydi, odamlar masxarasi gavron kabi azoblaydi, kulgilari qizigan temirday yondiradi! O‘ylab ko‘ring, u bebaxt jon tevaragiga – tog‘larga jovdiraydi, lekin tog‘lar uning ustiga ag‘darilishni, jabr etguvchilardan qutqazishni istamaydi; toshlarga mo‘ltiraydi, lekin toshlar rahm qilmaydi, ustiga yiqilib berkitib olmaydi; kalamushlarga hasad qiladi, chunki ular inlariga kirib, berkina oladilar. Yana shu narsa ham esingizda bo‘lsinki, jon degan narsaning tili yo‘q, ovozi yo‘q, dod solishni bilmaydi. Faqat sabr, sabr, yana sabr qilishga majbur... Darvoqe, bo‘limg‘ur gaplarni

aytib yubordim... Nimaga kulmaysiz? Qiziq gaplar ta'sir qilmaydimi sizga?

Jemma unsiz bir jimlik ichida o'girilib, daryo bo'y bilan sekin-sekin yurib ketdi. So'naning tushunib bo'lmaydigan hayajoni bilan sayyor sirk orasida biron aloqa bo'lishi mumkinligi shu kecha davomida bir marta ham xayoliga kelmadı. Mana endi, uning birdan lovullab ketishi Jemma ko'zlar oldida o'z ichki hayotining xunuk bir manzarasini ochib berganda, Jemma unga butun borlig'i bilan shu qadar achindiki, tasalli berish uchun bir og'iz bo'lsa ham so'z topolmadi. U Jemma yonida suvga qarab borar edi.

— Hozir men aytgan narsalarning hammasi, — dedi birdan So'na, unga ishonmagan bir nazar bilan qarab, — mendagi xayolparastlik natijasi — shuni tushunishingizni istar edim. Menda bir zaif tomon bor, u ham bo'lsa xayolparastlikka berilish. Ammo xayol qilgan narsalarimga ishona boshlasalar, betoqat bo'lib ketaman.

Jemma hech qanday javob qilmadi, yana jim bordilar. Uffisi darvozasi yoniga yetganlarida So'na ko'chani kesib o'tdi-da, konkaning relsi yaqinida g'ujmayib yotgan qora narsa ustiga engashdi.

— Nima bo'ldi, bolagina? — deb so'ragan edi, Jemma uning ovozidagi kutilmagan yumshoqlikka hayron bo'ldi. — Nega uyingga ketmaysan?

G'ujanak yotgan narsa qimirladi, keyin past, ingrovchi tovush bilan bir nimalar deb javob qildi. Jemma ular yoniga yetib kelib, ust-boshi yirtiq, hammayog'i kir, otilarga kirgan bir bolaning qo'rqqan yirtqich bolasiga o'xhash tosh yo'lda pisib yotganini ko'rdi. So'na egilib, bolaning sochlari to'zg'igan boshchasini silardi.

So'na bolaning uqish qiyin bo'lgan javobini durustroq eshitish uchun, yana ham egilib:

– Nima bo‘ldi? – deb so‘radi. – Uyga borib, ko‘rgaga kirib yotish kerak. Kichkina bolalar kechasi ko‘chada yurmaydi. Muzlab ketibsan. Qo‘lingni berchi, azamat, ha barakalla. Uying qayerda?

So‘na bolani ko‘taraman deb qo‘lidan ushlagan edi, u voy-voylab yana o‘zini yerga tashladi.

– Nima bo‘ldi, gapirsangchi? – deb so‘radi So‘na, bola yoniga tiz cho‘ka turib.

Bolaning yelkasi bilan nimchasi laxta-laxta qon edi.

– Aytsangchi, nima bo‘ldi, axir? – deb So‘na muloyim tovush bilan yana so‘radi: – yiqildingmi? Yo‘q? Yo birov urdimi? Men ham shundaydir deb o‘ylovdim-a. Kim urdi?

– Amakim.

– Ha-a, amaking. Qachon urdi?

– Bugun ertalab. Mast edi-da, men...

– Qo‘liga tushib qolding, shunaqami? Mastga yaqin borish yaramaydi, bolam. Mastlar yomon ko‘rishadi. Bola bechorani nima qilsak ekan-a, sinora? Yur, o‘g‘lim, yoruqq; yelkangni ko‘rsatchi. Bo‘ynimdan quchoqla, qo‘rqma barakalla.

So‘na bolani qo‘liga oldi-da, ko‘chaning u yuziga o‘tkazib, keng tosh supaga qo‘ydi. Cho‘ntagidan pichog‘ini oldi, bola boshini o‘z ko‘ksiga bosib turib, yirtilgan yengini chaqqon kesib tashladi. Jemma yarali qo‘lni ushlab turdi. Yelka, kaltakdan ezilgan, shishgan, qo‘lda esa chuqur yara hosil bo‘lgan edi.

So‘na yengi shilmasin deb, qo‘lini dastro‘mol bilan bog‘lar ekan:

– Shunday kichkina bolani qanday urib bo‘ladi-ya? – dedi. Keyin undan so‘radi: – Nima bilan urdi?

– Temir kosov bilan. Do‘kondan ozgina polenta<sup>1</sup> olaman deb, bir soldo<sup>2</sup> so‘rovdim, kosov bilan bir urdi.

<sup>1</sup> Polenta – bo‘tqaga o‘xhash xalq yemagi.

<sup>2</sup> Soldo – mayda chaqa.

So'na xo'rsindi. Keyin yumshoq tovush bilan:

– Ha-a, juda yomon og'rigandir? – dedi.

– Kosov bilan uruvdi, qochib ketdim. Urdi-da, shuning uchun qochib ketdim.

– O'shandan beri hech nima yeganim ham yo'q degin?

Bola javob berish o'miga chinqirib yig'ladi. So'na uni supadan ko'tarib oldi.

– Mayli, mayli, o'zimiz tuzatamiz seni. Bitta izvosh topsak, yaxshi bo'lardi-da. Hammasi teatr oldidamikan deb qo'rqaman, – bugun tomosha bor u yerda. Sizni shu ahvolda shahar ichida ergashtirib yurishga xijolat tortaman, sinora, lekin...

– Men siz bilan birga boraman. Balki yordam kerak bo'lib qolar sizga. Lekin uni shuncha uzoqqa ko'tarib bora olasizmi? Uncha og'ir emasmi?

– O, xotirjam bo'ling.

Faqat teatr oldidagina bir necha izvosh topdilar, lekin ular ham band qilib qo'yilgan edi. Tomosha tamom bo'lib, odamlar chiqishayotgan ekan. Zittaning nomi devor yozuvlariga katta-katta harflar bilan yozib qo'yilibdi. U baletda qatnashardi. So'na Jemmadan bir zumgina kutib turishni iltimos qilib, o'zi artistlar eshigi yoniga keldi-da, xizmatchilarning biridan:

– Madam Renni jo'nab ketdilarimi? – deb so'radi.

U qo'lida ko'cha bolasini ko'tarib olgan, lekin o'zi bashang kiyangan janobga ajablanib qaradi-da:

– Yo'q, janoblari, – deb javob qildi. – Madam Renni hozir jo'naydilar. Ana u kishining izvoshi. Ha, mana o'zları ham chiqib qoldilar.

Zitta yosh kavaleriya zabitining qo'liga suyanib, zinapoyadan tushib kelmoqda edi. Bal ko'ylagi ustidan tashlab olgan alanga yanglig' qizil baxmal plashda nihoyatda jozibali-chiroyli edi. Tuyaqush patlaridan yasalgan kattakon yelpig'ich yonida osilib turardi. Eshik oldida to'xtadi-da

qo'lini zabit qo'lidan sug'urib olib, tamom hayrat ichida So'na yoniga keldi.

— Feliche! — deb xitob qildi u. — Qo'lingizdag'i nimasi?

— Bu bolani ko'chadan topib oldim. Uraverib, hammayog'ini ezib tashlashibdi, och ham. Bir iloj qilib uyga tezroq olib borish kerak; kira qilay desam, hech qayerda izvosh yo'q, siznikini olsam deb turibman.

— Feliche, rasvosi chiqqan bu gadoyvachchani uyga olib boraman deb-ku o'ylamassiz? Politsiyaga odam yuboring, yo yetimxonaga olib ketishsin, yo boshqa biron yerga joylashsin. Shahardagi hamma darbadarlarni uyga yig'averish ham yaramaydi-a.

— Bola yaralangan, — dedi So'na, so'zida davom etib, — ertaga yetimxonaga yuborsak bo'ladi, lekin ungacha olib ketib, qornini to'yg'azish kerak.

Zitta yuzini burishtirib, jirkandi.

— Uni qarang, kallasini yelkangizga qo'yib olibdi. Qanday toqat qilasiz: iflosligini ko'ring!

Rivares unga g'azabi qaynab qaradi. Keyin keskin qilib:

— Bola och, — dedi, — ochlikning nimaligini bilmaysiz deyman.

Jemma o'rta ga tushdi:

— Sinor Rivares, mening uyim shu yerga yaqin, menikiga olib bora qolaylik, izvosh topmasangiz, mayli, kechasi yonimda olib qolaman.

So'na yalt etib Jemmaga o'girildi:

— Olib qolasizmi?

— Albatta. Oqshomingiz xayrli bo'lsin, madam Renni.

Lo'li qiz sovuqqina ta'zim qildi. Keyin yelkalarini jahl bilan bir siltab, yana zabit qo'ltig'iga kirdi, ko'ylagining uzun etagini ko'tarib, qo'ldan ketishga oz qolgan izvosh sari ular yonidan suzganday bo'lib o'tib ketdi.

— Izvoshni siz bilan bolaga yuboraman, sinor Rivares, — dedi Zitta, izvosh eshigi oldida to'xtab.

— Xo‘p, qayerga kelishini aytaman.

So‘na izvoshchining yoniga kelib manzilni berdi-da, yana qo‘lidagi yuki bilan Jemma oldiga qaytdi.

Ketti bekasini kutib, uxmlamay o‘tirgan ekan. Voqeani eshitdi-yu, darhol issiq suv va yara bog‘lashga lozim bo‘ladigan narsalarni keltirgani yugurib chiqib ketdi. So‘na bolani stulga o‘tqazdi, o‘zi esa bola yoniga cho‘kka tushib olib, yirtiq kiyimlarini tez-tez yechib tashladi, keyin yaralarini yuvib bog‘ladi. Bolani yuvib, issiqodeyalga o‘rab bo‘lganda, Jemma patnisda ovqat ko‘tarib kirdi.

Jemma kichkina, g‘alati vujudni ko‘rish bilan kulum-sirab:

— Endi bemoringizga ovqat bersak bo‘ladimi? — deb so‘radi.

So‘na o‘rnidan turdi, keyin boladan yechib olgan lattaputalarini yig‘ishtirib o‘radi.

— Uyingizni juda ivirsitib yuborganga o‘xshaymiz, — dedi u. — Bularning hammasini yoqib tashlash kerak. Ertalab yangi kiyim olib beraman. Biroz konyagingiz bormi, sinora? Bolaga bir necha qultum ichirib qo‘yish kerak. Ijozat bersangiz, men chiqib qo‘llarimni yuvsam.

Bola ovqat yeb bo‘lgandan so‘ng, boshini So‘naning ko‘ksiga qo‘yib, quchog‘ida darrov uxbab qoldi. Jemma Ketti bilan uyni yig‘ishtirishib bo‘lib, yana stol yoniga kelib o‘tirdi.

— Sinor Rivares, uyga qaytishdan avval qorningizni to‘yg‘azib oling. Tushlik ham qilmadingiz hisobi, mana, vaqt ham kech bo‘lib qoldi.

— Bir finjon inglizcha choy qilib berilsa, jonim bilan ichardim. Sizni shuncha bezovta qilayotganim uchun xijolatdaman.

— Hechqisi yo‘q. Bolani divanga yotqizib qo‘ying. Charchatib qo‘yadi sizni. Shoshmay turing, avval yostiqqa choyshab yopib qo‘yay. Endi nima qilmoqchisiz?

— Ertagami? Aroqxo'r amakisidan ham boshqa qarindoshi bormi-yo'qmi, izlab ko'raman. Yo'q bo'lsa, madam Renni aytganiday qilib, yetimxonaga berish kerak bo'ladi. Unga rahm yuzasidan bo'yniga tosh bog'lab, daryoga tashlab yuborilsa, tuzukroq bo'larmidi balki? Lekin bunday ish qilish vijdonimga hech ham to'g'ri kelmaydi. Uxlab qoldi, bechora. Shunaqayam badbaxt bola bo'ladimi! Ko'chada qolgan har qanday mushukdan ham ojiz, himoyasiz.

Ketti patnis keltirganda, bola ko'zlarini ochib, tevaragiga taajjublanib qaradi. So'nani tanidi-yu, unga o'zining tabiiy homiysiday qarab, divandan tushdi va kattakon yopinchiq ichida o'ralashib, So'na yoniga borib o'tirdi. Endi u savol berar darajada o'ziga kelgan edi. So'naning bir parcha shirinlik ushlab turgan mayib qo'lini ko'rsatib:

— Nima bu? — deb so'radi.

— Bumi? Shirinlik. Sening ham yeging kelayaptimi? Bas endi, ko'p ovqat yeding. Ertagacha sabr qil, do'stim.

U qo'lini cho'zdi-da, So'naning barmoqlari kesilgan joyini va qo'lidagi kattakon yara izini ushlab:

— Yo'q, manavi! — dedi.

So'na qo'lini darrov pastga tushirib oldi.

— E, bumi?.. Bu ham sening yelkangdagidan. Meni o'zimdan kuchliroq odam urgan.

— Og'rigandir, a?

— O, bunisi esimda yo'q, lekin boshqa vaqtlar yegan kaltaklarimchalik og'ritmagan bo'lsa kerak. Bor, uxla, vaqt kech bo'ldi.

Izvosh kelganda, bola yana dang qotib uxlab yotar edi. So'na uni avaylab qo'lga oldi va shu taxlit pastga olib tushdi. Keyin eshik oldida to'xtab:

— Siz bugun menga mehribon farishta bo'ldingiz, — dedi Jemmaga, — lekin bu narsa kelajakda har qancha janjallashishimizga xalaqit bermaydi, albatta.

— Men birov bilan janjallahay deb turganim yo‘q, janjallahishni xohlamayman ham.

— Shunday, lekin men xohlayman. Hayotda janjal bo‘lib turmasa, odam bo‘g‘ilib ketadi. Yaxshi janjal — yer tuzi emish. Bu hatto sirk tomoshalaridan ham yaxshiroq.

So‘na shu so‘zlarni aytdi-da, qo‘lida uxbab yotgan bolani avaylab, zinapoyadan tushib ketdi.

### Yettinchi bob

Martini adabiy komitetning oyda bir bo‘ladigan majlisiga taklifnomalar yuborgan edi; yanvarning boshlarida So‘nadan qalam bilan naridan beri qilib yozilgan qisqagina javob xati olindi: «Ko‘p afsus, borolmayman», degti. Bu javob Martinining jahlini chiqardi, chunki taklifnomada: «Juda muhim» deb ogohlantirilgan edi. Ishga bunday beparvolik bilan qarashi Martiniga qariyb gustoxlikday tuyuldi. Bundan tashqari, shu kun uchta xat keldi, uchalasi ham xunuk xabar keltirdi, buning ustiga shamolning sharq tomondan esishi dard ustiga chipqon bo‘lib tushdi. Mana shu sabablar tufayli Martinining ta’bi tirriq bo‘lib qoldi, shuning uchun majlisda doktor Rikkardo: «Rivares yo‘qmi?» deb so‘raganda, Martini to‘ng‘illab berdi.

— Yo‘q. Majlisdan ham muhimroq narsa topib olgan ko‘rinadi, shuning uchun kelolmapti, to‘g‘rirog‘i, kelishni xohlamabdi.

— Martini, butun Florensiyada sizchalik ziqla odam bo‘lmasa kerak, — dedi Galli, jahli chiqib. — Sizga yoqmagan odam nima qilsa ham, baribir, sizning ko‘zingizga yomon bo‘lib ko‘tinaveradi. Rivares qanday qilib keloladi, axir kasal yotibdi-ku?

- Kim aytdi sizga kasal yotibdi deb?
- Nima, o'zingiz bilmaysizmi? To'rt kun bo'ldi, o'rnidan turolmayapti.
- Nima bo'pti?
- Bilmadim. Ikkalamiz uchrashishimiz kerak edi, shuni ham payshanbaga qoldirdi. Kecha oldiga borsam, qattiq kasal, hech kimni qabul qilmaydi deb aytishdi. Rikkardo yonidadir deb o'ylovdim.
- Yo'q, men ham bexabarman. Kechqurun borib ko'raychi, balki biron narsa kerakdir.

Ertasiga ertalab Rikkardo rangidan qon qochgan, charchagan holda Jemmanikiga kirib keldi. Jemma o'tirib olib, bir xil ovozda raqamlarni aytar, Martini esa bir qo'lida zo'raytiruvchi oyna, ikkinchi qo'lida ingichka qilib ochilgan qalam bilan ularni kitob betiga maydalab yozib borardi. Jemma birov shift yozib turganda to'xtatish mumkin emasligini bilgani uchun Rikkardoga sabr qilish ishorasini qildi. U Jemma yonidagi kichik divanga o'zini tashladi-da, bosib kelayotgan mudroqdan o'zini zo'rg'a tiyib esnay boshladi.

– 2, 4; 3, 7; 6, 1; 3, 5; 4, 1, – deb Jemmaning ovozi, xuddi mashina ovoziday tekis, bir xil jaranglar edi, – 8, 4; 7, 2; 5, 1. Shu bilan jumla tamom, Chezare.

Jemma to'xtagan joyiga to'g'nog'ich sanchib qo'yib, Rikkardo tomonga o'girildi.

– Salom, doktor. Ahvolingiz juda parishon! Tobingiz yo'qmi?

– Yo'q, tobim joyida, faqat juda charchadim. Rivares yonida kechasi bilan azob chekib chiqdim.

– Rivares yonida?

– Kechasi bilan boshida o'tirib chiqdim, endi kasalxonaga borishim kerak. Shu bir necha kun kasaliga qaraydigan biron ta odam bo'lsa, bilsangiz, so'ray deb kirgan edim. Ahvoli juda og'ir. Men-ku qo'limdan kelganini

qilaman, albatta. Lekin hozir qo'lim juda yomon band, hamshira keltiray, kasalingizga qarab tursin desam, bunaqa gapni eshitgisi ham kelmaydi.

– Nima kasal bo'pti?

– Kasalining asosiy sababi – asablarining ishdan chiqqanligida, bunisi shubhasiz. Lekin bundan ham kattaroq sabab borki, u ham bo'lsa – o'z vaqtida shifolanmagan yarasi. Ruhi juda yomon tushib ketgan. Bu yarani, bo'lsa-bo'limasa, Janubiy Amerikadagi urush mahalida orttirgan bo'lsa kerak, shuning uchun ham o'sha vaqtda yaxshiroq davolashmagan; hamma narsa naridan beri pala-partish, qo'pol qilingan shu ahvolida tirik qolganiga hayronman. Kasali tuzalmaydigan kasal, tez-tez qo'zg'ab turadi, arzimagan bir narsa ta'sir qildimi, bo'ldi qo'zg'ayveradi.

– Xavfli dardmi?

– Yo'q... shunday paytlarda bir yomon xavf borki, kasal dardining zo'ridan o'zini bilmay zahar ichib qo'yishi mumkin.

– Bundan chiqди, azobi qattiq ekan-da?

– Dahshatli! Hayronman, qanday chidarkan? Kechasi kuchli dori berishga majbur bo'ldim. Menku asabiy kasallarga bunday dori berishni yomon ko'raman-a, lekin qiyognog'i ortib ketgandan keyin bermay turolmadim, biroz bo'lsa ham dardini yumshatish kerak edi.

– Bo'limasa, juda yomon asabiydir?

– Yomon bo'lganda qanday! Bunga qaramay, irodasi odamni hayron qiladigan darajada kuchli. Og'riqning zo'ridan behush bo'lib qolguncha o'zini juda yaxshi tinch tutdi. Lekin tongotarga kelib meni rosa bopladi-da! Dardi qachon tutgan deb o'ylaysiz? Tutganiga besh kun bo'libdi, bema'ni uy egasi hisobga olinmasa, yonida qimir etgan jon bo'lmabdi. Uy bekasi shunaqa qattiq uxlarkanki, tom ag'darilib tushsa ham bilmas ekan. Uxlamaganda ham, baribir, undan sariq chaqalik naf yo'q.

– O‘yinchi qizi-chi?  
– Qarang, juda alomat ishlar! O‘yinchi qizini yoniga yo‘latmaydi ham. Uni ko‘rguday bo‘lsa, jon-poni chiqib ketadi. Bu odamga hech tushunib bo‘lmaydi – qarama-qarshiliklar omixtasimi, nima balo! – Rikkardo cho‘ntagidan soatini olib, tashvishlanib qaradi. – Kasal-xonaga kechikdim, na chora. Biron marta mensiz boshlasa, boshlabti-da yordamchim. Afsuski, ilgariroq menga ma’lum qilishmapti: o‘zini shuncha vaqt yolg‘iz qoldirish kerakmasdi.

– Kasal ekan, nimaga ayttirmaydi? – deb so‘radi Martini. – Yolg‘iz tashlab qo‘ymasligimizni bilsa kerak edi.

Gapga Jemma aralashdi:

– Bekor qilibsiz, doktor, o‘zingiz kechasi bilan shuncha qiynalib chiqquncha birontamizga odam yuborsangiz yaxshiroq bo‘lardi.

– Azizim, Galliga odam yubormoqchi bo‘ldim, nima qilay, Rivares payqab qolib shunday jahli chiqdiki, fikrimdan darrov qaytishga majbur bo‘ldim. Keyin kimni xohlashligini so‘rovdim, qo‘rquv to‘la ko‘zlari bilan menga qaradida, birdan yuziga qo‘llarini to‘sib: «Ularga ayta ko‘rmang: kulishadi», dedi. Endi unga bir fikr hech tinchlik bermaydi: nazarida, hamma nimagadir kuladi. Lekin nimaga kulishlarini hech bilolmadim: nuql ispancha gapiradi. Haqiqatan ham kasallar ko‘p vaqt tuturiqsiz narsalarni gapiradilar.

– Hozir oldida kim bor? – deb so‘radi Jemma.  
– Uy bekasi-yu, xizmatkoridan boshqa hech kim yo‘q.  
– Bo‘lmasa, men boraman, – dedi Martini.  
– Rahmat. Men kechqurun bir kirib chiqaman. Kasaliga qanday qarash kerakligini yozib qo‘ydim, o‘sha qog‘ozini katta deraza yonida stol g‘aladonidan topasiz. Kuchli dori bo‘lsa, ikkinchi xonadagi javonda. Agar yana og‘riq boshlansa, kuchli dori bering, faqat bir o‘lcham

bering, ko'p bo'lmasin. Shishani bo'lsa, ko'ziga yaqin yerga sira qo'ya ko'rmang, ha, tag'in me'yoridan ortiq ichib qo'ymasin.

Martini kasalning nimqorong'i xonasiga kirganda, u yarq etib boshini o'girib qaradi-da, o't bo'lib yongan qo'lini cho'zdi.

— A, Martini! Meni tahririm uchun so'kkani keldingizmi, — dedi So'na, o'zining odatdag'i yengiltak ohangida gapirishga bekorga tirishib. — Kecha komitet majlisiga borolmaganim uchun so'kmang: tobim joyida emasdi, undan keyin.

— Qo'ying hozir o'sha komitetni. Hozir Rikkardoni ko'ruvdim, yordam-pordam kerak emasmikan, so'ray deb keldim.

So'naning yuzi birdan tosh yuzga aylandi.

— O, marhamatingiz zo'r-ku. Lekin bekor tashvish tortibsiz: men shunchaki bexud bo'lib turibman xolos.

— Men ham Rikkardonning so'zidan shunday deb tushundim. Kechasi yoningizda o'tirib chiqibdi shekilli?

— Tashakkur. Endi ahvolim tuzuk, menga ortiq hech narsa kerak emas.

— Tuzuk. Bo'lmasa men narigi xonada o'tirib turaman: balki xoli qolgingiz bordir. Eshikni qiya qilib qo'yaman, kerak bo'lsam chaqirarsiz.

— Yo'q-yo'q, tashvish tortmang. Ishoning gapimga, menga hech nima kerak emas. Ikki o'tada vaqtingiz behuda ketadi, xolos.

— Qo'ying bunaqa bema'ni gaplarni! — deb Martini qo'pol qilib So'naning so'zini bo'ldi. — Nega boshimni aylantirasiz? Yo meni ko'zi yo'q deb o'ylaysizmi? Jim yoting, undan ko'ra uqlashga harakat qiling.

U qo'shni xonaga chiqdi-da, eshikni ochiq qoldirib kitob o'qishga o'tirdi. Hademay, kasalning bir necha marta bezovtalanib qimirlaganini eshitdi. Martini kitobni qo'yib,

qulq soldi. Biroz jimlik cho'kdi, keyin yana bexudlik harakatlari boshlandi, so'ngra ichidan yopirilib chiqayotgan faryodni bosish uchun tishini tishga bosib olgan odamniki singari tez, og'ir nafaslar eshitildi. Martini yana, kasal oldiga kirdi.

— Yo biron nima qilaylikmi, a, Rivares?

U javobni ham kutmay o'ringa yondashdi. So'nada o'lik singari qon qolmagan edi; Martiniga bir qaradi-yu, indamay bosh chayqadi.

— Kuchliroq dori bersam qalay bo'larkin? Rikkardo: og'riq kuchaysa, biroz kuchli dori berish mumkin, degandi.

— Yo'q, rahmat. Yana chidayman. Keyin, balki, yomonroq...

Martini yelkalarini bir qisib qo'yib, karavot yoniga o'tirdi. Bir soatcha kasalga qarab o'tirdi, bu vaqt unga poyonsizday tuyildi; keyin o'midan turib kuchli dori keltirdi.

— Rivares, bunday qilaverish yaramaydi axir. Siz-ku chidarsiz-u, lekin men chiday olmayman. Dori ichish kerak.

So'na churq etmay dorini ichdi. Keyin teskari o'girilib, ko'zlarini yumib oldi. Martini tag'in o'tirdi. Kasalning nafas olishi asta-sekin chuqurlashib bordi.

So'na shu qadar azob chekkan ediki, uyg'onmasdan uzoq uxladi. Soatlar ketidan soat o'tib bordi, lekin u sira qimir etmadi. Martini bir necha bor kelib qimirlamay yotgan gavdaga razm soldi, unda nafasdan boshqa hayot nishonasi yo'q edi. Yuzi o'likniki singari shu qadar oqarib ketgan ediki, Martini ko'rib qo'rqib ketdi. Kuchli dorini ko'p berib yuborgan bo'lsa-ya? So'naning majaqlangan chap qo'li ko'rpa ustida yotgan edi, Martini uni uyg'otmoqchi bo'lib, shu qo'lini sekin silkitdi. Shu payt tugmalari yechiq yengi bilagiga sidirilib tushdida, panjasidan to tirsagigacha ko'mib yotgan chuqur va xunuk yara izlari ko'rinish ketdi.

— Yaralar yangiligida bu qo‘Ining ahvoli naqadar dahshatli ediykin! — degan so‘zlari eshitildi Rikkardoning orqadan.

— E, bormisiz! Buni qarang, Rikkardo, shunaqayam qattiq uqlashi kerakmi, a? Kuchli dori bergenimga o‘n soatcha bo‘ldi, qani endi biror yerini bunday qimirlatib qo‘ysa!

Rikkardo egilib nafasiga qulq soldi.

— Hechqisi yo‘q, nafas olishi yaxshi. Majoldan ketib qolgan-da, shuning uchun. Kechasi bilan shunday, qiynalib chiqqandan keyin ertalab yana dardi tutishi mumkin. Kechasi yonida biron kishi o‘tirar deyman?

— Galli o‘tiradi. Soat o‘nda boraman deb ayttirib yuboribdi.

— Hozir soat ham o‘n bo‘lib qolayozdi... Ha-ha, uyg‘onayapti! Yuguring, tezroq issiq suyuq ovqat berishsin. Sekinroq, Rivares! Janjal qilishning keragi yo‘q, men yepiskop emasman...

U birdan boshini ko‘tarib turdi-da, qo‘rquvli ko‘zlar bilan oldiga jovidirab qaradi. Keyin ispanchasiga shoshib so‘radi:

— Men chiqamanmi? Tomoshabinlarni yana bir zumgina mashg‘ul qilib turing. Men... A! Sizni tanimayapman, Rikkardo. — U xonaga ko‘z yogurtirib chiqdi, keyin tevarakdagi narsalarning voqeligiga ishonmagandek, peshonasini siladi. — Martini! Uxlabman shekilli...

— Uxlaganda qanday! Ertaklardagi uxlab yotgan go‘zal qizday! Surunkasiga o‘n soat-a! Endi suyuq ovqatni ichib, yana uqlashingiz kerak.

— O‘n soat deysizmi? Martini, nahotki jilmasdan o‘tirgan bo‘lsangiz shu yerda?

— Kuchli dorini ko‘p berib yubordimmi deb o‘zim ham qo‘rqib o‘layozdim.

So‘na unga quvlik bilan bir qarab qo‘ydi.

— Ishingiz o'ngidan kelmapti-da bu safar. O'livorgan bo'lsam-u, komitetingiz ishlari moydek ketardi-ya! Hoy, Rikkardo, meni nima qilasiz – boshingizga urasizmi? Xudo haqqi, meni o'z holimga qo'yinglar, nima degan gap bu? Doktor desa jonim chiqadi.

— Xo'p, mana buni ichib yuboring, keyin o'z holingizga qo'yaman-u ketaman. Ammo bir-ikki kundan keyin kelib, yana bir ko'raman. Nazarimda, kasalning xavfli payti o'tdi; endi bazmga kelgan ajal soyasiga uncha xushlamay qoldingiz.

— O, yaqinda butunlay sog'ayib ketaman, tashakkur... Kim u? Gallimi? Bugun mening oldimga hamma barno yigitlar yig'iladiganga o'xshaydi deyman...

— Kechasi, yoningizda o'tirgani keldim.

— Bema'nilik. Menga qorovul bo'lishning hech hojati yo'q. Uylaringizga boraverenglar. Dardim tutgan taqdirda ham, baribir, yordam qila olmaysizlar: endi kuchli dorini og'zimga olmayman. Uni bir marta ichgan tuzuk...

— Afsuski, gapingiz to'g'ri, — dedi Rikkardo. — Lekin bu qoidaga har qachon amal qilib bo'lmaydi-da.

So'na unga bir qarab qo'yib, kulumisiradi.

— Qo'rwmang. Amal qilishni xohlasam, allaqachon amal qilardim.

— Har holda, biz sizni yolg'iz qoldirib ketmaymiz, — dedi Rikkardo, quruqqina qilib. — Anavi uyga men bilan bir zumgina chiqib kelng, Galli, sizda gapim bor. Tinch uxlang, Rivares! Ertaga kelaman endi.

Rikkardo ketdi, Martini esa narigi xonada Galli bilan gaplashib qoldi. Keyin ko'cha eshigiga chiqqanda bog' darchasi oldiga bir kema bo'lmasi kelib to'xtaganini eshitdi. So'ngra izvoshdan bir xotin kishi qorasi tushganini va u bog' yo'li bilan uyga qarab ketganini ko'rdi. Bu Zitta edi. Biron kechadan kelayotgan bo'lsa kerak. U

shlyapasini bir ko'tardi-da, Zittaga yo'l berish uchun o'zini chetga oldi, keyin qorong'i tor ko'cha bilan Poggio Imperiale maydoniga qarab ketdi. Lekin oradan bir daqiqa ham o'tmay, ko'cha eshigi ilgagi shiqirlab ochildida, orqasidan kimningdir tezlab kelayotgan oyoq dupuri eshitildi.

— Bir zungina to'xtang-a! — Bu Zittaning ovozi edi.

Martini o'girilar-o'girilmash Zitta to'xtadi-da, yo'l bo'yidagi changalni ushladi; keyin, panjarani barmoqlari bilan bir-bir siypab, sekin-sekin yurib bordi. Ko'cha oxirida bittagina qo'l chirog'i bor edi.

Martini uzoqdan tushib turgan o'sha xira yorug'da Zittaning tortinayotgandek yo biron narsadan uyalayotgandek, boshini solintirib kelayotganini ko'rdi. U ko'zlarini yerdan olmay:

— Ahvoli qalay? — deb so'radi.

— Ertalabgidan ancha tuzuk. Kuni bilan uxladi, hozir majoli uncha qurigan ko'rinxaydi. Dardi tutib bo'ldi shekilli.

— Ahvoli yomon bo'ldimi?

— Shunchalik yomon bo'ldiki, bundan badtari bo'lmas.

— Men ham shundaydir deb kuyuvdim. Meni oldiga kirgizmay qo'ydimi — tamom, shuning o'zi ahvolning yomonligini bildiradi.

— Dardi shunaqa tez-tez tutib turadimi?

— Nima desam ekan... Har doim bir xil emas. Yozda, Shveysariyada ekanligimizda, soppa-sog' edi, lekin undan avvalgi qishda juda yomon bo'ldi; biz u vaqt Venada turar edik. Ko'pincha meni oldiga qo'ymas edi. Og'ridi deguncha meni jini suymay qoladi. Dardi qo'zg'ala boshlaganini sezdimi bo'ldi, meni darrov balga yoki konsertga jo'natadi, yo bo'lmasa shunga o'xshash bahona bilan biron yerga chiqarib yuboradi, o'zi esa uy ichidan qulflanib oladi. Ba'zi

kunlar yashiriqcha uyi oldiga kelib, eshigining tagida kuni bilan o'tirardim. Bilib qolsami, jon-poni chiqib ketardi. Agar eshigining tagida it angillasa kirgizardi-yu, lekin meni qo'ymas edi.

Zitta ranjigan tovush bilan xo'mrayib, g'alati qilib gapirdi.

— Endi ahvoli yaxshi bo'lib ketar deb umid qilaman, — dedi Martini, yumshoq qilib. — Doktor Rikkardo bu ishga qattiq kirishdi. Butunlay tuzatib yuborishga muvaffaq bo'lsa ham ajab emas. Ammo ahvolini vaqtincha yengillatib turish har doim mumkin. Attang, Rikkardoga darrov odam yubormabsiz-da. Ilgariroq kelgan bo'lsak, kasal bunchalik azob chekmasdi. Yaxshi qoling!

Martini unga qo'l cho'zgan edi, Zitta orqaga tashlandi.

- O'ynashining qo'lini qisgingiz yo'q, bilib turibman.
- Ixtiyorингиз, — dedi Martini, izza bo'lib.

Zitta yer tepindi. Keyin:

— Sizlarni ko'rishga ko'zim yo'q! — deb qichqirdi. Ko'zлari esa yonib turgan cho'g'day yaraqladi. — Hammangizni ko'rishga ko'zim yo'q! Sizlar uning oldiga kelasizlar, siyosat to'g'risida gaplashasizlar, kechalari yonida o'tirishingizga va dori-darmonlar berishingizga yo'l qo'yadi, men bo'lsam eshididan ham mo'ralay olmayman!.. U sizlarning nimangiz? Mendan tortib olishga nima haqlaringiz bor? To'ydim sizlardan, bezor bo'ldim!.. Bezor bo'ldim!

U ho'ngrab yig'lab yubordi-da, ko'cha eshigini kuchining boricha taraqlatib yopdi va boqqa yugurib kirib ketdi.

Martini yana boyagi qorong'i tor ko'chada keta turib: «Ana xolos! Bu xotin So'nani nihoyatda sevadiganga o'xshaydi. Dunyoning ishlari qiziq-a!..» deb o'yladi.

## Sakkizinchi bob

**S**o'na tez tuzala boshladi. Rikkardo kelasi haftada ham kelib turdi; shu kelishlarining birida uni ko'rpa-to'-shakda emas, egniga turk choponini kiyib olib, kushetkada o'tirgan holatda ko'rdi. Martini bilan Galli ham o'sha yerda edilar. Kasal toza havoga chiqish niyati borligini aytgan edi, Rikkardo kului-yu, vodiy bo'ylab to Fezolagacha aylanib kelsangiz yaxshi bo'larmidi deb so'radi. Keyin kasalning qitig'iga tegib:

— Yo bo'lmasa, Grassininikiga tashrif buyurasiz-mi-a? — dedi. — Madam Grassini sizni ko'rsa, boshi osmonga yetar deb o'layman, yana shunday rangsiz, majolsiz holda.

So'na achinarli bir tarzda qo'llarini siltadi.

— Janoblar, shunday narsa xayolimga ham kelmaptiya. Borsam, meni italyan jabrdiydalaridan deb hisoblaydiyu, ana undan keyin vatanparvarlik to'g'risida gap sota boshlaydi. Men ham o'zimni jabrdiyda qilib ko'rsatishim, meni turmada nimtalab tashladilar, so'ngra rosa dabdalaman ni chiqardilar, deb aytishim kerak bo'ladi. Shunda men nimalar his qilganimni surishtira boshlaydi. Shunday desam ishonmaydi deb o'laysizmi, Rikkardo? Garov o'ynayman uning eng uchchiga chiqqan yolg'onga ham ishontirsa bo'ladi. O'ynaysizmi? Yutqazsam hind xanjarimni bera-man, yutsam — kabinetingizda spirtga solib qo'yan soliteringizni olaman.

— Rahmat, men odam o'ldiradigan qurolni yomon ko'raman.

— Soliter ham o'ldiradi-yu, lekin uncha chiroyli emasda, qurg'ur.

— Har holda, do'stim, menga xanjar kerak emas, soliter kerak. Ha, endi boray... Martini, bizning ezma kasalimiz sizning qaramog'ingizda qoladimi?

– Ha. Ammo soat uchgacha. Biz Galli bilan San-Miniatoga ketayapmiz, men kelguncha, sinora Bolla o'tirib turadi.

– Sinora Bolla! – deb So'na hayajon bilan takrorladi. – Yo'q, Martini, men rozi emasman. Xotin kishining menga qarashiga va kasalimni boqishiga yo'l qo'yolmayman. Undan keyin, men uni qayerda qabul qilaman? Bunday besaranjomlikda ta'bi tirriq bo'ladi.

– Qachondan beri odob-andishaga rioya qiladigan bo'lib qoldingiz? – deb so'radi Rikkardo kulib. – Sinora Bolla – bizning bosh hamshiramiz. U kaltagina ko'ylak kiyib yurgan kezlaridan tortib kasal boqib keladi, shuning uchun bu vazifani har qanday mehribonlik hamshirasidan yaxshiroq bajaradi. Besaranjomlikni ko'rsa, ta'bi tirriq bo'ladi dedingizmi? Siz, ehtimol, bu gapingizni janob Grassinilar to'g'risida aytgandirsiz?.. Demak, sinora Bolla keladi, shunaqami, Martini? Unday bo'lsa, sinora Bollaga hech qanaqa dasturning keragi yo'q... Iye, soat ikki yarim bo'lib qolibdi-ku, men ketdim.

– Qani, Rivares, mana bu dorini ichib yuboring, – dedi Galli, qo'lida bordoq bilan kelib.

Kasallar tuzalishning ma'lum davrida juda injiq bo'ladilar. So'na ham hozir xuddi shunday davrda bo'lib, boquvchilarini ko'p halak qildi.

– Og'rig'im qolsayam, nima uchun har qanaqa narsani tumshug'imga suqaversizlar-a?

– Og'riq yana qo'zg'almasin deb. Yo sinora Bollaning kelishiga yana dardingiz tutib qolsin-u, sinora Bolla sizga parvona bo'lib, kuchli dorilar bersinmi, shuni xohlaysizmi?

– M-marhamatli afandim! Dard tutadigan bo'lsa, baribir, tutaveradi. Bu tish og'rig'i emaski, amburingiz bilan qo'rqtib bosib qo'ya qolsangiz. Yong'inda qo'g'irchoq nasosdan qancha naf chiqsa, bundan ham naf shuncha.

Xayr, siz aytganingizcha bo'la qolsin, xalal bermayman sizga: ishingizni davom ettiring.

U bordoqni chap qo'li bilan oldi. Qo'lidagi yara izlari Gallining esiga boyta bo'lib o'tgan gaplarni tushirdi.

– Ha, aytmoqchi, bu yaralarni qayerda orttirgansiz? Urushda bo'lsa kerak, albatta? – deb so'radi Galli.

– Hozirgina aytuvdim shekilli, meni qorong'i zindonga soldilar, undan keyin...

– Bilaman. Ammo bu sinora Grassinining qabrinini ochish uchun to'qilgan gap... Yo'q, haqiqatda Braziliya urushida bo'lganmi?

– Ha, qisman urushda, qisman vahshiy joylarda qilingan ovda... keyin uyoqqa, buyoqqa ortgan-da.

– Tushundim-tushundim, ilmiy ekspeditsiya vaqtida, a? Hayotingizda eng sershovqinli payt o'sha bo'lsa kerak?

– Albatta, vahshiy mamlakatlarda sarguzashtsiz yashab bo'lmaydi, – dedi So'na, parvosizgina. – Shunga ham tan berish kerakki, sarguzashtlar hamma vaqt ham ko'ngilga xush keladigan sarguzashtlar bo'lavermaydi.

– Lekin qanday qilib shuncha yara orttirganingizni hech ko'z oldimga keltirolmayman... yirtqich hayvonlar bilan olishgan bo'lsangiz boshqa gap. Masalan, chap qo'lingizdagagi yaralarni aytaman.

– Bu puma<sup>1</sup> ovida bo'lgan. Qarang, otib yuborsam... Eshik taqilladi.

– Uy yig'ishtirilganmi, Martini? A? Unday bo'lsa, marhamat, oching... Juda, juda marhamatlisisiz, sinora. Ma'zur tutasiz, o'mimidan turmadim.

– Turishingiz kerak ham emas. Men siznikiga mehmon bo'lib kelganim yo'q. Jo'rttaga ertaroq kelaverdim, Chezare, shoshib turgandirsiz deb o'yladim-da.

<sup>1</sup> Puma – Amerika qit'asida bo'ladigan kattakon yovvoyi mushuk.

— Yo‘q, yana chorak soat vaqtim bor. Ruxsat eting, plashingizni narigi uyga chiqarib qo‘yay. Savatni ham o‘scha yerga qo‘yaymi?

— Ehtiyyot bo‘ling, ichida tuxum bor. Yangi tuxum: ertalab Ketti Monge-Olivetodan olib keldi. Bunda sizga atalgan rojdestvo atirgullari ham bor, Rivares. Bilaman, siz gullarni yaxshi ko‘rasiz.

Jemma stol yoniga o‘tirdi-da, novdalarini kesib tashlab, gullarni guldonga qo‘ydi. Galli tag‘in gap boshladi:

— Qani, Rivares, puma ovini gapirayotgan edingiz, u yog‘i nima bo‘ldi?

— Ha-a! Galli mendan Janubiy Amerikada kechirgan hayotimni so‘rovdi, sinora, men ham qo‘limning nega bunday mayib bo‘lganini aytib berayotuvdim. Bu voqeа Peruda bo‘lgan. Puma ovi qilib yurib, daryodan kechib o‘tishga to‘g‘ri keldi. Keyin hayvonni ko‘rib o‘q uzuvdim, otilmadi: o‘q dorisi suvda ivib qolgan ekan. Shunday qilib, puma xatoyimni tuzatishimni kutib o‘tirmadi, mana – natijasi shu bo‘ldi.

— O, havas qilmasa ham bo‘ladigan sarguzasht!

— Bunday qaraganda qo‘rqinchli ko‘rinadi-yu, lekin unchalik emas. Bo‘lishgaku, albatta, har xil narsalar bo‘lgan. Ba’zan boshga yomon kunlar ham tushgan biroq sirasini aytganda, alomat bir hayot edi. Masalan, ilon ovi...

Ana shundan keyin Argentina urushidan, Braziliya ekspeditsiyasidan, yovvoyilarga to‘qnash kelganlaridan, yirtqich hayvonlarni ov qilganlaridan olib hangoma ketidan hangoma aytta ketdi. Galli ertak eshitayotgan boladay berilib quloq solar, yangidan yangi tafsilotlar talab qilib, ora-sira gapini bo‘lib turardi. Hamma neapolilar singari, u ham chuqur taassurotlarga berilar, aqlga to‘g‘ri kelmaydigan narsalarni eshitishni yaxshi ko‘rar edi. Jemma ham to‘qiyotgan narsasini savatdan

oldi-da, barmoqlari bilan chaqqon harakat qilib va ko‘zlarini ishiga tikib olib, diqqat bilan tinglab o‘tirdi. Martini qovog‘ini osihtirib, betoqatlik bilan hadeb stulda qimirlardi. Uning nazarida, bu hikoyalar maqtanchoqlik va manmanlikdan xoli emasdi. U juda qattiq jismoniy og‘riqqa hayron qoladigan bir mardlik bilan chidagan kishiga ixtiyorsiz tan bergeniga va Martinining o‘zi u mardlikni bir haftagini burun ko‘rib ishonganiga qaramay, So‘nani yomon ko‘rardi. So‘na nima qilmasin, qanday qilmasin – hammasini yoqtirmas edi.

Galli soddalik bilan hasad qilib xo‘rsindi-da:

– Hayot deb mana buni aytadi, – dedi. – Shunday Braziliyadan ketib qolganingizga hayronman. Undan so‘ng boshqa mamlakatlar ko‘zingizga tor bo‘lib ko‘rinsa kerak!

– Hayotimning eng baxtli davri Peru bilan Ekvadordagi davr bo‘lsa kerak, – dedi So‘na. – Chinakam ajoyib mamlakat deb shularni aytса bo‘ladi. Lekin juda issiq, ayniqsa, Ekvadorning dengiz bo‘ylari; xohlaysanmiyo‘qmi, baribir, o‘rganishga majbursan. Lekin tabiatining boyligi bilan go‘zalligi – har qanaqa tasvirdan a’lo.

– Meni vahshiy mamlakatdagi tabiat go‘zalligi emas, hayotning to‘la erkinligi ko‘proq jalb etadi, – dedi Galli. – U yerda inson o‘zining shaxs ekanligini chinakam sezishi, o‘z insoniy qadr-qiyomatini mutlaqo his etishi mumkin, – bizning odam yuragini qon qilib yuboradigan shaharlarimizdagiday emas...

– To‘g‘ri, – dedi So‘na, uning fikriga qo‘shilib. – Ammo...

Jemma ko‘zlarini ishidan olib, So‘naga qaradi. U birdan qizarib ketib, so‘zini tamom qilolmadi.

– Nahotki yana dardingiz tuta boshlasa? – deb Galli hayajonlanib so‘radi.

— O, yo‘q, bemalol, parvo qilmanglar... Ketayapsizmi, Martini?

— Ha. Yuring, Galli, kechikib qolmaylik.

Jemma ular orqasidan chiqdi-da, hademay bordoqda tuxum qorilgan sut olib kirdi. Keyin yumshoq bo‘lsa ham, lekin qaytarib bo‘lmaydigan bir tovush bilan:

— Ichib oling manavini, — dedi, so‘ng yana joyiga borib o‘tirib, to‘qishga kirishdi.

So‘na muloyimlik bilan bo‘ysundi.

Ikkovlari yarim soatcha jim o‘tirdilar. Oxiri So‘na uni sekin chaqirdi:

— Sinora Bolla!

Jemma qaradi. U odeyal chetini barmoqlari orasida ezg‘ilar, o‘zi esa ko‘zlarini yerdan olmay o‘tirardi.

— Aytingchi, men hozir ularga aytgan gaplarimga ishonmadingiz, a?

— Bu gaplarning barchasini o‘ylab chiqarganingizga aqalli bir daqiqa ham shubha qilganim yo‘q, — deb Jemma vazmingina javob qildi.

Yanglishmabsiz. Boshdan oyoq yolg‘on gapirdim.

— Urush to‘g‘risidagi gaplarni hammi?

— Umuman hamma gapni. Men bu urushda qatnashgan emasman. Xi, ekspeditsiya to‘g‘risiga kelsak... Haqrost, u yerda ba’zi sarguzashtlar bo‘lgan, hali men aytib bergen narsalarning ko‘pchiligi — haqiqat. Lekin yaralarimning sababchisi — butunlay boshqa. Bir yolg‘onimni payqab qoldingiz, endi boshqalarini ham bo‘ynimga olib qo‘yaqolishim mumkin.

— Shunday yolg‘on gaplarni o‘ylab chiqarishga kuch sarf qilish nahotki sizga behuda urinish bo‘lib ko‘rinmasa? — deb so‘radi Jemma. — Meningcha, ovora bo‘lishga arzimaydi.

— Qiziqsiz, nima qilay axir? Inglizlarning: «Savol bermasang yolg‘on javob olmaysan», degan maqolini

bilasizku. Odamlarni kalaka qilishdan zarracha lazzat topmayman, lekin meni nima mayib qilganini so'rashganlaridan keyin qanday bo'lsa ham javob berishim kerakda. Noiloj yolg'on gapirishga to'g'ri keladi. Yolg'on gapiradigan bo'lgandan keyin yolg'oni ham do'ndirish kerak-da.

— Hali to'g'ri gapni gapirishdan ko'ra, yolg'on gapirib Gallining yo boshqa birovning og'zini ochirish menga muhimroq deng?

— To'g'ri gapni... — So'na odehyaldan uzib olgan popukni qo'lida ushlab turib, unga tikilib qaradi. — Bu janoblarga to'g'ri gapni gapirishimni istaysizmi? Undan ko'ra tilimni kesib tashlayman! — So'ngra ovozida sezilib turgan allaqanday bir yuraksizlik bilan shoshib ilova qildi: — Men bu to'g'ridagi haqiqatni hali hech kimga aytgan emasman, agar istasangiz, sizga aytib berardim.

Jemma indamasdan ishini tizzasiga qo'ydi. Ichimdan top deguvchi bu bag'ri qattiq kishi o'zi shu qadar kam biladigan va aftidan, unchalik yoqtirmaydigan bir ayol oldida yuragini ochib tashlashga qaror qilgan ekan, uning bu qarorida sabr kosasini to'ldirgan qandaydir alamli bir narsa sezilib turardi.

Uzoq jimlikdan so'ng Jemma ko'zlarini ko'tarib qaradi. So'na majaq qo'li bilan ko'zlarini to'sib, kushetka yonidagi kichkina stolga tirsaklanib o'tirar edi. U ana shu qo'lining barmoqlari juda qattiq taranglashganini va panjasni yaqinidagi yara izining dildirayotganini sezdi. So'na oldiga kelib, sekin otini aytib chaqirdi. U seskanib boshini ko'tardi.

— E, esimdan ch-chiqibdi, — dedi u, duduqlanib va xuddi o'zini oqlayotganday bo'lib. — Sizga aytib bermoqchi bo'lib turuvdim...

– Sarguzashtlaringizni yoki... yoki, – qaydam, nima deb atasam bo'larkin, – yaralangan vaqtingizdagi baxtsiz hodisani. Mabodo u hodisani eslash og'ir bo'lsa...

– Qaysi hodisani? Meni do'pposlashganinimi? Ha, unda mening boshimga baxtsiz hodisa emas, chinakam temir kosov tushgan.

Jemma unga og'zi ochilib qarab qoldi. So'na peshonasiga tushib qolgan sochlarini orqasiga tashladi, qo'li sezilarli darajada qaltiradi, keyin kulumsirab Jemmaga qaradi.

– Nega o'tirmaysiz? Marhamat, o'zingizga kursi jildirib oling. Afsuski men qo'yib berolmayman. Qarang o'sha hodisa esimga tushsa: meni shifolash Rikkardoga nasib qilganda, uning uchun qo'qqisdan topilgan xazina bo'lardim, deb yuboraman. U butun jon-dili bilan jarroh bo'lgani uchun siniq suyaklarni o'larcha yaxshi ko'radi, mening esa u vaqt sindirishi mumkin bo'lgan joylarimning hammasi sindirilgan, faqat bo'yningina but qolgan edi.

Jemma yumshoq qilib qo'shib qo'ydi:

– Mardligingiz ham. Balki, bu sifatingizni ham eslash og'irdir?

So'na boshini chayqadi.

– Yo'q, boshqa tomonlarim singari, mardligim ham keyincha naridan beri yamab-chirmab qo'yilgan. Lekin o'sha vaqt jonon chinniday chilparchin qilib tashlangan edi. Boshga tushgan ko'rgiliklarim ichida eng dahshatlisi ham mana shu... Ha, temir kosovdan boshlab edim. Bu voqeal Limada bo'lgandi... shoshmang, eslab olay... ha, o'n uch yil bundan avval bo'lgandi. Men boyta Peru ajoyib mamlakat deb aytdim; albatta, puli bor odamga ajoyib mamlakat. Lekin menga o'xshash yonida bir chaqasi yo'q kishiga u yerda hech qanaqa ajoyib narsa yo'q. Men avval Argentinada, keyin Chilida bir necha marta bo'ldim. Butun mamlakatda sanqib yuraverib ochdan o'layozdim.

Keyin qoramol tashiydigan kemada shtatsiz ishchi bo'lib, Valparayzodan Limaga keldim. Bu shahardan ham ish topolmay, dokka kirib ketdim. Dok Kallaoda, balki bilsangiz ham kerak. Port shaharlarning hammasida matroslar turadigan iflos mahallalar bo'ladi. O'sha yerdagi qimorxonalarning biriga malay bo'lib kirdim. Oshpazlik qilishga, bilyard yugurdagi bo'lishga, matroslar keltirgan xotinlarning xizmatini ado etishga, shular kabi boshqa ko'p, ishlarini bajarishga majbur edim. Ishim uncha yaxshi ish emasdi-yu, lekin shunaqasi topilganiga ham jon derdim. Loaqal qornim to'q yurar, inson basharasini ko'rar, inson tilini eshitardim. U odamlarning qanday odamliliklari esa – boshqa masala. Meni o'sha fohishaxonaga kirib, oz bo'lsa-da naf ko'rgandir, deb o'ylarsiz, balki. Lekin bundan salgina burun sariq bezgakka uchrab, yarim xaroba bir kulbada uzoq vaqt yolg'iz yotgan edim. Ana shundan keyin yolg'izlikni o'ylasam, yuragim orqamga tortib ketadigan bo'lib qoldi... Shunday qilib, bir kun kechasi qattiq to'polon qilayotgan bir mast matrosni eshikdan itarib chiqarishni buyurdilar menga. U shu kuni qirg'oqqa tushgan, hamma pulini boy berib, kayfi buzilib yurgan ekan. O'zingiz bilasiz, men buyruqni bajarishim kerak, aks holda o'mimdan ajrashga va ochdan o'lishga majbur bo'laman. Lekin – matros mendan ikki hissa kuchli edi. Men endi yigirmaga kirgan, bezgakdan so'ng mushuk bolasidek nimjon bo'lib qolgan edim. Buning ustiga qo'lida temir kosov ham bor. – So'na to'xtab, Jemmaga yashiriqcha qarab oldi. – U meni bir urishda yo'q qilmuoqchi bo'lgan bo'lsa kerak, lekin asl mahalliy matrosligiga borib, ishini shu qadar chala-chulpa bitirdiki, butun a'zoyi badanim ezildi, yanchildi-yu, yana tirik qoldim.

– Boshqalar-chi? Nahotki tarafingizni olishmadi? Tavba, bitta mast matrosdan qo'rqib, qarab o'tirishsa-ya!

So‘na unga bir qaradi-da, keyin xaxolab kulib yubordi.

— Boshqalar? Fohishaxona egalari-yu, mehmonlarimi? Axir ular odam emas, har xil maxluqlarku! Men esa ularning malayi xususiy mulki edim. Ular, albatta, tevarakda maza qilib tomosha ko‘rib turishdi. U yerda bunaqangi narsalarga juda alomat tomoshaga qaraganday qarashadi. Tomosha bo‘lish boshiga tushgan kishi hisobga olinmasa, bunaqangi narsalar odamni juda ham qiziqtiradi.

Jemma titrab ketdi.

— Keyin nima bilan tugadi?

— Nima bilan tugaganini bilmayman, chunki odamni boshqatdan bichib tikkanlardan keyin, dastlabki kunlarda nima bo‘lganligini odatda eslayolmaydi. Keyin bilsam, o‘scha o‘rtada kema doktori turar ekan, mening o‘lmaganligimni ko‘rishib, tomoshabinlar unga odam yuborishibdi. O‘scha kishi kelib, pachoq suyaklarimni naridan beri ulab qo‘yibdi. Rikkardo yomon ulagan deydi, ehtimol, bu kasb hasadgo‘yligining ovozidir. Xo‘p, nima bo‘lsa bo‘lgandir. Shunday qilib, hushimga kelganimdan keyin bir yerli kampir xristianlik rahmini yeb, meni kulbasiga olib ketdi, — nima deysiz, qiziq gap-a? Esimda, qora chubug‘ini tutatib, yerga tupurib, allanimalar deb ping‘illab, burchakda shumshayib o‘tirardi. Juda mehribon xotin edi; kulbasida tinchgina o‘lishim mumkinligini, menga hech kim xalal bermasligini aytib yupatar edi. Lekin menda ziddiyat ruhi juda kuchli, shuning uchun yashashga bel bog‘ladim. O‘lim changalidan qutulib chiqish — hazilakam emasdi, mana endi, ba’zi mahallar o‘zimcha o‘ylanib: bekor ovora bo‘lgan ekanman deb yuboraman. Kampir odam hayron qoladigan darajada chidamli edi. Unikida... xudo esimni olmagan bo‘lsa... to‘rt oycha yotdim. Shu muddat ichida o‘rnimdan qo‘zg‘almadim; goh jinniday javrar, goh qulog‘i og‘riyotgan ayiqday serjahl edim. Dardim chinakam qattiq edi, o‘zim esa yoshlikdan erka bo‘lib o‘sgandim.

– Keyin nima bo‘ldi?

– Keyin... naridan beri tuzalib, kampirlarnikidan ketdim. Ta‘bi noziklik qilib, sho‘rlik xotinning mehmondo‘sligini suiiste‘mol qilgisi kelmabdi deb o‘ylamang. Yo‘q, bu narsalar esimga ham kelgani yo‘q. O‘sha kulbada ortiq turolmadim. Siz boyta mening mardligim to‘g‘risida gapirdingiz. O‘sha vaqt meni bir ko‘rsangiz edi! Har kun kechqurun qorong‘i tushishi bilan dardim tuta boshlardi. Tushdan keyin hamisha o‘zim yolg‘iz yotar, ostobning tobora pasayishini ko‘rib, vahima bosardi... O, siz buning nimaligini hech qachon anglamaysiz! Hali-hali quyoshning botishini qaltiroqsiz ko‘rolmayman...

U bir necha daqiqa jim qoldi.

– Keyin mamlakatda ish izlab, sargardon keza boshladim. Limada ortiq qolqim kelmadni. Qolsam, jinni bo‘lishim turgan gap edi. Axiri Kuskoga yetib oldim; ana o‘sha yerda... Tavba, bu eski gaplarni nega sizga aytayapman, biron qiziq joyi bo‘lsa ham koshki edi.

Jemma boshini ko‘tardi-da, jiddiy chuqur bir nazar bilan So‘naga qaradi.

– Bunday demang, sizdan o‘tinib so‘rayman, – dedi u.

So‘na birozdan keyin:

– Uyog‘ini aytishga arzirmikan? – deb so‘radi.

– Agar... agar xohlasangiz... Bu xotiralar sizni qiyab qo‘yarmikin, deb qo‘rqaman.

– Gapirmagan taqdirimda-chi, unda qiynamaydi deb o‘ylasizmi? Unda yana beshbadtar qiyaydi. Bilasizmi, kechirgan narsalarimni eslasam, albatta, qiynalaman, lekin o‘sha vaqt irodamni yo‘qotib qo‘yganimni o‘ylasam, tars yorilib ketguday bo‘laman, – bunisi unisidan ortiq qiyaydi.

– Mumkin bo‘lsa, – deb Jemma botinqiramay gapirdi, – aytib bersangiz: yigirma yoshingizda shunday uzoq joyga qanday borib qoldingiz?

– Juda oson. Uyimda, vatanimda, mening uchun juda ajoyib istiqbol ochila boshlagan edi, hamma narsani tashlab qochib ketdim.

– Nima uchun?

U qisqa, quruq kulgi bilan kului.

– Nima uchun? Men nodon, takabbur bola bo‘lgan-dirman, ehtimol shuning uchundir. Men juda badavlat oilada o‘siganman, meni nihoyatda erka qilib tarbiyalash-gan, shuning uchun dunyoga yumshoq paxta-yu, shirin novvot deb qarardim. Lekin kunlarning birida eng yaxshi do‘stim meni aldab yurganini bilib qoldim, holbuki unga chin qalbimdan ishonar edim... Nima bo‘ldi sizga? Nega titrab ketdingiz?

– Hechqisi yo‘q. Davom eting, marhamat.

– Meni yolg‘on narsaga ishontirish uchun hiyla ishlatib yurganlarini oshkora bilib oldim. Buni juda oddiy yo‘l bilan bildim, albatta, shunday bo‘lsa ham, boy aytganimdek, yosh bo‘lganim uchun, yolg‘onchilarning joyi do‘zax, deb qo‘ya qoldim. Shu sababli uyimni tashladim-da, yo o‘lib ketarman, yo bo‘lmasa biron yerdan teshib chiqarman, deb Janubiy Amerikaga jo‘nadim. Men yegani oldida, yemagani ortida bo‘lib o‘rganib qolgan arzanda edim. Buning ustiga na ispanchadan xabarim bor va na cho‘ntagimda bir chaqa bor edi – men yangi turmushni shu qabilda boshladim. Natijada chinakam do‘zaxga borib tushdim, bu meni xayoldagi narsalarga ishonish kasalidan davoladi. Dyupre ekspeditsiyasi kelganda, men do‘zaxning tubida edim, u yerdan meni shu ekspeditsiya chiqarib oldi. Bu voqeal men qochib ketganimdan besh yil keyin bo‘ldi.

– Besh yil! Voy sho‘rim. Do‘stlaringiz yo‘qmidi?

– Do‘stlarim? – U Jemma tomonga o‘girilib, qaltirab turib gapirdi: – Mening hech vaqt do‘stim bo‘lgan emas...

Lekin bir sekunddan keyin shoshib ilova qildi:

— Men qanday gapirsam, shunday tushunaveraman. O'tmishimni juda bahaybat qilib ko'rsatdim, men bunga tan berishim kerak. Haqiqatda avvalgi bir yarim yil uncha yomon o'tmadi: yosh edim, yetarli kuchim bor edi, to o'sha matros tamg'asini bosib ketguncha, har qanday mushkulotdan osongina qutulardim. Undan keyin ish topolmay qoldim. Temir kosov usta kishining qo'liga tushsa, naqadar kuchli qurolga aylanar ekan, bunga hayron qolish kerak. Nogiron bo'lib qolganingdan keyin kim ishga olardi?

— Nima qildingiz?

— Qo'limdan nima kelsa — bajaraverdim. Bir mahal qand maydonlarida ishlovchi negrlarga dastyorlik qildim. Lekin sarkorlar hamma vaqt meni haydab yuborishardi. Oqsoqligim orqasida tez qimirlay olmasdim-da, undan keyin og'ir yuklarni ham ko'tarolmasdim. Bundan tashqari, yallig'langan yerim, yoki nima deb atasam bo'ladi-ya, u la'nati kasalni... ha, dardim tez-tez qo'zg'alib turardi. Ish toparman degan umidda, u yerdan kumush koniga ko'chdim... Lekin bundan ham naf bo'lmadi: boshliqlar kulishib, ishchilar masxara qilishib berdi.

— Nimaga?

— Odamlarning tabiatи asli shunaqa bo'lsa kerak. Ular o'zimni himoya qilishga qo'lim bittaligini ko'rishgan-u, ana shundan keyin masxara qilaverishgan-da. Axiri, zora biron yerdan ish topsam, degan tavakkal bilan sayoqlik qilishga kirishdim.

— Sayoqlik qilishga? Oqsoq oyoq bilan?

U birdan ko'zlarini ko'tarib Jemmaga qaradi, bir nima demoqchi bo'ldi, lekin deya olmadi.

— Men... men och edim, — dedi nihoyat, ayanch bir holda jilmayib.

Jemma yuzini jinday teskari o'girib, iyagiga qo'lini tiradi.

Bir necha daqqaq Jim o'tirishgandan so'ng So'na tag'in gap boshladi va gapirgan sari tovushi pasayib bordi.

— Men sanqigandan sanqib yuraverdim, to majoldan ketguncha yurdim, shunday bo'lsa ham hech ish topolmadim. Keyin Ekvadorga bordim, lekin u yer yana ham yomonroq ekan. Ba'zida qalaylash ishlari uchrab qoladi, — o'zim ham chakki temirchi emasman, — ba'zida mayda-chuyda yumushlar. Cho'chqaxonani tozalashga yollangan vaqtlarim ham bo'ldi, gohida... hammasini sanab chiqishning nima keragi bor-a... Shunday qilib, bir kuni...

Nozik, bug'doyrang qo'li birdan musht bo'lib qisildi. Jemmaga hayajon bilan qaradi. Uning yuzi Jemmaga yon turgan edi, chekkasidagi tomiri tez-tez, tartibsiz urayotganini ko'rди. Jemma u tomonga egilib, qo'lini muloyimgina ushladi.

— Bas, uyog'ini aytmang: bu narsalarni eslash haddan ziyyod og'ir.

So'na uning qo'liga botinqiramay qaradi, boshini chayqadi, keyin dadil tovush bilan gapini davom ettirdi:

— Shunday qilib, bir kun sayyor sirkka yo'liqib qoldim. Ikkovimiz birga borgan sirk esingizdami? U yerda ham shunaqa, lekin rasvoroq, dag'alroq sirk bor edi. Dasturiga buqalar urushi ham kirardi, albatta. Truppa katta yo'l bo'yiga tunagani qo'ngan ekan. Chodirga kelib, sadaqa so'radim. Havo nihoyatda issiq edi. Ochlikdan majolsizlanib, chodir eshigi oldida hushimdan ketib yiqilib qolibman. O'sha vaqtlar, beli korsetga tortib bog'langan maktab qizi singari, birdaniga hushimdan ketib qoladigan odamat bor edi. Meni chodirga olib kirishib, aroq berishdi, qornimni to'yg'azishdi, ertasiga ertalab esa taklif qilishdiki...

U biroz to'xtab oldi.

— Ularga pak-pakana odam, yo bukur, yo bo'lmasa tomoshabinlar apelsin po'choqlarini otib xursandchilik

qila oladigan biron ta mayib odam kerak ekan. O'sha kechagi bukurni ko'ruvdingizmi? Ha, men ikki yil o'shanaqa bukurlik qildim. Uncha-muncha nayranglar qilishni ham o'rganib oldim. Lekin men u qadar mayib emas edim, kamini ular to'g'rilashdi: menga qalbaki bukur yasashdi, oqsoq oyog'imdan va majaq qo'lidan iloji boricha foydalanishdi. U yerdagi tomoshabinlarning ta'blari uncha nozik emas: har narsaga ko'nishaveradi; ishqilib, oldiga tirik jon tashlab berilsa, azoblashsa bo'ldi. Masxarabozlik kiyimi turqimni to'g'riladi. Zo'r bir qiyinchilik bor edi, u ham bo'lsa: tez-tez kasal bo'lib turardim; shunday paytlarda sahnaga chiqolmay qolardim. Truppaning xo'jayini kayfi buzilib qolguday bo'lsa, kasalligimga qaramay sahnaga chiqishimni talab etar va shunday kechalarda, fikrimcha, tomoshabinlar yaxshi maza qillardilar. Esimda, bir mahal og'rig'im juda yomon avjiga olgan payt edi. Sahnaga chiqdim-da, tomoshaning qoq o'rtasida hushimdan ketib yiqildim. Bir vaqt o'zimga kelsam, tomoshabinlar atrofimni o'rab olishibdi, hammasi qichqirishib, hayqirishyapti, menga har narsalar otishayapti...

- Bas! Ortiq eshitolmayman... Bo'ldi, xudo haqqi!
- Eh, qurib ketsin, qanday omadsiz odamman-a! — dedi So'na, past ovozda.

Jemma deraza oldiga ketdi va o'girilmasdan, o'sha yerda bir necha daqqa turdi. O'girilganda esa So'na yana stolga tirsagi bilan suyanib, ko'zlarini qo'li bilan to'sib o'tirar, Jemmaning borligini unutgandek ko'rinar edi. Jemma yoniga kelib o'tirdi. Uzoq jimlikdan so'ng Jemma sekin gapirdi:

- Sizdan so'ramoqchi edim...
- Nimani? — dedi u, qimirlamasdanoq.
- Nega qizil o'ngachingizni kesib tashlamadingiz?

– Sizdan bu tarzdagi savolni kutmagan edim. Unda ishlarim nima bo'lardi?

– Ishlaringiz?.. Ha, tushundim. Hozirgina o'zingizning qo'rqaqligingiz to'g'risida gapirgan edingiz. Shunday dahshatli narsalarni boshdan kechirib ham, baribir, ishingizni tashlamagan bo'lsangiz, siz – men ko'rgan kishilarning eng mard insonisiz.

So'na tag'in ko'zlarini to'sdi va Jemmaning qo'lini, harorat bilan qisib, o'z qo'lida ushlab qoldi. Oraga uzoq jimlik cho'kdi.

Birdaniga pastdan, bog'dan, toza, musaffo ingichka tovush yangradi, keyin sho'x fransuz qo'shig'i eshitildi:

Eh, Pierrot! Danse, Pierrot!  
Danse tin peu, rrion pauvre Jeannot<sup>1</sup>.

Ashulaning birinchi so'zlarini eshitishi bilanoq, So'na bo'g'iq bir uh tortib, o'zini kursining orqasiga tashladi. Jemma uni qo'lidan ushladi-da, og'ir operatsiya mahalida odam qo'lini qanday qisishsa, uning qo'lini ham shunday qattiq qisdi.

Ashula uzilib, bog'dan kulgilar va qarsaklar eshitilganda, u Jemmaga yaralangan jonivor singari qaradi.

– Ha, Zitta bu, – dedi So'na, shoshmay, – zabit do'stlari bilan kelganga o'xshaydi. Rikkardo kelmasdan burun birinchi kechada yonimga kirmoqchi bo'ldi. Bir yerimga tekkuday bo'lsa, jinni bo'lardim-qolardim.

Jemma unga muloyimgina e'tiroz qildi:

– Lekin u bunaqaligini bilmas, hatto bir yeri sizga tegib ketsa ozor yetar, deb ham gumon qilmas.

So'na dag'al javob qildi:

<sup>1</sup> Hoy, Pero! O'yna, Pero! O'ynavor, do'stim Janno!

— U ham quyib qo‘ygan kreolka<sup>1</sup>. Gadoy bola bilan sarson bo‘lib yurgan kechamizda basharasini ko‘ruvdingizmi? Kulganda kreolkalarning basharasi shunaqa bo‘lib ketadi.

Bog‘da yana kuchli qahqaha ko‘tarildi. Jemma o‘rnidan turib borib, derazani ochdi. Zitta xiyobon o‘rtasida turardi. Boshiga zar bilan tikilgan sharfni tannozlarcha tashlab olgan, qo‘lida esa bir dasta gunafsha. Gulni baland ko‘tarib turar, uch nafar yosh zabit uni olishga intilardi.

— Madam Renni, — dedi Jemma.

Zitta xo‘mraydi. Keyin o‘girilib va ko‘zlarini ishonch-sizlik bilan ko‘tarib turib:

— Labbay, xonim? — dedi.

— Do‘srlaringiz biroz sekin gapirishsa qalay bo‘larkin? Sinor Rivares juda qattiq og‘rib yotibdi.

Lo‘li qiz gunafshani yerga otib urdi.

— Allez-vous en, — dedi u, zabitlarga, — vous fti’embetez, messieurs!<sup>2</sup>

Zitta xiyobondan yo‘lga chiqdi. Jemma derazani yopdi. Keyin So‘na tomonga o‘girila turib:

— Ketishdi, — dedi.

— Rahmat. Juda afsus, sizni bezovta qildim.

— Shu ham bezovtalikmi...

So‘na uning ovozidagi ikkilanishni sezdi-yu, darhol:

— Gapingizni tugatmadingiz, sinora Bolla, — dedi. — Miyangizda allaqanday «lekin» qolib ketdi.

— Odamlarning miyasida nima borligini o‘ylanadigan bo‘lsa, ularning ma’nosini bilgandan keyin ham xafa bo‘lmaslik kerak. Albatta, mening aralashishim to‘g‘ri kelmaydi, shunday bo‘lsa ham, hech tushunolmayman...

<sup>1</sup> Kreol – mustamlakachi ispan va portugallarning Lotin Amerikasida tug‘ilgan avlodи.

<sup>2</sup> Ketinglar, janoblar, bezor bo‘ldim sizlardan.

- Mening madam Rennidan jirkanishimgami?
- Yo‘q undan shunchalik jirkanasiz-u, yana u bilan qanday qilib turganingizga tushunolmayman. Meningcha, bu uning uchun xo‘rlik: ham xotin kishilik sifatida, ham...
- Xotin kishilik sifatida? – So‘na to‘ng bir tovushda qahqaha urib kulib yubordi. – Siz uni xotin kishi deb aytayapsizmi?
- Yaxshi emas, – dedi Jemma, – kimning oldida bo‘lsa ham, ayniqsa, boshqa bir xotin kishi oldida uning to‘g‘risida bunaqa deyishga haqqingiz yo‘q.

So‘na botib borayotgan oftobga derazadan qarab, ko‘zlarini ochib yotardi. Jemma pardani tushirdi, keyin oftobning botishini ko‘rmasin deb, darpardani yoyib qo‘ydi. So‘ngra narigi deraza oldidagi; stolchaga kelib, yana to‘qishga o‘tirdi. Biroz vaqt o‘tgandan keyin:

- Sizga chiroq yoqib beraymi? – deb so‘radi.

So‘na boshini chayqadi.

Qorong‘i quyuqlashib, to‘qib bo‘lmay qolgandan keyin Jemma ishini taxlab, savatga solib qo‘ydi. U qimirlamay yotgan kasal gavdasidan ko‘zlarini olmay, qo‘llarini tizzalari ustida qovushtirib, anchagacha jim o‘tirdi. Kechki xira yorug‘ yuziga tushib, siymosidagi dag‘allik, mazaxlik va xudbinlik alomatlarini yumshatar, og‘zi tevaragida fojiali hayoti qoldirib ketgan tirishlarini bo‘rttirib ko‘rsatar edi.

Jemma allaqanday fikrlar jarayoni orqasida, Artur xotirasi uchun otasi qo‘ygan tosh kresti va unga: «Hamma to‘lqinlar va dovullar mening ustimdan o‘tdi», deb yozilgan lahzani esladi.

O‘rtaga tushgan jimlik bir soatgacha buzilmadi. Axiri Jemma o‘rnidan turib, sekin uydan chiqdi. Chiroqni yoqib kirarkan, uxlab qoldimikan degan o‘y bilan ostonada biroz to‘xtab oldi. Lekin chiroq yorug‘i ko‘zlariga tushishi bilan So‘na o‘girildi.

- Sizga qahva qaynatib keldim, – dedi Jemma.
- Biron yerga qo‘ying, keyin o‘zingiz, malol kelmasa, mening yonimga keling.

U Jemmaning ikkala qo‘lini o‘z qo‘llariga oldi.

- Men sizning gaplaringizni o‘yladim, – dedi u. – Gaplaringiz tamoman to‘g‘ri, men hayotda xunuk bir aloqa bog‘laganman. Lekin o‘ylab ko‘ring-a, hayotda hamma vaqt sevishing mumkin bo‘lgan ayolga uchrayvermaysanda kishi. Oh, mening boshimga qanday savdolar tushmadi. Men qo‘rqaman...

– Qo‘rqasiz?

- Qorong‘idan qo‘rqaman. Ba’zi paytlar kechasi yolg‘iz qolishga yuragim betlamaydi. Menga biron tirik jon kerak, yonimda qimir etib turgan jon kerak. Qorong‘i zulmat... yo‘q, yo‘q, bunday emas. Bu faqat o‘yinchoq do‘zax xolos. Gap ichdagи qorong‘ilikda: ichda na yig‘i, na tishlarni g‘ijirlatuvchi g‘azab bor, u yerda faqat sukut... sukut...

So‘naning ko‘zлari olaydi. Jemma esa u yangidan gap boshlaguncha, zo‘rg‘a-zo‘rg‘a nafas olib, jim o‘tirdi.

- Bu narsalar sizga xayol bo‘lib tuyiladi, shunday emasmi? Mening qanaqa odamligimga hech tushunolmayapsiz, a? Tushunolmaganingiz o‘zingiz uchun yaxshi. Lekin shuni aytmoqchimanki, mabodo yakka turib ko‘rsam, hoynahoy jinni bo‘lib qolardim. Meni uncha yerga urmang, men sizga, ehtimol, juda qo‘pol hayvonga o‘xshab ko‘rinarman, haqiqatda esa u darajada emasman.

- Men sizni yerga urolmayman, – dedi Jemma, – chunki, men sizchalik azob chekkan kishi emasman. Ammo mening boshimga ham ko‘p kulfat tushgan, faqat boshqacharoq tarzda. Qo‘rquv ta’siri ostida chinakam qattiq muomala yoki insofsizlik qilib qo‘yilsa, keyin pushaymon yeb, odam juda yomon eziladi – menga shunday tuyiladi, hatto shunday bo‘lishiga ishonaman ham. Shu bilan birga,

sabotingiz odamni hayron qoldiradi; sizning o'mingizda men bo'lsam, ruhim butunlay tushib ketardi-yu, peshonamga la'natlar o'qib, o'lib qo'ya qolardim.

So'na uning qo'llarini hamon ushlab turardi.

– Aytingchi, – dedi u, past tovush bilan, – siz ham umringizda hech bag'ritoshlik qilganmisiz?

Jemma javob bermadi, boshi asta solindi va So'naning qo'liga ikki dona yirik ko'z yoshlari yumaladi.

So'na uning qo'lini harorat bilan qisib, shivirladi:

– Gapiring, gapiring! Men o'z to'g'rimdag'i hamma narsalarni aytib berdim-ku sizga.

– Ha... bir marta, ko'p vaqtlar burun, yomon bag'ritoshlik qilganman. Dunyoda hammadan ham ortiq yaxshi ko'rgan kishimga juda qo'pol muomala qilganman.

So'naning qo'llari qattiq titradi, lekin Jemmaning qo'llarini qo'yib yubormadi.

– U bizning o'rtog'imiz edi, – deb davom etdi Jemma, – politsiya boshlig'i to'qigan qo'pol, qabih yolg'onga, unga qilingan tuhmatga ishonibman. Men uni xoin hisoblab, yuziga bir tarsaki tushirdim... O'sha kuniyoq o'zini suvgaga tashlab o'ldirdi. Ikki kundan keyin bilsam: butunlay gunohsiz ekan... Mana bu xotira siznikidan yengil bo'lmasa kerak... Agar qilmishimni tuzatish mumkin bo'lsa, buning uchun men jon-jon deb qo'limni kesishga berardim.

So'naning ko'zlarida o'tli olov chaqnadi, bunaqasini Jemma uning ko'zlarida hech qachon ko'rmagan edi.

U bexosdan boshini egib, Jemmaning qo'lini o'pdi.

Jemma cho'chib, qo'lini tortib oldi.

– Bunday qilmang, – dedi u, yalinuvchi bir tovushda. – Boshqa hech qachon bunday qila ko'rmang. Menga og'ir bu.

– Ajabo, siz o'ldirgan kishiga og'ir bo'limganmikan?

– Men o‘ldirgan kishiga... Ah, ana Chezare! Darvoza oldida kelayapti. Mening... mening ketishim kerak...

Martini uyga kirganda So‘na yolg‘iz yotar, oldidagi stolda qo‘l urilmagan qahva turardi.

### To‘qqizinchi bob

Bir necha kundan keyin So‘na jamoat kutubxonasi o‘quv zaliga kirib, kardinal Montanellining va’zlar to‘plamini so‘radi. Hali rangi ancha oq, o‘ziga kelmagan oqsoqlanishi ham odadagidan kuchliroq edi. Qo‘sni stollarning biri yonida o‘tirgan Rikkardo boshini ko‘tarib So‘naga qaradi. Rikkardo uni juda yaxshi ko‘rardi-yu, lekin bir qilig‘ini hech yoqtirmasdi: jamiyat orasidagi dushmanlarini shaxsiy bir g‘azab bilan ta’qib qilishi Rikkardoga juda erish tuyilardi.

– Kardinal bechoraga yangi hujum tayyorlayapsizmi? – deb so‘radi u, g‘ashi kelgan bir ohangda.

– Nima u-uchun, azizim, o-odamlarga yomon f-fikr taqiyverasiz? Bu narsa xristianlikka hech yarashmaydi. Ya-yangi gazeta uchun h-hozirgi teologiya haqida bir m-maqola tayyorlayapman, xolos.

– Qaysi yangi gazetaga? – deb Rikkardo ixtiyorsiz qoshlarini chimirdi.

– Oppozitsiya matbuot haqida kutib turilgan yangi qonun bilan birga yangi radikal gazeta chiqarib, shaharni hayron qoldirishga tayyorlanayotgani hech kimga sir bo‘lmasa ham, lekin rasmiy jihatdan haliga qadar sir tutib kelinardi. Yangi gazeta yo «Qiliviri», yo bo‘lmasa «Cherkov kalendari» deb atalsa kerak, albatta.

– Sekinroq gapiring, Rivares. Boshqalarning o‘qishlariga xalal berayapmiz.

– Bo‘lmasa tibbiyotingizga qarang-u meni o‘z holimga qo‘ying; men ham teologiyam bilan shug‘ullanay. Singan suyaklarni garchi sizdan ko‘proq bilsam ham, ularni ularshingizda sizga hech xalal bermayman-ku.

Shundan keyin So‘na va’zlarni uzishga kirishib ketdi. Shu payt kutubxona xodimlaridan biri uning yoniga keldi.

– Sinor Rivares, yanglishmasam, siz Amazonka irmoqlarini tekshirgan Dyupre ekspeditsiyasining a’zosi edingiz shekilli? Shu ekspeditsiya to‘g‘risida ba’zi ma’lumotlar berolmaysizmi? Bir xonim ekspeditsiya hisobotini so‘rab kelgan ekan, biz uni muqova qildirgani yuborgan edik.

– Qanaqa ma’lumotlar kerak ekan?

– Ekspeditsyaning jo‘nagan yili-yu, Ekvadordan o‘tgan vaqt va xolos.

– Ekspeditsiya 1837-yil kuzida Parijdan jo‘nab, kelasi yil 28 aprelda Kvitodan o‘tdi. Braziliyada uch yil turdik, keyin Rioga tushdik-da, 1841-yil yozida Parijga qaytib keldik. Xonimga ayrim kashfiyotlarning oy-kunlari kerak emas ekanmi?

– Yo‘q, rahmat. Unga faqat shuning o‘zi kerak. Yillarni yozib oldim. Beppo, mana bu qog‘ozni sinora Bollaga chiqarib bersangiz. Yana bir karra rahmat, sinor Rivares. Kechirasiz, bezovta qildim.

So‘na kursining orqasiga suyandi, hayronlikdan qoshlari chimirildi. Bu oy-yillar unga nimaga kerak bo‘lib qoldiykin? Ekspeditsyaning Ekvadordan o‘tgan yilini bilib nima qilar ekan?



Jemma olgan ma’lumotini ko‘tarib uyiga ketdi. 1838-yil apreli, Artur bo‘lsa 1833-yil mayida o‘lgan. Besh yil...

Besh yil... Undan keyin, o‘zi yashagan «hashamatli uy» to‘g‘risida, «ishonib kelgan odami aldab yurgani»

to‘g‘risida gapirdi... aldab yurgan ekan, aldangani oshkor bo‘libdi.

Jemma to‘xtadi-da, qo‘llarini boshi ustida qarsillatib ezdi. O, yo‘q, bu borib turgan aqlsizlik!.. Yo‘q, bu bo‘lmaq‘ur gap, ma’nosiz gap!.. Unday bo‘lsa, o‘sha vaqt gavanni juda sinchiklab qarashuvdi-ku!

Besh yil... U hali yigirma birga kirmagan edi, o‘sha matros... Demak, uydan qochib ketganda o‘n to‘qqiz yoshda bo‘lib chiqadi. «Bir yarim yil» dedi-ku axir... Unday desa, ko‘k ko‘zлari va tinim bilmagan barmoqlari qayerdan? Nega u Montanellini g‘ajib tashlagisi keladi? Besh yil... besh yil...

Koshki edi uning cho‘kib ketganini aniq bilsa, koshkiydi o‘ligini o‘sha vaqt ko‘rgan bo‘lsa... O, unda bu eski yara balki bitib ketgan va eski xotiralar bunchalik azob berishdan qolgan bo‘larmidi? Kim bilsin, yigirma yillardan keyin o‘tmishga dahshatlanmay qarashga, balki, o‘rganib ham qolardimikan?..

Uning butun yoshlik chog‘larini ana shu qilmish to‘g‘risidagi fikr zaharlab o‘tdi. Kunlar ortidan kunlar, yillar ketidan yillar davomida o‘kinch azobi bilan qattiq kurashib keldi. U o‘z ishining kelajakdaligini o‘ziga uqtirishdan charchamas, o‘tmishning dahshatli vahimalari oldida ko‘z-quloqlarini berkitishdan to‘xtamas edi. Lekin o‘zini suvga tashlab o‘ldirgan va jasadini dengiz to‘lqinlari surib ketgan kishi siymosi kundan kunga, yildan yilga ta‘qib qilib kelardi. Qalbida esa «Artur halok bo‘ldi! Uni men o‘ldirdim!» degan ichki bir hayqiriq bilinib turar edi. Ba’zi mahallar yelkasidagi bu azob haddan ziyod og‘ir ko‘rinar va uni ortiq ko‘tarib borishga kuchi qolmagandek tuyilardi.

Shunday bo‘lsa ham, ana shu azob yukini yana o‘z zimmasida his qilish uchun umrining yarmini jon-jon deb berar edi. Uni men o‘ldirdim, degan fikr azoblariga odatlanib

qolgan; bu fikr yuki ostida shu qadar ko'p ezilganki, endi u darrov o'zini yig'ishtirib ololmaydi. Bordi-yu, uni suvgaga emas, balki... Jemma stulga o'zini tashlab, yuzini qo'llari bilan berkitib oldi. Tavba, uning o'limi vahimasi butun umrini qora qilsa-ya! O, uni faqat o'lim chohiga itargan bo'lsa ming marta mayliga edi, ishqilib, undan ham dahshatliroq joyga qulatmagan bo'lsa bo'ldi!..

Jemma So'naning o'tmishtan hayotidagi do'zaxdan shoshmasdan, rahm qilmasdan, fikran qadam-baqadam bosib o'tdi. U Jemmaning ko'z oldiga shunday ravshan surat tortib keldiki, inson jonining ojizligini, boshdan kechirgan va o'limdan ham badtar bo'lgan xor-u zorlikni, yolg'izlik dahshatlarini va hayotini sira tinmay kemiruvchi davomli og'riq azoblarini xuddi o'zi ko'rgandek, boshidan kechirgandek bo'ldi. O'sha iflos hind kulbasini shu qadar yaqqol ko'rdiki, go'yo u yerda So'na bilan birga bo'lgan deb o'ylash mumkin edi. Yana kumush konida, kofezorda, jirkanch sayyor sirkda ham u bilan birga azob chekkanday tuyildi...

Sayyor sirk... Yo'q, hech bo'lmasa ana shu qiyofani xayolidan chiqarib tashlashi kerak; o'tirib olib hadeb shular to'g'risida o'ylayvergandan keyin axiri aqldan ham ozib qolishi hech gap emasdi.

Jemma yozuv stolining kichkina g'aladonini ochdi. U yerda o'ziga tegishli bo'lgan va yo'qotib yuborishga ko'zi qiyagan bir qancha yodgorliklar bor edi. Jemma sevgi savdolariga oid bekorchi narsalarni saqlashni yomon ko'rsa ham; ba'zi bir xil narsalarni har holda yodgorlik deb yo'qotmay kelardi: bu hamisha o'z ichida ezib, yo'q qilishga harakat etib kelgan va uning zaif tomoni bo'lgan «men» ishi edi.

Ularni g'aladondan birma-bir ola boshladi: Jiovannining o'ziga yozgan birinchi maktubi, o'lganida uning qo'lida

yotgan gullar, bolasining gajjagi, otasining qabridan olingan xazon. G'aladonning tagida Arturning o'n yoshligida olingan kichkina surati – undan qolgan birdan-bir portret.

Jemma suratni ushlagan holda stulga o'tirib qoldi. Keyin haqiqiy Artur qiyofasi ko'z oldida gavdalanguncha, kichkina, chiroyli bola boshiga tikilib turdi. O, uning yuzini endi naqadar ravshan ko'rayotir! Nozik, asabiy lablar, jiddiy, shahlo ko'zlar, farishtalarniki kabi toza ifodalar – go'yo u kecha o'lqandek, bularning hammasi xayolida ravshan turardi. Ana shunda ko'zlaridan sekin-sekin yoshlar to'kilib, o'ngidagi suratni ko'rsatmay qo'ydi.

O, uning boshiga bunday o'ylar qayerdan keldi! Uzoqlarga ketib qolgan bu munavvar ruhni hayot qiyinchiliklari va hasratlari bilan birga qo'shib tasavvur qilish gustoxlik bo'lmaydimi ajabo? Tirik qolgandan va So'naga – beg'ubor galstukli, shubhali payrovli va achchiq tili So'naga aylangandan ko'ra yo'qlikka ketsa, ming marta afzal bo'lur edi! – Yo'q, yo'q! Bu faqat jirkanch va bema'ni xayol: u shirin uydirmalar bilan kayfini buzib oldi xolos – Artur o'lgan!

– Kirsam bo'ladi? – deb so'radi eshik oldidan yumshoq bir ovoz.

Jemma shunday qattiq seskandiki, qo'lidagi surat tushib ketdi. So'na uy ichida oqsoqlanib borib, suratni olib berdi.

- Biram cho'chitib yubordingizki! – dedi Jemma.
- K-kechiring m-meni. Balki, xalal bergandirman?
- Yo'q, yo'q. Faqat eski buyumlarni yig'ishtirayotuv-dim.

Bir daqiqagina ikkilanib turdi, keyin kichkina suratni So'naga uzatdi.

- Mana bu boshcha to'g'risida nima deysiz?
- So'na suratni ko'rib bo'lguncha Jemma uning yuziga shu qadar diqqat bilan tikilib turdiki, go'yo butun hayoti

shu siymo ifodasiga bog‘liqday edi. Lekin o‘zini qiy nab yotgan savolga undan javob topolmadi – So‘naning yuzida suratga xolisona qiziqishdan bo‘lak hech nima yo‘q edi.

– Menga qiyin masala berib qo‘ydingiz, – dedi So‘na. – Suratning rangi o‘chib qolibdi, bundan tashqari, bolalarning yuziga qarab bir narsa deyish juda qiyin. Lekin mening fikrimcha, bu boladan o‘sib chiqadigan katta kishi baxtsiz bo‘ladi. Bolaning qilishi kerak bo‘ladigan eng bama’ni ish – katta odam bo‘lishdan nafsi ni tiyish.

– Nega endi?

Pastki labining tuzilishiga qarang. Shu tabiatli odamlar uchun azob-azobligicha-yu, yolg‘on-yolg‘onligicha qoladi. Bu dunyoda bu xil odamlarga o‘rin yo‘q. Bu dunyoga faqat o‘z ishinigina o‘ylaydigan odamlar kerak.

– Suratni o‘zingiz bilgan kishilardan hech biriga o‘xhatmayapsizmi?

U suratga tikilib qaradi.

– Ha. Juda qiziq!.. Ha, albatta, juda ham o‘xshaydi.

– Kimga?

– K-k-kardinal Montanelliga. Ajab emaski, u zoti muborakning biron jiyan-piyani bo‘lsa? Qani, bir ko‘rsating, kim o‘zi bu?

– Bu do‘stimning bolalik chog‘idagi surati, yaqinda sizga aytuvdimu, o‘sha.

– Siz o‘ldirgan do‘stingiznikimi?

Jemma ixtiyorsiz seskanib ketdi. Bu dahshatli so‘zni qanday oson, qanday bag‘ritoshlik bilan aytdi-ya u!

– Ha, men o‘ldirgan kishiniki... agar chindan ham o‘lgan bo‘lsa.

– Agar?

– Jemma ko‘zlarini undan olmadidi.

— Ba'zi vaqtlar o'lganiga gumon qilaman. Jasadi topilmadi-ku. U ham sizga o'xshash, ehtimol, uyidan qochib, Janubiy Amerikaga ketib qolgandir.

— Bunday bo'lman deb umid qilamiz. Bir zamonlar m-men ozmuncha j-jang qilgan emasman, ham ancha-muncha odamlarni, ehtimol, asfalasofingayam j-jo'nat-gandirman, lekin biron tirik j-jonni Janubiy Amerikaga j-jo'natganligim alami yu-yuragimda bo'lsa, uygum harom bo'lardi, ha, ishonavereng.

Jemma yuragini hovliqishini bosish uchun qo'llarini qisdi.

— Demak, agar u cho'kmagan bo'lsa, — Jemma uning yoniga kelib, so'zini bo'ldi, — agar siz boshingizdan kechirgan narsalarni u ham kechirgan bo'lsa, hech vaqt uyiga qaytmas va bo'lib o'tgan narsalarni unutmas edi deb o'ylaysizmi? Hech qachon unutmas edi deysizmi? Bilib qo'ying, bu narsa menga ham arzon tushmadi! Qarang!

Jemma peshonasidagi og'ir, qalin sochlarni orqaga tashladi. Qora soch tolalari orasida cho'zilib yotgan bir siqim oq soch ko'rindi.

Oraga uzoq jimlik tushdi.

— Meningcha, — dedi sekin So'na, — o'lganlar o'ldi, endi ularni o'z holiga qo'yganimiz yaxshi. Unutish — qiyin ish. O'lgan do'stingiz o'mida men bo'lsam, o'lgan b-o'-lib q-qolaverardim.

Jemma suratni yana g'aladonga solib, quflab qo'ydi.

— Sizning oldingizga bir kichkina ish to'g'risida gaplashgani keluvdim, iloji bo'lsa, yolg'iz gaplashsak deb. Miyamga kelgan bir reja to'g'risida.

Jemma stulni stol yoniga jildirib o'tirdi.

— Matbuot haqida chiqarilmochi bo'lgan qonun to'g'risida fikringiz qalay? Fikrimmi? Nafi katta bo'lmaydi

degan fikrdaman, lekin butun nonga ilhaq bo'lib och o'tirguncha, yarimtani olib turgan ham tuzuk.

– Shubhasiz. Bundan chiqliki, janob liberallar shu yerda nashr etishmoqchi bo'lgan yangi gazetalardan birida ishlash niyattingiz bor?

– Ha, shunday qilsammi deb turibman. Yangi gazeta chiqarish paytida amaliy ishlar har doim shuncha ko'p bo'ladiki: bosmaxona, maqola, gazetalarni tarqatish, undan so'ng...

– O'zingizning ma'naviy kuchingizni mana shu xilda yana qachongacha isrof qilasiz?

– Nima uchun isrof deysiz?

– Shuning uchunki, boshqacha deb aytib bo'lmaydi. Siz birga ishlashayotgan erkaklardan ko'ra zehningiz ancha o'tkirligini o'zingiz juda yaxshi bilasiz. Siz bo'lsangiz, hamma ishni o'z qo'lingizda tutib turganligingizga qaramay, nuqul qora ishlarni bajaradigan allaqanday joriyaga aylantirib yuborishlariga yo'l qo'yib kelasiz. Grassini bilan Galli aql jihatidan sizning oldingizda shunchaki maktab bolalari-yu, xuddi idora xizmatkoriday, ularning korrekturalarini tuzatib o'tirasiz.

– Avvalo, vaqtimning hammasini faqat korrektura o'qishgagina sarf qilmayman, qolaversa, mening istedodimni haddan ziyod oshirib yuborayapsiz.

– Meningcha, sizning aqlingiz yaxshi, ham sog'i-lom – bu esa muhim narsa. Odamni qon qilib yuboradigan ana shu komitet majlislarida qatnashuvchilar gapidagi mantiqning zaif tomonlarini har vaqt ko'rsatab berasiz. Men o'z vaziyatimdan juda ham xursandman. Men qilib turgan ish, qanchalik muhim ekanini xudo biladi-yu, lekin hamma ham qo'lidan kelganini qiladi-da...

– Sinora Bolla, biz siz bilan shunchalik yaqinmizki, xushomadlar qilishib yo tortinishib o'tirishimiz yarash-

maydi. Menga dangal javob bering-qo'ying: aql jihatidan sizdan ancha past turgan kishilar qilishi mumkin bo'lgan narsalarga miyangizni sarf etayotganligingizga tan berasizmi?

– Agar javob ber deb turib olsangiz, mayli, beray: ehtimol, ma'lum darajada shundaydir.

– Shunday bo'lsa, nega endi bunga yo'l qo'yasiz?

– Shuning uchunki, men bu masalada kuchsizman.

– Kuchsizman deysizmi? Nima uchun?

Jemma unga o'pka qilib qaradi.

– Yaxshi emas bunaqa tergayverish.

– Shunday bo'lsa ham aytin: nima uchun?

– Xo'p bo'lmasa. Javob bersam beray: butun hayotim barbod bo'lgani uchun arzigulik biron narsaga qo'l uray desam, madorim yo'q. Men faqat revolutsiyaning qirchang'i oti bo'lishga, partianing qora ishlarinigina qilishga yarayman. Hech bo'lmasa shu ishni o'rinalatib bajaraman, axir kim bo'lsa ham buni qilishi kerak-ku.

– Ha. Bilaman, kim bo'lsa ham qilishi kerak, lekin har vaqt bitta xodim emas.

– Lekin mening qo'limdan keladigan ishning qariyb hammasi – shuning o'zi.

U Jemmaga yarim tushirilgan qovoqlari ostidan g'alati, xira bir nazar bilan qaradi. Jemma boshini ko'tardi.

– Yana avvalgi mavzuga qaytib ketayapmiz, holbuki ish to'g'risida gaplashmoqchi edik. Qo'limdan kelishi mumkin bo'lgan ish to'g'risida gapirishning foydasi yo'q, ha deyavering. Endi unaqa ishni qilolmayman. Lekin rejangizga aql bo'lishga yordam berolsam ajab emas. Qanaqa reja u?

– Sizga ish taklif qilishdan foyda yo'qligini aytasiz-u, yana nima taklifim borligini so'raysiz. Mening rejam faqat

aqlashish bilangina emas, harakat bilan ham yordam qilishingizni talab etadi.

- Avval nima gapligini ayting, keyin so‘zlashamiz.
- Venetsiyada qo‘zg‘olon qilish rejasi haqida hech nima eshitganmisiz? Shuni ayting avval.
- Eshitayotgan narsam nuqlu qo‘zg‘olon rejasi-yu, sanfedistlar fitnasi bo‘lib qoldi. Amnistiyadan beri faqat shularning ovozasi. Unisiga ham, bunisiga ham bir xilda ishonmayman, ana shu meni biroz qo‘rqtadi.
- Men ham ko‘pincha shunday. Lekin men avstriyalliklarga qarshi tayyorlanilayotgan jiddiy qo‘zg‘oltonni gapiRAYAPMAN. Butun viloyat tayyorlanayapti. Papa viloyatida yoshlar chegaradan o‘tishga va qo‘zg‘olonchilarga ko‘ngillilar sifatida qo‘shilishga yashiriqcha tayyorgarlik ko‘rishayapti... Romanyadagi do‘stlarim xabar qilishdi...
- Menga qarang, – deb Jemma uning so‘zini bo‘ldi, – ana shu do‘srlaringizga ishonsa bo‘ladimi, o‘zingiz ishonasizmi?
- To‘la ishonsa bo‘ladi. Men ularni shaxsan taniyman ham, birga ishlaganman ham.
- Boshqacha qilib aytganda, ular ham siz a’zosi bo‘lgan tashkilotning a’zolari-da? Har narsaga ishonavermaydigan odatim bor, buning uchun ma’zur ko‘rasiz; shu sababli yashirin tashkilotlardan olinadigan xabarlarga har vaqt shubha bilan qarayman. Meningcha, odat...
- Meni biron tashkilotning a’zosi deb kim aytdi sizga? – deb So‘na siyosat bilan so‘radi.
- Hech kim, o‘zim payqab qoldim.
- A-a! – So‘na stulning orqasiga o‘zini tashladi-da, Jemmaga xo‘mrayib qaradi. Bir daqiqacha jim o‘tirib, keyin so‘radi: – Siz bilan hamkor bo‘lgan kishilarning shaxsiy ishlarini hamma vaqt payqab yurasizmi?

- Juda ko‘p payqayman. Men yer ostida ilon qimirlasa bilaman, shuningdek, faktlar orasidagi aloqani aniqlashga ustaman. Menga bildirgingiz kelmagan biron narsangiz bo‘lsa, men bilan ehtiyyot bo‘lib gaplashing degan niyatda aytyapman.
- Bilishingizga hech qarshi emasman, lekin nariga o‘tmasa bo‘lgani. Umid qilamanki, siz payqab olgan narsa...

Jemma hayron qolganini, qariyb haqoratlanganini bildirguvchi bir ishora bilan boshini ko‘tardi. Keyin:

- Meningcha, bu savol tamoman ortiqcha, — deb yubordi.
- Bilaman, albatta, begonalarga hech nima demaysiz, lekin partiya a’zolariga, ehtimol...

Partiya faktlarga qarab ish qiladi, mening shaxsiy taxminlarim va fantaziyalarimga qarab emas. O‘z-o‘zidan ma’lumki, men bu haqda hech kimga hech qachon bir nima degan emasman.

- Rahmat. Mening qaysi tashkilotdaligimni ham, balki, payqab olgandirsiz?
- Ochiq aytsam xafa bo‘lmassiz, chunki gapni o‘zingiz kovladningiz. U «Pichoqbozlar» tashkiloti emasdир, deb umid qilaman, astoydil umid qilaman.
- Nima uchun shunday deb umid qilasiz?
- Shuning uchunki, siz bundan yaxshiroq narsaga yaraysiz.
- Biz hamisha qilib turgan ishimizdan ko‘ra yaxshiroq ishga yaraymiz, Siz bergen javobni o‘zingizga qaytardim. Men sizga aytsam, «Pichoqbozlar» tashkilotining emas, «Qizil belbog‘liklar» tashkilotining a’zosiman. Bu tashkilot odamlari o‘zlarini ancha og‘ir tutishadi, ishlariga ham jiddiy qarashadi.
- Ish deb odam so‘yishni aytmoqchimisiz?

– Ha, bilgingiz kelsa, uni ham. Pichoq ham xo‘p foydali narsa bo‘ladi, faqat shunda foydaliki, agar hamma ish yaxshi uyuşdırılgan targ‘ibotga asoslangan bo‘lsa. «Pichoqbozlar»ga shu masalada qo‘shilmayman. Ular bu dunyodagi ko‘ngilxiralikni pichoq yo‘q qiladi deb o‘ylaydilar, lekin bu katta xato: pichoq ko‘ngilxiraliklarning ko‘pini yo‘qotishi mumkin, lekin barisini emas...

– Nahotki chindan ham pichoq bilan bir nima qilib bo‘ladi deb o‘ylasangiz?

So‘na unga hayron bo‘lib qaradi.

– Albatta, – deb Jemma so‘zini davom ettirdi, – hozirgi paytda ishning beliga tepib turgan aqlli josus yoki yaramas to‘ra sifatidagi amaliy to‘sqinni pichoq bilan bartaraf qilsa bo‘ladi; lekin shu yo‘l bilan borilsa, yangi sharoit vujudga kelib, bunisi avvalgisidan ham badtar bo‘lib chiqmasmikan, – hali bu noma'lum. Odam o‘ldirilgan sari politsiyaning quturishi orta boradi, xalqni esa zo‘rlikka va bag‘ritoshlikka yana badtar odatlantiradi; shunday qilib, yangi tartib jamiyat uchun eskisidan ancha noqulay bo‘lib chiqadi.

– Xo‘sh, sizningcha, revolutsiya paytida nima bo‘ladi? Nahotki o‘shanda ham xalq zo‘rlik qilmasligi kerak deb o‘ylasangiz? Urush urush-da.

– To‘g‘ri, ochiq urush boshqa gap. Urush – xalq hayotida bir paytgina, u payt – kelajak baxtingiz uchun biz, to‘laydigan xun. Albatta, juda dahshatli narsalar bo‘ladi: ular har qanday revolutsiyada bo‘lishi muqarrar. Lekin bular ayrim faktlar, ya’ni muhim paytning muhim tafsilotlaridir. Albatta, agar, siz o‘ylaganingizdek, revolusioner qiladigan ishning maqsadi hukumatni ayrim masalalarda yon bostirishga erishishdan iborat bo‘lsa, u holda yashirin tashkilot bilan pichoq sizga kurashning eng yaxshi qurollari

bo'lib ko'rinishi kerak: dunyodagi barcha mamlakatlarning hukumatlarini hech nima bunchalik qo'rqitmaydi! Agar menga o'xshab o'ylaydigan bo'lsangiz, ya'ni hukumatni bartaraf qilish muddao emas, balki muddaoga olib boradigan vosita; bizning asosiy muddaomiz esa insonning insonga bo'lgan munosabatini o'zgartirishdir degan fikrda bo'lsangiz – boshqacha ish ko'rishingiz kerak bo'ladi. Johil odamlarni qonni ko'rishga o'rgatish bilan inson hayotining qimmatini oshirolmaysiz.

- Din qimmatini-chi?
- Tushunmadim.

So'na kulumtsiradi.

– Falokat tomirining qayerdaligi masalasida siz bilan mening fikrim har xil. Sizningcha, u inson hayotining qadriga yetmaslikda.

- To'g'rirog'i, inson shaxsining tabarrukligini anglamaslikda.
- Xohlagan iborangizni tanlab olavering. Meningcha, peshonamizdagi sho'r va xatolarning asosiy sababi – din deb atalgan aqliy xastaligimizda.

- Siz biron ayrim dinni nazarda tutayapsizmi?
- O, yo'q! Bu faqat tashqi belgilarga oid masala, xolos. Xastalik esa aqlning din bilan chulg'anib qolganligida, o'ziga sanam yaratishga zo'r ehtiyoj sezib, sanamini avliyo darajasiga ko'tarishda, yuzi bilan yerga yotib, allanimaga sajda qilishda ko'rindi. Mening fikrimga qo'shilmasiz, albatta. Nazaringizda, men qatlga faqat ablahlar va to'ralarni bartaraf qilish usuligina deb qarovchilardanman; yo'q, siz shunday deb o'ylash bilan juda katta xato qilasiz. Cherkov obro'yini to'kishda va xalqni cherkov agentlariga ham har qanday zuluklarga qaraganday qarashga o'rgatishda qatl mening uchun dastavval bir qurol, qurol bo'lganda ham, meningcha, eng yaxshi qurol.

– Agar shunga muvaffaq bo‘lsangiz, agar xalq qalbining chuqrur bir yerida mudrab yotgan yovvoyi yirtqichni uyg‘otib, keyin cherkovga gijgijlasangiz...

– U holda o‘shani deb yashashga arziyidigan ish topaman.

– Bir necha kun avval ham xuddi shu ish to‘g‘risida gapiruvdingiz shekilli?

– Ha, shu to‘g‘rida.

Jemma seskanib, yuzini teskari o‘girdi.

– Nazaringizdan qoldim shekilli, a? – dedi So‘na.

– Yo‘q, unaqa emas. Men... nazarimda, sizdan hayiqayotganga o‘xshayman.

Bir daqiqadan keyin yana So‘na tomonga o‘girildi-da, endi odatdagagi tadbirli ohangida gapirdi:

– Bu tortishuvdan foyda yo‘q, chunki ikkovimizning ham qarashlarimiz nuqtayi nazarlarimiz haddan ziyod boshqa-boshqa. Endi menga kelsak, men targ‘ibotga, targ‘ibotga va yana targ‘ibotga hamda iloji bo‘lsa ochiq qo‘zg‘olonga ishonaman.

– Xo‘p, endi mening rejam masalasiga qaytaylik; mening rejam qisman targ‘ibotga, asosan qo‘zg‘olonga taalluqli.

– Rostdan-a?

– Venetsiyaliklarni quvvatlash uchun Romanyadan juda ko‘p ko‘ngillilar kelayotganini boyaga aytuvdim shekilli. Ammo qo‘zg‘olon olovining qachon yonishini hali bilmaymiz. Qaydam, balki kuzga yo qishga qolib ketar. Lekin ko‘ngillilar yozda qurollantirilishi va odam yuborilishi bilanoq tekisliklarga harakat etish uchun safar jabduqlarining taxt qilib qo‘yilishi kerak. Men ularga kontrabanda yo‘li bilan Papa viloyatiga qurollasлаha va kiyim-kechak yuborish vazifasini zimmamga oldim...

— Shoshmang. Shunday odamlar bilan qanday qilib ishlaysiz? Venetsiya bilan Lombardiya revolusionerlari haligacha yangi papani yoqlab kelishayapti. Ular cherkovning taraqqiyatini harakatchilari bilan qo'lni qo'lga berishib, liberal islohotlar qilishga kirishayotibdi. Sizkudinga qarshi kurashda hech murosaga bormaydigan odamsiz, shu ahvolingizda ular bilan qanday chiqishasiz?

So'na yelkalarini qisdi.

— Lattadan yasalgan qo'g'irchoqqa havaslanib o'tirishlari bilan mening nima ishim bor? Ishqilib, o'z yumushlarini bajarishsa bo'ldi! To'g'ri: kemalarining tumshug'iga papa rasmini osib yurishadi — papa ular uchun bir bayroq, albatta. Qo'zg'olon yo'liga mutlaqo tushadigan bo'lganlardan keyin bu ikir-chikirlari bilan nima ishim bor? Har qanday kaltak itni urushga yaraganiga o'xhash, har qanday jangovar ishora ham yaxshi narsa, agarda shu ishora bilan xalqni avstriyaliklarga qarshi qo'zg'atib bo'lsa.

- Qani, mendan qanaqa ishni kutasiz?
- Asosan, chegaradan quroq-aslahalarni o'tkazishimga yordam bersangiz.
- Voy, men qanday qilib o'tkazaman?
- Hamma gap shunda-da, boshqalardan ko'ra siz yaxshiroq o'tkazasiz. Men Angliyadan quroq-aslaha sotib olmoqchiman, ularni olib kelish oson bo'lmaydi. Papa viloyatidagi portlarning biriga olib kelish hech to'g'ri kelmaydi, shuning uchun avval Toskanga keltirib, u yerdan Apennina tog'lari orqali olib o'tish kerak bo'ladi.
- U holda bir chegara o'miga ikkitasiga duch kelasizku!
- Shunday bo'ladi, ammo boshqa yo'llarning hammasi xatarli; savdo-sotiq ishlari hech yo'q desa bo'ladigan portdan kattakon transportni kontrabanda yo'li bilan olib o'tishning

sira iloji yo‘q. Ishqilib, yukimizni Toskanga keltirib olsak – marra bizniki, keyin Papa viloyati chegarasidan o‘tkazishni men o‘z zimmamga olaman. O‘rtoqlarim tog‘dagi har bir so‘qmoqni yaxshi bilishadi, undan keyin yarog‘-aslahani yashiradigan joylardan ham kamchiligidiz yo‘q. Yuk dengiz bilan to‘g‘ri, Livornoga kelishi kerak, – asosiy qiyinchilik ham xuddi mana shunda. U yerdagi zo‘ravonlar bilan aloqam yo‘q, ehtimol, sizniki bo‘lsa.

– Shoshmay turing, biroz o‘ylab ko‘ray. Ajab emas bu masalada sizga yordam qilolsam; lekin bu haqda gaplashishdan avval sizdan bir narsani so‘rab olmoqchiman: siz menga bu ishning pichoq zarbi yo zo‘ravonlikning boshqa biron xili bilan bog‘liq emasligi to‘g‘risida va‘da bera olasizmi?

– Albatta. Siz yomon ko‘z bilan qaraydigan ishga ishtirok qiling deb aytmasligim o‘z-o‘zidan ma’lum-ku.

– Uzil-kesil javobimni qachon aytishim kerak?

– Vaqtini bekor o‘tkazib bo‘lmaydi, shunday bo‘lsa ham o‘ylab ko‘rishingizga ikki-uch kun muhlat berishim mumkin.

– Shanba kuni kechqurun bo‘shmisiz?

– O‘ylab ko‘ray... bugun payshanba... ha bo‘shman.

– Bo‘lmasa, mening oldimga keling. Ungacha taklifingizni o‘ylab ko‘rib, uzil-kesil javobimni aytaman.

Kelasi yakshanba kuni Jemma Madzini partiyasining Florensiya bo‘limi komitetiga xat yozib, o‘zining maxsus siyosiy ishga kirishmoqchi ekanligini, shu tufayli hozirga qadar partiya oldida javobgarligini o‘z zimmasiga olib kelgan ishini bir necha oygacha bajara olmasligini ma’lum qildi.

Bu narsa komitedagilarni birmuncha hayron qilgan bo‘lsa ham, lekin hech kim qarshi chiqmadi. U partiyada ko‘p yillardan beri suyansa bo‘ladigan kishi sifatida ma’lum

edi, shuning uchun komitet a'zolariga: agar sinora Bolla qo'qqisdan shunday qarorga kelgan bo'lsa, demak, bunga asosli sabablari bor, deyishdi.

Martiniga esa ba'zi bir xil «chegara ishlarida» So'naga yordam bermoqchi ekanligini dangal aytib qo'yaqoldi. U o'zining eski do'sti bilan faqat ma'lum darajadagina ochiq gaplashishini avval pisanda qilib oldi.

Ular Jemma ayvonida o'tirar, qizil tomlar orqasida, uzoq-uzoqlarda ko'rinib turgan Fezola cho'qqisini tomosha qillardilar. Uzoq davom etgan jimlikdan keyin Martini o'midan turdi-da, qo'llarini cho'ntaklariga solib va hushtak chalib, u yoq-bu yoq yura boshladи; ruhiy hayajonga tushgan paytlarida hamisha shunday qilardi. Jemma bir necha daqiqa indamay unga qarab o'tirdi.

— Chezare, bu narsa ta'bingizni juda xira qilayapti, — dedi axiri Jemma, — sizning koyiganingizga jonim achiyaptiyu, lekin nima qilay, men to'g'ri deb bilgan ishimni qilishga majburman.

Meni xijil qilayotgan narsa siz kirishayotgan ish emas, — deb Martini xo'mrayib javob qildi. — U ishning qanaqaligini bilmayman, lekin siz bosh qo'shishgaki unnabsiz, demak, yaxshi ish bo'lishi kerak deb o'layman. Hamma gap shundaki, birga ishlamoqchi bo'lgan kishin-gizga ishonmayman.

— Siz u kishini yaxshi bilmaysiz shekilli. Yaqinroq tanishgunimcha men ham bilmasdim. Mukammal odam deb aytishdan uzog'-u, lekin siz o'ylagandan ancha yaxshi.

— Ajab emas.

Martini indamasdan bir daqiqagini ayvonda yurdi, keyin birdan Jemma yonida to'xtadi.

— Jemma, qaroringizdan qayting. Fursat borida qayting. Bu odam sizni shunday sargardon qiladiki, keyin pushaymon yeysiz.

Jemma yumshoq qilib gapirdi:

— Chezare, aytayotgan gapingizni o'ylamasdan gapi rayapsiz. Meni birov bir nimaga tortib, sarson qilay deyayotgani yo'q. Qilinadigan ishlarni obdan o'ylab ko'rib, keyin o'zim shu qarorga keldim. Bilaman, siz Rivaresni odam sifatida yomon ko'rasiz; lekin biz shaxslar to'g'risida emas, siyosiy ish to'g'risida gaplashyapmiz.

— Jemma, qayting! Xavfli odam u; ichimdan top deydigan, shafqatni bilmaydigan, hech nimadan tap tortmaydigan odam... undan keyin sizni sevadi ham.

Jemma o'zini orqaga oldi.

— Chezare, nahotki miyangizga shunaqa narsalar kelsa?  
— Sizni sevadi, — deb Martini yana takrorladi. — Ehtiyyot bo'ling, Jemma.

— Azizim Chezare, undan uzoqda turolmayman, nega bundayligini aytib berolmayman ham. Biz bir-birimiz bilan mahkam bog'langanmiz, bu jipslik bizning maylimiz bilan bo'lgan emas, shuning uchun uni uzib yuborish ham bizning ixtiyorimizda emas.

— Jipslanishi shunchalik mahkam bo'lsa, bunga qarshi bir nima deyishimning hojati yo'q ekan, — dedi Martini, horg'in tovushda.

Martini zarur ishlarl borligini aytib chiqib ketdi, keyin iflos ko'chalarda uzoq vaqt aylanib yurdi. Shu kecha dunyo unga nihoyatda qorong'i ko'rindi.

### O'ninchи bob

**S**o'na fevralning o'rtalarida Livornoga ketdi. Jemma uni o'sha yerda turuvchi yosh bir ingliz bilan tanishtirib qo'ydi; u paroxodchilik vakili bo'lib, hurriyatparvar maslakdagи kishi edi. Jemma eri ikkovi u

bilan Angliyada tanishgan edi. Bu ingliz Florensiya radikallariga bir necha marta yaxshilik qilgan: boshi berk ko‘chaga kirib qolganlarida pul qarz bergan, o‘z firmasidan partiya xatlari uchun manzil ma’nosida foydalanishlariga ijozat qilgan ham shular singari xizmatda bo‘lgan. Lekin bu narsalarning hammasi Jemmaning shaxsiy do‘siti bo‘lgani uchun qilgan, qilganda ham hamma vaqt Jemma orqali amalga oshirgan.

Shuning uchun ham Jemma partiya nazokatidan tashqari chiqmay, bu aloqasidan har qanday maqsadda o‘zi bilganicha foydalana olardi. Lekin bu tanishlik hozirgi vazifaga qo‘l kelarmidi-yo‘qmi – bu ikkinchi masala edi. Partiyaga xayrixoh bo‘lgan chet el kishisidan Sitsiliyadan keladigan xatlarga o‘z manzilini berib turishni yoki biron hujjatni kontorasidagi yonmas jovonda saqlab qo‘yishni so‘rash bundayroq gap bo‘lsa, qo‘zg‘olonga atalgan yarog‘-aslahalarni yashirin yo‘llar bilan tashib berishni so‘rash qiyin gap edi. Uning ko‘nishiga Jemmaning umidi juda kam edi.

– Iltimos qilib ko‘rishingiz mumkin, albatta, – dedi u, So‘naga, – lekin bundan bir nima chiqishiga hech aqlim yetmaydi. Agar mening tavsiyam bilan uning oldiga besh yuz skudi<sup>1</sup> so‘rab borsangiz, albatta, darhol berar edi: borib turgan darajada saxiy kishi. Ehtimol, agar so‘rasangiz pasportini ham berib turar yoki bitta-yarimta qochqinni yerto‘lasiga ham berkitib qo‘yar, lekin miltiq to‘g‘risida gap ochgundai bo‘lsangiz, gapingizga hayron bo‘lib, ikkalamizni ham jinniga chiqaradi.

– Ajab emas menga boshqa yo‘l ko‘rsatib bersa, yo ishimizga xayrixoh bo‘lgan matroslar bilan tanishtirib

<sup>1</sup> Skudi – eski vaqtida  $1\frac{1}{2}$  so‘mga teng keladigai yirik italyan kumush puli.

qo'ysa, – dedi So'na. – Har nima bo'lsa ham, iltimos qilib ko'rish kerak.

... Kunlarning birida, oy oxirida, So'na Jemma oldiga odatdagidan soddaroq kiyinib keldi; Jemma uning yuzidan xushxabar keltirganini darhol sezdi.

– Voy, keldingizmi! Sizga bir nima bo'lib qoldimi deb o'ylab o'tiruvdim.

– Xat yozmaganim xatarsizroq bo'lar deb o'yladim, ilgariroq qaytishga esa iloj bo'lmadi.

– Shu topda keldingizmi?

– Ha, to'g'ri yo'ldan kelishim. Hamma ish o'nglandi, shuni sizga aytib qo'yay deb kirdim.

– Bayley yordam qilishga ko'ndi, demoqchimisiz?

– Yordam qilish ham gapmi! Hamma narsani zimmasiga oldi: qutilarga joylashni, olib kelishni, qo'yingchi, hamma ishni. Uning Vilyams degan sherigi ham yaqin do'sti bor ekan, ana shu kishi yuklarning Sautgemptonдан jo'natalishiga shaxsan ko'z-qulqoq bo'lib turishni bo'yniga oldi; Bayley bo'lsa Livornoga bojxonadan o'tkazib qo'yadigan bo'ldi. Shuning uchun ham uzoq tutilib qoldim: Vilyams Sautgemponga ketayotgan ekan, Genuyagacha birga bordim.

– Yo'lda ish tafsilotini gaplashib olish uchunmi?

– Ha. Dengiz kasalidan mazam qochib, tilim gapga kelmay qolguncha so'zlashib bordik.

Bir mahallar Jemmaning otasi uni Artur bilan dengizga sayohat qildirgani olib borgan edi; ana shunda Arturning dengiz kasali bilan og'rib qolganini eslab, Jemma:

– Dengiz shunaqa yoqmaydimi sizga? – deb shoshib so'radi.

– Shuncha ko'p sayohat qilgan bo'lsam ham dengiz hech yoqmaydi. Lekin paroxod Genuyada yuk ortib bo'lquncha, bahuzur gaplashib oldik. Vilyamsni, albatta, tanisangiz kerak?

Yaxshi, aqlli yigit ekan, bahuzur ishonsa bo'ladi. Bayley ham bu masalada undan qolishmaydi, ikkovining ham og'zi mahkam. Endi hamma gapni batafsil aytib beraman.

So'na uyiga qaytganda quyosh allaqachon botgan va bog' devorlaridan osilib tushgan purus japonica so'nib borayotgan kun yorug'ida qoramtil tusga kirgan edi. So'na ana shu gullardan bir necha novdasini uzib, uyga olib kirdi. Kabinetining eshigini ochganda, burchakdagi stuldan Zitta sapchib turdi-da, unga qarab yugurdi.

– O Feliche, endi hech qaytib kelmassiz deb qo'rquvdim!

Xayoliga dabdurustdan kelgan narsa – kabinetga nima uchun kirganligini o'shqirib so'rash istagi bo'ldi, lekin uch haftadan beri ko'rmaganini eslab, qo'lini uzatdi-da, birmuncha sovuq ohangda so'rashdi:

– Salom, Zitta. Qalaysan?

Zitta o'ptirgisi kelgandek unga yuzini yaqinlashtirdi. Lekin So'na o'zini Zittaning qilig'ini sezmaganga solib, yonidan o'tib ketdi; keyin guldonni olib, gullarni solmoqchi bo'lib turgan edi, birdan eshik lang ochilib, uyga kattakon bir it yugurib kirdi. U suyunganidan taysallanib, g'ingshib, So'na tevaragida irg'ishlay boshladi. So'na gullarni bir chetga qo'yib, itni siladi.

– Shayton, qadrdon do'stim, senmisan-a? Mana, men ham kelib qoldim. Kel, qo'lingni ber.

Zitta unga jahli chiqib, xo'mrayib qaradi, keyin sovuqqina qilib:

– Ovqat yeysanmi? – deb so'radi. – Ovqat qildirib qo'ydim; bugun kechqurun kelaman deb yozgan ekansan.

U yalt etib Zittaga qaradi.

– M-meni k-kutmasang ham bo'lardi, k-ko'p afsus. Kiyimlarimni almash tiray hozir boraman. B-balki b-bu gullarni suvga solib qo'yarsan?

U Zittaning yemakxonasiiga kirganda Zitta toshoyna oldida korsajiga gul qadab turgan edi. U o‘zini xushchaq-chaq qilib ko‘rsatmoqchi bo‘ldi shekilli, So‘na oldiga bir bog‘lam qizil gul ko‘tarib keldi.

– Mana senga gul. O‘zim taqib qo‘yaman.

So‘na ovqat mahalida o‘zini muloyim tutishga va suhbatni shirin qilib o‘tirishga tirishdi. Zitta baxtiyorlik bilan kulumsirab javob berar edi. Zittaning o‘zini ko‘rib terisiga sig‘may suyunayotganidan So‘na o‘ng‘aysizlanardi. U Zitta do‘satlari va o‘z ruhiga yaqin tanishlari orasida boshqacha yashaydi, degan fikrga odatlanib qolgan edi. Zitta uni sog‘inib sarg‘ayishi mumkinligi xayoliga ham kelmasdi. Shunday bo‘lsa ham, uning So‘nani ko‘rib boshi osmonga yetganidan sog‘ingani ma’lum edi.

– Ayvonga chiqib qahva ichaylikmi, xohlaysanmi? – deb so‘radi Zitta. – Bugun kechqurun havo shunaqayam iliqki.

– Xo‘p. Gitarangni olib chiqaman, balki ashula qilib berarsan.

So‘na uning muzikasiga odatda ishonchsizlik bilan qarar, ashulasiga kam zoriqar edi.

Ayvonning devor tomoniga yog‘ochdan yasalgan keng o‘rindiq qo‘yilgan edi. So‘na burchakka borib o‘tirdi, u yerdan qirlar chiroyli bo‘lib ko‘rinib turardi. Shuning uchun ham Zitta devorga chiqdi-da, oyoqlarini o‘rindiqqa qo‘yib, ustunga suyanib oldi. U go‘zal manzaralardan uncha havaslanmas edi. So‘nani tamosha qilishga ko‘proq qiziqardi.

– Menga bitta papiros ber, – dedi Zitta. – Sen ketganiningdan beri hech chekkanim yo‘q.

– Ajoyib fikr, to‘la baxtga erishmog‘im uchun bittagina papiros yetmay turuvdi.

Zitta egilib, unga jiddiy nazar bilan qaradi.

– Sen chinakam baxtlimisan?

So‘naning yuzi yorishib ketdi.

– Nega baxtli bo‘lmay? Yaxshilab ovqat qildim, qarshimda Yevropaning eng g-go‘zal manzarasi, hademay qahva keladi, keyin venger xalq ashulasi bo‘ladi. Vijdonimga hech nima azob bermaydi, oshqozonim yaxshi ishlaydi. Yana nima kerak?

– Men bilaman, yana bir nimani xohlaysan.

– Nimani?

– Mana buni.

U So‘naga kichik bir quticha uzatdi.

– Qandil bodom! Nega papirostan oldin aytmading? – dedi u, o‘pka qilib.

– Nega emish, yosh bola-ey! Papirostan keyin yesang ham bo‘laveradi-ku. Ana, qahva ham kelib qoldi.

So‘na qaymoq yalayotgan mushuk singari qahvasini kerilib ichishga, qandil bodomini maza qilib yeishga kirishdi.

– Livornoda berishadigan yuvindidan keyin shunday shirin qahvani ichish qanday rohat-a! – dedi So‘na, o‘ychanlik bilan.

– Shuning uchun hech vaqt uydan jilma.

– Hech vaqt... ertaga tag‘in ketaman.

Zittaning yuzidagi tabassum yo‘q bo‘ldi.

– Ertaga? Nega? Qayerga?

– Har xil joylarga, ish bilan.

U Jemma bilan qilgan suhbatida Apennina tog‘lariga borib, yarog‘-aslalahalarni olib o‘tish masalasini kontrabandistlar bilan kelishib kelmoqchi bo‘lgan edi. Papa viloyati chegarasidan olib o‘tish haddan tashqari xavfli bo‘lsa ham, lekin qilinmoqchi bo‘lgan ish muvaffaqiyati uchun zarur edi.

- Uzzukun ish! – dedi Zitta, xo'rsinib; keyin so'radi: – Uzoq turasanmi?
  - Yo'q, ikki haftacha turarman, uch hafta turib qolsam ham ajab emas.
  - Yana o'sha ish bilanmi? – deb so'radi Zitta, birdan.
  - Qaysi «o'sha» ish bilan?
  - O'sha – ostiga bo'yningni qo'yib sindirging kelib yurgan ish bilan; o'sha uzzukungi siyosatdir-a?
  - Ha, siyosatga birmuncha taalluqli joyi ham bor. Zitta papirosini irg'itib tashladi.
  - Meni aldayapsan hozir, – dedi Zitta. – Joning xatarda turibdi.
  - To'g'ri jahannamga jo'nayman, – deb javob qildi u, tanballik bilan. – U yerda do'stlaring bordir, bir dasta gul berib yuborsang, – hamma ko'katlarni yulib bersang ham bo'laveradi.
- Zitta ustunga o'ralib o'sayotgan chirmovni g'azab bilan sidirdi-da, changaliga chiqqan barglarni zarda qilib otib urdi.
- Joning xatarda turibdi-yu, – deb takrorladi u, – rostini aytib qo'ya qolging kelmaydi; men bilan faqat hazillashishgina mumkin deb o'ylaysan. Hademay osib o'ldirishadi seni, men bilan xayrlashaolmay ham qolarsan. Bu tugab o'limgan siyosat biram jonimga tegdiki.
  - Ha, m-mening ham, – dedi So'na, esnab. – Kel, boshqa narsalar haqida gaplashaylik. Yo ashula aytib bera-sanmi, a?
  - Xo'p, gitarani ber. Nimani aytay?
  - Yo'qolgan ot qissasini. Ovozingga juda quyilib tushadi-da.
- Zitta avval otidan, keyin uyidan va oxir sevgilisidan ayrilgan kishi to'g'risidagi eski venger qissasini aytta boshladi; u kishi shuncha judoliklardan keyin o'zini:

«Mogash maydonida bundan ham ko'proq narsalar yo'qotilgan edi», deb yupatadi. Bu So'naning yaxshi ko'rgan ashulasi edi. Ohangning vahshiyona va fojiyonaligi, shuningdek naqoratning g'amgin va ezginligi So'naga har qanday muloyim muzikadan ham ortiqroq yoqardi.

Zitta o'z ovozi bilan mast edi. Ovozlar og'zidan kuchli, ravshan va baxt intizorligi bilan to'lib chiqardi. U italyan yoki slavyan qo'shiqlarini yaxshi aytolmasa ham, lekin venger xalq ashulalarini qiyib yuborar edi.

So'na ko'zlarini chaqchaytirib, og'zini xiyol ochib o'tirib eshitdi. Zitta hech vaqt bunchalik yaxshi aytmagan edi. Biroq so'nggi satrni aytayotganda ovozi birdan qaltirab ketdi:

— «O, baribir, — bundan ham ko'proq narsalar yo'qotilgan edi...»

Zitta ashulasini shu yerda uzdi, piq-piq yig'ladi, yuzini yashil chirmovga o'rasi.

— Zitta! — So'na turib borib, Zittaning qo'lidan gitarani oldi. — Nima bo'ldi?

U yuzini qo'llari bilan to'sib olib, dag'-dag' titrab yig'lardi. So'na yelkasidan ushladi. Keyin mehribonlik bilan:

— Nima bo'ldi, aytsang-chi? — deb so'rasi.  
— Tegma, — dedi Zitta, piq-piq yig'lab turib. Keyin o'zini undan tortdi. — Tegma menga!

So'na indamay joyiga qaytdi va Zittaning yig'lab bo'lishini kutdi. Zitta birdan uning yoniga tiz cho'kib, quchoqlab oldi.

— Feliche, ketma, ketma!  
So'na o'ziga chirmashib olgan qo'llarni muloyimgina olib tashlarkan:

— Bu haqda keyin gaplashamiz, — dedi. — Avval menga ayt: nima bo'ldi, nega qo'rqib ketding?

Zitta boshini sekin chayqadi.

- Senga ozor yetkazdimmi, Zitta?
- Yo‘q, – Zitta qo‘lini bo‘g‘iziga keltirdi.
- Ayt axir, nima gap?
- Seni o‘ldirishadi, – dedi axiri Zitta. – Senikiga kelib yuradigan odamlarning bittasidan eshitdim: joning xatarda emish. Sendan so‘rasam, nuqlu meni mazax qilasan.

– Jonginam, – dedi So‘na, biroz jim turgandan so‘ng, – sen shunaqa – aravani quruq olib qochaverasan. Albatta, bir kun emas, bir kun meni o‘ldirishadi. Bu turgan gap, chunki har bir revolutsionerning kuni odatda shunday tugaydi, lekin meni xuddi shu safar o‘ldirishadi, deb o‘ylashga hech qanday sabab yo‘q. Mening boshimdagи xatar boshqalarnikidan ortiq emas.

– Boshqalarnikidan? Boshqalar bilan mening necha pullik ishim bor? Meni yaxshi ko‘rganingda yuragimga shunaqa tashvish solib ketmas eding. Seni qamab qo‘yishadimi deb qo‘rqib, kechalari mijja qoqmay chiqaman, tushlarimda esa o‘ldirilgan bo‘lib ko‘rinasan. Sen shu itning g‘amini yesang-yeysanki, mening g‘amimni unchalik yemaysan.

So‘na o‘rnidan turdi-da, ayvonning u chetiga sekin-sekin yurib bordi. U bu xil janjalga sira ham tayyor emas va nima javob qilishni ham bilmash edi. Ha Jemma to‘g‘ri gapirgan: So‘na yengiltaklik qilib, ipni shu qadar chuvalashtirib yuborgan ediki, endi uning uchini topish oson emasdi.

– Qani, tinch o‘tirib, shular to‘g‘risida bir gaplashib olaylik, – dedi So‘na, Zitta yoniga qayta turib. – Chamamda, bir-birimizni yaxshi tushunmaydiganga o‘xshaymiz. Chinakam tashvish qilayotganiningni bilgan bo‘lsam, kulmagan bo‘lardim, albatta. Seni nima tashvishga solayotganini mundoq tushuntirib ber, agar o‘rtada anglashilmovchilik bo‘lsa, bafurja hal qilaylik.

- Hal qilishning keragi yo‘q, ko‘rib turibman: meni o‘lguday yomon ko‘rasan.
- Jonginam, bunday gaplarning nima keragi bor, undan ko‘ra ochiq gaplashib qo‘ya qolaylik. Men o‘rtamizdagi munosabatlarda o‘zimni hamma vaqt halol tutishga tirishib keldim, shuning uchun seni hech qachon aldamadim...».
- O, yo‘q, sen hamisha menga ochiq muomala qilib kelgansan. Sen meni o‘zingdan avval hammani ko‘rgan, endi esa halok bo‘lgan xotin deb hisoblappingni hech qachon yashirgan emassan... Sen har doim yuzimga solarding...
- Zitta, bu qanday gap!.. Miyamga hech qachon bunaqa fikr kelgan emas, hech qachon senga bunday degan emasman...
- Hech qachon meni sevgan emassan, – deb turib oldi u, karashma qilib.
- Ha, men seni hech qachon sevgan emasman. Endi gapimga qulq sol-u, meni qoralamaslikka tirish.
- Haliyam qoralayotganim yo‘q. Men...
- Shoshmay tur. Mening gapimni eshit. Men hech qanaqa shartli axloqqa ishonmayman ham, uning qoidasiga bo‘ysunmayman ham. Men erkak bilan xotin kishi o‘rtasidagi munosabatni shaxsan yoqish yo yoqmaslik masalasi deb hisoblayman.
- Pulni ham, – deb Zitta keskin, jo‘shqin bir qahqaha bilan gapni bo‘ldi.

So‘na qovog‘ini solib biroz jim turdi.

- Ha, albatta. Masalaning jirkanch tomoni ham xuddi mana shunda, bordi-yu senga yoqmasam, yoqmaganligimni sezib turib, azbaroyi seni yonimda olib qolish uchungina tang ahvolingdan foydalanib o‘tirmas edim. Ha, ishonaver. Umrimda hech bir xotin bilan shu xil muomala qilgan

emasman, undan keyin hech bir xotinga unga bo'lgan sezgilarim to'g'risida yolg'on gap aytgan emasman; ishonaver, to'g'risini aytayapman. – So'na biroz to'xtab turgan bo'lsa ham, Zitta hech qanaqa javob qilmadi. Shundan keyin u yana so'zini davom ettirdi: – Biron kishi hayotda yolg'iz qolsa-yu, yonida xotin kishining bo'lishiga ehtiyoj sezsa-da o'ziga yoqqan va o'zi ham yaxshi hislar bilan qaragan biron ta ayolni topsa, men o'sha ayolning maylini minnatdorchilik bilan qabul etishga haddi bor, bundan mustahkamroq yo'llar bilan bog'lanib o'tirishning keragi yo'q, deb o'ylagan edim. Mabodo erkak yo ayol tomonidan insofsizlik, aldash yo haqorat qilish degan narsalar bo'lmasa, men bu narsada biron yomonlik bor deb o'ylamayman. Sening boshqa erkaklar bilan qilgan avvalgi aloqalaringni o'ylab ham ko'rganim yo'q. Men o'rtamizdag'i aloqani zo'rlik natijasi emas, balki ikkovimizdan qaysi birimizga og'ir tushsa, uzib ketishga erklimiz deb bilardim. Agar men xato ketgan bo'lsam, sen bu narsaga boshqacha qaraydigan bo'lsang, u holda...

U tag'in jim bo'ldi.

- U holda? – Zitta unga qaramasdan shivirladi.
- U holda men senga insofsizlik qilganman, bu esa meni qattiq ranjitadi. Lekin men buni jo'rttaga qilgan emasman.
- «Ranjitadi?» «Jo'rttaga qilgan emasman?» Voy, nima balo, toshdanmisan, Feliche? Nahotki umringda biron xotinni sevmagan bo'lsang, nahotki ko'rmaysan: men seni sevaman axir?

Bu so'zni eshitib, So'naning ichida bir nima titrab ketdi. U: «Men seni sevaman» degan so'zlarni eshitganiga juda-juda ko'p vaqtlar o'tib ketgan edi. Zitta birdaniga irg'ib turib, So'nani quchoqlab oldi.

- Feliche, kel birga ketaylik, bu rasvo mamlakatdan, bu odamlardan, siyosatdan uzoqlarga boshimizni olib

ketaylik. Ular bilan bizning nima ishimiz bor? Ketaylik, baxtli bo'lamiz. Sen ilgari yashagan Janubiy Amerikaga ketamiz.

Xotiralardan vujudga kelgan jismoniy dahshat So'nani hushiga keltirdi. Zittaning o'z bo'yniga chirmashgan qo'llarini ajratib, mahkam qisdi.

– Zitta, gapimning mag'izini chaqishga urin. Men seni sevmayman, sevgan taqdirimda ham sen bilan birga ketolmasdim. Mening Italiyada ishim va o'rtoqlarim bor.

– Yana birov bor, mendan ortiqroq sevadiganing yana birov bor! – deb tutaqib qichqirdi Zitta. – O, qo'limga tushsa jon deb o'ldirardim uni! O'rtoqlaringni o'ylamaysan, bilaman kimni o'ylashingni!

– O'pkangni bos, – dedi So'na. – Jahling chiqib turgani uchun yo'q gaplarni gapiRAYapsan.

– Sen meni sinora Bolla to'g'risida gapiRAYapti deb o'ylayapsanmi? Meni aldash unchalik oson emas. U bilan faqat siyosat to'g'risida gaplashasan. Meni qancha kam sevsang, uni ham shunaqa kam sevasan. Sen faqat kardinalni o'ylaysan.

So'na seskanib tushdi. Keyin ixtiyorsiz takrorladi:

– Kardinalni?

– Ha, kuzda shu yerda va'z o'qigan kardinal Montanellini. Izvoshi yonimizdan o'tib ketayotganda yuzing qanaqa bo'lib ketganini ko'rmapmanmi? Sen mana bu ro'molchaday oppoq bo'lib ketding. Otini aytishim bilan mana hozir ham daraxt bargiday titrab ketding.

– Nima deyayotganiningni o'zing ham bilmaysan. Kardinalni ko'rishga ko'zim yo'q. U mening ashaddiy dushmanim...

– Dushmaningmi-yo'qmi, lekin dunyoda hech kimni unchalik sevmaysan. Qani, agar shu gapim yolg'on bo'lsa, qo'lingdan kelsa yuzimga qarab: yolg'on deb ko'rchi!

So'na yuzini teskari o'girib, bog'ni tomosha qila boshladi. Zitta qilib qo'ygan ishidan qo'rqib, unga o'g'rincha qarab o'tirdi. So'naning jimligida g'alati bir narsa bor edi. Zitta sekin biqinib bordi-da, yuragi chiqib ketgan bola singari hayiqib turib uni yengidan tortdi. So'na unga o'girilib:

– To'g'ri aytding, – dedi.

### O'n birinchi bob

- **U**b-bilan tog'-mog'da uchrashsam b-bo'lmas-mikan? Brizigella menga xavflik qiladi.
- Romanyaning har bir qarich yeri siz uchun xavfli. Lekin hozirgi paytda Brizigella boshqa har qanday yerdan xavfsizroq.
- Nima uchun?
- Hozir aytib beraman. Ko'k kamzulli kishi yuzingizni ko'rmasligi kerak, xavfli odam... Ha, bo'ron yomon turdi. Ko'p vaqtlardan beri uzumzorlar bunchalik vayron bo'lган emasdi.

So'na qo'lini stolga cho'ziltirdi-da, horg'inlikdan madori qurigan yoki vinoni ko'p ichib yuborgan kishi singari, yuzini pastga qaratib, boshini qo'liga qo'ydi. Ko'k kamzulli kishi xonaga tezgina ko'z yogurtirib, bir shisha vino ustida hosildan bahs qilib o'tirishgan ikki dehqon bilan boshini stolga qo'yib olgan bir tog'lini ko'rди. Marradi singari kichkina qishloqchalarining qovoqxonalarida bunaqa manzarani ko'p ko'rish mumkin edi. Ko'k kamzul egasi bularning gapini eshitib o'tirish befoyda deb o'yladi shekilli, vinosini bir ko'tarishda ichib tugatdi-da, qovoqxonaning ko'chadan kiraverishdagi birinchi xonasiga o'tib ketdi. U peshtaxtaga suyanib,

xo'jayin bilan mahalliy mavzularda gaplashib turdi; og'zi gap bilan bo'lsa ham, lekin ko'zlarining qiri stol atrofida uch kishi o'tirgan xonaning qiya ochiq qolgan eshidiga edi. Dehqonlar vino ichib o'tirib, o'zlarining mahalliy shevalarida havodan babs etishar, So'na esa parvoysi palak xurrak otar edi.

Josus axiri qovoqxonada ortiqcha vaqt sarf qilib o'tirishga arzigulik hech nima yo'q degan qarorga keldi shekilli xo'jayinning tegishli chaqasini to'lab, qovoqxonadan tanballanib chiqdi-da, tor ko'cha bo'ylab sekin-sekin yurib ketdi.

So'na esnab, kerishib turdi, keyin uyqusiragan kishi singari bo'z ko'ylagining yengi bilan ko'zlarini uqaladi.

— Ayg'oqchilikni do'ndirishibdi, — dedi So'na; keyin cho'ntagidan qalamtaroshini olib, stolda yotgan javhari nondan bir burda kesib oldi. — Keyingi vaqtida juda qiynashgandir sizni bular, Mikele?

— Avgustdagi iskabtoparlardan ham badtar. Bir zum tinch qo'yishmaydi. Qayerga borma, hamma yerda jesus izg'ib yuradi. Ilgari tepaga, toqqa chiqishga yuraklari betlamas edi, mana endi o'sha yerlarda ham uch-to'rttadan bo'lib olishib sanqib yurishadi. Shunaqa, a, Jino? Sizni Dominikino bilan shuning uchun ham shaharda uchrashtirmoqchi bo'ldik-da.

— Bunisiku to'g'ri-ya, lekin nima uchun Brizigellaning o'zida? Axir chegara shahari hamma vaqt joslars bilan to'lib yotadi-ku.

— Brizigella hozirgi paytda juda bop joy. Mamlakatning har joyidan kelgan dindorlar bilan gavjum.

Dindorlar yo'lidan chetda-ku?

— To'g'ri, Rim yo'lidan ancha xilvatda, lekin Sharqqa qarab ketayotgan hojilarning ko'plari bu yerdagi ibodatda bo'lish uchun yo'llarini shu yoqqa burishyapti.

- Brizigellada shunday ajoyibotlar borligidan bexabar ekanman.
  - U yerda kardinal bor. Bultur dekabrda Florensiyaga va'z qilgani kelgan edi-ku, esingizdami? O'sha kardinal Montanelli. Dong'i zo'r deyishadi.
  - Ajab emas. Men-ku birda-ikkida va'zini eshitganim yo'q.
    - Nimasini aytasiz, shuhrati avliyo emish.
    - Qanday qilib shunaqa shuhrat topibdi?
    - Qaydam. Nazarimda, topgan-tutganlarini hammaga bo'lashib bergani, o'zi esa oddiy cherkov ruhoniyisday yiliga to'rt yuz-besh yuz skudi bilan kun kechirib kelgani uchun bo'lsa kerak.
  - Bu hali holva, – deb gap qotdi Jino nomli sheri. – Faqat pulinigina emas, jonini ham ayamas ekan: beva-bechoralarga yordam qiladi, kasallarning yaxshi parvarish etilishiga ko'z-qulqoq bo'ladi, ertadan kechgacha odamlar xayr-ehson so'rab kelishadi. Poplarni yomon ko'rsangiz, menchalik yomon ko'rarsiz, Mikele, lekin monsinor Montanelli boshqa kardinallarimizga o'xshamaydi.
  - To'g'ri, shaytondan ko'ra farishtaga ko'proq o'xshaydi, – dedi Mikele. – Lekin nima bo'lsa ham, uni desa xalqning esi ketib turadi. Shuning uchun hojilar keyingi vaqtarda undan fatvo olish niyatida Brizigellaga tushib o'tadigan odat chiqarib oldilar. Dominikino savatga arzonbaho krestlar bilan tasbehlarni solib olib, o'sha yerga sotgani bormoqchi bo'lib turibdi. Xullas, shu qiyofada bormoqchi-da. Bunaqa narsalarni xalq chaqqon olib, kardinaldan tabarruk qildirishar ekan-da, keyin ko'z tegmasin deb, bolalarining bo'yinlariga osib qo'yishar ekan.
  - Shoshmang, men qanday tusda boraman? Hoji tusidami? Rejani, xo'p, menga yoqdi ham deylik, lekin

Brizigellaga bu yerdagи tusim bilan borishim hech to'g'ri kelmaydi-da. M-mabodo m-meni qamashsa, sizlarning siringiz ochilib ketadi.

– Sizni qamashmaydi: sizga ajoyib kiyim, pasport va boshqa zarur narsalar taxt qilib qo'yilgan.

– Qanaqa kiyim ekan?

– Ilgari Sierra tog'larida qaroqchilik qilib yurib, endi tavba qilgan ispaniyali xudojo'y chol kiyimi. Bultur Ankonada og'rib qolgan ekan, do'stlarimizdan biri rahm qilib, savdo kemasiga solib ketibdi. Olib borib Venetsiyaga tushiribdi, u yerda oshnalari bor ekan. Chol minnatdorchiligini nima bilan bo'lsa ham bildirish uchun qog'ozlarini bizga tashlab ketuvdi, mana sizga asqatib qoldi.

– Tavba qilgan q-qaroqchi? P-politsiya nima deyar-kin?

– O, buyog'idan g'am yemang! Bir necha yil bundan avval katorga jazosini tugatib chiqib, o'shandan beri Quddusi sharifda va boshqa tabarruk joylarda gunohini tilab yurar ekan. Boshqa birovni o'ldiraman deb, bilmasdan o'z o'g'lini o'ldirib qo'yibdi-yu, qilmishidan pushaymon yeb, o'zini politsiya ixtiyoriga topshiribdi.

– Judayam keksami?

– Ha, yasama oq soch-u yasama oq soqol sizni ham qaritib qo'yadi, boshqa alomatlari esa xuddi siznikining o'zi – quyib qo'ygandek.

– Dominikino bilan qayerda uchrashaman?

– To'rt ko'chada hojilarga qo'shilib olasiz, u yerni sizga kartadan ko'rsatib beramiz; undan so'ng tog'da adashib qoldim deysiz. Shaharga kirganingizdan keyin to'g'ri olomon bilan bozor maydoniga boravering; bozor kardinal saroyining qoq ro'parasida.

– Shuncha avliyoligiga qaramay, hali saroyda turadi deng?

– Bir qanotida xolos, qolgan yerlarini kasalxona qilib qo'ygan. Xudojo'ylar uning saroydan chiqib, fatvo berishini kutishadi, xuddi shu paytda Dominikino savatini ko'tarib kelib: «Hojimisiz, ota?» deb so'raydi. Siz: «Men gunohga botgan bir notavonman», deb javob qilasiz. Ana shundan keyin Dominikino savatini yerga qo'yib, yuzini yengi bilan arta boshlaydi, siz bo'lsangiz tasbehiga olti soldi taklif qilasiz.

– Ana shundan keyin uchrashadigan yerimizni pisanda qilishib olsak kerak?

– Ha, odamlar kardinalga suqlanib bo'lgunlaricha manzilni bahuzur aytib ulguradi u. Bizning rejamiz shunaqa; basharti sizga yoqmasa, Dominikinoga xabar qilamiz-u, boshqa yo'l topamiz.

– Yo'q, yo'q, rejangiz yaxshi. Faqat yasama soqol bilan soch yaxshi qilingan bo'lsin, shunisiga ehtiyot bo'ling.

– Hojimisiz, ota?

So'na yepiskop saroyining zinapoyasida o'tirar, chatishib, bitishib ketgan oq sochlari yuziga taram-taram tushib turardi. U boshini ko'tarib, xirillab, titrab turgan tovush bilan chet el kishisining nihoyatda buzuq ohangi bilan shartli javobni berdi. Dominikino yelkasidan qayish bog'ini chiqardi-da, tasbehtar bilan krestlar solingan savatini zinapoyaga qo'ydi.

Bozor maydonida o'tirgan dehqonlar va xudojo'ylardan hech biri ularga e'tibor qilmasdi, shunday bo'lsa ham, ehtiyotdan, uzoq so'zlashmadilar: gaplar kalta-kulta bo'ldi. Dominikino mahalliy lahjada, So'na esa chet so'zlar aralashgan buzuq italyan tilida gapirdi.

Saroy eshigi oldida turganlar:

– Kardinal hazratlari! Kardinal hazratlari chiqayotilar! – deb qichqirdi.

– Kardinal hazratlariga yo'l beringlar! Po'sht, po'sht!

So'na bilan Dominikino o'rinalaridan turdi.

Dominikino qog'ozga o'ralgan kichikkina butchani So'naning qo'liga qo'yib:

— Mang, ota, — dedi, — oling buni, Rimga borganingizda men uchun ham ibodat qilib, haq yo'liga duo qiling.

So'na butchani qo'yniga tiqib, kardinalni ko'rish uchun darhol u tomonga o'girildi.

Kardinal dabdabali yepiskop libosi va to'q qizil kulohi bilan zinapoyaning yuqori pog'onasida turib, xalqqa fatvo bermoqda edi.

Keyin sekin-sekin pastga tusha boshladi u; ana shunda xudojo'ylar qurshab oldi, har kim uning qo'lini o'pishga tirishar edi. Ko'p odamlar tiz cho'kib, chononing barini ushlashar, tabarruk qilib o'pishardi.

— Parvardigor o'z panohida asrasin sizlarni, bolalarim!

So'na bu jonli, jarangli tovushni eshitdi-yu, boshini solintirib oldi: oq sochlari yuziga parda bo'lib tushdi. Dominikino hoji qo'lidagi hassanining titraganini ko'rib, suyunganidan: «Qanday ajoyib artist-a?» deb o'yldi.

Ular yaqinida turgan bir xotin kishi zinapoyadagi bolasini yerdan oldi-da:

— Yur, Chekko, — dedi, — kardinal hazratlari senga fatvo beradi, xudo ham o'z bolalariga shunaqa fatvo bergen.

So'na bir qadam oldinga tashladi-yu, tag'in to'xtadi. Hayot naqadar shafqatsiz! Mana shu begona odamlarning hammasi, mana shu uzoqdan kelgan xudojo'ylarning hammasi va tevarak-atrofdagi tog'larning aholisi uning oldiga kela oladi, u bilan gaplashadi... u esa qo'lini bolalarining boshiga qo'yadi. Ehtimol, ana shu dehqon bolasini, bir mahallar Artumi erkalatganidek, «azizim» deb erkalatar...

So'na yana zinapoyaga o'tirdi, uni ko'rmayin deb yuzini teskari o'girib oldi. O, koshkiydi biron burchakka

kirib, qulqlarini berkitib olsa, bu tovushlarni eshitmasa! Odam joni to'zim bera oladigan azobdan ham ortiq azob bu.... qo'lini uzatsa u jonajon qo'lga yetadi, u shu qadar yaqin, shunchalar yaqin tursa-yu...

— Mening oldimga kirib, isinib chiqmaysizmi, do'stim, — dedi u yumshoq tovush. — Nazarimda, sovqotib qolgan ko'rinasiz.

So'naning yuragi urishdan to'xtadi. Bir daqiqagina behush bo'lib turdi: faqat shiddat bilan yuragiga yopirilib kelgan qon og'rig'idan bo'lak hech nimani sezmadni; qon hozir ko'kragini yorib yuboradigandek shiddatli edi, keyin u to'lqinlanib orqaga qaytdi, vujudiga tarqalguncha hammayog'ini kuydirib bordi. Birdan Montanelli qo'lining o'z yelkasiga muloyimgina tekkanini sezdi.

— Siz og'ir musibat ko'ribsiz. Sizga biron yordam qilolmasmikanman?

So'na indamasdan bosh chayqadi.

— Hojimisiz?

— Men gunohga botgan bir notavonman.

Montanelli savolining parol savoli bilan ittifoqo to'g'ri kelib qolishi najot somoni bo'ldi: So'na jon-jahdi bilan o'shangas osilib oldi. U o'zi ham bilmay parol javobini berdi. Kardinal qo'lining yumshoqqina tegishi yelkasini kuydirdi, butun badaniga titroq yugurdi.

Kardinal uning ustiga yana ham engashdi.

— Balki men bilan alohida gaplashmoqchidirsiz? Agar sizga yordam qilish qo'limdan kelsa...

So'na axiri Montanellining ko'zlariga qaradi. U endi o'zini tutib ola boshlagan edi.

— Foydasi yo'q, dardimga darmon topolmaysan, — dedi u.

Olomon orasidan politsiya chinovnigi yorib chiqdi.



– Aralashayotganim uchun meni ma'zur ko'radilar, kardinal hazratlari. Meningcha, cholning aql-hushi joyida bo'lmasa kerak. Uning hech kimga ziyoni tegmaydi, qog'ozlari ham joyida, shuning uchun indamay o'z holiga qo'yibmiz. Qattiq jinoyati uchun katorga jazosini tortib chiqqan, mana endi tavba-tazarru bilan gunohini yuvib yuribdi.

So'na kallasini sekin-sekin tebratib turib, takrorladi:

– Qattiq jinoyat uchun.

– Rahmat, kapitan. Marhamat qilib, biroz nariroq tursangiz. Astoydil tavba qilgan kishiga hamma vaqt yordam berish mumkin, do'stim. Kechqurun mening oldimga bir kirmaysizmi?

– O'z o'g'lini o'ldirib gunohga botgan bir kishini kardinal hazratlari qabul qilarmikanlar? – Savol chimchilab oladigan ohangda aytilgan edi, Montanelli seskanib tushdi, keyin, izg'irinda qolgandek, shumshaydi.

– Nimaiki qilgan bo'lsangiz ham sizni qoralashdan xudo saqlasin meni! – dedi u, tantanali bir ohangda. – Uning oldida hammamiz ham birday gunohkormiz, zero bizning to'g'riliqimiz iflos juldur misolidadir. Men o'lganimdan keyin parvardigor meni qay tarzda qabul qilishini iltijo etsam, siz kelsangiz, sizni ham xuddi shunday qabul qilaman.

So'na qo'qqisdan bunyodga kelgan ehtirosli bir harakat bilan qo'lini cho'zdi.

– Quloq soling! – dedi u. – Hey, xristianlar, sizlar ham quloq solinglar! Agar birov o'zining yakka-yu yagona o'g'lini, ya'ni o'z pushtikamaridan bo'lgan va o'ziga ishongan, o'zini sevgan o'g'lini o'ldirsa, agar uni o'limdan bo'lak hech nima qutqazolmaydigan qopqonga yolg'on va aldov bilan ilintirgan bo'lsa, ana shunday odamning yerdan, ko'kdan biron ilinji bo'lishi mumkinmi? Men gunohim uchun xudo oldida, uning

bandalari oldida tavba qildim. Men odamlar bergen jazoni tortdim, ular meni tinch qo'yib yubordilar. Lekin parvardigori olam qachon «bas» deyarkan? Uning menga otgan tavqi la'natini kimning duosi bag'rimdan yuvarkan? Qanday toat-u ibodat qora qilmishimning izlarini yo'q etarkan?

O'rta g'amgin jimlik cho'kdi. Olomon indamasdan Montanelliga qarab turardi, ko'kragidagi krestning qaltirayotgani esa hammaga oshkor edi. U axiri ko'zlarini baland ko'tarib, xiyol titrab turgan qo'llari bilan xalqqa fatvo berdi.

— Tangri taoloning marhamati ulug'vor, — dedi u, — qalbingdagi dardingni dargohiga borib arz et, chunki: «o'rtangan va vayron bo'lган qalbdan yuzingni o'girma», degan.

Montanelli o'girilib, maydon bilan yurib ketdi; odamlar bilan gaplashish yo bolalarni qo'liga olish uchun qadam sayin to'xtab bordi.

So'na o'sha kuni kechqurun majlis tayinlagan uyga bordi. Manzilni Dominikino butchani o'rab bergen qog'ozdan o'qib olgan edi. Bu uy tashkilotning faol a'zosi bo'lган bir yerli vrachning uyi edi. Inqilobchilarning ko'pchiligi allaqachon yig'ilgan edi. Ular So'nani shunday bir shod-u xurramlik bilan kutib oldilarki, agar uning yo'lboshchiligi yangi bir isbotga ehtiyoj sezsa, bu shod-u xurramlik yuksak ekanini yangidan isbot qilardi. Sizni yana ko'rish bilan boshimiz osmonga yetdi, — dedi doktor, — lekin bu yerdan eson-omon boshingizni olib ketsangiz, bundan ham ko'proq xursand bo'lamiz. Sizning kelishingiz nihoyat darajada xatarli, shuning uchun bu rejaga men shaxsan qarshi chiqqan edim. Bugun ertalab maydonda politsiya kalamushlaridan hech bittasi sizni sezib qolmaganiga imoningiz komilmi?

- S-sezishga-ku s-sezishdi-ya, albatta, ammo tanishmadi. Dominikino hamma ishni do'ndirib yubordi. Qani o'zi, aytmoqchi?
- Hali kelganicha yo'q. Demak, hamma ishlar joyida? Kardinal sizga fatvo berdimi?
- Fatvo berdimi emish-a? Fatvo berish ham gapmi! – eshik oldidan Dominikinoning shunday degan ovozi eshitildi. – Rivares rojdestvo pishirig'i singari g'alati in'omlari bilan hayron qiladi, kishini. Bizni hayron qoldiradigan yana qancha talantingiz bor?
- O'zi nima gap? – deb so'radi So'na, tanballik bilan.
- Sizni bunaqa ajoyib aktyor deb o'ylamagan edim. Urim bino bo'lib bunaqa ajoyib o'yinni ko'rghan emasman. Kardinal hazratlarini shunday ta'sirlantirdingizki, yig'lab yuborishiga oz qoldi.
- Qanday qilib? Aytib bering, Rivares.

So'na yelkalarini qisdi. Unda gapirish kayfiyati yo'q edi; majlisda o'tirganlar undan hech narsa chiqmasligini ko'rib Dominikinoga murojaat qildilar.

U ertalab bozorda bo'lган hodisani aytib berganda, hamma kulib yubordi. Faqat bitta yosh sinchigina kulmadi. U qovog'ini osiltirib:

- Sizku rolingizni ustalik bilan bajargandirsiz, – dedi. – Lekin bu tomoshadan kimga qanaqa naf chiqishiga to'g'risini aytsam, bilmay turibman.
- Mana bunaqa naf chiqadi, – deb javob qildi So'na. – Endi men butun okrugda gashtingni surib yuraveraman, undan so'ng nima xohlasam, shuni qilaman, bitta ham tirik jonning boshiga meni qanaqa odam ekan degan shubha kelmaydi. Bugun bo'lib o'tgan voqeа ertaga butun shaharga yoyiladi: bitta-yarimta josus ko'rsa-chi! «E-e, maydonda gunohidan tavba qilgan Diego jinniku», deb ketaveradi. Menga xuddi shu narsa kerak!

– Albattaku-ya, ammo kardinalni ahmoq qilmasdanoq bu maqsadga erishib bo‘lmasmidi? Unga bunaqa muomala qilish yaramaydi, u juda yaxshi odam.

– Mening o‘zimga ham tuzuk odam ko‘rindi, – dedi So‘na, erinibgina qo‘silib.

– Bema’nini gapi bu, Sandro bu yerda kardinallarning hech keragi yo‘q bizga, – dedi Dominikino.

– Monsinor Montanelliga Rimdan amal chiqqan edi, agar u shu tasodifdan foydalanib o‘shaning o‘rniga ketgan bo‘lsa, Rivares uni bunaqa ahmoq qilib o‘tirmas edi.

– Bu yerdagi ishini tashlab ketgisi kelmagani uchun Rimga ketmagan-da.

– Ko‘proq Lambruchini agentlarining birontasi tomonidan qurbon bo‘lgisi kelmagani uchun ketmagan bo‘lsa kerak. Ular negadir Montanelliga qarshi edilar. Bunda hech shubha yo‘q. Agar biron kardinal, ayniqsa Montanelliday shuhrati ketgan bir kardinal, mana shu Brizigelli singari tashlandiq xandaqda qolishni afzal ko‘rgan bo‘lsa, biz buning ma’nisiga yaxshi tushunamiz. Shunday emasmi, Rivares?

So‘na tutunni halqalab chiqarmoqda edi.

– Kim bilsin, hamma gap «o‘rtangan va vayron bo‘lgan qalb» dadir, – dedi u, tutun halqalarini ko‘rish uchun boshini orqaga tashlab.

– Xayr, endi ishga kirishsak ham bo‘lar deyman, janoblar?

Majlis ahli yuklarni kontrabanda yo‘li bilan keltirish loyihasini va yarog‘-aslahani yashirish chorasi ustida mukammal muhokamaga kirishdi. So‘na gaplarni juda qiziqib tingladi. Faqat, ba’zan noaniq ma’lumotlar yoki haddan ziyod dadil rejalar to‘g‘risida keskin tanbehlar berib, odamlarning talashib yotgan gaplarni ora-sira bo‘lib turdi. Majlisdagilarning hammasi gapirib bo‘lgandan keyin

bir necha amaliy takliflar kiritdi; takliflarning ko'pchiligi qariyb janjalsiz qabul qilindi. Shu bilan majlis ham tamom bo'ldi. So'na Toskanga eson-omon qaytguncha uzoqqa cho'ziladigan va politsiyaning e'tiborini o'ziga jalb qiladigan majlislardan saqlanib turishga qaror qilindi. Soat o'nga jom urganda hamma tarqaldi. Faqat doktor, So'na va Dominikinogina qoldi. Ular ba'zi bir maxsus masalalarni muhokama qilish zimmasiga yuklangan komissiyani tashkil etardilar.

Muhokama uzoq va qizg'in bo'ldi. Axiri Dominikino soatga qaradi.

— O'n bir yarim bo'libdi. Bu yerdan tezroq ketish kerak, bo'lmasa kecha qorovuliga ro'para kelib qolamiz.

— Qorovul shaharni qachon aylanishga chiqadi? — deb so'radi So'na.

— O'n ikkilarda. Ungacha uyga borib olgim bor. Tinch uxlangu endi, Jordano. Birga ketamizmi, Rivares?

— Yo'q, ayri-ayri ketsak xavf ozroq bo'lar deb o'ylayman. Yana ko'ramanmi sizni?

— Ha, Kastel-Bolonezeda.

— Men qanaqa tusda yo'lga chiqarkanman, hali o'zim ham bilmayman, lekin parolni bilasiz. Bu yerdan ertaga jo'nab ketasizmi?

— Ertaga ertalab xudojo'ylar bilan birga ketaman, birisi kuni esa o'zimni kasalga solib, cho'pon kapasida yotib qolaman. U yerdan to'g'ri tog'ni kesib o'taman-u, Kastel-Bolonezaga sizdan oldin yetib boraman. Xayr, omon bo'ling!

Katta cherkov jomxonasingin soati o'n ikkini bong urganda So'na xonaqo eshigiga endi yetib kelgan edi; xudojo'ylar uchun yotoq qilib qo'yilgan bu keng, bo'sh xonaqo yerida odam shakliga o'xshamagan allaqanday gavdalar ko'rinar, xurraklar esa kecha jimligida juda

gumbirlab eshitilar edi. Havo biram sassiq. Jirkanganidan So‘naning butun vujudi junjikib ketdi, keyin o‘zini orqaga oldi. Bu yerda uxlayman deb o‘ylash aqlga sig‘maydi! Yaxshisi biroz aylanish-u, keyin biron bostirmami yo g‘arammi topish: undan tozaroq, tinchroq joy yo‘q.

Kecha nihoyat darajada go‘zal: to‘lin oy qizg‘ish osmonda jimgina suzib boradi. So‘na shahar ko‘chalarida beg‘araz aylana boshladi. Ertalab bo‘lib o‘tgan hodisa miyasida xuddi yomon tushdek gavdalani turardi. Dominikinoning Brizigellada majlis o‘tkazish to‘g‘risidagi rejasiga rozilik bergani uchun mana endi qanchalar pu-shaymon! Agar bu loyihani boshdayoq xavfli deb ayt-gan bo‘lsa, boshqa joy qidirishgan bo‘lar, u holda So‘naning o‘zi ham, Montanelli ham bu xunuk va kulgilik sharmandachilikdan qutulib qolgan bo‘lar edilar.

Padre qanchalar o‘zgaribdi! Tovushichi, boyagiday: bir vaqtlar... «azizim» deb yurgan mahallardagiday...

Ko‘chaning ul chetidan kecha qorovulining qo‘l chirog‘i ko‘rindi, So‘na darhol o‘zini tezda boshqa ko‘chaga urib ketdi. Bir necha qadam tashladi-yu, qo‘qqisdan yepiskop saroyining chap qanoti oldidagi cherkov maydonidan chiqib qoldi. Maydon oy yog‘dusiga cho‘mgan, tamoman bo‘m-bo‘sh edi, So‘na qarasa: cherkovning yon eshigi qiya turgan ekan. Kim bilsin, balki jomchi esidan chiqib ochiq qoldirib ketgandir. Mana shunday bemahalda cherkovda hech nima qilinmaydi-ku. O‘sha yerga kirib, bo‘sh o‘rindiplarning birida yotib uxlasa nima qipti? Sassiq xonaqohga qaytib borgandan ko‘ra bu yer o‘lsa o‘ligi ortiqku. Ertalab jomchi kelmasdan burun sekin maydonga chiqib ketadi-ko‘yadi. Mabodo shu yerdan topib olishsa bir nima deyisharmidi? Diego jinni biron burchakda ibodat qilib o‘tirgan bo‘lsa, bilmasdan eshikni berkitib ketishgan deyishar-da.

So'na eshik oldida biroz qulq solib turdi, keyin sharpasiz odimlar bilan ichkari kirdi; oqsoqligiga qaramay, ana shunaqa sharpasiz yurishga usta edi. Derazalardan oy yog'dusi marmar polga yo'l-yo'l bo'lib tushib turgan edi. Hammasidan ham mehrobga ko'proq yorug' tushar, u yerdagi bor narsalar kunduzgiday yaqqol ko'rinish turardi. Kardinal Montanellining bir o'zi mehrob ostonasida boshyalang, qo'llari ibodatga qovushtirilgan bir holda tiz cho'kib turgan edi.

So'na o'zini soyaga oldi. Montanelli ko'rib qolmasdan turib, yo ketib olsinmi? Agar ketsa, shubhasiz, uning qo'lidan kelishi mumkin bo'lgan eng ma'nili, ehtimol, eng shafqatli ish bo'lur edi. Bordi-yu, padrega yaqin kelib, yuzini yana bir marta ko'rib olsachi? Bu naqadar oson, beozor: atrofda olomon yo'q demak, ertalab boshlangan qabih masxarabozlikni davom ettirishga ham hojat yo'q. Kim bilsin, bundan keyin padreni ko'rish bir umr nasib bo'lmas! Padre uni ko'rmasligi ham mumkin, albatta. Faqat yonginasidan lip etib o'tib ketadi-yu, yuzini bir ko'rib oladi. Keyin o'z ishiga qaytadi.

So'na ustunlar soyasi bilan biqinib borib, mehrob panjaralariga sekin yetib oldi. Keyin mehrob yonidagi yon eshik oldida bir zumgina to'xtadi. Yepiskop taxtidan tushib turgan soya keng bo'lgani uchun So'nani bahuzur yashira olardi, shuning uchun nafasini chiqarmay o'sha yerga biqinib bordi.

– Bechora bolam! Yo xudo! Bechora bolam!

Bu ezgin shipshida shu qadar poyonsiz alam bor ediki, So'na ixtiyorsiz junjikib ketdi. Keyin chuqr, og'ir yoshsiz yig'i eshitildi, so'ngra Montanellining jismoniy og'riqqa chidayolmagan kishi singari qo'llarini qirsillatayotganini ko'rdi.

U padrening shunchalar dog'-u hasrat ichida ekanligini bilmas edi. So'na necha qur yuragidan ezildi: «Bu haqda

g‘am chekib o‘tirishning hojati yo‘q. Yarasi allaqachonlar bitib ketgan» degan edi. Mana endi, shuncha ko‘p yillar o‘tgandan keyin ham, u yarani qon tizg‘ib turgan holda, yalang‘och tarzda ko‘rdi. Uni tuzatish hozir naqadar oson edi-ya! Faqat qo‘lini ko‘tarsa-yu: «Padre, menman!» desa kifoya edi.

Jemmaning sochiga ham bir tutam oq tushibdi. O, koshkiydi kechira olsa! Qaniydi miyasiga juda chuqur o‘rnashib qolgan o‘tmish xotiralarni – mast matrosni, qand ekinzorlarini, sayyor sirkni esidan chiqara olsa! O, kechirish haqidagi istaklarining behudaligini, kechira olmasligini, kechirishga haqqi yo‘qligini bila turib, tag‘in kechirishni istash, kechirishga intilish azobiga bas keladigan hech qanday azob bo‘lmasa kerak dunyoda!

Montanelli axiri o‘midan turdi-da, cho‘qinib, mehrobdan yiroqlashdi. So‘na kardinal ko‘rib qoladi, yuragimning dukuri bildirib qo‘yadi, degan xavf bilan o‘zini yana ham quyuqroq soyaga tortdi. Keyin erkin nafas oldi. Montanelli shu qadar yaqindan o‘tdiki, qizg‘ish kardinallik choponi So‘naning yuziga tegib ketdi, shunday bo‘lsa ham sezmadni.

...So‘nani ko‘rmadi... O, u nima qilib qo‘ydi! Nima qilib qo‘ydi! Bu So‘na uchun so‘nggi fursat – foydalanishi lozim bo‘lgan qimmatbaho bir dam edi, boy berib qo‘ydi uni. So‘na irg‘ib turib ketdi, keyin shoshib yoruqqa chiqdi.

– Padre!

So‘naning haram gumbazlari ostida jaranglab, keyin asta-sekin yo‘qolib ketgan o‘z ovozi vujudini mavhum bir qo‘rquv bilan to‘ldirdi. U yana soyaga chekindi. Montanelli ustun yonida to‘xtadi, ko‘zları olaygan va o‘lim dahshatiga to‘lgan holda qimir etmay turib qulq soldi. Bu jimjitlik qancha vaqt davom etganini So‘na aytolmas edi. Balki

bir lahzagina davom etgandir, balki butun bir abad. So'na birdan o'ziga keldi. Montanelli xuddi yiqilayotgandek gandiraklay boshladi, lablari, garchi so'z aytmasa ham, shivirlar edi.

— Artur, — degan, nihoyat, past bir shipshi eshitildi. — Ha, suv chuqur...

So'na oldinga chiqdi.

— Meni kechirgaylar, kardinal hazratlari, men janoblarini shu yerli ruhoniylardan deb o'yabman.

— Ha, sizmisiz, xojam? — Montanelli nihoyat o'zini tutib oldi, shunday bo'lsa ham So'na Montanelli qo'lida jilvirab turgan yoqutga qarab, uning hamon qaltirayotganligini ko'rди. — Balki sizga bir nima kerakdir, do'stim? Vaqt allamahal bo'ldi, kechasi cherkovni qulflab qo'yishadi.

— Chakki ish qilib qo'ygan bo'lsam, meni ma'zur ko'rsinlar, hazratim. Qarasam: eshik ochiq ekan, bir ibodat qilib chiqay deb kiruvdim. Kirsam, bir ruhoniy ibodat qilib fikrga cho'mib o'tirganday ko'rindi ko'zimga, xayr, mana buni bir tabarruk qildirib olay deb kutib oldim.

Ertalab Dominikinodan sotib olgan kichkina qalayi butchasini ko'rsatdi. Montanelli uning qo'lidan butchan ni olib mehrobga bordi-da, bir daqiqagini taxtga qo'yib qo'ydi. Keyin:

— Ol, o'g'lim, — dedi, — endi ko'ngling tinch bo'lsin, illo tangri taoloning rahmati va shafqati buyukdir. Rimga bor va parvardigori olamning tabarruk qo'li bo'lmish padre buzrukvordan fatvo ol. Xudo yor bo'lsin!

So'na bosh egib fatvo oldi-yu, keyin asta-sekin eshikka qarab yurdi.

— Menga qara, — dedi birdan Montanelli. U bir qo'li bilan mehrob panjarasini ushlab turardi. — Rimda tabarruk hissangni olganidan so'ng, — deb tayinladi, — qalbi chuqur

qayg'u-alamlar bilan to'lgan va joni tangri mahsharida yongan bir sho'rpeshona uchun ham duo qilib qo'y.

Kardinal ovozi ko'z yoshlari bilan qorishib chiqayotgandek tuyildi; So'na qat'iyatini yo'qotib, ikkilana boshladi. Bu hol yana bir zumgina davom etsa, u o'zini abgor qilar edi. Lekin sayyor sirk manzarasi ko'z oldiga kelib, ko'ndalang bo'lib oldi.

— Men nima degan odammanki, parvardigor duolarimni qabul qilmaydi? Hazratim, agar parvardigori olamning o'zi bergan jonini, ruhini dog' tushirmasdan, yashirin sharmandaliklar bilan qaqshatmasdan taxti muboraklariga olib bora olganimda edi...

Montanelli keskin harakat bilan teskari o'girilib oldi.

— Men parvardigori olamning taxti muboraklariga faqat bir narsanigina, — dedi u, — faqat o'zimning vayron bo'lgan qalbimnigina olib bora olaman.

\* \* \*

So'na bir necha kundan keyin Pistoyyadan kelayotgan dilijansga o'tirib Florensiyaga qaytdi. Kela solib, to'g'ri Jemmaning uyiga bordi, lekin uni uyidan topolmadi. Keyin ertaga ertalab kelajagini tayinlab, o'zinikiga ketdi. «Bu safar Zitta kabinetimga hujum qilmas», deb o'ylanib bordi. Tish doktori mashinasining g'irillashi asabga qanday tegsa, Zittaning rashk bilan qiladigan o'pkalari ham shunday tegar edi; yana uning o'pkalarini eshitamanmi degan fikrning o'ziyoq So'naning iligini quritib yubordi.

— Salom, Bianka, — dedi u, eshikni ochib bergen xizmatkor xotinga. — Bugun madame Renni keldimi?

Bianka unga angrayib qaradi.

— Madame, Renni? Iye, u qaytib keldimi?

So'na hayron bo'lib qoshlarini chimirdi-da, ostonada to'xtab qoldi.

- Bu nima deganingiz? – deb so‘radi.
- Sizdan keyinoq qo‘qqisidan jo‘nadi-ketdi, buyumlarini ham olgani yo‘q. Ketayotganini aytib ketsayam mayli edi.
- Menden keyinoq? Ikki hafta bo‘ldi deng?
- Ha, beginm, xuddi siz ketgan kuni; ul-bullari ham shu yerda, besaranjomligicha yotibdi. Qo‘shnilar orasida duv-duv gap.

So‘na hech nima demay cho‘rt burildi-da, zinapoyadan pastga tushib, xiyobon bilan Zitta turgan uy tomonga qarab ketdi.

Zittaning uyida hamma narsa boyagicha qolgan, So‘naning hadyalari ham odatdagi o‘rinlarida turar edi. Na xatdan asar bor va na kichikroq maktubcha qoldirgan.

- Beginm, – dedi Bianka, kallasini eshikdan suqib, – bitta kampir...

So‘na g‘azab bilan o‘girildi.

- Axir menda nima ishingiz bor? Nega izimdan keldingiz?

- Bir kampir so‘rovdi sizni.
- Kampirning menda nima ishi bor ekan? Ayting, h-hozir q-qabul q-qilolmayman. Vaqtim yo‘q.
- Siz ketganingizdan buyon har kun kechqurun keladi, beginm. Nuql sizni qachon keladilar deb so‘raydi.
- So‘rangchi, nima ishi bor ekan. Ha, mayli, qo‘ya qoling, o‘zim boraman.

Kampir uni dahliz eshigi oldida kutib turgan ekan. Ust-boshi nihoyatda kambag‘allarcha; yuzi bug‘doyrang, hammayog‘i tirish. Boshini ranglari yaltiroq ola-quroq ro‘mol bilan o‘rab olgan. So‘na kirganda o‘rnidan qo‘zg‘alib, pirpirab turgan qora ko‘zlar bilan bir qarab oldi. Keyin uni boshidan oyog‘igacha tashqi qiy ko‘z bilan suzib chiqib:

— Oqsoq janob deganlari hali siz bo'lasizmi? — dedi. — Men sizning oldingizga Zitta Rennining topshirig'i bilan keldim.

So'na kabinetining eshagini ochdi, kampirni oldinga o'tkazib ichkari kirgizdi, keyin o'zi ham kirdi-da, gapni Bianka eshitmasin deb eshikni qattiq yopib qo'ydi.

— O'tiring, marhamat. Endi o'zingizning k-kimligin-gizni aytинг.

— Mening kimligim bilan ishingiz bo'lmasin. Zitta Renni mening o'g'lim bilan ketdi, men shuni aytgani keldim.

— Sizning... o'g'lingiz... bilan?

— Ha, begin, o'z yoringizni qo'lda ushlab qolol-maganingizzdan keyin birov ilib ketsa, jirillashning foydasi yo'q. O'g'limning tomirlarida qaynab turgan qon oqadi, suv aralashgan sut emas. U rum avlodining farzandi bo'ladi.

— Hali lo'liman degin? Demak, Zitta o'z xalqiga qaytibdi-da?

Kampir unga nafrat aralash bir hayrat bilan qarab oldi: unga bu xristianlar harorat etilganlarida ham achchiqlanishga botinmaydigandek ko'rindi shekilli.

— Siz bilan qolarmidi qalay! Siz unaqa tuproqdan qilinmagansiz, ha! Bizning qizlarimiz ba'zi mahallar qizlik nozi bilanmi yo pulga uchibmi, haytovur, ko'ngil berib qo'ya qolmadi-ya. Lekin rum qoni borib-borib yana rum urug'iga qaytarib keltiriladi.

So'naning chehrasi boyagiday sovuq va bosiq holicha qoldi.

— Nima, lo'lilar, to'piga qo'shilib ketdimi yo sizning o'g'lingiz bilanginami?

Xotin qahqaha urib kului.

— Haytovur, orqasidan borib qaytarib kelay deb turganimiz yo'qmi? Kech qoldingiz, ha! Ilgariroq o'ylash kerak edi.

— Yo‘q, faqat to‘g‘risini bilmochiman, basharti ayt-  
gingiz kelsa.

Kampir yelkalarini qisib qo‘ydi. Shuncha so‘ksayam  
indamay o‘tirgan kishini tag‘in so‘kishiga nima hojat.

— Xo‘p bo‘lmasa, to‘g‘risini aystsam aytib bera  
qolay: o‘sha qiz tashlab ketgan kuni katta yo‘lda o‘g‘limga  
uchrabdi-yu, o‘zimizning tilimizda gap ohibди. O‘g‘lim  
qarasa, shuncha olifta kiyimi bo‘lsayam, o‘zimizning  
urug‘imizdan ekan, oyday yuziga shaydo bo‘pti-qopti.  
Shaydo bo‘lgandayam, bizning erkaklarimizdaqa shaydo  
bo‘lib, manzilimizga olib kelaveribdi. Bechora qiz  
boshiga tushgan savdolarni biram aytdi, biram yig‘lab-  
qaqshab turib aytdiki, achinganimizdan yuraklarimiz  
tars yorilay dedi. Qo‘limizdan kelganga u-bu qilib  
yupatdik, axiri ustidagi bashang kiyimlarini yechib  
tashlab, o‘zimizning qizlarimizga o‘xshab kiyinib oldi,  
so‘ngra o‘g‘lim bilan er-u xotinday turishga rozi bo‘ldi.  
Mening o‘g‘lim: «sizni sevmayman», «boshqa ishlar  
bilan bandman», degan so‘zlarni aytmaydi unga. Xotin  
kishining yoshligidida erkak kerak, siz qanaqa erkaksiz?  
Oy desa oyday, kun desa – kunday qiz bag‘riga bosa-yu,  
qadriga yetmasangiz?

— Siz o‘zingizni Zitta Rennining topshirig‘i bilan  
keldim degan edingiz, nima topshirdi? — dedi So‘na, uning  
gapini bo‘lib.

— Ha, tayinlagan gaplarini aytay deb, jo‘rttaga to‘-  
pimizdan qolib ketdim. U menga tomirlaridagi qonlari juda  
sekin oqadigan, nuqlu yegan tuxumları ustida gap sotadigan  
ilmi janoblar joniga tekkanini, endi o‘z xalqiga va uning  
erkin hayotiga qaytganini aytib qo‘yishni topshirdi. «Men  
xotin kishi edim, men uni sevar edim, shuning uchun  
ham joriyasi bo‘lib qolishni xohlamadim, shularni aytib  
qo‘ying», dedi. Ketib ajab qildi. Mayli, bizning qizlarimiz

chiroylarini sotib pul topishaversin. Buning hech aybi yo‘q: chiroy shuning uchun kerak-da. Lekin rum xotini sizga o‘xshaganlarning urug‘idan chiqqan kishiga qo‘nim berolmaydi.

So‘na o‘rnidan turdi.

– Tayinlagan gaplarining bari shumi? – deb so‘radi u. – Bo‘lmasa, siz ham aytib qo‘ying: yaxshi ish qilibdi; baxti ochilsin – umidim shu. Mening aytadigan boshqa gapim yo‘q. Endi xayr!

Bog‘ darchasi kampir chiqib ketgandan keyin taqillab yopilgunga qadar, So‘na qimir etmay turdi. Ana shundan so‘ng kursiga o‘zini tashlab, yuzini qo‘llari bilan to‘sib oldi.

Yana bir shapati! Nahotki o‘tmish g‘ururidan, o‘tmish izzat-nafsidan zarracha bo‘lsa ham qoldirmasa? Axir odam bolasi chiday olishi mumkin bo‘lgan azob-uqubatlarning hammasini boshidan kechirdi-ku! Qalbining eng aziz parchasini balchiqqa uloqtirdilar, o‘tkinchilar esa oyoqlari ostida toptadilar. Qalbida kimningdir nafrati qora tamg‘asini bosmagan, kimningdir mazaxi chuqr iz qoldirmagan yana biron go‘sha bormikan?

Mana endi navbat lo‘li qizga kelibdi! Uni axir yo‘ldan topib olib odam qilgan edi-ku? Nahotki u ham qo‘liga gavron olib, urgani Yugursa?

Eshik oldida shaytonning angillagani eshitildi. So‘na turib borib eshikni ochdi. It har vaqtdagiday suyunib, o‘zini egasiga tashladi, lekin qandaydir dilisiyohlik borligini sezdimi, indamasdan egasining oyoqlari oldiga, gilamga yotdi-da, sovuq tumshug‘ini So‘naning parvosiz qo‘liga qadab oldi.

Biror soatdan keyin tashqari eshigiga Jemma keldi. Qo‘ng‘iroqni chalgan edi, hech kim javob bermadi. Bianka So‘naning ovqatga qo‘l urgisi ham yo‘qligini ko‘rib, qo‘shni oshpaz xotinnikiga chiqib ketgan edi. Dahlizdagि

chiroqni pasaytirib eshikni qulflamay ketgandi. Jemma bir-ikki daqiqa kutib turdi, keyin ichkari kirib, xo‘jayinni topmoqchi bo‘ldi; hozirgina Bayleydan yangi xabar olgan va bu muhim xabar to‘g‘risida u bilan gaplashgani kelgan edi. U kabinet eshigini taqillatuvdi, ichkaridan So‘naning tovushi eshitildi.

— Mayli, boravering, Bianka. Menga hech nima kerak emas.

Jemma sekin eshikni ochdi. Uy ichi qorong‘i bo‘lsa ham yo‘lakdagi chiroqning yorug‘i uzun bo‘lib tushib turgan edi. Jemma So‘nani ko‘rdi: boshini ko‘kragiga solintirib o‘zi yolg‘iz o‘tirgan edi; oyoqlari yonida esa kulcha bo‘lib it uxlab yotardi.

— Men keldim, — dedi Jemma.

So‘na dast o‘midan turib ketdi.

— Jemma, Jemma! O, sizni biram ko‘rgim kelgan ediki!

Jemma bir og‘iz so‘z aytishga ham ulgurmadi. So‘na yugurib kelib oyoqlari oldiga tiz cho‘kdi, o‘zini Jemmaning etaklari qatiga berkitdi. Butun vujudi dag‘-dag‘ titrar edi. Bu titrash ko‘z yoshlaridan ham badtar edi...

Jemma indamay, qimir etmay turardi. Axir u So‘naga hech bir narsa bilan yordam qilolmasdi, hech bir narsa bilan! Eng yomoni ham shu edi. Jemma uning dardiga darmon bo‘lolmay, qayg‘usiga angrayibgina turishga majbur... Holbuki uni azoblaridan qutqarish uchun jonini berishga nechog‘lik tayyor edi? O, unga tahdid qilib turgan va hali oldinda keladigan barcha jabr-u jafolardan saqlash hech bo‘lmasa o‘z tani bilan asrash uchun koshki ustiga engasholsa, quchoqlayolsa, bag‘riga bosa olsa! Ha, ana unda Jemma uchun u yana Artur bo‘lar, Jemma hayotidagi barcha xunuk soyalarini yorqin nur quvib yuborar edi. O, yo‘q, bu bo‘ladigan gap emas! So‘na qachon bo‘lsa ham ko‘rgiliklarni unuta olarmi?

Uni do‘zaxga itargan, o‘z qo‘li bilan itargan Jemmaning o‘zi emasmi? Shunday qilib, imkoniyatlarga boy fursat abadga ketdi.

So‘na shoshib o‘rnidan turdi-da, ko‘zlarini qo‘llari bilan berkitib va lablarini uzib olguday mahkam tishlab, stol yoniga kelib o‘tirdi.

Ziq qilgulik daqiqalardan yana bir qanchasi o‘tdi.

So‘na boshini ko‘tarib, endi boshqa tovush bilan gapirdi:

— Kechiring. Sizni qo‘rqtib yubordim shekilli.

Jemma ikkala qo‘lini baravariga cho‘zdi.

— Do‘stim, — dedi u, — oramizdag‘i do‘stlik iplari hali ham mahkam bog‘langanmikin, siz menga sirlaringizni aytishdan tortinasiz? Ayting, ayting axir: sizni nimalar qiyinaydi?

— O, bu faqat mening shaxsiy qayg‘uyim. Bu qayg‘u bilan sizni ham qiy nab nima qilaman?

Jemma undagi dahshatli qaltiroqni bosish uchun qo‘llarini ushlab turib:

— Menga qarang, — dedi. — Meni daxlim bo‘lmagan narsaga hech vaqt daxl qilgan emasman. Lekin siz o‘z ixtiyorningiz bilan qariyb hamma gapni aytib bergansiz. Singlingiz bo‘lgan taqdirimda ham o‘sha aytilmay qolgan jinday gapni aytib bermasmidengiz? Agar tasalli bersa, mayli, yuzingizdag‘i niqobni saqlab qoling, ammo qalbingizdag‘i niqobni olib tashlang, o‘zingiz uchun olib tashlang!

So‘na boshini yana ham solintirdi.

— Men bilan toqatli bo‘lishingiz kerak bo‘ladi, — dedi u.

— Men singari akadan ancha xursand bo‘lmasmiksiz deb qo‘rqaman. Qaniydi bilsangiz!.. Shu keyingi kunlarda esimdan og‘ib qolayozdim. Bu kunlar Janubiy Amerikadagi qissamning davomi kabi qiy nadilar. Nima uchunligini

bilmayman, lekin meni dahshat devi yana azoblay boshladi... – dedi-yu, shunday ovozi to‘xtadi.

– Siz chekayotgan azoblarni men ham birga tortishay, bering mening hissamni, – deb Jemma shivirladi.

So‘naning boshi Jemmaning qo‘llariga tushdi.



# UCHINCHI

---

## QISM



---



## Birinchi bob

Keyingi besh hafta So'na bilan Jemma qattiq kirishib ketgan ishlarni hayajoni ichida o'tdi. Shaxsiy ishlarni o'ylashga vaqt ham, kuch ham topolmay qolishdi. Yarog'-aslaha kontrabanda yo'li bilan Papa viloyatiga eson-omon keltirib olindi. Endi tor o'ngurlari va jarlardagi yashirin omborlardan yarog'-aslalahalarni bir qancha mahalliy markazga yeng ichida keltirib, u yerlardan ayrim qishloqlarga tarqatishdan iborat yana ham xavfli, yana ham qiyin ishni bajarish qolgan edi. Butun viloyatda josuslar qaynab yotardi. So'na jangovar o'q-dorilar tayyorlash vazifasini yuklagan Dominikino Florensiyaga chopar yuborib, yordam berilishini yo bo'lmasa muhlatning kechiktirilishini talab etmoqda edi.

So'na ishlarni iyunning o'rtalarigacha batamom tugatish kerak, deb turib oldi. Bu Dominikinoni yana badtar tajang qildi: og'ir yuklarni yomon yo'llarda tashish oson emas edi, buning ustiga har doim josuslardan yashirinib yurish zarurligi ishni beshbadtar og'irlashtirardi.

«Men Ssilla bilan Xaribda<sup>1</sup> orasida turibman. Or-qamga odam tushishdan qo'rqib, ishlarni uncha jadal-lashtirolmayapman; undan keyin, ishlarni muhlatida mutlaqo tamomlash zarur bo'lsa, unchalik imillamasligim ham kerak. Shu uchun menga bironta epchilroq yordamchi yuborishingiz, yo bo'lmasa iyulning birinchi haftasidan

---

<sup>1</sup> *Ssilla bilan Xaribda* – grek afsonasida dengizchini domiga tortayotgan ajdaholar. «Ssilla bilan Xaribda o'rtasida» deyilgan ifodani «ikki o't orasida» yoki «arosatda» deb aytish mumkin.

oldin tayyor bo‘lolmasligimizni venetsiyaliklarga bildirib qo‘yishingiz kerak», – deb yozibdi Dominikino.

So‘na maktubni Jemmaning oldiga olib bordi.

Jemma maktubni o‘qishga kirishib ketdi; So‘na bo‘lsa Jemma mushugining yunglarini teskarisiga silab, polda xo‘mrayib o‘tirdi.

– Yomon bo‘pti, – dedi Jemma. – Venetsiyaliklarni uch hafta kuttirish qo‘limizdan kelmas deyman.

– Albatta kelmaydi-da. Tuturiqsiz gap-ku bu! Dominikino t-tushunishi k-kerak edi axir. B-biz venetsiyaliklarga qarab ish qilishimiz kerak, ular bizga qarab emas.

– Biroq Dominikinoni ayblab bo‘lmaydi: jon kuydirib harakat qilayotgandir-u, lekin iloji bo‘limgan narsani qilishga kuchi yetmayotgandir.

– To‘g‘ri, unda ayb yo‘q, albatta. Hamma balo uning yolg‘izligida, yonida sherigi yo‘q. Bizda hech bo‘limganda ikkita mas’ul xodim bo‘lishi kerak: biri omborlarni poylasa, ikkinchisi yuklarni yuborib turadi. Talabi mutlaqo to‘g‘ri: unga epchil yordamchi zarur.

– To‘g‘rilikka to‘g‘ri-yu, lekin kimni yordamchi qilib beramiz? Florensiyadan hech kimni yuborolmaymiz.

– B-bo‘lmasa, o‘zim b-borishim kerak.

Jemma o‘zini stulning suyanchig‘iga tashladi; keyin, qoshlarini xiyol ko‘tarib, So‘naga qaradi.

– Yo‘q to‘g‘ri kelmaydi. Bu juda xatarli ish.

– B-boshqa iloj b-bo‘limgandan keyin, xatarli b-bo‘lsa ham borishga to‘g‘ri keladi.

– O‘sha boshqa ilojini topish kerak – vassalom. O‘zim boraman deb o‘ylamang ham.

So‘naning pastki labida o‘jarlik alomati paydo bo‘ldi.

– H-hayronman, nega o‘ylamasligim kerak ekan?

– O‘zingizni bosib, biroz o‘ylab qarasangiz, hayron bo‘lmaysiz. Bu yerga qaytib kelganingizga atigi besh hafta bo‘ldi. Hoji voqeasining hidi politsiya dumog‘iga kirgan

shekilli butun mamlakatda izg'ib, ipning uchini topmoqchi bo'lib yuribdi. Bilaman, tashqi qiyofangizni juda boplab o'zgartirishga ustasiz; siz o'zingizni Diego qiyofasiga solib yurdingiz, dehqon qiyofasiga solib yurdingiz, sizni o'shanda ozmuncha odam ko'rdimi? Buni esdan chiqarmangda. Undan so'ng, oqsoqligingizni ham, yuzingizdagagi kesik izini ham yashirib bo'psiz.

- Dunyoda oqsoq to'lib yotibdi.
- To'g'ri-yu, lekin oyog'i oqsoq, yuzi qilich zarbidan kesik, chap qo'li siznikiga o'xshash yara, yuzi mana shunday bug'doyrang-u, ko'zlar ko'k kishi Romanyada ko'pam topilavermas.
- Ko'z hisobga kirmaydi: belladonna bilan o'zgartirib olishim mumkin.
- Boshqalarini o'zgartira olmaysiz. Yo'q, yo'q, hech o'zgartirolmaysiz. Sizni albatta qamashadi.
- Axir k-k-kim bo'lsa ham Dominikinoga yordam qilishi kerak-ku!
- Mana shunday nozik bir paytda qo'lga tushib qolsangiz, – juda yaxshi yordam qilgan bo'lasiz-da! Axir sizning qamalishingiz – butun ishning barbod bo'lishi degan so'z-a!

Lekin So'naga gap uqtirish oson emasdi, shuning uchun uzoq tortishgan bo'lsalar ham, aniq bir qarorga kelolmadilar. Bu odamdag'i vazmin o'jarlikning naqadar poyonsizligini Jemma endigina tushuna boshladi. So'z ahamiyati kamroq masala ustida ketayotgan bo'lsa edi, Jemma bekorga gap talashib o'tirmasdan, balki, xo'p deb qolarmidi. Ammo bu masalada yon bosolmasdi: So'na nining borishidan kelishi mumkin bo'lgan amaliy foyda, Jemmaning nazarida, So'na boshidagi xatarga teng kelolmas edi. Jemma: u jiddiy zarurat sezib turgani uchungina emas, bundan ham ortiqroq xavf-xatarlarga uchib turgani uchun bormoqchi, deb o'yaldi. Bu fikr miyasiga ixtiyorsiz keldi.

Darhaqiqat, jonni xatarlarga solish odatiga aylangan va bu odat aroqxo'mning ichkilikka uchib turishiga o'xshab qolgan edi. Shu uchun Jemma shunday hollarda So'naga qattiq qarshilik ko'rsatish zarur deb hisoblardi. Keltirgan dalillari So'naning asov o'jarligini sindirolmaganini ko'rgandan keyin oxirgi qurolini ishga soldi.

— Har holda ichimizdagini ochiq aytaylik, — dedi Jemma, har narsaning o'zini asl nomi bilan ataylik. Sizni o'zim olib boraman deb turib olishga majbur qilayotgan narsa — Dominikinoning qiyin ahvolda qolgani emas, sizning muhabbattingiz...

— To'g'ri emas! — deb So'na uning so'zini harorat bilan bo'ldi. — Uning men uchun bir chaqalik ahamiyati yo'q. Menga baribir, yuz ko'rishmas bo'lib ketmaymanmi! — So'na, sirini aytib yuborganini Jemmaning yuzidan payqadi-yu, birdan to'xtab qoldi.

Ko'zлари bir zumgina to'qnashib oldi; keyin ikkovi ham sekingina yerga qaradi, lekin hech biri o'ylab turgan nomini tilga olmadi. So'na yuzini mushuk yunglari ichiga qariyb yashirib turib, g'udurandi:

— Men... men Dominikinoni qutqazay deyotganim yo'q. Men... biron kishi yordamga bormasa, ishning qanchalik xavf ostida qolishini bilaman.

Jemma bu ayanch quvlikka e'tibor qilmadi-da, hech nima bo'limgandek, yana gapini davom ettirdi:

— Sizning xavf-xatarga muhabbattingiz bor; sizni o'sha yoqqa borishga xuddi shu muhabbat majbur qilayotibdi. Sizni biron narsa tashvishga soldimi, — bo'ldi, darrov o'zingizni xavf-xatarga urasiz, kasal yotganingizda kuchli doriga o'rgangan kabi.

— Kuchli dori beringlar, deb so'rigan emasman, — dedi So'na, zarda qilib, — menga boshqalarining qistovi bilan berishgan.

– Ha, Ketti? Biron kishi keldimi? Men bandman, qabul qilolmayman.

– Mana buni miss Rayt yuboribdi, xonim.

Puxta berkitilib, Papa viloyati markasi yopishtirilgan paketda miss Rayt nomiga yuborilgan, lekin hali ochilmagan maktub bor edi, Jemmaning maktabda orttirgan eski do'stlari haligi davr Florensiyada turishar, g'oyat muhim xatlarni ehtiyyot shartdan ko'pincha o'shalarning manziliga olishar edi.

Jemma Apenina tog'laridagi bir pansionning yozlik narxlari xabar qilingan xat ustida naridan beri ko'z yogurtirib chiqib:

– Bu Mikelening shartli belgisi, – dedi; keyin sahifa burchagidagi ikkita siyoh dorini ko'rsatib, davom etdi: – Xabar ximik siyoh bilan yozilgan. Reaktiv yozuv stolning uchinchi g'aladonida. Ha, ha, o'sha.

So'na xatni stolga qo'yib, sahifalar yuziga nozik rassom mo'yqalamini surtib chiqdi. Xatning asl ma'nosi yarqirab ko'k satrlarda yuzaga urganda, So'na o'zini stul suyanchig'iga tashlab, xaxolab kulib yubordi.

– Nima gap? – deb so'radi Jemma, shoshib-pishib.

So'na xatni uzatdi.

«Dominikino qamaldi. Tezda yetib keling».

Jemma qo'lida xat bilan o'tirdi, keyin katta ochilgan, umidsizlik to'lib yotgan ko'zlar bilan unga qaradi.

So'na yumshoq, cho'zinchoq, kinoya to'liq tovush bilan:

– Borishim kerakligi endi ayon bo'lgandir? – dedi nihoyat.

Jemma xo'rsinib javob qildi:

– Ha, borishingiz kerak deb o'ylayman. Men ham borishim kerak.

So'na keskin bir harakat bilan unga qaradi.

– Sizning ham? Lekin...

– Albatta borishim kerak. Florensiyada hech kim qolmasligi yaxshi emas, albatta. Ammo buning hozir ahamiyati yo‘q: hozir eng muhim – o‘sha yerda ikkita ortiqcha qo‘lga ega bo‘lish.

– U yerda har qancha qo‘l xohlasangiz topiladi.

– Topiladi-yu, ammo bizbop odamlarniki, ya’ni so‘zsiz ishonsak bo‘ladigan odamlarniki emas. Hozirgina: u yerda hech bo‘lmaganda ikkita mas’ul xodimimiz bo‘lishi kerak dedingiz-ku. Dominikino shuncha ishni bir o‘zi uddalay olmagan ekan, siz bir umr uddalayolmaysiz. Agar biron kishi o‘zini sizchalik oshkor qilib qo‘ysa-yu, shundan keyin ham yashirin ish bilan shug‘ullansa, bu uning uchun yo‘lga qo‘ylgan g‘ovlardan sakrashday gap bo‘ladi. Demak, bunday odamga yordamchi juda ham kerak. Boshqalardan ham ko‘ra, shunday odamga ko‘proq kerak. Siz xodimlikka o‘zingiz bilan Dominikinoni chog‘lagan edingiz, endi siz bilan men bo‘laman.

So‘na o‘ylanib qoldi.

– Ha, gapingiz to‘g‘ri, – dedi u, axiri, – ikkovimiz jo‘nashimiz kerak, har qancha tez jo‘nasak, shuncha yaxshi bo‘ladi. Lekin ikkovimizning birga jo‘nashimiz to‘g‘ri kelmaydi. Mabodo men bugun kechqurun ketsam, siz ertaga tushdan keyin jo‘naydigan dilijansga o‘tirib ket-sangiz ham bo‘ladi.

– Men qayerga boraman?

– Buni maslahatlashib olish kerak. Men to‘g‘ri Faensaga borsam yaxshiroq bo‘ladi. Agar bugun kechqurun jo‘nasam, yo‘lni Burgo-San-Lorensoga olaman. U yerda kontrabandistlar yordami bilan qiyofamni o‘zgartiramanda, darhol yo‘limni davom ettiraman.

Jemma xavotirlanib qoshlarini chimirdi.

– Qaydam, boshqa hech chorasi yo‘qmikan-a, – dedi u. – Bu yerdan shunday shoshib jo‘nab ketishingiz – o‘zingizga katta xavf tug‘diradi-da. Undan keyin kiyim-

kechak topish masalasi... Bu to'g'rida kontrabandistlarga ishonsa bo'ladimi? Chegaraga, yetib olguningizcha, chet va xilvat yo'llar bilan aylanib borish hamda izingizni chalg'itish uchun sizga hech bo'limganda rosa uch kun kerak.

— Chegarada-ku hech qanaqa xavf yo'g'-a, — deb So'na kulumisrab javob qildi. — Meni undan narida qo'lga olishlari mumkin, lekin chegaraning o'zida emas. Bu yerda qanday xavfsiz tursam, tog'larda ham shunaqa. Apennina tog'laridagi kontrabandistlarning hech bittasi meni tutib bermaydi. Lekin siz chegaradan qanday o'tarkansiz, bunisiga hayronman.

— O, bundan oson ish yo'q! Luiza Raytning pasportini olaman-da, o'ynagani boraman. Meni Romanyada hech kim tanimaydi, sizni bo'lsa har bir jesus biladi. —Baxtimga, har bir kontrabandist ham.

Jemma soatga qaradi.

Ikki yarim. Ixtiyorimizda tushdan keyingi vaqt-u, oqshom qoladi.

— Bo'lmasa, hozir uyga borib ishlarni to'g'rilay. Keyin yaxshi bir ot topaman. Demak, bu yerdan San-Lorensoga jo'nayman. Shunday qilsak, xavf kamroq bo'lar.

— Lekin ot yollasangiz, xavf kam bo'lmas. Egasi...

— Ot yollab o'tirarmidim. Ishonchli bir kishi bor, berib turadi. Ilgarilar ham berib turgan. Ikki haftadan keyin shunday keltirib beradi. Xo'p bo'lmasa, soat besh yo besh yarimlarda qaytib kelaman, ungacha Martinini toptirib, ahvolni tushuntirsangiz yaxshi bo'lardi.

— Martinini! — Jemma hayron bo'lib u tomonga o'girildi.

— Ha. Sirimizni aytmasak bo'lmaydi. Albatta, agar boshqa chora topolmasangiz.

— Nima demoqchililingizni uncha anglayolmadim.

— Boshimizga kutilmagan biron qiyinchilik tushib qolsa, bu yerda bitta odamimiz bo'lishi kerak. Men esa bu yerdagi

odamlar ichida Martiniga ko'proq ishonaman Rikkardo ham biz uchun qo'lidan kelgan hamma narsani qiladi-ku, albatta, lekin Martini ishonchliroq. Aytmoqchi, uni o'zingiz mendan ko'ra yaxshiroq bilasiz-ku. Ixtiyor sizda.

— Martinining qo'lidan ish kelishiga ham, unga to'la ishonish mumkinligiga ham zarracha shubha qilmayman. Undan keyin, bizga har qanaqasiga yordam berishga ko'nsa kerak, deb ham o'layman. Lekin...

So'na darhol tushundi.

— Jemma, faraz qiling: mehribon o'rtog'ingiz boshiga achchiq bir muhtojlik tushganda, sizga ozor yetkazib qo'yishdan qo'rqib yordamingizni so'ramaydimi? Shunday qilganda, siz nima o'ylardingiz? Siz yaxshi qildi, dermidingiz?

— Xo'p, bo'lmasa, — dedi Jemma, qisqa bir pauzadan keyin, — hozir Kettini yuborib aytirib kelaman. Ungacha Luizanikiga borib, pasportini olib kelaman: qachon kerak bo'lsa, berib turadigan bo'lgan. Aytmoqchi, pul masalasi qanday bo'ladi? Bankdan biroz olib turaymi yo?

— Yo'q, ovora bo'l mang. Menda dastlabki kunlarga yetgulik pul bor hozir. Avval meniki tamom bo'lsin, keyin siznikini sarf qilarmiz. Demak, endi besh yarimda uchrashamiz. Uyingizdan topsam kerak, albatta?

— O, albatta. Men ertaroq qaytaman.

So'na soat oltida qaytib kelsa, Jemma bilan Martini ayvonda gaplashib o'tirgan ekan. Gapining og'ir bo'l-ganligini So'na darrov payqab oldi. Ikkovining ham yuzida hayajon izlari ko'rini turardi. Martini lab-lunjlari tushib, indamay o'tiribdi, — odatida bunaqa narsalar yo'q edi.

— Hamma ishlaringiz to'g'ri bo'ldimi? — deb so'radi Jemma, kallasini ko'tarib.

— Ha, yo'l xarajatlaringiz uchun sizga pul ham olib keldim. Otim meni kechasi soat bilda Ponte Rosso pistirmasi yonida kutib turadigan bo'ldi.

— Juda kechmasmi? Axir San-Lorensoga tong otmasdan, odamlar uyg'onmasdan burun yetib olishingiz kerak.

— Yetib olaman. Otim ildam; undan so'ng hech kimga sezdirmasdan — yeng ichida jo'nab ketsam deyman. Endi uyimga qaytmayman. Meni uyda, deb eshigimning oldida josus poylab turibdi.

— Sezdirmasdan qanday qilib chiqib ketdingiz?

— Oshxona derazasidan o'zimni tashlab, uyimizning orqasidagi bog'chaga tushdim, so'ngra devordan oshib, qo'shnimizning mevazoriga o'tdim. Shuning uchun biroz kechikib qoldim-da. Jokusning ko'zini shamg'alat qilib ketmasam bo'lmasdi. Otning egasi kabinetimda to kechasigacha o'tiradi. Chiroqni yoqsa, jokus derazadan yorug'ni va pardaga tushib turgan odam soyasini ko'radi-yu, meni bugun uyda, yozib o'tiribdi, deb ko'nglini tinchitadi.

— Bundan chiqdi, pistirmaga jo'naguningizcha shu yerda bo'lasiz?

— Ha, albatta. Bugun meni ko'chada bitta-yarimtasi ko'rmay qo'ya qolsin, xohlamayman. Sigaraga ishtiyоqingiz qalay, Martini? Bilaman: chekishimizga sinora Bolla bir nima demaydi.

— Albatta, bir nima deganimda ham, baribir, men bu yerda bo'lmayman. Oshxonaga chiqib, Kettiga qarashib yubormasam bo'lmaydi — tushlik pishirayotgandi.

Jemma chiqib ketgandan keyin Martini o'midan turdi-da, qo'llarini orqasiga qovushtirib olib, uyda u yoq-bu yoqqa yura boshladи. So'na bo'lsa derazadan ko'chaga qarab, indamasdan chekib o'tirdi; maydalab yog'ayotgan yomg'ir ko'chani xuddi tutun singari qoplab olgan edi.

Martini So'naning qoq ro'parasida to'xtab, ko'zlarini yerga qaratib turib:

— Rivares! — dedi. — Siz Jemmani qanaqa ishga tortmoqchisiz?

So'na og'zidan sigarasini olib, tutunlar bulutini chiqardi.

- Bu o‘zining xohishi, – dedi u. – Uni hech kim biron narsaga majbur qilgani yo‘q.
- Ha, ha, bilaman. Lekin menga bir narsani aytsangiz. Martini gapini tugatmadni.
- Aytishim mumkin bo‘lgan narsalarning hammasini aytaman.
- Unday bo‘lsa, aytsangiz... Tog‘larda qilayotgan ishlaringizning tafsilini yaxshi bilmayman xullas, menga aytsangiz: bu ishdan Jemmaga jiddiy bir xatar bormi?

To‘g‘risini bilmoqchimisiz?

- Shubhasiz.
- Ha, bor.

Martini teskari o‘girilib oldi, keyin yana u burchakdan bu burchakka yura boshladi.

– Sizga yana bitta savol bermoqchiman. Xohlamasangiz, albatta, javob bermasligingiz mumkin. Lekin javob beradigan bo‘lsangiz, to‘g‘ri javob bersangiz. Jemmani sevasizmi?

So‘na sigarasining kulini avaylab qoqdi, keyin indamasdan yana cheka boshladi.

- Sukutingizni savolimga javob berishni xohlama-ganligingizning alomati deb tushunishim kerakmi?
- Yo‘q, yo‘q, unday emas, lekin men ham nega mendan buni so‘rayotganingizni bilishga haqqim bordir deb o‘ylayman?

– Nega? Yo xudoyo, tavba! Negaligini nahotki o‘zingiz tushunmasangiz?

– Ha, bunday deng! – So‘na sigarasini bir yoqqa qo‘yib, Martinining ko‘zlariga tikildi. Keyin shoshilmasdan, mayin tovush bilan gapirdi: – Ha, sevaman. Lekin sevgisini unga aytadi va dilrozi bilan uni qiynaydi, deb o‘ylamang. Men shundayicha...

So‘naning ovozi eshitilar-eshitilmas shipshiga aylandi. Martini yaqin keldi.

- Siz shundayicha...
- Men shundayicha o‘lib ketaman.

So‘na allaqachon o‘lganday sovuq, tinib qolgan ko‘zlar bilan oldinga qarab turardi. Keyin allaqanday jonsiz, bir tekis tovushda yana gapira boshladi:

– Sog‘ qolishimga umid, tugul, umidning soyasi ham yo‘q lekin buni bemahal aytib, Jemmaning ta‘bini xira qilmang. Mening o‘rnimda boshqa odam bo‘lganda ham, baribir, boshida shu xatar bo‘lardi. Bu menga qanchalik ayon bo‘lsa, Jemmaga xuddi shunday. Lekin kontrabandistlar har nima qilib bo‘lsa ham uni qo‘lga tushirib qo‘ymaslik chorasi ko‘rishadi. Tabiatlari birmuncha dag‘al bo‘lsa ham, lekin o‘zlar azamat yigitlar. Mening bo‘ynim esa qachondan beri sirtmoqda; chegaradan o‘tdimmi – sirtmoqni tortdim.

– Rivares, nima demoqchisiz bu gapingiz bilan? Ish, albatta, xavfli, ayniqsa siz uchun, – men buni yaxshi tushunaman, lekin chegaradan bir emas, bir necha marta o‘tgansiz, hamma vaqt ham sog‘-salomat o‘tib yurgansiz.

– Ha, hozirgacha; ammo bu safar qo‘lga tushaman.

– Menga qarang, Rivares, ko‘nglingiz shunaqa sezib turgan bo‘lsa, borishingiz to‘g‘ri kelmaydi. Qo‘lga tushishiga ishonib turib borgan kishi tuzoqqa tushmay qolmaydi. Keling, sizning o‘rningizga men bora qolay. Kerak bo‘lgan amaliy ishlarning hammasini o‘zim bajaraman, siz bo‘lsangiz, do‘srlaringizga maktub yozib tushuntirasiz...

– Ham o‘z o‘rnimga sizning o‘ldirilishingizga yo‘l qo‘yaman, shundaymi? O, bu juda aqlii ish bo‘ladi-ku!

– Meni o‘ldirishib bo‘pti. Meni ular sizchalik biliшmaydi. Mabodo meni...

Martini to‘xtab qolgan edi, So‘na unga tikilib qaradi.

Martinining qo‘li pastga tushdi. Keyin sira ham pinagini buzmay:

— Jemma uchun mendan ayrilish, ehtimol, uncha og‘ir bo‘lmas, — dedi. — Bundan tashqari bu jamoat ishi, Rivares. Shuning uchun bu ishga ko‘proq naf ko‘rish, ya’ni odamlarning ko‘proq qismiga sezilarli foyda yetkazish nuqtayi nazaridan qarash kerak bo‘ladi. Sizdan «keladigan eng ko‘p foyda» — ekonomistlar shunday deb atashsa kerak, — mendan keladigan foydadan ortiq. Sizni yaxshi ko‘rishga alohida sabablarim bo‘lmasa hamki, bu narsani tushunishga aqlim yetadi. Matematika tili bilan aytganda, siz mendan ko‘ra kattaroq miqdorsiz; sizning mendan yaxshiroq odamligingizga sira ishonmayman, lekin salmog‘ingiz katta, shu uchun sizning ulushingiz menikidan ko‘ra kattaroq judolik bo‘ladi.

Martini bu gaplarni xuddi birjada aksiyalar narxi ustida so‘z ketayotgandek qilib gapirdi. So‘na sovuq yeganday, unga junjikib qaradi.

— Martini, ikkovimiz ham bema’ni gaplarni qilayapmiz.

— Siz, albatta, bema’ni gaplarni qilayapsiz, — Martini xo‘mrayib javob qildi.

— Ha, siz ham. Xudo haqqi, Don-Karlos<sup>1</sup> bilan markiz Pozaga<sup>2</sup> o‘xhash, hadeb romantik fidokorliklarga uchrayvermaylik. Biz siz bilan o’n to‘qqizinchi asrda yashab turibmiz, shuning uchun qilishim kerak bo‘lgan ish — o‘lim bo‘lsa, demak, o‘lishim kerak.

— Agar mening ishim — hayot bo‘lsa, demak, yashashim kerak. Nachora... Baxtlisiz, Rivares!

---

<sup>1</sup> *Don-Karlos* (1545–1568) – Ispaniya qiroli Filipp II ning katta o‘g‘li. Oppozitsiya kayfiyatida bo‘lgani uchun otasi tomonidan turmaga qamalib, o‘scha yerda vafot etgan. Nemis shoiri Shiller o‘zining «Don-Karlos» nomli tragediyasiga uning obrazini kiritgan.

<sup>2</sup> *Markiz Poza* – o‘scha tragediyadagi boshqa qatnashchilarning biri, mazlum Flandriyaning homisi va ozodlikning alangali kurashchisi. Don-Karlosning do‘sti bo‘lgan markiz Poza do‘stini o‘tkazish uchun o‘zini qurban qiladi.

So'na qisqagina qilib:

— Ha, baxtim hamisha yor bo'lib kelgan edi, — dedi.

Ikkalasi ancha vaqtgacha indamay chekib o'tirishdi, keyin safar masalasini mukammal muhokama qilishga kirishdi. Tushdan keyin uchovi bafurja o'tirib, muhim masalalaming hammasini kelishib olishdi. Soat o'n birga jom urganda, Martini o'midan turib, shlyapasiga qo'l cho'zdi.

— Uydan yo'l plashchamni olib kelib beray sizga, Rivares. Bu yengil kostyumdan ko'ra, unda sizni tanish qiyinroq bo'lar. Shu bahonada tevarak-atrofni ham bir qaraychi, uy yaqinida josus-mosus ivirsib yurmaganmikin; yo'q bo'lsa ko'ngil tinchiydi-ku.

— Pistirmagacha men bilan birga borasizmi?

— Ha. Orqarnizga odam tushguday bo'lsa, har holda ikki ko'zdan to'rt ko'z tuzukroq-da. O'n ikkilarga yetib kelaman. Ha-da, men kelmay ketib qolmang tag'in. Qo'ng'iroq chalib odamlarni uyg'otib yurgandan ko'ra, kalitni olib keta qolay, Jemma.

Jemma Martinining yuziga sinchiklab qaradi; qaradi-yu, o'zini So'na bilan xoli qoldirish maqsadida shunday bahona o'ylab chiqarganini anglatdi.

— Siz bilan ertaga ertalab gaplashamiz, — dedi Jemma. — Yo'l taraddudim bitgandan keyin gaplashishga yetgulik vaqt topiladi.

— O, albatta! Vaqtimiz yetib ortadi. Sizga yana ikki-uchta savol bermoqchi edim, Rivares; darvoqe, pistirmaga ketayotib, yo'lda gaplashsak ham bo'ladi. Kettiga javob bering, kirib uxlasin, Jemma. Undan keyin iloji boricha sekinroq gaplashishga harakat qilinglar. Soat o'n ikkigacha xayr, yaxshi qolinglar.

U boshini xiyol siltab ta'zim qildi-da, kulumsirab chiqib ketdi. Keyin qo'shnilariga sinora Bolla mehmonlarining ketishganini bildirish uchun tashqari eshigini kuchining boricha taqillatib yopti.

Jemma Kettiga javob berish uchun oshxonaga chiqib, patnisda qora qahva ko'tarib kirdi.

– Biroz yotib orom olasizmi? – deb so'radi Jemma. – Axir bugun kechasi uxlay olmaysiz.

– Yanglishasiz. San-Lorensoda, menga kiyim topish-guncha, uxbab olaman.

– Xo'p, bo'lmasa, bir finjon qahva ichib oling. Shoshmang, sizga biskvit olib beray.

Jemma cho'kkalab, bufetning ostki qavatidan biskvit ola boshladi. So'na uning yelkasi ustiga engashdi.

– Qani, nimalaringiz bor u yerda? Kreml shokolad konfetlar, ingliz parvardalar! O, bu shohona noz-u ne'-matlarku!

Jemma uning suyunganiga miyig'ida kulib qarab qo'ydi.

– Siz ham shirinlikni yaxshi ko'rasizmi? Men hamisha Chezare uchun shunaqa narsalar saqlab yuraman. Har qanaqa shirinlikni ko'rsa ham, xuddi yosh bola singari suyunib ketadi.

– R-rostdan-a? Unday bo'lsa, ertaga boshqa sotib olib berarsiz unga, bularni menga bering, men olib ketay. Cho'ntagimga parvardalardan bir donasini solib olaman, u mening hayotda yo'qotgan shod-u xurramliklarim uchun evaz bo'ladi. M-meni otishga olib borayotganlarida, shu b-bir dona parvadamni shimib olishimga ijozat berarlar, deb umid qilaman.

– To'xtab turing, parvardalaringizga bitta quticha topib beray. Biram yopishqoqliki bular. Shokolad konfetlarni ham solib qo'yaymi?

– Yo'q, ularni hozir, siz bilan birga yemoqchiman.

– Men shokoladni yomon ko'raman. Qani mana bu yerga bama'ni inson bolasiday kelib o'tiring. Kim bilsin, ikkovimizdan birimiz o'ldirilgunimizcha, endi mana shunday xotirjam o'tirib gaplashadigan payt bo'ladimiyo'qmi...

– B-bu kishi shokoladni yomon ko'rар ekanlar, – deb So'na sekin g'udurandi. – Mazani bir o'zim qilar ekanmanda. Qatl oldidan qilinayotgan ziyofatga o'xshaydi bu, rost-a? Bugun mening hamma nozimni o'ringa qo'yishingiz kerak. Eng avval, mana bu kursiga kelib o'tirishingizni istayman; qolaversa, biroz yotib orom olishim mumkinligini aytganingiz uchun mana shu yerga cho'zilaman. Ishlar joyida bo'ladi.

U Jemmaning oyoqlari yoniga, gilamga cho'zildi, tirsagiga suyanib, Jemma yuziga tikilib oldi.

– Yuzingizda zarra qon yo'q! Shuning uchun qon yo'qli, siz turmushga jiddiy narsa deb qaraysiz, undan keyin shokoladni yomon ko'rasiz.

– Hech bo'limasa besh daqiqagina og'ir bo'ling! Axir hayot-mamot ustida gap ketayapti-ya.

– Hatto bir daqiqa ham og'ir bo'lgim yo'q, do'stim. Bunga na hayot arziydi va na mamot.

So'na uning ikkala qo'lini ushlab olib, barmoqlarining uchi bilan silay boshladи.

– Minerva<sup>1</sup> singari bunaqa siyosat bilan qaramang. Yana bir daqiqadan keyin shunaqa ham yig'lab yuboramanki, meni ko'rib o'zingiz achinasiz. Yuzingizda qo'qqisidan paydo bo'ladigan ajoyib bir tabassumningiz bor, men ana shu tabassum bilan yana bir marta jilmayishingizni istar edim. Hay, hay, koyimang mendan, azizim. Ikki inoq boladay, biskvitlarimizni birga yeyaylik, keling, talashmaylik – axir ertaga ajal keladi-ya!

U likopchadan bir dona shirin biskvit olib, teng ikkiga bo'ldi, ustiga surtilgan qandil bezakni ham teng o'rtasidan sindirdi.

– Cherkovda yaxshi odamlarga tabarruk nasiba ulashadilar, bu bizga ana shunday nasiba bo'lsin. Undan

<sup>1</sup> Minerva – qadimgi zamonda Rimdagi donolik xudosi: fan, san'at va kasb piri.

so'ngra ikkalamiz b-bir bordoqdan v-vino ichishimiz kerak, – ha, ha, mana shunday.

Jemma bordoqni joyiga qo'ydi.

– Qiynamasangizchi, – dedi u; tovushidagi yig'i ohangini eshitib, So'na unga qaradi, keyin qo'llarini yana ushladi.

– Bas, bas, axir. Keling, Endi tinch o'tiraylik. Ikkovimizdan birimiz o'lsak, qolganimiz shu paytni eslaydi. Qulqlarimizni qomatga keltirib chinqirgan bu shovqinli dunyoni unutaylik-da, qo'lni qo'lga berishib, o'z yo'limiz bilan boraylik. Ajalning yer ostidagi sirli dunyosiga kiraylik-da, gullab turgan qizg'aldoqlar orasida yotaylik. Jim! Tek, tek o'tiraylik.

So'na boshini uning tizzasiga qo'yib, yuzini berkitib oldi. Jemma churq etmadi, faqat So'na ustiga engashib, qo'lini uning boshiga qo'ydi. Vaqt o'tar, daqiqalar birin ketin abadiyat sari yugurar, ular esa hamon churq etmay, qimir etmay o'tirardilar.

– Do'stim, soat o'n ikki bo'lib qolayozdi, – dedi Jemma, axiri. So'na boshini ko'tardi. – Endi faqat bir necha daqiqalik vaqtimiz qoldi xolos. Martini hozir qaytib keladi. Kim bilsin, endi bir umr ko'rishmasmiz. Nahotki menga aytadigan so'zingiz bo'lmasa?

So'na shoshilmasdan o'rnidan turdi, keyin uyning narigi burchiga yurib bordi. Ikkovi ham bir daqiqacha jim turdi. Keyin So'na eshitilar-eshitilmash bir tovush bilan:

– Sizga shu narsani aytishim kerak, – deb so'z boshladi, – aytishim kerak... shu narsani...

So'na to'xtadi-da, yuzini qo'llari bilan to'sib deraza yoniga borib o'tirdi.

– Mening ham rahmimni yeydigan kuningiz bor ekan-a, shunchalar kutdirdingiz, – dedi Jemma, yuragi uvishib.

– Mening o'zim ham hayotda rahm-shafqatni kam ko'rganman. Avvallari: siz uchun bari birdir, deb o'ylagan edim.

– Endi unday deb o'ylamaysizmi?

Jemma bir daqiqagina javob kutib turdi, keyin uydan yurib borib So'na yonida to'xtadi.

– Aytib bering menga, axir, haqiqatni, – deb pichirladi Jemma. – O'zingiz o'ylab qarang: sizni o'ldirishsa-yu, men qolsam, butun umrim azob ichida o'tadi, bilolmasdan... haqiqatni bilolmasdan...

So'na uning qo'llarini ushlab, mahkam qisdi.

– Mabodo meni o'ldirishsa... Men sizga aytsam, Janubiy Amerikaga ketib qolganimda... Ah, ana Martini ham kelib qoldi!

So'na junjikib ketdi, keyin o'midan irg'ib turib borib, eshikni lang ochib yubordi.

– Ayni vaqtida, o'z vaqtida keldingiz! Hamma vaqt shundaysiz! Tirik xronometrsiz, Martini, yo'l plashi deganizing shumi?

– Ha, tag'in ba'zi narsalar ham bor. Quruq olib kelay deb har qancha urinsam ham bo'lindi, yomg'ir chelaklab quyayotganday yog'ayapti. Yo'lda qiynalarmikansiz deb qo'rqaman-da.

– E-e, bu yog'ini qo'yavering. Ishqilib, yo'l tozami?

– Toza. Josuslar uxlaganai ketishganga o'xshaydi. Havo shunday bo'lib turgandan keyin ketishmay ham nima qilishsin. Jemma, bu qahvami? Yomg'irga chiqishdan avval biron issiq narsa ichib olishi kerak edi-da, bo'lmasa shamollab-netib qolishi mumkin.

– Qora qahva u. Lekin quyuq. Chiqib, sut qaynatib kiray.

Jemma ho'ngrab yig'lab yubormaslik uchun qo'llari va tishlarini mahkam qisib, oshxonaga chiqib ketdi. Sut ko'tarib qaytib kirganda, So'na plashini allaqachon kiyib olib, Martini keltirgan charm getrni boylamoqda edi. Tik turgan holda bir finjon qahvani ichdi-da, keng qirrali safar shlyapasini qo'liga oldi.

— Endi jo‘nasak ham bo‘lar, Martini. Pistirmaga borishdan avval, ehtiyot shartdan, yo‘lni biroz chalg‘itamiz. Yaxshi qoling endi, sinora. Men sizni juma kuni Forlida ko‘raman, albatta, agar biron jiddiy voqeal yuz berib qolmasa. Biroz to‘xtab turing: mana sizga manzil.

U yondaftarchasidan bir varaq yirtib oldi-da, qalam bilan bir necha og‘iz so‘z yozdi.

— Menda manzil bor, — dedi Jemma, vazmin, hazin tovush bilan.

— B-b-b-bormidi? Ha, mayli, ehtiyoti shartdan b-buni ham olib qo‘ying. Yuring, Martini. Sekin. Eshik g‘ijirlamasin.

Ular zinapoyadan avaylab tushdilar. Ko‘cha eshigini yopib chiqib ketganlardan so‘ng Jemma uyg‘a qaytib kirdida, So‘na berib ketgan qog‘ozni ixtiyorsiz ochib o‘qidi. Manzil tagida shu so‘zlar yozilgan edi:

«Endigi ko‘rishishimizda hamma gapni aytib beraman».

## Ikkinci bob

Brizigellada bozor kuni edi. Tevarak-atrofdagi qishloqlardan dehqonlar yig‘ilgan — qaysi birlari uy parrandalari va cho‘chqalar keltirgan, qaysi birlari sut mahsulotlari, qaysi birlari yarim yovvoyi tog‘ chorvasini haydar kelgan. Xaloyiq bozor maydonida qaynar, siljir, kular, bir-biri bilan tegishar, arzonbaho pryaniklar, turli qoqilar, kungaboqar pistalar sotuvchilar bilan savdolashar edi. Oftobda kuyib qoraygan yalangoyoq yosh bolalar tosh yo‘lda, quyosh jaziramasida dum tushib emaklashar, onalari esa tuxum va saryog‘ solingan savatlari bilan daraxt soyasida o‘tirishar edi. Montanelli xaloyiqqa ertalabki salomni bergani chiqdi.

Montanelli dehqonlar bilan gaplashib, sekin-asta ilgarilashib bordi. Uni birdan shov-shuvli bolalar galasi o‘rab oldi: har birining qo‘lida qirdan terib olingen lolaqizg‘aldoqlar, tog‘ora gullar, xushbo‘y oq gullar dastasi bo‘lib, bularni Montanelliga uzatar edilar. U yovvoyi gullarni juda yaxshi ko‘rardi; hamma uning bu odatini g‘oyat dono odamlarda bo‘ladigan zaif tomonlardan biri deb bilar edi. Agar uning o‘rnida boshqa odam bo‘lsa-yu, uyini shunaqa ko‘katlar va har xil o‘simpliklar bilan to‘ldirsa, unga, albatta, hamma kulardi; ammo «avliyo kardinal» birovga ozor bermaydigan mana shunaqa birmuncha g‘alati qiliqlarni qilishdan tortinmas edi.

Montanelli saroyiga qaytib kelgandan keyin bozor ochildi. Quyuq qora sochi ko‘zları ustiga tushib turgan, chap betida kesik izi qolgan ko‘k ko‘ylakli oqsoq kishi do‘konlardan biriga kelib, buzuq italyan tilida limonad so‘radi.

Do‘kondor ayol limonad quya turib, notanish kishini sinchiklab ko‘zdan kechirdi-da:

- Siz bu yerli bo‘lmasangiz kerak? – dedi.
- Yo‘q. Korsikadan kelganman.
- Bo‘lsa-bo‘hnasa, ish qidirib yurgandirsiz-da?
- Ha. Yaqinda pichan o‘rog‘i boshlanadi-ku. Ravenna tevaragida yer-suvi bor bir janob yaqinda Bastiyaga keluvdi, Ravenna atrofida ish ko‘p deb aytdi-da menga.
- Xudo ishingizni o‘ngidan keltirsin, ish-pish topib oling-da, lekin bu atroflarda hozir ahvol juda og‘ir.
- E-ha, Korsikada bundan ham yomon, xolajon. Bizday bechoralarga qirilib o‘lishdan boshqa hech nima qolmadi.
- Bir o‘zingiz keldingizmi?
- Yo‘q, o‘rtog‘im bilan. Ho anovi qizil ko‘ylakli yigit bilan. Hoy, Paolo!

Mikele o‘zini chaqirayotganlarini eshitib qo‘llarini cho‘ntaklariga suqdi-da, tanbal odimlar bilan yurib ketdi. U o‘zini tanimaslik uchun tutib olgan jiyron parigiga qaramay, korsikali oliftaga o‘xshardi. So‘na esa korsikali ishsizning quyib qo‘ygan nusxasi edi.

Ikkalasi bozor maydonida sanqigani ketishdi. Mikele tishlari orasidan chiqarib hushtak chalar, So‘na esa yelkasiga tashlab olgan yuki ostida bukilib va oqsoqligini kamroq sezdirish uchun oyoqlarini sudrab, zo‘rg‘a borar edi. Ular o‘zlaridan muhim bir xabarni olib ketishi kerak bo‘lgan o‘rtog‘ini kutib yurgan edilar.

– Qarang: Markone kelayapti; ho anovi burchak orqasida, – deya Mikele birdan pichirlab qoldi.

– Sizga o‘roqchi kerak emasmi, xo‘jayin? – dedi u, qo‘lini yirtiq shapkasiga qo‘yib. Keyin ot jiloviga sekin qo‘lini tekizdi.

Pisanda shunday edi. Otliq pastga tushib, jilovni ot bo‘yniga tashlab qo‘ydi; uni basharasiga qarab, mulk boshqaruvchisi deb o‘ylash mumkin edi.

– Qo‘lingdan qanaqa ishlar keladi?

So‘na shapkasini qo‘llarida ezg‘iladi.

– Pichan o‘rish, chetan to‘qish, – shu taxlit boshlab, ovozini o‘zgartirmay, davom qildi: – Kechasi soat birda yumaloq ungur og‘zida. Bir arava-yu ikkita yaxshi ot kerak. Men ungurda kutib o‘tiraman... Yer qazishni ham bilaman, xo‘jayin, undan keyin...

– Bo‘pti, shuning o‘zi bas. Menga faqat o‘roqchi kerak xolos. Menga qara, sen hech kimnikida ish qilganmisan?

– Ha, qilganman bir marta. Yaxshilab qurollanish esingizdan chiqmasin. Kim biladi, uchar otryadga yo‘liqib qolamizmi hali. O‘rmon yo‘li bilan yurmang, narigi tomoni xavfsizroq. Josusga yo‘liqsangiz, gap sotib o‘tirmang,

tikkasiga otib tashlang... Ish bo'lsa, jonim bilan borardim, xo'jayin.

— Senga qolsaku, jon-jon deb borasan-a, lekin menga ishning ko'zini biladigan odam kerak. Bugun menda mayda chaqa yo'q, otaxon.

Ularning oldiga ust-boshi juldur, qari bir gado og'ir-og'ir yurib keldi-da, bir ohangli, mungli tovush bilan cho'zib ketdi:

— Men notavon, ko'zdan qolgan qari cholga Bibi Maryam xotiri uchun rahm qilinglar... Bu yerdan tezda ketinglar, uchar otryad kelayapti... Osmonlar malikasi Bibi Maryam, pok va sof qiz xotirasi uchun... sizni qidirib yurishibdi, Rivares; ikki daqiqadan keyin shu yerga yetib kelishadi... Avliyolar madadkoringiz bo'lsin... Ularning safini yorib chiqmasangiz bo'lmaydi: hamma yoqda josuslar to'lib yotibdi: shuning uchun yeng ichida chiqib ketib bo'lmaydi.

Markone So'naga ot jilovini tutqizdi.

— Tez bo'ling! Ko'prikkka chiqing-u, otni qo'yib yuborib, o'zingizni jarga uring, bizning hammamizda qurol bor, ularni o'n daqiqacha to'xtatib turarmiz deb o'layman.

— Yo'q, yo'q! Men qolib, sizlarni tutib ketishsinmi, — xohlamayman. Birga turinglar, men otganimdan keyin tartib bilan otaveringlar. Otlarimiz boylangan yerga qarab yuringlar, ho ana otlar — saroy zinapoyasi oldida turibdi; undan keyin qurollaringizni taxt qilib qo'yinglar. Jang qilib chekinamiz; shapkamni yerga tashladim deguncha, yakka jilovini kesib tashlaysizlar-u, to'g'ri kelgan otga minasizlar. Shunday qilsak, zora hammamiz o'rmonga yetib olsak.

Gap past ovozda va shu qadar tinch ohangda bordiki, yonlarida turgan odamlar ham so'zning pichan o'rig'idan muhimroq narsa ustida ketayotganini gumon qilolmasdi.



Markone o‘z biyasini jilovidan ushlab, otlar bog‘langan tomonga yetaklab ketdi; So‘na boyagiday oyoqlarini sudrab yonda, gadoy esa qo‘lini cho‘zib, sadaqa tilab orqada bordi. Mikele ham hushtak chalib, o‘sha tomonga yo‘l oldi: gadoy yonidan o‘tib ketayotib, uni ogohlantirgan edi. U ham daraxt soyasida piyoz yeb o‘tirgan uch nafar dehqon yoniga hech nimadan xabari yo‘q kishiday kelib xabarni aytib ketdi.

Dehqonlar darrov o‘rinlaridan turib, Mikele orqasidan yurdilar. Shunday qilib, yetti kishining hammasi, hech kimning diqqatini jalb qilmay, mana endi saroy zinapoyasi oldida turibdi: har biri cho‘ntagiga yashirilgan to‘pponchani bir qo‘li bilan ushlab, shu o‘rtaga bog‘langan otlardan uzoqlashmay turardi.

— Men signal bergunimcha, o‘zinglarni bildirmay turinglar, — dedi So‘na sekin, lekin tushunarli tovush bilan. — Bizni tanishmay o‘tib ketishsa ham ajab emas. Men o‘q uzganimdan keyin sizlar ham uzinglar. Lekin odamlarga emas, otlarning oyoqlariga qarab otinglar, shunday qilsak, bizni quvisholmaydi. Navbat bilan otinglar. Uch kishi o‘qlab, uch kishi otib tursin. O‘zimiz bilan otlarimiz orasiga biron kishi tushadigan bo‘lsa, otib tashlanglar. Men samanga minaman; shapkamni yerga tashladim deguncha, har kim ko‘zi tushgan tomonga qochsin, hech bir yo‘sin bilan to‘xtamasin.

— Ana kelishayapti, — dedi Mikele.

So‘na basharasiga hayratidan ensasi qotgan kishi; tusini berib, keluvchilar tomonga yuzlandi. Savdo birdan to‘xtab, hamma tor ko‘chaga anqayib qoldi: u yerdan o‘n besh nafar qurolli sarboz otlarini bir-bir qadam tashlatib chiqib kelayotgan edi. Olomon orasidan o‘zlariga zo‘rg‘a-zo‘rg‘a yo‘l ochib, sekin-asta ilgarilab bordilar. Hamma burchakka jousular qo‘yilmagan bo‘lsa, olomon soldatlarni tomosha

qilib bo‘lguncha, yettovi inqilobchining hammasi allaqachon qochib ketar edi. Mikele So‘naga xiyol yaqinlashdi.

— Hozir ketib qolsak qalay bo‘larkan?  
— Yo‘q ketib bo‘lmaydi: bizni josuslar o‘rab olishgan, bittasi allaqachon meni tanib ham qoldi. Ana kapitanga aytgani odam yubordi. Endi faqat otlarni yaralash yo‘li bilangina qutulishimiz mumkin.

— Qani o‘sha josus?  
— U mening o‘qimni yeydigan birinchi kishi, ham manglar tayyormisizlar? Ana, biz yoqqa yo‘l solishdi. Hozir hujum boshlashadi.

— Po‘sht, — deb qichqirdi kapitan. — Papa hazratlarining tabarruk nomlari bilan buyuraman: yo‘l beringlar, po‘sht!

Xaloyiq qo‘rqib, hayron bo‘lib o‘zini chetga oldi. Soldatlar saroy eshigi oldida to‘planib turgan bir to‘da odam tomonga tezlab bordi. So‘na ko‘ylagining ichidan to‘pponchasini chiqardi-da, yaqinlashib kelayotgan otryadga emas, shu topda otlar tomonga borayotgan joususga o‘q uzdi. U quymuchi majaqlanib ag‘darildi. Ayni sekundda birin-ketin yana oltita o‘q uzildi. Ana shundan keyin inqilobchilar otlari turgan yoqqa chekina boshladilar.

Otryad otlaridan biri qoqinib, yon tomonga sakradi. Ikkinchisi jon talvasasida qattiq kishnab, yerga ag‘darilib tushdi. Xalqni vahima bosdi, olomon ichidan hoy-huylar, hayqiriqlar eshitildi. Keyin eskadronga komandirlilik qiluvchi zabitning amirona ovozi gurillab chiqib, boshqa hayqiriqlarni bosib ketdi. Zabit uzangilarga tiranib ko‘tarildi-da, qilichini boshida o‘ynatib qichqirdi:

— Yigitlar, buyoqqa! Ortimdan!

Zabit birdan egarda gandirakladi-yu, orqasiga ag‘darildi: So‘na yana bir o‘qni uzib, nishonga urgan edi. Qon kapitan mundirida alvon ariqchalar ochib oqa ketdi. Lekin u jon-

jahdi bilan ot yoliga yopishib yurib, yana qaddini rostladida, egar ustida turib, g'azab bilan qichqirdi:

— Anovi oqsoq iblisni tirik ushlayolmaydigan bo'lsalaring otib o'ldiringlar! Rivares o'sha!

— Tag'in bittadan otinglar, tezroq! — deb qichqirdi So'na odamlariga. — Undan so'ng qochinglar! — So'na shu so'zlarni aytdi-yu, shapkasini yerga tashladi.

Shapka ayni vaqtida tashlandi: quturib hujum qilayotgan soldatlarning qilichlari kallasi ustida yaltiray boshlagan edi.

— Qurollarni tashlanglar. Hammanglar tashlanglar!

Kardinal Montanelli jang qilayotganlar orasiga shu xitob bilan tashlandi.

Ana shundan keyinoq soldatlardan birining dahshat bilan to'liq hayqirig'i eshitildi:

— Kardinal hazratlari! Voy, xudo, otib qo'yishadi sizni!

Lekin Montanelli yana bir qadam oldinga tashladida, So'na to'pponchasining qoq og'ziga kelib to'xtadi.

Inqilobchilardan beshtasi allaqachon otlanib, tik ko'chada chopib ketmoqda edi. Markone endigina otga mindi. Ammo ot qo'yishdan avval, sardorga biron yordam kerak emasmikan deb orqasiga bir o'girilib oldi. Saman shu yerda turgan edi. Yana bir zumdan so'ng yettoni ham qutulgan bo'lur edi. Lekin orada to'q qizil chophonli kishi gavdasi paydo bo'ldi-yu, birdan So'na gandiraklab qoldi; to'pponcha ushlab turgan qo'li pastga tushdi. Ana shu bir zum taqdirlni hal qildi. Uni darhol qurshab olib, qo'pollik bilan yerga ag'dardilar; soldatlardan biri qilichini yonlama urib, So'na qo'lidagi to'pponchani tushirdi. Markone otiga qamchi bosdi. Undan atigi ikki qadam narida, qir yonbag'rida kavaleriya otlarining tuyoqlari dupurlay boshlagan edi. Bu yerda qolishdan va bekor qo'lga tushishdan hech qanaqa naf yo'q edi. Orqasidan quvib kelayotganlarning eng yaqindagisiga so'nggi o'qni uzish

uchun egarda turib ketiga qaragan edi ko'zi yana So'naga tushdi. So'naning yuzi qip-qizil qon. Otlar, soldatlar, josuslar depsashmoqda edilar. Markone g'oliblarning qahrla la'natlarini va g'azabli tantana ohanglari to'lib yotgan chinqiroq tovushlarini eshitdi.

Montanelli voqeadan bexabar edi. U eshik oldidan uzoqlashib, vahima ichida qolgan odamlarni yupatish bilan ovora edi. Bir vaqt yarador jesus ustiga engashgan edi, olomon birdan qo'rqib hoy-huy solib yubordi. Bu hol Montanellini boshini ko'tarib qarashga majbur etdi.

Soldatlar qo'lga tushirgan bandisining qo'llarini bog'lab, uni bozor maydonidan sudrab borardilar. U burilib, nafas ololmasdi. Og'riqning zo'ridan yuzi qip-qizarib ketgandi. U kardinal turgan tomonga o'girildida, qonsiz lablari bilan kulumsirab, shivirladi:

– T-tabrik qilaman, kardinal hazratlari!..

\* \* \*

Besh kundan so'ng Martini Forliga yetib keldi. Jemma unga bosmaxonada nashr qilingan bir bog'lam e'lon yubordi, bu – kutilmagan voqeа yuz bergani uchun tezda yetib keling, degan shartli belgi edi. Martini ayvonda bo'lgan gapni esladi-yu, darrov voqeaning tagiga yetdi. So'naga hech nima bo'lmagandir, deb yo'l bo'yи o'ziga tasalli berib keldi. Lekin bu to'g'rida qanchalik chuqur o'ylasa, So'naning boshiga qora kun tushganiga shunchalik ishonib bordi.

Martini Jemmaning yoniga kira turib:

- Nima bo'lganligini payqadim. Rivares qo'lga tushdi, shundaymi? – dedi.
- O'tgan payshanba kuni Brizigellada qamoqqa olindi. Jonining boricha o'zini himoya etibdi, otryad boshlig'i bilan bir joususni yarador qilibdi. Qurolli qarshilik. Ish chatoq!

- Unga baribir. O‘zini shunchalik ma’lum qilib qo‘yganki, bitta ortiqcha otilgan o‘q ahvolni uncha o‘zgartirmaydi.
- Rivaresni nima qilisharkan? Nima deb o‘ylaysiz?
- Jemmaning bo‘z yuzi yana badtar bo‘zarib ketdi.
- Nima qilishar ekan, ko‘ramiz deb o‘tirishimiz to‘g‘ri kelmas, deb o‘layman.
- Ozod qilib yuboramiz, demoqchimisiz?
- Shunday qilishga majburmiz.

Martini teskari o‘girilib oldi, keyin qo‘llarini orqasiga qovushtirib, hushtak chala boshladı. Jemma uning o‘yiga xalaqit bermadi. O‘zi ham butun vujudi bilan xayolga botib ketgan edi.

- O‘zini ko‘rdingizmi? – deb so‘radi Martini, u yoq-bu yoq yurishini bir zumgina to‘xtatib.
- Yo‘q, biz u bilan ertasiga ertalab mana shu yerda ko‘rishishimiz kerak edi.
- Ha, ha, esimda. Qayerda o‘tiribdi?
- Qal’ada, qattiq nazorat ostida, hatto kishanda deyi-shadi.

Martini yelkalarini qisdi.

- O, buning ahamiyati yo‘q: yaxshi egov har qanaqa kishanning dodini beradi, ishqilib, o‘zi yaralanmagan bo‘lsa bas...
- Yaralangan bo‘lsa kerak, lekin yarasining qanchalik og‘ir-yengilligini bilmaymiz. Aytmoqchi, Mikele aytib bera qolsin, qamash vaqtida o‘sha yerda bo‘lgan.
- O‘sha yerda bo‘lsa, qanday sog‘ qoldi? Nahotki Rivaresni shunday tang ahvolda qoldirib, o‘zi qochib ketgan bo‘lsa?
- Unda ayb yo‘q. Boshqalardan yomon jang qilmayapti, undan so‘ng topshiriqlarni ham aniq bajaribdi. Rivaresning o‘zidan boshqa hech kim o‘rtadagi pisandan chiqmapti.

Rivares bo'lsa pisandani yo esidan chiqarib qo'ygan yoyinki so'nggi daqiqada yanglishib qolgan, har holda, uning qilig'iga hech kim tushunolmaydi, juda g'alati. Shoshmay turing, hozir Mikeleni chaqiraman.

Jemma chiqib ketdi-da, hademay Mikele, bilan birga qaytib kirdi, yonlarida keng yag'rinli bir tog'lik dehqon ham bor edi.

— Bu kishi Marko, bizning kontrabandistlardan, — dedi Jemma. — Siz bu kishini eshitgansiz. U hozirgina keldi. Mikelening so'zini to'laroq qilib aytib bersa ham ajab emas. Mikele, bu kishi men sizga aytgan Chezare Martini. O'z ko'zingiz bilan ko'rgan narsalaringizni aytib bering bu kishiga.

Mikele inqilobchilar bilan soldatlar eskadroni o'ttasida bo'lib o'tgan olishuvni qisqagina qilib aytib berdi.

— Nima uchun bunday bo'lganligiga hali-hali aqlim yetmaydi dedi u, so'zining oxirida. — Agar uning qo'lga tushib qolishini oldindan bilgan bo'lsak, bittamiz ham ketmas edik; nima qilishimiz kerakligini aniq ko'rsatib boruvdi, lekin shapkasini tashlagandan keyin ham jang maydonida qolib, o'zini soldatlarga qurshatib qo'yishi mumkinligi hech birimizning miyamizga kelmabdi. Otining yonida turganligini, yakka jilovni ham kesganligini ko'rdim, otimga minishdan oldin o'qlangan to'pponchani o'z qo'liga tutqizib ham qo'ygan edim. Kim bilsin, balki, oqsoqligi orqasida otiga minolmay qolgandir, — mening birdan-bir gumonim shunda xolos. Lekin ana shu taqdirda ham o'q uzishi mumkin edi.

— Yo'q, unday emas, — dedi Markone gapga aralashib. — Otga mingani yo'q. Nima voqeа bo'lganligini men ko'rdim. Mening biyam, o'q ovozidan hurkib, o'zini u yoq-bu yoqqa tashlayverdi: shuning uchun hammadan keyin jo'nadim. Keta turib, u qalay ekan, deb orqamga

qaradim ham. U ham bemalol ketib olardi, agar kardinal bo'lmasa...

Jemma hazin bir tovushda:

— A! — deb qichqirib yubordi, Martini esa hayron bo'lib takrorladi:

— Kardinal?

— Ha, oldinga yugurib chiqdi-yu, to'pponchaning qoq og'ziga turib oldi, padariga la'nat! Rivares, meningcha, bunday bo'lishini kutmaganligidan qaltirab ketgan bo'lsa kerak, to'pponcha ushlab turgan qo'li esa shilq etib pastga tushdi, keyin narigi qo'lini mana bunday qilib ko'tardi. — Markone chap mushtumini ko'zlariga qo'ydi. — Ana shundan keyin hammasi yopirilib, uni bosib olishdi-da.

— Hech aqlim yetmay qoldi, — dedi Mikele. — Xavf mahalida esini yo'qotib qo'yishi hech Rivaresga o'xshamaydi.

— Qurolsiz bir kishini o'ldirib qo'yishdan qo'rqib, to'pponchasini pastga tushirgan bo'lsa ham ajab emas, — dedi Martini.

Mikele yelkaclarini qisdi.

— Qurolsiz bo'lsa, urushayotgan qurollilar orasiga tumshug'ini suqmasin edi-da. Urushning taomili shu. Rivares ularning changaliga qo'l bola quyonday tushib o'tirgandan ko'ra, kardinal hazratlarini bitta o'q bilan siylab qo'ya qolishi kerak edi. Shunday qilsa, dunyoda vijdonli odam bitta ko'payib, iblis urug'i bitta kamaygan bo'lur edi.

U lablarini tishlab turib, teskari qarab oldi. Yana birgina daqiqa o'tsa, g'azabi ko'z yoshlariga qorishib chiqardi.

— Endi bo'lar ish bo'ldi, — dedi Martini, — buning ustida bosh qotirib o'tirish — bekorga vaqt yo'qotish bo'ladi. Endi oldimizda uni qanday qilib qochirish masalasi turibdi.

Hamma ham shu tavakkal tarafdoi bo'lsa kerakdir deb o'layman!

Mikele bu sharqiroq savolga javob qilishni o'ziga munosib ko'rmadi, kontrabandist bo'lsa sho'rtakkina kulumtsirab:

— Ko'nmaydigan bo'lsa, jigarimni ham o'ldirishdan toymas edim, — dedi.

— Juda soz. Bo'lmasa, ishga kirishaylik. Avvalo, sizlarda qal'a rejasi bormi?

Jemma g'aladonni ochib, bir necha varaq qog'oz oldi.

— Hamma rejani tuzib qo'ydim. Mana qal'aning birinchi qavati. Mana bular esa — minoralarning pastki va ustki qavatlari. Mana bu mudofaa rejasi. Bu yerda vodiya olib chiqadigan yo'llar bor: mana bu yerda esa so'qmoqlar, tog'lardagi yashirin manzillar, undan so'ng yer osti yo'llari bor.

— U qaysi minorada, bilasizmi?

— Kunchiqar tomondagisida. Derazasiga panjara tutilgan dumaloq kamerada. Rejada ko'rsatganman.

— Qayerdan oldingiz bu ma'lumotlarni?

— Qal'ani qo'riqlovchi «Chigirtka» laqabli bir soldatdan.

Jino degan bizga qarashli bir odamning tog'avachchasi.

— Tez to'g'irlabsiz.

— Qarab o'tirib bo'larmidi. Jino o'sha soati Brizigellaga jo'nadi, ungacha o'zimizda ham ba'zi bir rejalar bor edi. Tog'lardagi yashirin manzillar rejasini bo'lsa — Rivaresning o'zi tuzgan edi; mana qarang — Rivaresning qo'li.

— Qo'riqchilikda turgan soldatlar qanaqa odamlar ekan?

— Ular bilan hali tanishib bo'lganimiz yo'q. Chigirtka u yerga yaqinda ishga kiribdi, shu uchun o'rtoqlarini yaxshi bilmas ekan.

— Chigirtkaning o'zi qanaqa odam ekan, buni Jinodan yaxshilab surishtirib olish kerak. Hukumatning niyati

ma'qulmi? Qayerda sud qilishar ekan? Brizigelladami yo Ravennada?

— Buyog'ini hali-beri bilmayman. Ravenna — viloyat markazi; shuning uchun qonunga binoan muhim ishlar birinchi bosqich sudda, faqat Ravennada ko'riliши kerak. Lekin papa viloyatida qonunga unchalik rioya qilishavermaydi. Qonun hukumati tepasida turgan odamning mayliga qarab o'zgaraveradi.

— Uni Ravennaga olib borishmaydi, — deb Mikele gapga aralashdi.

— Nega bunday deb o'ylaysiz?

— Mening bunga imonim komil. Nimagaki, Brizigellaning harbiy boshlig'i polkovnik Ferrari Rivares yarador qilgan zabitning amakisi bo'ladi. Juda ichi qora hayvon-da u; payti kelganda dushmanidan qasos olmay qo'ymaydi.

— Xo'sh, Rivaresni Brizigellada olib qolishga harakat qiladi, deb o'ylaysizmi?

— Men uni Rivaresni osib o'ldirishga harakat qiladi deb o'layman.

Martini yalt etib Jemmaga qaradi. Uning yuzida qatra qon yo'q edi, shu so'zlarni eshitganda ham chehrasi zarracha o'zgarmadi. Aftidan, bu fikrga ko'nikib qolgan ko'rinardi.

— Shunday bo'lsa ham, rasmiy jihatdan zarur bo'lган tadbirlarni ko'tmasdan qarab o'tirish to'g'ri kelmaydi, — dedi Jemma vazmin bir ohangda. — Polkovnik Ferrari biron bahona topadi-yu, harbiy sudga berishga harakat qiladi, albatta: keyin shahar tinchligini ko'zlab shunday qilishga majbur bo'ldim, deb o'zini oqlab qo'ya qoladi.

— Xo'sh, kardinal nima qilib o'tiribdi bu yerda? Qonundan tashqari harakatga rozilik berarmikan?

— Harbiy ishga aralasholmaydi, haqqi yo'q.



— Ammo obro‘yi juda baland-da. Polkovnik undan rozilik olmay turib harbiy sudga bormaydi; hayiqadi, albatta.

— Rozilikni ikki dunyoda ham ololmaydiku-ya, — dedi Markone, gapga aralashib. — Montanelli har qanaqa harbiy sudga hamma vaqt qarshi chiqib kelgan. Rivares hozir Brizigellada turibdi, shuning uchun ahvolni unchalik xavfli deb bo‘lmaydi. Kardinal hamisha aybdor tomonini oladi. Men hammasidan ham Rivaresni Ravennaga olib ketib qolishmasaydi deb qo‘rqaman. U yoqda aniq halok bo‘ladi.

— U yoqqa olib ketishlariga yo‘l qo‘ymaslik kerak, — dedi Mikele. — Yo‘ldan qochirib yuborishimiz mumkin. Bu yerdagi qal’adan qochib ketish esa qiyinroq bo‘ladi.

— Meningcha, — dedi Jemma, — olib ketadigan kunlarini kutib o‘tirishdan foyda yo‘q. Biz uni Brizigellada ozod qilishga unnab ko‘raylik, shuning uchun vaqtini yo‘qotib bo‘lmaydi. Chezare, keling, ikkovimiz qal’a rejasini birgalashib ko‘rib chiqaylig-u, qochirish yo‘lini topaylik. Mening o‘ylab qo‘ygan narsam bor, lekin bitta qiyin joyi dog‘da qoldirib turibdi.

— Yuring, Markone, — dedi Mikele, o‘rnidan turayotib, — bularni o‘z holiga qo‘yaylik, qochirish rejasini o‘ylashsin; bugun Folipyanoga jo‘nashim kerak, sizni ham birga olib ketsam devdim. Binchenso bizga miltiq o‘qi yubormabdi, holbuki bu yerga uch kun avval yetib kelishi kerak edi.

Ikkalasi chiqib ketgandan keyin Martini, Jemma yoniga kelib, indamay qo‘lini cho‘zdi. Jemma o‘z qo‘lini unga bir zumgina qo‘yib oldi.

— Hamisha menga mehribon do‘sit bo‘lib kelgansiz, Chezare, — dedi Jemma, axiri, — yomon kunlar boshimga tushganda yordamingizni ham darig‘ tutmagansiz. Keling, endi ishdan gaplashaylik.

## Uchinchi bob

— Kardinal hazratlari, janoblarining rozilik ber-mayotganlari – shahar tinchligiga qattiq xavf tug‘dirayapti; ahvol chindan ham jiddiy, janoblarining ishonishlarini yana bir qur jiddiy suratda iltimos qilaman.

Shahar boshlig‘i cherkovning oliymaqom vakili bilan gaplashganda hurmat saqlashga majbur edi; hozir ham xuddi shu ohangni saqlashga tirishar, lekin ovozida tajanglik ohangi yangrardi. Buyrak kasali azoblar, xotini katta-katta chiqimlar bilan xonavayron qilar, mana endi uch haftadan beri sabr kosasi to‘lib borar edi. Shahar xalqining fe’li buzuq; norozilik kun sayin ortib, tobora xavfli tus olib bormoqda. Tevarak-atrofda, butun viloyatda, yangidan yangi isyonlar, qo‘zg‘olonlar tinmay davom etayotir, hammayoq yashirin qurol omborlariga to‘lib ketgan. Garnizon kichik, buning ustiga xayrixohligi ham shubhali. Shuncha ko‘ngilxiraliklar yetmagandek, o‘zi adyutanti bilan gaplashib o‘tirib: «Eshak o‘jarligining muqaddas misoli» deb atagan kardinal bilan ham hisoblashishi kerak. Bu narsalar jonini bo‘g‘iziga yetkazib qo‘ygani ustiga qaysi go‘rdan endi So‘na ham paydo bo‘lib qoldi. So‘naki – turish-turmushi yomonlikning o‘zi yana!

So‘na o‘z ishini polkovnikning arzanda jiyanini va eng yaxshi jousunu o‘rtadan olib tashlashdan boshladi. Keyin bu «mug‘ambir ispan iblisi» turma qo‘riqchilarining hammasini yo‘ldan chiqardi, tergov qilayotgan zabitlarni chalg‘itib qo‘ydi, turmani esa ko‘ngil ochadigan uyga aylantirib yubordi. Mana qal‘aga kelib tushganiga uch hafta bo‘pti-yu, Brizigella ma’murlari hali ham bir nima qilolmay hayron. Ular ketma-ket tergov o‘tkazdilar, aybiga iqror qildirish uchun do‘q-po‘pisalarni, va’da va ishontirishlarni, o‘ylab topishlari mumkin bo‘lgan butun vosita va choralarmi ishga soldilar-u, lekin qamoqqa olgan

kunlaridan ahvoldan bir odim ham oldinga o'tolmadilar. Brizigelladagi boshliqlar: darhol uni Ravennaga yubora qolsak bo'lar ekan, deb endi pushaymon bo'la boshladilar. Nachora, qilingan xatoni tuzatish vaqtı o'tdi. Harbiy boshliq So'naning qamoqqa olingani to'g'risida hokimga ma'ruza yuborib, tergovni shaxsan o'zi o'tkazishiga iltifot yuzasidan ijozat berishini so'ragandi; u o'z iltimosiga iltifot yuzasidan ijozat olgan ekan, endi dushmanidan kuchsiz ekanligini sharmandalarcha bo'yniga olmasdan turib, u ijozatdan voz kecha olmas edi.

Ana shundan keyin, Jemma bilan Mikele gumon qilganidek, – harbiy sudga berish yo'li bilan qiyinchilikdan qutulish fikriga tushib qoldi. Mushkulni qanoatlanarli hal qilishning birdan-bir yo'li shu edi; kardinal Montanellining o'jarlik bilan rozilik beravermagani esa uning xunobgarchilik kosasini toshirgan so'nggi tomchi bo'ldi.

– Kardinal hazratlari, – dedi u, – bu odam dastidan mening o'zim, shuningdek, yordamchilarim qanchalik jabr ko'rganligimizni bilsaydingiz, ishga mutlaqo boshqacha qarardingiz deb o'ylayman. Adolat jihatidan noto'g'ri bo'lган bir tadbirga vijdon nuqtayi nazaridan qarshi chiqayotganingizni juda yaxshi anglayman, lekin bu favqulodda chora ko'rlishini talab etadigan favqulodda hodisa-ku.

– Mening uchun, – deb qarshilik ko'rsata boshladi Montanelli, – insofsizlik yo'li bilan hal qilinishi mumkin bo'lган hech qanaqa hodisa yo'q. Oddiy bir fuqaroni yashirin harbiy sudda sud qilish – insofga ham, qonunga ham to'g'ri kelmaydi.

– Xo'p, shu masalani bir tekshirib ko'raylik, kardinal hazratlari! Mahbus bir qancha og'ir jinoyatda ayblanadi. U Savinodagi yaramas suiqasdda ishtirok etgan, agar Toskanga qochib, yashirinib olmagan bo'lsa, monsinor Spinola tayinlagan harbiy-dala sudi, uni shubhasiz yo

o‘limga, yo katorga jazosiga hukm qilgan bo‘lar edi. Ana shundan beri inqilobchiligini tashlamaydi. Mamlakatdagi eng zararli yashirin jamiyatlarning birida zo‘r ta’sirli a’zo ekanligi ma’lum. Yashirin politsiya agentlaridan kamida uchtasining o‘ldirishini o‘zi tashkil qilmagan bo‘lsa, har holda shu o‘ldirishni ma’qullagan deb gumon qilishga yetarli asoslar bor. Hozir esa Papa viloyatiga kontrabanda yo‘li bilan yarog‘-aslaha keltirib turgani ustida qo‘lga tushirdik, deb aytish mumkin. Ma’murlarga qurolli qarshilik ko‘rsatdi, ham xizmatdagi ikki kishini xizmat burchlarini bajarib turgan paytlarida qattiq yarador qildi. Bugungi kunda shahar osoyishtaligi va xavfsizligi uchun jonli bir qo‘rquv bo‘lib qoldi. Harbiy sudga berilishini oqlashga shu narsalarning o‘zi, shubhasiz, yetib ortadi.

– Bu odam qanday gunoh qilgan bo‘lmasin, – deb javob qaytardi Montanelli, – baribir, qonun bo‘yicha sudlanishga haqqi bor.

– Ishni odatdagи qonuniy yo‘l bilan olib borishga ko‘p vaqt kerak bo‘ladi, kardinal hazratlari, bizga esa hozir har bir daqiqa oltunga teng. Buning ustiga, qochib ketadimi deb uzzukun vahimadaman.

– Agar qochib ketishi mumkin bo‘lsa, demak, nazoratni kuchaytirishingiz kerak, bu sizning ishingiz.

– Men qo‘limdan kelgan hamma narsani qilayapman, kardinal hazratlari, lekin men ham turma xizmatchilariga suyanaman; mahbus bo‘lsa qo‘riqchilarning hammasini sehrlab olayotganga o‘xshaydi. Uning yoniga qo‘yilgan odamlarni uch hafta ichida to‘rt marta o‘zgartirdim, soldatlarga jarima jazolari berishdan to‘xtamadim, shunday bo‘lsa ham sariq chaqalik naf ko‘rmadim: nuql uning xatini tashqariga chiqarishib, tashqaridan javob keltirishib turadilar – bunday qildirmaslikka yo‘l topolmayman. Aqli yo‘q odamlar-da! U go‘yo xotin kishiday, hammaning ishi tushib qopti.

- Juda alomat. O‘zi ham g‘alati odam bo‘lsa kerak-da.
- Shayton makrini qilishga shuncha ustaki, o‘xshashi yo‘q. Kardinal hazratlari, meni kechirsinlar-u, lekin to‘g‘risini aytsam: bu odam avliyoning ham sabrini tugatib qo‘ya qoladi. Aytsam – hazratim ishonmaydilar: tergovni o‘zim qilishga majbur bo‘layapman, nimaga desalar – bu vazifani bajarishi kerak bo‘lgan zabitning toqati toq bo‘ldi.
- Ya’ni, masalan?..
- Buni tushuntirib berish qiyin, kardinal hazratlari; agar Rivaresning tergovda o‘zini qanday tutishini bir marta bo‘lsa ham eshitganlarida, o‘zları darrov tushunib olardilar. Ko‘rgan yo eshitgan kishi tergovchini – jinoyatchi-yu, uni bo‘lsa – sud qiluvchi, deb o‘playdi.
- Xo‘sh, qo‘lidan qanaqa yomon ish kelishi mumkin? Qo‘lidan keladigani faqat – savollaringizga javob bermaslik xolos; to‘g‘ri-da, uning sukutdan boshqa quroli yo‘q.
- Uning yana ustara singari o‘tkir tili ham bor! Hammamiz ham gunohkor odamlarmiz, kardinal hazratlari, undan keyin, ko‘pchiligidan bir mahallar ancha-muncha xatolar ham qilganmiz. O‘scha qilib qo‘ygan gunohini hech kim birovga bildirgisi kelmaydi. Odam bolasining tabiat shunaqa. Endi u nima qilayapti? Qarang yigirma yil burun qilib qo‘yilgan xatosini allaqayerdan kavlab topadi-da, odamning yuziga soladi.
- Nima, Rivares tergov olib borayotgan zabitning biron shaxsiy siriga tegdimi?
- Ha. Bunday bo‘pti: kavaleriya zebiti bo‘lib yurgan kezlarida boyaqish yigit, nima ham bo‘ladi-yu, qarzdor bo‘lib qoladi, shunda polk g‘aznasidan ozroq pul ko‘taradi...
- Ya’ni, unga ishonib topshirib qo‘yilgan jamoat pulini amalda o‘g‘irlaydi?
- O, xunuk ish qilib qo‘yganku-ya u, kardinal hazratlari, lekin oshna-og‘aynilari o‘scha pulni darrov to‘lashgan-u,

shu bilan ish yopdi-yopdi bo‘lib ketgan. U tagi-zoti tuzuk odam bo‘lgani uchun o‘sandan beri o‘ziga dog‘ tushirmay kelardi. Bu xunuk voqeani Rivares qayerdan bilib ola qolganiga hech aqlim yetmaydi; birinchi tergovdayoq ana shu voqeani ochib tashlasa bo‘ladimi, yana past martabali kishilar oldida-ya! Shu gaplarni aytib turibdi-yu, yuzidagi mo‘minlikni ko‘rib munojot qilayaptimi deydi kishi! Albatta, hozir bu gap butun viloyatga tarqaldi. Agar kardinal hazratlari hech bo‘lmasa bitta tergovga borib ko‘rsalar, uning qanday odamligini darrov payqab olardilar... Rivares buni sezmasligi kerak. Hazratim hamma gapni eshitib olishlari mumkin...

Montanelli polkovnik tomonga burildi-da, yuzida kamdan kam uchraydigan bir ifoda bilan unga qaradi.

— Men politsiya josusi emasman, — dedi u, — men cherkov ruhoniysiman. Eshik orqasida turib birovning gapini poylash — mening kasb-korimga kirmaydi.

— Men... men hazratlarini xafa qilay deganim yo‘q edi...  
— Mening fikrimcha, bu masalani ortiqcha muhokama qilib o‘tirishdan hech qanaqa natija chiqmaydi. Agar mahbusni mening huzurimga yuborsangiz, o‘zim gaplashib ko‘rar edim.

— U bilan so‘zlashaman deb ovora bo‘lmasliklarini kardinal hazratlariga kamoli hurmat bilan maslahat berar edim. U butunlay tuzalmaydigan odam. Shu safar qonundan biroz chiqib ketsak hamki, boshimizga yangi balolar solmasdan turib undan qutulib olsak, — ko‘p bama’ni ish bo‘lar, xavf-xatar ham ancha kamayar edi. Janob hazratlarining gaplaridan keyin yuragimni changallab turib, o‘zlarini shu masalaga ko‘ndirishga jur’at qildim; axir shaharning tinchligi masalasida monsinor hokim oldilarida javobgarman men...

— Men bo‘lsam, — deb Montanelli uning so‘zini bo‘ldi, — o‘z qaramog‘imdagи yepiskoplilikda qonunga qarshi biron harakat yuz bersa — ham xudo, ham papa hazratlari

oldida javobgarman. Agar siz o‘z talabingizda qattiq turar ekansiz, polkovnik, u holda men ham kardinalligim beradigan imtiyozga suyanishga majbur bo‘laman. Zamon tinch bo‘lgandan keyin, shaharda yashirin harbiy sud qilinishiga yo‘l qo‘yolmayman. Mahbusni shu yerda, ertalab soat o‘nda, tanho o‘zini qabul qilaman.

Polkovnikning qosh-qovog‘i tushib ketdi, shunday bo‘lsa ham:

— Ixtiyor hazratimning o‘zlarida, — dedi hurmat bilan.

Ana shundan keyin polkovnik: «O‘jarlikda bir-biridan qolishmaydi bular», deb g‘udranib chiqib ketdi.

Polkovnik mahbusni kishandan bo‘shatib, saroyga olib borish payti kelmaguncha So‘na bilan kardinal o‘rtasida bo‘ladigan ko‘rishish to‘g‘risida hech kimga og‘iz ochmadi. «Valaam eshagini<sup>1</sup> bu tabarruk o‘g‘li qonunni o‘z bilganicha poymol qilayotgani ham yetib turgan edi. Endi soldatlar Rivares va uning do‘stlari bilan tillarini biriktirib, uni yo‘ldan qochirib yuborishlarida qolgan ekan», dedi u, jiyaniga.

Montanelli qog‘ozlar uyib tashlangan stol orqasida yozib o‘tirgan edi, So‘nani kuchli nazorat ostida shu xonaga olib kirdilar. Qo‘qqisdan So‘naning esiga issiq yoz kunlaridan biri tushib ketdi: o‘shanda Montanelli xuddi shunga o‘xhash kabinetda qo‘lyozma va’zlarni varaqlab o‘tirgan, issiq kirmasin deb shu yerdagiga o‘xhash deraza darpardalari yopib qo‘yilgan, ko‘chadan esa mevafurushning: Parmanchak ketdi-i! Parmanchak ketdi-i!» degan qichqirig‘i eshitilib turgan edi.

So‘na ko‘zlariga tushib turgan sochlarini zarda bilan orqasiga siltadi-da, yuziga iljayish yogurtirdi.

---

<sup>1</sup> *Valaam eshagi* – Tavrot rivoyatiga ko‘ra, jodugar Valaamning eshagi, kaltak jon-jonidan o‘tib ketganidan keyin, odam tilida shikoyat qilib yuborgan ekan. Bu og‘ir-vazmin, mo‘min odamning birdan tilga kirib, norozilik bildirganiga ishoradir. *Tarj.*

Montanelli kallasini ko'tarib, konvoylarga:

– Sizlar dahlizda kutib turinglar, – dedi.

Serjant o'zining juda ham o'ng'aysiz ahvolga tushib qolganligini sezib:

– Hazratimning jahllari chiqmasin, – deb gap boshladi, – polkovnik mahbusni juda xavfli kishi deb hisoblaydi, shuning uchun...

Montanellining ko'zlari chaqnab ketdi.

– Dahlizda kutib turinglar, – dedi u, vazmin ovozda takrorlab.

Serjant soldatlari bilan hurmat bajo keltirib, uzr so'rab chiqib ketdi; hammasining ham yuzida vahima alomati bor edi.

– O'tiring, marhamat, – dedi kardinal, eshik yopilgandan keyin.

So'na indamay o'tirdi.

Qisqa bir sukunatdan so'ng Montanelli so'z boshladi:

– Sinor Rivares, sizga bir necha savol bermoqchiman, agar javob bersangiz, benihoya minnatdor bo'lur edim.

So'na kulumsiradi.

– M-mening hozirgi asosiy ishim b-beriladigan savollarni eshitish.

– Lekin javob bermaslik, shundaymi? Har holda, men shunday deb eshitdim. Ammo u savollarni tergov olib borayotgan amaldorlar berishgan. Ular javobingizdan sizning o'zingizga qarshi foydalanishga majbur edilar...

– H-h-hazratimning savollari-chi?

Haqorat qilish istagi so'zlardan ko'ra, ohangdan ko'proq sezilib turardi.

Kardinal darhol fahmladi. Lekin yuzi jiddiy, ayni zamonda nazokatli tusini yo'qotmadi.

– Mening savollarim, – dedi u, – javob bersangiz ham, bermasangiz ham, baribir, o'rtamizda qoladi. Agar savollarim sizning siyosiy sirlaringizga taalluqli bo'lsa,

javob bermay qo'ya qoling. Garchi biz bir-birimizni butunlay tanimasak ham, har holda, savollarimning qolganlariga iltifot yuzasidan javob berarsiz deb umid qilaman.

– H-h-hazratimning x-xizmatlariga jonim bilan tayyormen.

So'zlarga hamroh etilgan muloyim ta'zim va u so'zlar aytilib turganda yuzda paydo bo'lgan ifoda eng dovyurak kishini ham iltifot so'rash ishtiyоqidan voz kechtirib yuborar edi.

– Dastavval shuni aytингchi: sizni yarog'-aslaha keltrishda ayblashyapti, siz shu yarog'larni nima qilmoqchi edingiz?

– K-k-kalamushlarni o'ldirmoqchi edim.

– Bema'ni javob. Tavba, sizning maslagingizga qo'shilmagan inson bolalari siz uchun kalamush bo'lib qolar ekan-da?

– A-ayrimlari.

Montanelli kursining orqasiga suyandi-da, hamsuhbatiga bir necha sekund indamay tikilib turdi. Keyin:

– Nima u qo'lingizdag? – deb so'radi.

– Ana o'sha kalamush tishlarining eski i-i-izlari

– Kechirasiz, u qo'lingizdagilarni so'rayapman. Yangi yaralarni.

Nozik, elastik qo'lni tamom yara bosgan, terisi sidirilgan edi. So'na qo'lini ko'tardi. Bilagi shishib, momataloq bo'lib ketgan edi.

– E, hech gap emas, ko'rib turibdilar-ku. Janob hazratlarining sharofatlari bilan meni qamashganlarida, – dedi u, yana muloyimgina ta'zim qilib, – soldatlardan biri shu qo'limni oyog'i bilan bosib oldi.

Montanelli uning qo'lini ushlab, diqqat bilan qaray boshladi.

— Uch hafta o'tgan bo'lsa nima uchun haligacha shunday yomon ahvolda? — deb so'radi u. — Yallig'lanib ketibdi.

— Kishanlarning og'irligi yaxshi darmon bo'limgandir balki.

Kardinal xo'mraydi.

— Yangi yara ustidan kishan solishdimi?

— Alb-b-batta, kardinal hazratlari. Yangi yara bunday ishlarga ayni muddao-ku. Eski yaradan foyda kam; eskisi faqat toliqibgina qo'yadi. Lekin chinakamiga og'rib, jonni olmaydi.

Montanelli unga yana, sinovchi bir nazar bilan tikilib qaradi, keyin o'midan turib, jarrohlik asboblari bilan to'liq g'aladonni ochdi.

— Qo'lingizni bering, — dedi u.

So'na qo'lini cho'zdi, yuzi toshdan yasalgandek harakatsiz, ifodasiz edi. Montanelli yaralarini yuvdi, avaylab bog'ladi. Bunday ishlarni qilib, o'rganib qolgan ko'rindi.

— Kishan to'g'risida turma boshlig'i bilan gaplashib ko'raman, — dedi u. — Endi sizga yana bitta savol bermoqchiman: bundan keyin nima qilmoqchisiz?

— B-b-buning javobi juda oson, hazratim: ilojini qilsam — qochaman, qilolmasam — o'laman.

— Nima uchun o'lasiz?

— Shuning uchunki, agar shahar boshlig'i meni ostirishga muvaffaq bo'lmasa, baribir, katorga jazosiga kestirib yuboradi; menga bu o'lim degan so'z: chunki katorga jazosini sog'ligim ko'tarolmaydi.

Montanelli stolga qo'li bilan suyanib, o'ylanib qoldi. So'na xalal bermadi: kursi orqasiga suyandi, ko'zlarini yarim-yorti yumdi va kishandan ozod vujudining huzuri bilan mast bo'lib o'tirdi.

— Faraz qilaylik, — deb Montanelli tag‘in so‘z boshladi, — siz qochib ham ketdingiz. Unda hayotingizni nimaga bag‘ishlar edingiz?

— Janob hazratlariga boya aytdim-ku: kalamushlarni o‘ldiraman.

— Kalamushlarni o‘ldirasiz. Demak, sizning bu yerdan qochib ketishingizga imkon tug‘dirib bersam, — boringki, shu narsa qo‘limdan keldi ham deyaylik, — siz o‘z ozodligingizdan zo‘rlik va qon to‘kishning oldini olish uchun emas, aksincha, uni kuchaytirish uchun foydalangan bo‘lar edingiz, shundaymi?

So‘na devorda osig‘lik butga qaradi:

— «Tinchlik emas, qilich...» Ko‘rib turibdilarki, ulfatim ham chakki emas. Menga kelsak, men to‘pponchani afzal ko‘raman.

Montanelli juda xotirjamlik bilan:

— Sinor Rivares, — dedi, — men sizni haqorat ham qilmadim, sizning maslagatingiz va do‘srlaringizni mensimaydigan bir ohangda ham gapirmadim. Sizdan ham ana shunday nazokat umid qilishga haqqim bormikan? Yo siz meni dahriylar jentlmen bo‘lmaydi deb o‘ylashga majbur qilmoqchimisiz?

— Darvoqe, kardinal hazratlari jentlmenlikni xristianlikning eng yuksak saxovatlaridan biri deb hisoblardilar — butunlay esimdan chiqibdi. Hazratimning yashirin imzoli himoyachilari bilan mening o‘rtamda borgan tortishuv munosabati bilan Florensiyada qilgan va’zlari esimga tushib ketdi.

— Men siz bilan xuddi shu masalada gaplashmoqchi edim. Siz menga alohida bir g‘azab bilan qaraysiz, marhamat qilib, shuning sababini aytib berolmaysizmi? Agar meni achchiq tilingiz uchun bir nishon tariqasida tanlab olgan bo‘lsangiz, bu boshqa gap. Siyosiy kurashda tutgan yo‘l-yo‘rig‘ingiz — sizning shaxsiy ishingiz, buning

ustiga biz hozir siyosat to‘g‘risida talashayotganimiz ham yo‘q. Menga o‘sha vaqt shaxsiy g‘arazingiz borday ko‘rindi, mabodo shunday bo‘lsa, sababini bilsam behad shod bo‘lur edim: sizga yomonlik qilgan yo o‘rtaga dushmanchilik solgan mahalim bo‘lganmi?

«Yomonlik qilgan mahalim bo‘lganmi» emish!

So‘na bog‘liq qo‘lini bo‘g‘iziga keltirdi.

— Kardinal hazratlari Shekspirni bir eslariga olsinlar, — dedi u, kaltagina kulib. — Uning pyesalaridan birida hech kimga zarar yetkazmaydigan uy jonivorlaridan birini — mushukni o‘larcha yomon ko‘radigan kishi bor. Men cherkov ruhoniylarini ana shunday yomon ko‘raman. Ridosini ko‘rsam, t-t-tishim zing‘illab og‘riy boshlaydi.

— O, gap faqat shundagina bo‘lsa... — Montanelli gap tamom deganday qiliq qilgan bo‘lsa ham, keyin gapini ulashtirib yubordi: — Tuzuk, hujum qilish mumkin-u, lekin faktlarni buzmaslik kerak. Siz mening va’zimga javob bera turib, imzosiz himoyachimning kimligini meni taniydi deb iddao qildingiz. Bu haqda xato ketdingiz. Men sizni jo‘rttaga yolg‘on gapirdi deb ayblamayman, lekin iddaongiz noto‘g‘ri. U yozuvchining nomini shu kungacha bilmayman.

So‘na kardinalga bir daqiqagina jiddiy qarab turdi, keyin birdan orqasiga suyandi-da, qahqaha urib kulib yubordi.

— O, s-s-s-ancta simplicitas! Voy Arkadiyaning begunoh, bechora fuqarosi. U odamning kimligini nahotki bilmagan bo‘lsalar? Qo‘sh tuyoqning izini hech qachon ko‘rmaganlarmi?

Montanelli o‘rnidan turib ketdi.

— Boshqacha qilib aytganda, sinor Rivares, har ikki tomon maqolasini ham o‘zingiz yozgansiz, shundaymi?

---

O. muqaddas soddalik!

• So‘na gunohsiz ko‘k ko‘zлari bilan kardinalga qarab turib:

— Bu ishim yaxshi bo‘lmagan, bilaman, — dedi. — Janoblari esa hammasini suyaksiz go‘shtday yutaverdilar. Men juda xunuk ish qildim, to‘g‘ri, lekin xunuk bo‘lganda ham alomat bo‘ldi.

Montanelli labini tishlab, yana o‘z joyiga o‘tirdi. So‘na uning sabr kosasini sindirishga tirishayotganini dabdurustdanoq fahmlab, har nima bo‘lsa ham o‘zini yo‘qotmaslikka qaror qildi. Montanelli polkovnikning siqilayotganini endi tushuna boshladi. So‘nani kuniga ikki soat tergov qiladigan kishi ba’zi mahallar og‘zini chakki qilib yuborsa, kechirsa bo‘lardi.

— Bas qilaylik bu gapni, — dedi u, vazmin ohangda. — Siz bilan ko‘rishishimning asosiy sababini aytib berishim kerak. Sababi bunday: men: bu yerda kardinal bo‘lganim uchun sizning taqdiringizni hal qilishda mahalliy ma’murlar mening rayim bilan hisoblashishga majburlar, basharti men o‘zimda bo‘lgan imtiyozimdan foydalanishni xohlasam, albatta. Sizga nisbatan qilinadigan zo‘rlikka xalal berish uchungina imtiyozimdan foydalanaman, chunki siz tomoningizdan zo‘ravonlik ehtimoli yo‘q, shu uchun sizga zo‘ravonlik qilishning ham hech qanday zarurati yo‘q. Biron narsadan shikoyatingiz bormi-yo‘qligini bilish uchun sizni birga olib kelgan edim. Kishan to‘g‘risini o‘zim biryoqlik qilaman. Ikkinchidan, sizga ovoz berishdan avval, o‘zingizning ham qanaqa odamligingizni bilishga haqqim bordir deb o‘ylagan edim.

— Mening hech qanaqa shikoyatim yo‘q kardinal hazratlari. A la guerre, comme a la guerre. Men maktab bolasi emasman, shu sababli tuprog‘iga k-kontrabanda yo‘li bilan yarog‘-aslaha keltirganim uchun hukumat boshimni silaydi deb har safar o‘ylamayman ham. Ular qo’llaridan kelgancha mendan qasos olayotirlar, bu o‘z-o‘zidan ma’lum

narsa. Endi mening qanaqa odamligimga kelsak, hazratim mening gunohlarim haqida bir qur juda g'lati shaklda tavba qilganimni eshitgan edilar. O'shaning o'zi kifoya emasmi? Yo janoblari o'sha tavbamni yana takrorlashimni istaydilarmi?

— Gapingizni yaxshi angolmadim, — dedi sovuqqina qilib Montanelli.

— Kardinal hazratlari, qari xudojo'y Diegoni eslaridan chiqarmagan bo'lsalar kerak, albatta? — So'na birdan ovozini o'zgartirib, Diego tovushida cho'zib gapir-di: — Men gunohga botgan bir notavonman.

Montanellining qo'lidagi qalam titrab ketdi. O'rnidan turayotib:

— Haddingizdan oshib ketdingiz! — dedi.

So'na kulib yubordi, keyin boshini orqasiga tashlab, xonada indamay yurib turgan kardinalni ko'zлari bilan poylashga kirishdi. Montanelli suhbatdoshi yonida to'xtab:

— Sinor Rivares, — dedi, — siz menga shunday muomala qildingizki, xotin kishidan tug'ilgan bitta ham inson o'zining eng ashaddiy dushmaniga bunaqa muomala qilmaydi. Siz dardimning sirini bilib oldingiz, yaqin kishingizning iztirobini o'zingiz uchun bir o'yinchoq va masxara holatiga aylantirdingiz. Sizdan yana bir marta so'rayman: qachon bo'lsa ham sizga biron yomonlik qilganmidim? Yo'q unda, nima uchun siz meni shu qadar bag'ritoshlik bilan kulgi etasiz?

So'na kursining orqasiga suyandi-da, o'zining nozik, sovuq, dudmal tabassumi bilan jilmaydi.

— Menga juda q-q-qiziq tuyildi-da, kardinal hazratlari; mening so'zlarimni janoblari ko'ngillariga olaverar edilar. Undan keyin, bu narsalar sayyor sirkni ham esimga t-tushirib yuborardi...

Montanellining lablaridan qon qochdi, yuzini teskari burib, qo'ng'iroq chaldi.

— Mahbusni olib ketishingiz mumkin, — dedi u, kirgan qo‘riqchilarga.

Ular ketganlaridan so‘ng Montanelli stol yoniga o‘tirdi, odatida bo‘lma gan g‘ashlik hissidan butun vujudi qaltirab titradi. Keyin o‘z yeparxiyasidagi pastki tabaqa ruhoniylardan kelgan hisob-kitoblarni ochib o‘qimoqchi bo‘ldi-yu, ko‘ngliga sig‘may, itarib tashladi. So‘ngra, stolga engashib, yuzini qo‘llari bilan to‘sib oldi. So‘na o‘zidan so‘ng dahshatli ko‘lankasini tashlab ketgan kabi edi.

### To‘rtinchi bob

Montanelli g‘azabining qaynab-toshgani, So‘naga bergan va’dasini esidan chiqarmadi. Mahbusning yaralari hilvirab yotgan qo‘llariga solingan kishanga qarshi shu qadar qattiq norozilik bildirdiki, kallasi tamom gangib qolgan boyaqish polkovnik hamma narsaga qo‘l siltadi-yu, kishanni butunlay chiqarib tashlashni buyurdi.

— Kardinal hazratlari yana nimalarga qarshi norozilik bildirishini men qayerdan bilay? — dedi polkovnik, adyutantiga to‘ng‘illab. — Sho‘ring qurg‘ur ikkitagina qo‘l zanjirini zulm quroli deb atagandan keyin, hali-zamon temir panjaralarga qarshi urush ochib, Rivaresni shirin-sharbat bilan boqishimni ham talab qilib qolar? Mening yoshlik chog‘larimda yovuzni yovuz deb bilishar va shunga yarasha muomala qilishar edi. U vaqtarda hech kim xoини o‘g‘ridan biron masalada yaxshi deb aytmas edi. Endi esa g‘alayonchilar hamma yoqqa odat bo‘lib qoldi, shuning uchun kardinal hazratlari o‘shanday ablahlarni boshlariga ko‘tarmoqchiga o‘xshaydilar.

— Hayronman, nega aralashaverarkan, — dedi adyutant. — Papa hokimi bo‘lmasa, fuqarolik va harbiy ishlarda ma’muriy kuchga ega bo‘lmasa. Qonun bo‘yicha...

— Qonunni nima qilasiz gapirib? Muqaddas padar-ning o'zлari turmalarning eshiklarini ochib, liberal itvachchalarining hamma shaykasini zanjirdan bo'shatib yuborganlaridan keyin qonunni birov hurmat qiladi deb bo'ladimi! Bu endi borib turgan ahmoqlik! Albatta, monsinor Montanelli hozir o'zining amalini ko'rsatayapti. Marhum papa oliy hazratlari zamondayoq martabasini ancha oshirib olgan edi, hozir bo'lsa yangi papaning o'ng qo'li, o'ktami bo'lib qoldi, endi ko'ngli nimani xohlasa shuni qiladi. Bunday odam bilan qanday olishaman? Ehtimol, Vatikandan yashirin dastur olgandir, men qaydan bilay? Shu topda hamma narsa ostin-ustun bo'lib ketdi: ertangi kun nima bo'lishini taxmin ham qilib bo'lmaydi. Tasaddug'ing ketay eski zamonda odamlar nima qilishlarini bilardilar, endi esa...

\* \* \*

...So'na ham qal'aga jazavasi tutib qoladigan darajada asabi buzilib keldi. Montanelli bilan ko'rishishi unda qolgan chidam qatralarini tugatayozdi. Yana bir zum o'tsa, u qatralar ham tamom bo'lur edi.

Sayyor sirk to'g'risidagi so'nggi dag'al gap sabr kosasi to'lgan paytda og'zidan chiqib ketdi: ko'rishishi har qanday qilib bo'lsa ham cho'rt kesish kerak edi, chunki u, yana besh daqiqa davom etsa, ko'z yoshlari bilan tugashi mumkin edi.

So'nani bir necha soatdan keyin tergovga chaqirib ketdilar; berilgan savollarning hammasiga jazavasi tutgan kishining qahqahasi bilan javob qildi. Polkovnik sabriga chidayolmay og'zini chakki qila boshlaganda, So'na shu qadar xaxolab kuldiki, hech vaqt bunday kulmagan edi. Boyaqish polkovnik tutoqdi, quturdi va o'zining bo'ysunmas asiriga aqlga sig'maydigan eng dahshatli jazolar bilan do'q qildi; ana shundan keyin ham hech

narsa chiqmagach, bir mahallar Jems Berton qo'l siltagani singari, polkovnik ham vaqt bilan asabni bekorga isrof qilish yaramaydi, degan xulosaga keldi; aql va idrok dalillari u qadar kor qilmaydigan bir kishini, baribir, yo'lga solib bo'lmaydi.

So'nani kamerasiga qaytarib keltirishdi; u hamisha urushqoqlik fe'li tutib o'tgandan so'ng yuz beradigan qora umidsizlik kayfiyatiga berilib, poxol ustida cho'zilib yotdi. To oqshomgacha qimirlamasdan, hatto fikr ham qilmasdan yotdi. Ertalabki kuchli hayajonidan keyin allaqanday ahvolga tushib, yo'q bo'lib qoldi: o'z dardi endi yot narsaga o'xshab, jon charog'i allaqachon so'ngan shaklsiz, hissiz bir og'irlikday, o'zini bosib, ezib turganday tuyilardi. Darvoqe, bu narsalarning nima bilan tugashi uning uchun baribir emasmi, ajabo? Chidab bo'lmaydigan qattiq azobdan qutulish – sezgisi bor har qanday jon egasi uchun qanday muhim bo'lsa, So'na uchun ham shunday muhim edi. Lekin bu azoblar turmush sharoitining o'zgargani orqasida to'xtaydimi yo sezgi hissining o'lishi orqasida – bu ikkinchi darajali masala edi. Kim bilsin: balki, qochib ketar, balki, o'ldirishar; lekin har ikki holda ham padresini ortiq ko'rolmaydi. Bundan boshqasining hammasi – quruq gap va jon egovlari xolos.

Kuzatuvchi kecliki ovqatni olib kirgan edi, So'na unga og'ir, parvosiz bir nazar bilan qarab qo'ydi.

- Soat necha bo'ldi?
- Olti. Ovqat keltirdim, taqsir.

So'na sovub, achib, anqib yotgan ovqatga jirkanib qaradi-yu, yuzini teskari o'girib oldi. U o'zining ruhan ezelganligini his etibgina qolmay, jismonan ham og'riq sezar, ovqatni ko'rsa ko'ngli aynar edi.

– Ovqat yemasangiz, kasal bo'lib qolasiz, – dedi soldat, shoshib. – Hech bo'limasa, manavi bir burda nonni yeb oling, quvvat bo'ladi.

Soldat ivib qolgan bir burda nonni tarelkadan xiyol ko'tarib qo'yib, ovozida g'alati bir jiddiyat bilan gapirdi. So'nada birdan konspiratorlik hissi uyg'ondi: nonga bir narsa yashirilganligini darhol payqadi.

— Qo'yib ketavering; keyin yesam yeyarman, — dedi So'na, parvosiz bir ohangda. Eshik ochiq edi, shuning uchun o'rtada bo'layotgan gapning har bir so'zi zinapoyada turgan serjantga eshitilayotganini bilar edi.

So'na eshik tag'in yopilib, teshikchasidan birov poylab turmaganiga ishonch hosil qilgach, haligi bir burda nonni oldi-da, avaylab uvay boshladi. Non ichidan bir parcha qog'ozga o'ralgan mayda arrachalar chiqdi; qog'ozga esa bir necha og'iz so'z yozilgan edi. Qog'ozni avaylab ochdida, kamerani xiragina yoritib turgan chiroqqa keltirib tutdi. So'zlar shu qadar zig'irdak joyga va nihoyatda yupqa qog'ozga yozilgan ediki, o'qish oson bo'lmadi.

«Eshik qulfi ochib qo'yildi. Kecha qorong'i. Panjarani iloji boricha tezroq arralab, soat ikki bilan uch o'rtasida yer osti yo'l orqali yetib keling. Biz tayyormiz, balki boshqa fursat topilmas». U tajanglik bilan qog'ozni mijig'ladi. Shunday qilib, butun tayyorgarlik ko'rilgan, endi u deraza panjarasini arralasa bo'lgani; qanday baxtki, kishanni olib tashlashgan! Kishanni arralashga bekor vaqt sarf qilib o'tirmaydi. Panjaraning nechta temiri bor? Ikkita, to'rtta; har birini ikki yerdan arralash kerak; demak, sakkizta. O, agar jadal qilsa, bahuzur ulguradi... Jemma bilan Martini muncha tez hal qilishibdi-ya bu ishlarni? Kiyim-kechak, pasport, uy-joy topish! Shuncha narsani saranjom qilish uchun arava otiday ishlashgandir... Reja ham Jemmaniki bo'lsa kerak. U o'zining nodonligiga ichida kulib qo'ydi: rejaning Jemmaniki yo boshqaniki ekanligi go'yo muhim narsa emish, yaxshi bo'lsa bo'lди-da! Kontrabandistlar avval arqon shoti bilan tushishni taklif qilgan edilar, Jemma esa uning o'rniga yer osti yo'ldan foydalanish fikrini

oldinga surdi; So‘na shularni o‘ylab, ich-ichidan quvondi. Jemmaning rejası qiyin va murakkab bo‘lsa ham, har holda, sharqiy devorning u yog‘ida turgan qorovulning hayotiga tahlika tug‘dirmas edi. Shuning uchun unga har ikkala rejani taklif qilganlarida, u ikkilanmasdan Jemmaning rejasini tanladi.

Ularga xayrixoh bo‘lgan Chigirtka nomli qorovul, shu rejaga muvofiq o‘ng‘ay fursatdan darhol foydalanishi: turma hovlisidan tuproqko‘rg‘on tagidagi yer osti yo‘lga chiqadigan temir darcha qulfini o‘rtoqlariga bildirmay, sekin ochib qo‘yib, kalitni yana qorovulxonadagi mixga osib qo‘yishi kerak edi. So‘na bo‘lsa darchaning ochib qo‘yilganligi xabarini olgach, deraza panjarasini arralashi, ko‘ylagini uzunasiga parchalab yirtishi, keyin ulardan arqon eshishi, shu arqonga osilib hovlining keng sharqiy devoriga tushishi kerak. Keyin qorovul boshqa tomonga qarab turgan kezlarda devor usti bilan emaklab ketishi, qorovul buyoqqa qaradi deguncha qimirlamay yerga qapishib olishi lozim.

Devorning sharqiy yo janubiy burchagida o‘rta miyona minora bor. Uning yarim xaroba devorini mahkam o‘rab olgan chirmov yiqilmay turardi. Juda ko‘p tosh qulab tushib, hovli ichkarisida, devor tagida uyilib yotar edi. So‘na ana shu toshlar va chirmovlarga osilib hovliga tushishi, keyin qulfi ochib qo‘yilgan darchadan sekin ichkariga kirishi va tuproq qo‘rg‘on tagidagi yo‘l bilan yer osti tonneliga o‘tishi kerak. Bu tonnel qal‘ani qo‘shti adirdagi minora bilan bir necha asr bundan avval yashirin ravishda tutashtirib turardi. Endi bundan hech kim foydalanmasdi, chunki ba’zi joylarini tog‘ cho‘kib bosib qolgan edi. Bu yer osti yo‘lining tog‘ etagiga mahkam yashiringan bir og‘zini faqat kontrabandistlarga bilar, chunki buni tonnelgacha o‘zlar qazigan edilar. Ko‘zlar g‘azab o‘ti bilan yonib, qosh-qovoqlari osilib tushgan tog‘liklarning uylarini bojxona amaldorlari tintib ovora bo‘lib yurgan kezlarida, taqiq

etilgan mollar ko'pincha tuproqqa'rg'onning qoq tagida haftalarcha uyulib yotar, hech kim shundaydir deb gumon ham qilmas edi. So'na tog' etagidagi ana shu teshikdan emaklab chiqishi va Martini yoniga bir kontrabandistni olib kutib turadigan yerga qorong'ida borib olishi kerak. Qorovullar kechqurun qal'ani aylanib chiqishgandan so'ng har kun ham darcha qulfini ochib qo'yishining iloji bo'lavermaydi. Bundan tashqari, oydin kechada devordan osilib tushish ham to'g'ri kelmaydi: qorovul sezib qolishi mumkin. Shunday qilib muvaffaqiyat qozonishi butun imkoniyatlar bor ekan, endi u fursatni qo'ldan bermasligi kerak.

So'na o'tirib, nonni yeya boshladi; non turmaning boshqa ovqatlari singari ko'ngilni aynitmadi. Madorga kirishi uchun biron narsa yeb olishi kerak edi. Keyin biroz yonboshlab, mizg'ib olmoqchi bo'ldi. Soat o'n bo'lmay arralay boshlash xatardan xoli emas, buning ustiga qilinadigan ish ham hazilakam emas edi.

Shunday qilib padre ham uni qochirib yubormoqchi bo'ldi! U shu tilagi bilan padrega juda ham o'xshaydi. Lekin So'na hech vaqt rozi bo'lmasdi. Boshqa hamma narsaga ko'nsa ko'nadiki, zinhor bunga yo'q! Agar qochsa, faqat o'rtoqlarining yordami bilan qochadi. Cherkov kishisidan madad tilamaydi.

Muncha issiq! Momaqaldiroq bo'lsa kerak. Havo ham bir vazmin, dim. So'na yaralari bog'langan o'ng qo'lini boshiga yostiq qilib, poxol to'shagida besaranjomlik bilan ag'darilar edi. Keyin qo'lini chiqarib oldi. Qo'li biram o't bo'lib yonmoqda! Zirqirab og'rigani-chi! Eski yaralari ham jon olguvchi bir azob bilan og'riy boshladi... U yaralarga nima bo'ldi-ya?.. O, bu qanday bema'ni fikr. Havoning buzuqligidan, momaqaldiroq oldidan shunday bo'layapti, xolos. Arralashga tushishdan avval biroz uxbab, hordig'ini chiqarib oladi.

Sakkizta temir – hammasi ham yo‘g‘on, mahkam! Arralamaganidan yana qancha qoldi ekan? Oz qoldi shekilli! Axir ancha vaqtdan beri, intihosiz uzoq vaqtdan beri arralayotgandirki, qo‘li shunday og‘riyotgandir. O, qanday yomon og‘riyapti! Hammayog‘i, butun suyagigacha zirqirab og‘riyapti! Ishdan shunchalik og‘rishi mumkinmikan, ajabo? Oqsoq oyog‘idagi sanchib, jon olishga qasd qilib turgan og‘riqchi... Nahotki bu ham arralash orqasida bunyodga kelgan bo‘lsa? So‘na o‘midan irg‘ib turib ketdi. Yo‘q, uxlagini yo‘q u! Faqat ko‘zlar ochiq holda tush ko‘rdi, arralayotgan bo‘lib tush ko‘rdi, panjara esa hali boyagiday tegilmagan. Ana, oynaning orqasida har qachongidek mahkam, metin bo‘lib ko‘rinib turibdi. Uzoqdagi minoralardan birida soat o‘nga jom urdi. Endi ishni boshlash kerak.

So‘na eshik tirqishidan mo‘ralab, o‘zini hech kim poylab turmaganini ko‘rgach, qo‘yniga berkitib qo‘yilgan arrachalardan birini oldi.

\* \* \*

Yo‘q, u soppa-sog‘, unga hech nima bo‘lgani yo‘q! Bularning hammasi bir xayolgina. Biqinidagi og‘riq oshqozonining buzilgani, shamollab qolganmi yo shunga o‘xhash biron narsa orqasida paydo bo‘lgandir. Ko‘ngilni ozdiruvchi turma sharoitida, uning sassiq havosida uch hafta turgan kishining shu ahvolga tushishiga ajablanmasa ham bo‘ladi. Butun vujudida lo‘killab turgan og‘riqqa va tomirining tez-tez urishiga – qisman asab buzilganligi, qisman hayot turg‘unligi sabab bo‘lsa kerak. Ha, ha, xuddi shunday! Hamma ayb qimir etmay o‘tirishida – hayot turg‘unligida. Qanday nodonlikki, avval shuni o‘ylab ko‘rmabdi!..

Endi biroz jim o'tirish kerak. Shunday qilsa, og'rig'i bosiladi, keyin ishga tushadi. Bir-ikki daqiqadan so'ng hamma og'riq tugaydi.

Indamay o'tirish yomon ekan. O'tirganda, og'riq haddidan oshib, qiyab tashlar ekan. Dahshatning kuch-liligidan yuzi oppoq oqarib ketdi. Yo'q, turish, ishga kirishish kerak. Butun og'riqni quvish kerak. Og'riqni sezish-sezmaslik – irodasiga bog'liq: sezishni xohlamasa, og'riq ham bosiladi.

So'na tag'in o'midan turib, qattiq va aniq tovush bilan o'ziga:

– Kasal emasman. Kasal bo'lishga vaqtim yo'q. Men panjaralarни arralashim kerak, kasal bo'lib qolishim to'g'ri kelmaydi, – dedi.

Ana shundan keyin arralay boshladи.

Soat o'n-u chorak, o'n yarim, chorak kam o'n bir... Arraladi, arraladi... va har gal arra ziringlab temirga tekkanda, unga kimdir vujudini, miyasini arralayotganday tuyilib bordi. U o'z ichida istehzo bilan kulumisirab: «Kim oldin arralanarkan: menmi yo panjarami?» derdi. U tishlarini tishlariga qo'yib, g'ijinib, arralayverdi.

Soat o'n bir yarim. Qo'li shishib, tayoqday qotib, arrani ushlayolmaydigan bo'lib qolsa ham arralar, hamon arralar edi. Yo'q... Ishni ham to'xtatolmaydi, ham dam ololmaydi: mabodo qo'lidan bu la'natি qurolni chiqarguday bo'lsa bormi, – tamom, – yana unga qo'l urishga yuragi betlamaydi.

Eshik orqasidan qorovulning oyoq dupuri eshitildi, keyin miltig'ining qo'ndog'i eshik kesakisiga urildi. So'na ishini to'xtatdi-da, arrani qo'lidan chiqarmay, yalt etib eshik tomonga qaradi. Nahotki bilib qo'yishgan bo'lsa?

Eshik tirqishidan tashlangan yumaloq bir narsa kamera poliga popillab tushdi. So'na arrani bir yoqqa qo'yib, haligi

narsani olgani engashdi. U turmaklangan bir parcha qog'oz edi.

\* \* \*

Tushish nechog'lik cho'zildi, tevaragidan esa qora to'lqinlar urib turdi... naqadar savab turdi!

— Ha-ya! Poldagi qog'ozni olgani engashgan edi, atigi boshi ozgina aylandi xolos. Engashganda hamisha shunaqa bo'ladi. Aytarlik bir nima bo'lgani yo'q. Hech nima bo'lgani yo'q.

U qog'oz soqqani yerdan oldi, yorug'ga keltirib, yaxshilab yoydi.

«Har nima bo'lsa ham bugun kechasi keling. Chigirtkani ertaga boshqa yerga ko'chirishadi. Bugun eng so'nggi fursat».

So'na bu qog'ozni ham avvalgisiday yo'q qilib tashladi; keyin arrachasini olib, qattiq sabot, dahshatli bir sukul bilan yana ish boshladи.

Tun, soat bir. Uch soatdan beri ishlayotir, panjaraning sakkiz temiridan oltitasini arralab bo'ldi. Tag'in ikitasi bor, undan keyin tushsa bo'ladi.

U dardi qattiq tutgan paytlarni eslay boshladи. Eng so'nggi marta yangi yil oldida tutgan edi. O'sha besh kechani eslab, butun vujudi titrab ketdi. Lekin u vaqt qo'qqisdan tutgan emasdi.

So'na arrachani tushirib yubordi, ikkala qo'lini ixtiyorsiz yuqori ko'tardi va dahriylik ko'chasiga kirgandan beri birinchi marta lablaridan ibodat so'zlari uchdi. U jonzahdi bilan ibodat qildi, fazoga yuzlandi — ayrim bir kishiga emas, olamdagи hamma narsaga qarab munojot qildi.

«Bugun emas! Mayli, ertaga og'riy! Ertaga boshimga har nima tushsa chidayman, lekin bugun emas!»

U chekkalarini qo'llari orasida qisib, bir daqiqagini jim turdi. Keyin arrachani olib, yana ishga tushdi.

Soat bir yarim. Oxirgi temirga qo'l urdi. Ko'ylagining yenglari hilvirab yirtildi; lablariga qon chiqdi, ko'z o'ngini qonli tuman oldi, peshonasidan do'lday ter oqdi, u esa arralar, arralar, arralardi...

\* \* \*

Montanelli faqat tong yorishgandagina uxladi. Uyqusiz o'tgan kecha uni juda yomon qiynab tashlagan edi, shuning uchun bir qancha muddat tinch uxladi. Keyin tushiga har nimalar kira boshladi.

Uyqusining avvalida xira, chigal tushlar ko'rdi; biri-biridan taajjub but siniqlari ketma-ket quvishib, to'polon qilishib uchib o'tishdi. Bu tushda g'alati bir dahshatning azobi, kurashi va soyasi ko'rinish turardi. Keyin tushiga uyqusining kelmagani kirdi – uni uzoq yillar davomida azoblab kelayotgan eski, dahshatli, tanish uyqusizlikni ko'rdi. Garchi bu narsalarni tushida ko'rib turgan bo'lsa ham, lekin tushiga birinchi marta kirmayotganligini sezар edi.

Yotib biroz mizg'ib olish uchun kattakon sahrodan xoli joy axtarib yurgan emish. Hammayoqda odamlar qaynashib yotibdi, bir-biri bilan valaqlashadi, kulishadi, qichqirishadi, ibodat qilishadi, jom chalishadi, temir asboblarni urib dang'illatishadi. Montanelli ulardan nari ketadi, shovqin-surondan uzoqlashadi, goh ko'katlar ustiga, goh o'rindiqqa, goh yapaloq toshga yotib oladi. Ko'zlarini yumadi, yorug' xalal bermasin deb qo'llari bilan berkitadi, keyin o'ziga: «Endi uxlayman», deb aytadi. Lekin olomon yana baqirib-chaqirib, faryod qilib yetib keladi. Uni otini aytib chaqirishadi, «Uyg'oning, uyg'oning tezroq, bizga keraksiz!» deb qichqirishadi.

Ana endi yasog'liq, hashamatli xonalar bilan to'lib-toshgan azamat saroya kelib qoldi; xonalarning hammayog'ida karavotlar, divanlar, past, yumshoq supalar.

Asta-sekin kech kiradi, u o'ziga: «Xayriyat, endi bu yerdan tinch joy topib, bahuzur uxlab olaman», deydi. Axiri qorong'i bir uyni tanlab yotadi, lekin bu yerga ham chiroq ko'tarib kirishadi; o'tkir yorug' ko'zlariga uradi, kimdir qulog'i ustida: «Turing, sizni chaqirishayapti!» deb qichqirishadi.

U o'midan turadi-da, ular darajasida yaralangan jonivorday har qadamda qoqinib, taypanglab yurib ketadi. Soat birga jom uradi, u kechaning yarmi o'tganligini biladi. Bebaho qisqa kechaning yarmi-ya! Ikki, uch, to'rt, besh... Soat otilarda butun shahar uyg'onadi, jimlik dam shu bilan tamom bo'ladi.

Endi boshqa bir xonaga kiradi-da, karavotga endi yotmoqchi bo'lib turganda, birov yostiqlardan boshini ko'taradi-yu: «Bu mening karavotim!» deb qichqiradi. Montanelli yuragida chuqur alam bilan nari ketadi.

Soat ketidan soat o'tadi, u bo'lsa xonama-xona, yo'lakma-yo'lak, uyma-uy sarson bo'lib yuraveradi. Tong ham yorisha boshlaydi. Yaramas kulrang yorug' hamon biqinib kelayotir. Soat beshga jom urdi. Tun o'tdi, u esa oromini topolmadi. O, naqadar og'ir kulfat! Yana bir... yana bir kun!

Endi u gumbaz shaklida qurilgan nihoyatda uzun, past yer osti yo'liga kirib qoladi. Butun yo'lak yashin kabi yorug' chiroqlar va qandillar bilan yoritilgan, panjarali shipdan esa odamlarning kulgisi, muzika sadosi, o'yin sharpasi eshitilib turadi. Tepada, uning boshi ustida, tirik kishilar dunyosida allaqanday to'y-tomoshalar bo'layotganga o'xshaydi. O, dunyo g'avg'olaridan qochib, yashiriqcha uxlab oladigan biron joy topilsa! Eng kichik joy bo'lsa ham, go'r bo'lsa ham mayli edi! U shu so'zlarni ayta turib, go'r labiga qoqinib ketadi. Go'rdan o'lik va mog'or didi anqiydi. O, bu qanday sho'r? Mayli, ishqilib, uxlab olsa bo'lgani.

— Bu mening go'rim! — deydi Gledisning ovozi, qichqirib. Gledis kallasini ko'taradi-da, chirib, irib ketgan kafandan boshini chiqarib, unga olayib qaraydi.

Montanelli tiz cho'kib, unga yolvorib qo'l cho'zadi.

— Gledis! Gledis! Hech bo'lmasa menga jinday rahming kelsin! Ruxsat et emaklab kiray, yonginangdagi bo'sh joyga yotib u xlabel. Sendan sevgi, muhabbat tama qilmayman. Hech yeringga qo'l urmayman, senga gap ham gapirmayman. Ruxsat et yonginangda yotib xlabel olay! Azizim, ko'p vaqlardan beri uyqu nimaligini bilmayman! Endi bir kun ham chiday olmayman. Yog'du jonimni kuydiradi, shovqin miyamni kulga aylantiradi. Gledis, ruxsat et go'ringga kirib, xlabel!

Montanelli uning kafani bilan o'z ko'zlarini yopmoqchi bo'lganda Gledis o'zini tortib, dahshat ichida:

— Bu ishing gunoh! Sen axir ruhoniysan! — deb qichqiradi.

Ana shundan keyin u yana yo'lida davom etadi-da, borib-borib bir dengiz qirg'og'idan, nihoyat o'tkir yorug' tushib turgan yalang'och cho'qqilar yonidan chiqadi. Suv tinchlik tilab, sekin-sekin zorlanib ingraydi.

— O, dengiz menga rahm qiladi! — dedi u. — Axir uning o'zi ham o'lguday charchagan, xlabelmay garang bo'lgan.

Ana shunda dengiz tubidan Artur ko'tarilib chiqadi-da, ovozining boricha qichqiradi:

«Dengiz meniki!»

\* \* \*

— Hazratim! Hazratim!

Montanelli birdan uyg'ondi. Eshikni taqillatishayotgan edi. Ixtiyorsiz o'rnidan turib borib eshikni ochdi. Uni uyg'otgani kelgan xizmatkor parishon chehrasini ko'rib:

— Hazratim betobmilar? — dedi.

Montanelli qo'lini peshonasiga qo'ydi.

- Yo‘q. Uxlab yotgan edim, cho‘chitib yubordingiz.
- Kechirsinlar, janob hazratlari. Tongotar paytda yurgan ekanlar, men o‘ylabmanki...
- Soat necha bo‘ldi.
- To‘qqiz. Polkovnik keldi, janoblarini ko‘rmoqchi emish. U janoblariga juda muhim xabar keltirgan emish, shuning uchun hazratimning barvaqt turishlarini bilganim tufayli...
- Meni pastda kutib turibdimi? Hozir tushaman. Montanelli kiyinib, pastga tushdi.
- Hazratimning huzurlariga mana shunday bemahal kelib, odob tariqatini buzdimmni deb qo‘rqaman... — deb polkovnik gap boshlagan edi, Montanelli gapini cho‘rt kesib qo‘ydi:
  - Harnechuk, olam tinchdir?
  - Muhim bir voqeа sodir bo‘ldi: Rivaresning qochib ketishiga oz qoldi.
  - Oz qolgan bo‘lsa, demak, hech gap bo‘lmabdi. Xo‘s, nima deysiz?
  - Uni hovlidan, temir darcha yonidan topishibdi. Kechasi soat uchda qorovullar hovlini aylangani chiqishgan ekan, soldatlardan biri yerda yotgan allanimaga qoqinib ketibdi. Ko‘tarishib, yoruqqa olib kelib qarashsa, Rivares ekan. Hushidan ketibdi-yu, darcha yonida, yo‘lda ko‘ndalang bo‘lib yiqilib qolibdi. Darhol bong urishib meni uyg‘otib chiqishdi. Borib kamerasini qarasam: panjaraning hamma temiri arralangan, derazada esa ich ko‘ylakdan yirtib eshilgan arqon osilib turibdi. Ana shunga osilib tushgan-u, devor tagi bilan emaklab borib olgan. Yer osti yo‘lga kiriladigan temir darchaning qulfi ochib qo‘yilibdi. Bu narsa qorovullarning sotib olinganini ko‘rsatadi.
  - Qanday qilib darcha yoniga borib qoladi! Devordan yiqilib, mayib bo‘lganmi o‘zi?

— Men ham ilgari xuddi shunday deb o‘ylagan edim, lekin turma doktori yiqilganligining hech qanaqa nishonasi yo‘q, dedi. Kecha uning yonida qorovullik qilgan soldat kechqurun ovqat olib kirganda Rivaresning juda betob ko‘ringanligini, hech nima yemaganligini aytdi. Lekin bunday bo‘lmasa kerak. Kasal kishining shuncha panjarani arralashi, devordan emaklab borishi hech aqlga sig‘maydigan narsa! Bo‘limgan gap.

- O‘zi nima deydi?
- Behush yotibdi, hazratim.
- Haligacha-ya?
- Ba’zi-ba’zida biroz hushiga ham keladi shekilli, voy-voylab, yana o‘zidan ketib qoladi.
- Juda qiziq. Doktor nima deydi?
- Bir nima deyishga hayron. Yuragida dard borligini ko‘rsatadigan biron nishona topolmapti, bo‘lmasa kasalning ahvolini shu narsa bilan izoh qilish mumkin edi. Dardi qanaqa dard bo‘lmasin, ishqilib, shunisi ayonki, qochib ketay-ketay deganda o‘sha dardi tutib qolgan. Menga qolsa, men uni parvardigori olamningadolatli qo‘li yiqitdi deb o‘ylayman.

Montanelli qovog‘ini solib oldi.

- Endi nima qilmoqchisiz uni? — deb so‘radi kardinal.
- Bu masala yaqin kunlarda hal bo‘ladi. Hozircha — bu narsa menga yaxshigina saboq bo‘ldi. Kishanni olib tashlashning oqibati shu bo‘ldi, kechirsinlar meni, hazratim.
- Umid qilamanki, — deb Montanelli uning so‘zini bo‘ldi, — kasaldan tuzalmaguncha, loaqal, kishanga solmay turarsiz. Uning ahvoliga tushib qolgan kishi yana qochishga hech qachon harakat qilmasa kerak.

«Boshqa qochmaydigan qilishning g‘amini o‘zimiz yeymiz-da, — deb ping‘illadi polkovnik, chiqib keta turib. — Menga desa hazratimning odamoxunligi bo‘g‘iziga suyak

bo‘lib tiqilmaydimi! Menga baribir. Rivares hozir kishan bilan chambarchas bog‘lab tashlangan, kasal bo‘lsa ham, sog‘ bo‘lsa ham, baribir, endi kishandan bo‘shatmayman».

\* \* \*

— Bu qanday bo‘ldi-ya? Hamma narsa taxt bo‘lganda, darchaga yetib qolganda, so‘nggi daqiqada birdan hushidan ketib qolsa-ya! Juda kelishmagan, qo‘pol hazilday bir gap!

— Meningcha, — deb Martini gap qotdi, — bittagina taxmin bor, u ham bo‘lsa: dardi tutib qolgan-u, unga qarshi kuchi yetguncha kurashgan, hovliga tushgandan keyin esa madori qurib, behush yiqilgan.

Markone chubug‘idagi kulni g‘azab bilan qoqishga kirishdi.

— Nima bo‘lgan bo‘lsa ham bo‘ldi, endi ish tamom, bundan keyin unga hech qanday yordam qilolmaymiz. Bechora!

— Bechora! — deb Martini past ovoz bilan takrorladi. U So‘na g‘oyib bo‘lgan dunyoning o‘zi uchun ham bo‘shab, huvullab qolganligini sezdi.

Jemma xonaning narigi burchagida o‘zi yolg‘iz o‘tirgan edi; kontrabandist o‘scha yoqqa ko‘zi bilan ishora qilib:

— U kishi nima deydi? — deb so‘radi.

Jemmaning qo‘llari tizzalarida qimirlamay yotar, ko‘zlar esa hech nimani ko‘rmasa ham, ro‘parasiga tikilib turardi.

— So‘raganim yo‘q. Voqeani eshitgandan beri churq etgani yo‘q. Hozir bezovta qilmay qo‘ya qolaylik.

Jemma ularning borligini sezmayotganday ko‘rinardi; shunday bo‘lsa ham ikkovlari, xuddi uyda o‘lgan odam yotgandek, pichirlashib gaplashardilar. Yuraklarni ezuvchi jimlikning bir necha daqiqasi o‘tdi. Markone o‘rnidan turib, chubug‘ini cho‘ntagiga soldi.

— Kechqurun kelaman, — dedi u.

Martini uni qo'l harakati bilan to'xtatdi.

– Ketmay turing: sizga aytadigan gapim bor. – Martini ovozini tag'in ham pasaytirib, qariyb bir shipshi bilan davom etdi: – Shunday qilib, endi hech umid yo'q deb o'ylaysizmi?

– Qaydam, yana qanaqa umid bo'lar ekan. Qochiramiz deb yana unnab ko'rolmaymiz, iloji yo'q. U o'zining zimmasiga tushadigan ishni bajarishga qurbi yetadigan darajada sog' bo'lganda ham, biz o'z zimmamizga tushadigan ishni bajarolmaymiz. Hozir qorovullarning hammasini So'naga xayrixoh deb almashtirishyapti. Shuning uchun Chigirtka qal'aga yana qaytib borolmaydi – bu to'g'rida ko'nglingiz to'q bo'laversin.

– Tuzalib ketgandan keyin qo'riqchilarning diqqatini boshqa yoqqa jalb qilib turib, qutqazib yuborolmasmikanmiz, shunga nima deysiz? – deb Martini birdan so'rab qoldi.

– Qo'riqchilarning diqqatini boshqa yoqqa jalb qilib turib? Xo'sh, bu so'zingiz bilan nima demoqchisiz?

– Miyamga mana shunday bir fikr kelib qoldi: Corpus Domini<sup>1</sup> bayrami kunida marosimchilar qal'a yonidan o'tadilar; ana shunda birdan polkovnikning yo'lini to'sib chiqsam-u, yuziga qarab o'q uzsam, – qo'riqchilarning hammasi menga tashlanar, o'rtada qiyomat to'polon chiqar edi; ana shu to'polon paytida siz o'rtoqlaringiz bilan uni qutqarib chiqardingiz. Bu hali-beri reja emas, hozirgina miyamga kelgan bir fikr xolos.

– Bunday qilish qo'limizdan kelarmikan, – dedi Markone, g'oyat jiddiy bir ohangda. – Muvaffaqiyatga ko'z tutadigan bo'lsak, buni oldin yaxshilab o'ylab olishimiz kerak, albatta. Bordi-yu... – u to'xtab, Martinga qaradi, – bordi-yu, shu narsalar qo'limizdan keldi

<sup>1</sup> *Corpus Domini bayrami kuni* – katolik mazhabining eng hashamatli bayramlaridan biri bo'lgan «Iso tani bayrami».

ham deylik, u holda polkovnikni otishni zimmangizga olarmidingiz?

— Zimmangizga olarmidingiz deysizmi? — deb Martini qaytarib so‘radi: — Ana, Jemmaga qarang!

Boshqa izohga ehtiyoj qolmadı. Shu so‘zlar bilan hamma narsa aytilgan edi. Markone Jemmaga o‘girilib qaradi.

Gap boshlangandan beri Jemma qimirlamay o‘tirar edi. Chehrasida na shubha, na qo‘rquv va na iztirob — o‘lim soyasidan boshqa hech nima yo‘q. Kontrabandist unga qaradi-yu, ko‘zları jiqla yoshga to‘ldi.

— Tez bo‘ling, Mikele, — dedi u ayvon eshigini ocha turib. — Holdan toymagan faqat ikkovingiz qoldingiz xolos. Hali ishlarimiz qalashib yotibdi.

Mikele oldinda, Jino orqada ayvonga chiqdilar.

— Men tayyorman, — dedi Mikele. — Men faqat sinoradan so‘rab olmoqchi edim...

U Jemmaning oldiga qaytib kirmoqchi bo‘lgan edi, Martini yengidan tortib qoldi.

— Uni bezovta qilmang. Yolg‘iz o‘tirgani yaxshi.

— Qo‘ying uni o‘z holiga, — deb Markone ham Martiniga qo‘sildi. — Biz beradigan tasallidan foyda chiqmaydi! Parvardigor ko‘rib turibdi: hammamizga ham qiyin. Lekin u bechoraga hammadan ham og‘irroq.

### Beshinchchi bob

**S**o‘na bir hafta rosa og‘ir ahvolda yotdi. Dardi nihoyat darajada qattiq tutdi. Vahima orqasida butunlay yirtqich tusiga kirib olgan polkovnik esa kasal yotgan So‘naning oyoq-qo‘liga kishan solish bilan kifoyalananmasdan, uni koykasiga qayish bilan ham bog‘latib tashladi. Qayishni shunchalik tarang qilib tortishdiki, qimir etsa badaniga

botib azob berar edi. Oltinchi kunning oxirigacha odatdag'i bahaybat o'jarligi bilan chidab keldi. Keyin g'ururi astasekin sinishga yuz burdi: turma doktoridan kuchli dori berishni yig'lab yuborguday bo'lib iltimos qildi. Doktor jon-dili bilan rozi bo'ldi-yu, lekin polkovnik uning iltimosini eshitib, «bunday injiqlikka» qat'iy ruxsat bermadi.

— Unga kuchli dori kerakligini siz qayerdan bilasiz? — dedi u. — Shuncha vaqtadan beri o'zini kasalga solib kelayotgan bo'lsa ham ajab emas, undan keyin qorovulga berib mast qilib qo'yishi yo shunga o'xhash biron nayrang qilishi ham ehtimoldan uzoq emas. Hiyla-nayrangi to'lib-toshib yotibdi.

— Agar ozgina o'Ichovda bersam, u bilan qorovulni uxlatib bo'pti, — doktor qistayotgan tabassumini bosishga qurbi yetmay, ana shunday javob qildi. — Hiyla-nayrangi kelsak, bundan qo'rmasa ham bo'ladi. Hozir bir oyog'i go'rda turibdi.

— Menga desa ikki oyog'i ham turmaydimi, baribir, kuchli dori berishga ruxsat etmayman. Boshqalardan muloyim muomala kutgan kishi avval o'zini odamshavanda qilib tutsin. U o'z qilmish-qidirmishi bilan ancha qattiq choralar ko'rilishiga sazovor bo'ldi. Ajab emas, bu saboq bo'lsa-yu, deraza panjarasiga ehtiyyotroq bo'lib qarashga o'rgatsa.

— Ammo qonun qiynoqqa yo'l qo'ymaydi-da, — doktor shunday ta'kid qilishga botindi, — siz aytgan «ancha qattiq choralar» qiynoqqa juda yaqin narsalar.

— Kuchli dori to'g'risida qonunda hech nima demagan bo'lsa kerak, — dedi polkovnik, achchig'i kelib.

— Ixtiyor o'zingizda, albatta, polkovnik. Lekin har holda, qayish kamarlarning yechib tashlanishiga ijozat etarsiz deb umid qilaman. Kamarlar tamoman ortiqcha, faqat mahbusning azobini orttiradi xolos. Endi qochib

ketadi deb qo'rqmasa ham bo'ladi. Kishanlarini olib tashlaganingizda ham oyoqlarida tik turolmaydi.

— Doktor ham, boshqa har qanday o'llim kishisiday, adashib qolishi mumkin. Uni mahkam bog'latib qo'ygan ekanman, bundan keyin ham shunday turaveradi.

— Hech bo'lmasa kamarlarini sal bo'shatterib qo'y-sangiz. Bunaqa tarang qilib bog'lab qo'yish — borib turgan vahshiylik axir.

— Qanday bog'langan bo'lsa, shunday qolaveradi. Binobarin, siz janobdan o'tinib so'raymanki, vahshiylik haqida menga minba'd gapira ko'rmang. Agar bir nima qilayotgan bo'lsam, bilingki, bejiz qilayotganim yo'q.

Shunday qilib, yettinchi kechada ham yengillik bo'lmadi. So'na kamerasingning eshigi oldida qorovul bo'lib turgan soldat mahbusning jon olguvchi oh-u zorlarini eshitib, kechasi bilan qaltirab, cho'qinib chiqdi. Axir sabri tugab bo'ldi.

Ertalab soat oltida, postdan ketish oldida, qorovul eshikni sekin ochib ichkari kirdi. U intizomni juda qattiq buzayotganligini bilsa ham, har holda, jabrdiydani bir-ikki og'iz do'stlik so'zları bilan yupatmasdan ketolmas edi.

So'na ko'zlarini yumib, og'zini xiyol ochib, qimir etmasdan yotgan edi. Soldat bir daqiqagina tepasida indamay turdi, keyin engashib so'radi:

— Menga ish-pishingiz yo'qmi, taqsir? Tezroq bo'ling, bir daqiqagina vaqtim qoldi xolos.

Mahbus ko'zlarini ochdi.

— Qo'ying meni, o'z holimga qo'ying, — deb ingradi u. Qorovul o'z o'miga yetib borguncha, u yana uxlab qoldi.

O'n kundan keyin polkovnik tag'in saroyga borgan edi kardinalning Peve d'Ottavoga kasal ko'rgani ketganini, oqshomdan erta qaytmasligini aytishdi.

Kechqurun polkovnik endi ovqatga o'tirganda, xizmatkori kirib:

— Kardinal hazratlari siz bilan gaplashmoqchilar, — dedi.

Polkovnik ust-boshining joyidami-yo'qligini ko'rish uchun o'zini darhol oynaga soldi-da, kerilib dahlizga chiqdi. Montanelli o'sha yerda kutib turgan edi. U kursi suyanchig'ini barmoqlari bilan tijirlatib, derazaga xayolchan boqib o'tirar, qoshlari orasida hayajon tirishi cho'zilib yotardi.

— Bugun meni yo'qlab borgan ekansiz, — dedi u, polkovnikning nazokat bilan berayotgan ta'zimini cho'rt kesib. Keyin dehqonlar bilan gaplashganida hech ko'rinxmaydigan amirona bir tusga kirib oldi. — Men siz bilan gaplashmoqchi bo'lib turgan masalada borgan bo'lsangiz ham ajab emas.

— Men Rivares masalasida borgan edim, kardinal hazratlari.

— Men ham shundaydir deb o'ylagan edim. Keyingi kunlarda uni juda ko'p o'yladim. Lekin bu haqda gapirishdan avval sizdan bilmoxchiman: balki, menga aytadigan biron yangi xabaringiz bordir?

Polkovnik biroz iymanib mo'ylovini siladi.

— Hali, hazratimning menga aytadigan gaplari bo'lsa, bilsam deb borgan edim. Taklif qilingan janoblari hali ham qarshi bo'lsalar, nima qilishim haqida maslahatlarini eshitsam, behad shod bo'lur edim: rostini aytsam, nima qilishimni o'zim ham bilmayman.

— Nima, yangi bir mushkullik paydo bo'ldimi?

— Kelasi payshanba kuni, uchinchi iyulda, Corpus Domini bayrami bo'ladi, shuning uchun bu masala o'sha kungacha albatta hal bo'lishi kerak.

— Ha, payshanba kuni Corpus Domini, bunisi to'g'ri. Lekin nima uchun masala o'sha kungacha hal bo'lishi kerak?

— Janoblariga qarshi vaziyatda turganday ko'rinyotganim uchun juda xijolatdaman, kardinal hazratlari,

shunday bo'lsa ham, Rivaresdan qutulmagunimizcha shahar tinchligining mas'uliyatini o'z zimmamga ololmayman. Kardinal hazratlariga ma'lumki, o'sha kuni tog' aholisining qariyb hammasi shu yerga yig'iladi. Zo'rlik bilan darvozani ochib, uni qutqazishga harakat qilinadi, – bu chtimoldan ko'ra haqiqatga yaqin narsa. Ammo qutqazisha olmaydi, buning g'amini barvaqt yeb qo'yaman; agar ularni o'q yog'dirib darvozadan quvish kerak bo'lsa, o'q ham yog'diraman. Xullas, shu kuni mana shunga o'xhash bir balo bo'ladi-da. Bu Romanyaning odamlari shunaqa beandisha, pichoq qo'lga kirdimi...

– Ishni pichoqqa yetkazmaslik chorasi ko'rsa bo'lar deb o'ylayman. Tuzuk muomala qilinsa, bu yerning odamlari bilan yaxshi chiqishsa bo'ladi, degan ishonchdaman. Albatta, romanyali odamga ters muomala qilinsa yo do'q urilsa, mutlaqo chophonini teskari kiyib oladi. Shoshmang, Rivaresni yana qutqazishga urinishadi deb aytishga qanday dalilingiz bor?

– Ishonchli agentlarimdan kecha ham eshituvdim, bugun ertalab ham eshitdim: viloyatda juda xunuk mish-mishlar tarqalib yuribdi, yomon bir narsa tayyorlanayotganga o'xshaydi. Lekin nima qilinayotganini aniq bilib bo'lmaydi. Bilganimizda, ehtiyyot chorasi ko'rish osonroq bo'lar edi. Endi menga kelsak, so'nggi hodisadan keyin qadamimni mumkin qadar o'ylab bosishni afzal ko'rib qoldim.

– O'tgan safar Rivaresni juda qattiq kasal, qimirlamaydi ham, gapirmaydi ham degan edingiz. Bundan chiqdi, endi yaxshi bo'lib qolibdi-da?

– Chamamda, ancha tuzuk, kardinal hazratlari. Mu-g'ambirlik qilmagan bo'lsa, ahvoli juda og'ir edi.

– Chinakam og'riganiga gumoningiz bormi?

– Doktor kasalining chinligiga hech shubha qilmaydi, shunday bo'lsa ham, men sizga aytsam, kasali juda g'alati,

bir sir bordek. Har ikkala holda ham tuzalib borayapti; endi sira ham insofga keltirib bo'lmay qoldi.

– Nima qilayapti?

– Xayriyatki, qariyb hech nima qilmayapti, – polkovnik shu xil javob qildi-da, kamarni eslab, kulumisrab qo'ydi. – O'zini tutishini aytishga so'z topib bo'lmaydi. Bir necha savol beray deb, kecha ertalab kamerasiga kiruvdim. Mening oldimga kelib tergov berishga hali majoli yetmaydi. Undan keyin, yaxshilab tuzalib ketmaguncha, begona odamlar ko'rmay turgani ham ma'qul. Ko'rishi xavfli ham, nimagaki darrov bo'lmag'ur gaplarni tarqatishadi.

– Shunday qilib, kamerasiga tergov qilgani bordim deng?

– Ha, shunday bo'ldi, kardinal hazratlari. Burniga suv kirgandir deb o'ylovdim-da.

Montanelli suhbatdoshiga umrida hech ko'rmagan jirkanch bir hayvonni o'rganayotgan kishi ko'zi bilan qarab qo'ydi.

Yaxshiyamki shu payt polkovnik portupeyясini tuzatayotgan edi, hech narsani sezmay, gapini bemalol davom etiraverdi:

– Men hech qanday favqulodda chora ko'rmadim, faqat muomalani biroz qattiqroq qilib qo'yishga majbur bo'ldim, nimaga desalar, bizning turmamiz harbiy turma. Avval muomalani qattiq qilib, keyin biroz bo'shatilsa, yaxshi natija berar deb umid qilgan edim. O'zini odob doirasida tutishga ko'nsa, muomalani ancha yumshatishni taklif qilgan edim, nima javob berdi deb o'ylaydilar hazratim. Avval menga, qopqonga tushib qolgan bo'riday, yeb yuborgisi kelib qaradi, keyin hovliqmasdan, o'pkasini bosib turib: «Polkovnik, sizni bo'g'ib o'ldiray desam – turolmayman, lekin tishlarim ancha o'tkir. Bo'g'izingizni nariroq olib boring», dedi. Yovvoyi mushuk singari odamga elikmaydi.

Montanelli vazmin javob qildi:

– Bu narsalar meni aslo ajablantirmaydi. Sizga bitta savolim bor. Rivaresning shu yerdagi turmada saqlanishi viloyat tinchligi uchun jiddiy xavf tug'diradi deb chin qalbingizdan ishonasizmi?

– Chin qalbimdan ishonaman, kardinal hazratlari.

– Qon to'kilishining oldini olish uchun Corpus Domini bayramigacha uni mutlaqo o'rtadan ko'tarib tashlash zarur deb o'ylaysizmi?

– Men faqat boyagi fikrimni takrorlayman: agar u payshanba kuni ham shu yerda qolsa, bayram to'polonsiz o'tmaydi; to'polon bo'lganda ham hazilakam bo'lmaydi.

– Demak, sizning fikringizcha, u bu yerdan yo'q qilinsa, xavf ham o'z-o'zidan tugaydi, shundaymi?

– U holda yo to'polon butunlay bo'lmaydi, yo bo'lgan taqdirda ham qichqirish-hayqirish-u, tosh otishdan nariga o'tmaydi. Basharti kardinal hazratlari undan qutulish chorasi topib bersalar, men bu holda to'polon chiqartirmaslik uchun hamma javobgarlikni zimmamga olaman. Aks holda jiddiy hodisalar bo'ladi – men bunga ishonaman. Uni qutqazishga yangidan tayyorgarlik ko'rileyotgandir; ular, bo'lsa-bo'lmasa, payshanba kuni qutqarishga urinib ham ko'rishar shunday qilishlariga men mutlaqo ishonaman. Rivaresning qal'ada yo'qligini bilishsachi, rejalar o'z-o'zidan bekor bo'ladi-qoladi. Bordi-yu, qal'ani himoya qiladigan bo'lsak, olomon ichida pichoqbozlik boshlanadi-da, kechga yetmay shaharning to's-to'poloni chiqadi.

– Bo'lmasa nega uni Ravennaga ko'chirib qo'ya qolmaysizlar?

– Xudo ko'rib turibdi, kardinal hazratlari, menga qolsa jon-jon deb ko'chirar edim! «Lekin yo'lda qutqazishga urinishsa, qarshi turib bo'lmaydi. Qurolli hujumni qaytarishga yetgulik soldatim yo'q, tog'liklarda esa yo

pichoq, yoki chaqmoqli miltiq, yo bo‘lmasa shularga o‘xshash bir balo bor.

– Gapingizning mazmunidan hali ham harbiy sudga berish talabingizda mahkam turganga o‘xshaysiz va bunga mening rizoligimni istaysiz, shundaymi?

– Kaminani ma’zur ko‘rsinlar hazratim, janoblariga bittagina iltimosim bor, u ham bo‘lsa: to‘polonning va qon to‘kilishining oldini olish uchun kaminaga yordam bersalar. To‘g‘ri, polkovnik Freda singari kishilar raisligidagi harbiy-dala sudlari ba’zi mahallar bekordan qattiqqo‘llik qilib, xalqni tinchitish o‘rniga g‘alayonga keltirgan, men buni inkor qilmayman. Lekin bu masalada harbiy sud bema’ni bir tadbir, oqibat e’tibori bilan esa katta shafqat ham bo‘lur edi. Harbiy sud boshdan oyoq baxtsizlikdan iborat bo‘lgan va papa hazratlari bekor qilgan harbiy-dala sudlarini yana qaytadan tiklash zaruratini tug‘diradigan to‘polonning oldini olgan bo‘lishardi.

Polkovnik qisqa nutqini katta tantana bilan tugatib, kardinalning javobini kutdi. Uzoq kutdi, javob esa kutilmagan mazmuni bilan uni hayron qoldirdi.

– Polkovnik Ferrari, xudoga ishonasizmi?

– Kardinal hazratlari! – polkovnik hayajoni bo‘lib, kesib turgan bir tovush bilan g‘udrandi.

Montanelli o‘rnidan turayotib va sinovchi ko‘zlar bilan tikilib turib, yana bir marta so‘radi:

– Xudoga ishonasizmi?

Polkovnik o‘rnidan turib ketdi.

– Kardinal hazratlari, men xristianman, shu kunga qadar hech kim tavbalarimni qabul qilishdan bosh tortgan emas.

Montanelli ko‘kragidagi butni ko‘tardi.

– Gapingiz rost bo‘lsa, yo‘limizda shahid bo‘lgan hazrati Isoning buti bilan qasamyod eting.

Polkovnik o'zini yo'qotib qo'ydi, kardinalga tikilib qimir etmay turib qoldi. Ikkovlaridan qaysi biri – o'zimi yo kardinalmi aqdan ozganligini bilolmay hayron edi.

– Bir odamning o'limi uchun mendan rizolik so'radingiz, – dedi Montanelli, so'zini davom ettirib. – Agar vijdoningiz yo'l qo'ysa, mana bu butni o'ping-da, qon to'kilishining oldini olish uchun bundan boshqa chorangiz yo'qligini yana bir karra aytинг. Zinhor unutmang: agar yolg'on aytsangiz, o'lmas ruhingizni halok etasiz.

Har ikkalasi ham bir necha zum jim turdi, keyin polkovnik egilib, butni lablariga bosdi.

– Boshqa choram yo'q, – dedi u.

Montanelli sekin o'girilib, chiqib keta boshladi.

– Aniq javobimni ertaga aytaman. Ungacha Rivaresni ko'rib, alohida gaplashib olishim kerak.

– Kardinal hazratlari... ijozat buyursalar, bir maslahat bor edi... keyin pushaymon yeb qolarmikanlar janoblari. Ha, darvoqe, hazratimni ko'rgisi kelganligini kecha aytirgan ekan, inobatsiz qoldirdim chunki...

– E'tiborsiz qoldirdim! – deb takrorladi Montanelli. – Shunday ahvolda yotgan bir kishi murojaat qildi-yu, siz murojaatini bee'tibor qoldirasiz!

– Ko'p afsuski, hazratim xafa bo'ldilar. Uning dag'al so'zlarini eshitib, hazratim bezovta bo'lmay qo'ya qolsinlar devdim. Rivaresni hozir ipidan-ignasigacha bilaman, unda hazratimni haqorat qilishdan boshqa hech qanaqa tilak yo'qligiga aminman. Ijozat etsalar, hazratimni ogohlantirib qo'ysam: uning oldiga qorovulsiz borish nihoyatda xatarli. Shu darajada xatariiki, ba'zi ehtiyot choralar ko'rishni zarur topdim, albatta, muloyim, yumshoq choralar...

– Og'ir yotgan kasal oldiga, ya'ni siz «anchagina muloyim, yumshoq ehtiyot choralar ko'rib qo'ygan» quolsiz bir kishining yaqiniga borishni hali chindan ham xatarli deb o'ylaysizmi?

Montanelli vazmin gapirgan bo'lsa ham, polkovnik gap ohangida yashirinib yotgan nafratni sezib, yuzi g'azabdan qip-qizarib ketdi.

— Hazratim ma'qul ko'rganlarini qila oladilar, — dedi u, quruqqina qilib. — Janoblarini u xudobezorining gaplarini eshitmay qo'ya qolsinlar, devdim.

— Sizningcha, xristian uchun qaysi biri og'irroq: xudobezori gaplarni eshitishmi yo o'lim to'shagida yotgan odam bolasidan yuz o'girishmi?

Polkovnik rasmiy qiyofada, qotib, qaqqayib turar edi. Yuzi xuddi yog'ochdan yasalgandek bo'lib qolgan edi. Uni Montanellining muomalasi qattiq haqorat etdi, shuning uchun qiliqlarini haddan tashqari rasmiylashtirish yo'li bilan noroziligini bildirmoqda edi.

— Kardinal hazratlari mahbusni soat nechada ko'rmoqni istaydilar? — deb so'radi u.

— Hozir boraman.

— Ixtiyorim hazratimda. Odam yuborib mahbusni tayyorlatgunimcha, hazratim shu yerda biroz kutib tursalar qalay bo'larkan?

Polkovnik rasmiy martabasidan darrov pastga tushib oldi. Kamarlarni Montanelliga ko'rsatgisi yo'q edi.

— Tashakkur, men uni hech qanday tayyorgarliksiz, boricha ko'rmoqchiman. Hozir to'g'ri qal'aga boraman. Yaxshi qoling, polkovnik. Javobimni ertaga ertalab beraman.

### Oltinchi bob

**S**o'na kamerasining eshigi ochilayotganini eshitib, ko'zlarini sekin yumib oldi. U polkovnik yangi tergovi bilan jonimni sug'urib olgani kelayapti deb o'ylagan edi. Tor zinapoyada soldatlarning oyoq dupuri, miltiqlarning devorga urilib ziringlashi eshitilardi.

Keyin kimdir hurmat qilguvchi tovush bilan:

— Zinapoya juda tikda, hazratim, — dedi.

So'na seskanib oldinga sapchib ketuvdi, kamarlar badaniga botib og'ritib yubordi, ana shundan keyin bukchayib, zo'rg'a-zo'rg'a nafas ola boshladi.

Kameraga Montanelli, uning ortidan serjant bilan uchta soldat kirdi.

— Hazratim, biroz sabr qilsinlar, — dedi serjant, shunda uning ovozi qaltirab ketdi. — Hozir stul keltirishadi janoblariga. Odam yubordim. Ma'zur ko'rsinlar, hazratimning kelishlarini bilsak, tayyorgarlik ko'rib qo'yardim.

— Tayyorgarlik ko'rishning keragi yo'q edi, serjant. Marhamat qilib, meni mahbus bilan yolg'iz qo'ysangiz. Meni pastda kutib turinglar.

— Xo'p bo'ladi, hazratim. Mana, stulni ham olib kelishdi. Mahbus yoniga qo'yaymi?

So'na ko'zları yumuq yotsa hamki Montanellining nazarini sezib turdi.

— Uxlayapti shekilli, hazratim... — deb serjant gap boshlagan edi, So'na ko'zini ochib qoldi.

— Yo'q, uyg'oqman, — dedi u.

Soldatlar o'girilib, endi chiqib ketishmoqchi bo'lib turganlarida, ularni Montanelli nidosi to'xtatdi.

Montanelli mahbus tepasida egilib, kamarlarni ko'rmoqda edi.

— Kim buyurdi bog'lab tashlashni? — deb so'radi u.

Serjant hurmat bajo keltirdi.

— Boshliq buyurdi, hazratim.

Montanelli:

— Men bu narsadan bexabar ekanman, sinor Rivares, — degan edi, ovozida chuqur mung yangrab ketdi.

So'na odatdag'i ters kulumsirashi bilan kulumsidi.

- Boshimni silab qo‘yarlar deb kutmaganligimni hazratimga b-b-bir qur aytuvdim, shekilli.
- Buyruq qachon berildi, serjant?
- Qochishga uringandan keyin, hazratim.
- Ikki haftadan oshdimi? Pichoq keltirib, kamarlarni darhol qirqib tashlang.
- Hazratim, ma’zur ko‘rsinlar, doktor ham yechib tashlamoqchi bo‘luvdi, polkovnik Ferrari ruxsat qilmadi.
- Darrov pichoq keltiring.

Montanelli ovozini ko‘tarmagan bo‘lsa ham, lekin yuzi g‘azabidan oppoq oqarib ketdi. Serjant cho‘ntagidan chalabizarini oldi-da, mahbus tepasida engashib, qo‘liga tortilgan qayishni kesa boshladi. Ammo eplayolmadi, ividiklik bilan qayishni yana beshbadtar tortib yubordi.

So‘na o‘zini mahkam tutish odatiga qarshi seskanib ketdi, keyin labini tishladi. Montanelli jadal ilgari yurdi.

- Kesishni bilmas ekansiz, menga bering pichoqni.
- A-a-a!

So‘na qo‘lini yoydi, ko‘kragidan esa yengillik tortganini bildirguvchi cho‘ziq nido chiqdi. Bir zumdan keyin Montanelli oyoqlarini ham bog‘ichdan bo‘shatdi.

– Serjant, kishanlarini chiqarib tashlab, mening oldimga keling: sizga gapim bor.

Montanelli deraza yoniga bordi-da, serjantning mahbus kishanlarini chiqarishiga indamay qarab turdi. U kishanlarni tushirib, Montanelli yoniga keldi.

– Endi, – dedi Montanelli, – shu orada bo‘lib o‘tgan hamma gapni oqizmay-tomizmay aytib bering.

Serjant savolni yana qaytarib aytishga majbur qilmadi, bilganlarini: So‘na kasalini, unga qarshi ko‘rilgan «intizom choralarini», doktorning aralashishidan, bir nima chiqmaganini bajonidil aytib berdi. Keyin so‘ziga shunday qo‘shimcha qildi:

– Polkovnik uni tergov berishga majbur qilish uchun jo‘rttaga qayishlarini yechtirmagan bo‘lsa kerak deb o‘layman, hazratim.

– Tergov berishga?

– Shunday, hazratim. O‘tgan kuni eshitsam: polkovnik agar u,— serjant So‘na tomonga shoshilib bir nazar tashladi, — javob berishga ko‘nsa, qayishlarni olib tashlashni taklif qilayotgan ekan.

Montanelli deraza tokchasiga popillatib bir urdi. Soldatlar hayron bo‘lib bir-biriga qaradilar: ko‘ngli yumshoq kardinalning qahri kelganligini hech vaqt ko‘rmagan edilar.

So‘na esa shu dam ularning bor-yo‘qligini unutgan, jismoniy erkinlik sezgisidan boshqa dunyodagi hamma narsani esdan chiqargan edi... Badan a’zolarining hammasi uvishgandi, endi ularni yozib maza qilar, bu yonboshdan-u yonboshga ag‘darilar edi.

– Endi sizga javob, serjant, — dedi Montanelli. — Ko‘nglingiz to‘q bo‘lsin, intizomni buzadigan hech qanaqa ish qilganingiz yo‘q. Men so‘raganimdan keyin hamma narsani aytish vazifangiz edi. Bizga hech kim xalal bermasin, siz shu yog‘iga boxabar bo‘ling. Ishim bitgandan keyin o‘zim tushaman.

Soldatlar eshikni yopib chiqib ketganlaridan keyin Montanelli, deraza tokchasiga suyanib, botib borayotgan quyoshga bir necha daqiqa qarab turdi va shu bilan So‘naning badan erkinligidan anchagina huzur qilishga imkon berdi.

Montanelli deraza yonidan ketib, mahbus yotgan poxol to‘sak yaqiniga o‘tira turib:

– Men bilan alohida gaplashmoqchi bo‘lgan ekansiz, — dedi. — Gaplashishga madoringiz yetsa, xizmatingizga tayyorman.

Montanelli odatida bo‘limgan amirona bir ohangda quruq, sovuq qilib gapirdi. Qayishlar yechilmasdan avval

So‘na uning uchun azob chekib yotgan mazlum bir inson xilqati edi, endi esa so‘nggi suhbat va u suhbatni tugatgan dahshatli haqorat esiga tushib ketdi.

So‘na kallasini xiyol orqasiga qayirib qo‘llariga qo‘ydi, keyin ko‘zlarini ko‘tarib kardinalga qaradi.

U chiroyli harakatlar qilish va kelishgan qiyofa olishda tug‘ma iste‘dodga ega edi; yuzi soyada qolgan paytda qomatiga qaragan kishi bu odamning boshidan ne-ne do‘zax azoblari kechganini payqay olmaydi. Boshini ko‘targanda va dovdir ko‘zlarini, qonsiz chehrasini, so‘nggi kunlarda tortgan azoblari qoldirib ketgan dahshatli izlarni so‘nib borayotgan kun yorug‘ida ko‘rish mumkin bo‘lganda, Montanellining g‘azabi tarqaldi.

— Juda og‘ir yotdingiz, chog‘i, — dedi u. — Bu narsalarni ilgariroq bilmaganim uchun afsus chekib qoldim. Bilsam, qynoqda darhol xotima berdirardim.

So‘na yelkalarini qisdi.

— Urushda quroq tanlab o‘tirilmaydi, — dedi u, sovuqqina qilib. — Hazratim qayish kamarlarni nazariy jihatdan, ya’ni xristianlik nuqtayi nazaridan maqbul ko‘rmaydilar, ammo janoblarining tushunchalariga polkovnikni ham sherik bo‘lsan deb zo‘rlash insofdan bo‘lmasa kerak. U qayish kamarlarning qadrini o‘z tanasida tatib ko‘rishga o‘lsa ham yurmaydi, bunga shubha qilmaslik mumkin; m-m-men ham bu m-m-masalaga shunday qarayman. Albatta, har kim o‘zining rohatini k-k-ko‘zlaydi. Hozirgi paytda men yengilgan kishiman, — xo‘s, nima qilishsin deysiz?.. Har nima bo‘lganda ham, hazratimning meni yo‘qlab kelganlari — o‘zları tomondan qilingan katta marhamatdir. Balki, janoblarini bu yerga keltirgan yana xristianlik axloqi bo‘lgandir. Axir mahbuslarni ko‘rib turishlari kerak-ku. O, albatta! Esimdan chiqibdi-ya: «G‘arib-g‘urabolardan biriga mehribonlik qilgan kishi» va hokazolar deyilgan-a.

Garchi bu quvonishga arzimaydigan narsa bo'lsa ham, har holda, «g'arib-g'urabolardan biri» janoblaridan benihoyat minnatdordir.

— Sinor Rivares, — deb kardinal uning so'zini bo'ldi, — men bu yerga o'z maylim bilan emas, sizning xohishingiz bilan kelganman. O'z ta'biringiz bilan aytganda, «yengilgan kishi» bo'lmasangiz, so'nggi suhbatimizdan keyin siz bilan hech mahal gaplashmagan bo'lar edim. Lekin sizda bir emas, ikki imtiyoz bor: ham mahbus; ham kasalsiz; kelmay ilojim yo'q edi. Menga chindan ham biron gapingiz bormi yo bo'lmasa qari bir kishini masxara qilib, ko'nglingizni ochish uchun chaqirtirganmidingiz?

Javob bo'lindi. So'na yuzini burib, ko'zlarini qo'li bilan to'sib oldi.

— Ma'zur ko'rsinlar... janoblarini bezovta qilishga to'g'ri keladi, — dedi u, axiri, bo'g'iq bir tovushda. — Menga bir qultumgina suv bersalar.

Derazada suvli krujka turgan edi, Montanelli o'rnidan turib, suv olib keldi. Mahbus ustida engashib, uni yelkalaridan ushlab xiyol ko'tardi; ana shunda So'naning sovuq, nam barmoqlari qo'lini xuddi omburday qisayotganligini sezdi.

— Qo'lingizni bering menga... tezroq bo'ling... faqat birgina daqiqaga bering... — deb shivirladi kasal. — O, bu bilan hech nima o'zgarmaydi! Faqat bir daqiqagini!

U majoldan ketib yiqildi, boshi Montanellining yelkasiga tushdi, o'zi dag'-dag' titradi.

— Suvdan ichib oling, — dedi Montanelli, qisqa bir sukunatdan keyin.

So'na churq etmay suvni ichdi, keyin ko'zlarini yumib, yana poxol to'shagiga yotib oldi. Montanellining qo'li yuziga tegib ketganda nima bo'lganligini o'zi ham tushuntirib berolmas edi. Hayotida eng dahshatli daqqa — shu daqqa ekanligini sezar edi xolos.

Montanelli stulini poxol to'shakka yaqinroq jildirib qo'yib, tag'in o'tirdi. So'na esa o'likday qimir etmay yotdi, yuzi cho'zilib, ko'karib ketgan edi. Shu taxlitda uzoq vaqt o'tdi. Axiri ko'zlarini ochdi, vahimali ko'ringan nigohi Montanelliga kelib to'xtadi.

— Qulluq, — dedi u. — Meni kechirsinlar, hazratim. Darvoqe, menga savol ham beruvdilarmi?

— Gapirmaganingiz ma'qul: uzikib qolasiz. Menga biron gapingiz bo'lsa, ertaga kelishga harakat qilaman.

— Yo'q, yo'q, hazratim, ketmasinlar. Rostini aytsam, soppa-sog'man. Keyingi kunlarda biroz ko'nglim behuzur bo'ldi xolos. Shuning ham aksariyati ayyorlik, polkovnikdan so'rasalar, hamma gapni aytib beradi.

— Men o'zim xulosa chiqarishni afzal ko'raman, — dedi Montanelli, vazmin javob qilib.

— Polkovnik ham shunaqa. U kishi ham ba'zi mahallar gapga ko'p chechan bo'lib ketadilar. Basharasiga qaragan kishi hech ishonmaydi, lekin ba'zi mahallar antiqa gaplarmi aytib yuboradilar. Masalan, o'tgan juma kuni, chamamda, juma kuni bo'lsa kerak, keyingi vaqlarda kunlarni adashtiradigan bo'lib qoldim, xayr, buning ahamiyati yo'q, — kuchli dori so'radim. Bunisi aniq esimda. Polkovnik darrov yetib keldi-yu, darchani menga k-k-kim ochib bergenini aytsam, kuchli dori berishligini aytdi. «Kasalingiz rost bo'lsa, aytib berasiz; yo'q desangiz, — o'zingizning ayyorlik qilayotganingizni isbot etgan bo'lasiz», dedi. Hali-hali esimda. Gap shunaqa q-q-qiziq bo'lar deb hech o'ylamagan edim. J-j-judayam alo-mat gap-da...

U birdan qahqaha urib kulib yubordi, kulgisi quloqlarni teshar darajada qattiq chiqdi. Keyin yalt etib kardinalga o'girildi-da, gapini tobora tezlatib va duduqlanib gapni davom ettirdi, shunday bidirlab ketdiki, so'zlarini zo'rg'a tushunib bo'lardi:

— Hazratim b-uni q-qiziqmas deydilarmi? Alb-b-batta yo‘q-da. Din arb-b-boblarida hazil hissi b-b-bo‘lmaydi. Hamma narsaga fojia k-ko‘zi b-b-bilan qaraysizlar. M-masalan, ho o‘sha cherkovda k-k-ko‘rgan k-k-ke-cham janoblarining salobatlaridan odam hurkar edi! O‘zimchi, o‘zim ho-hoji k-k-kiyimida q-q-qanday vahimali bo‘lib ketuvdimikan! B-b-bugun k-k-kechqurun hazratim shu yerga gaplashgani k-k-kelgan ishning ham k-k-kulgili tomonini tushunadilar d-d-deb o‘ylayman.

Montanelli o‘rnidan turib ketdi.

— Men aytadigan gapingiz bo‘lsa eshitay deb kelgan edim, lekin bugun gaplashadigan ahvolda emas ko‘rinasiz. Avval doktor tinchlantiradigan biron narsa bersin, yaxshilab uyquni olganingizdan keyin ertalab gaplasharmiz.

— Uyqumni olganimdan k-k-keyin? O, p-p-polkovnikning r-r-rejasiga rozilik b-b-berganingizdan k-k-keyin b-b-bahuzur yotib uxlayveraman, hazratim. B-b-bir chimdim q-q-qo‘rg‘oshin b-b-bo‘lsa b-b-bas, uyquni doli-guliga k-k-keltiradi.

Montanelli ajablangan bir qiyofada u tomonga o‘girila turib:

— Gapingizga tushunmadim, — dedi.

So‘na tag‘in xaxolab kulib yubordi.

— Hazratim, hazratim, xristianlik saxovatida eng m-m-muhim narsa — haqqoniyat! P-p-polkovnik harbiy sudga rozilik b-b-berishingizni sizdan q-q-qattiq talab q-q-qilayotganligini nahotki m-m-meni b-b-bilmaydi deb o‘ylasangiz? Rizolikni b-b-bera qolsangiz j-j-juda yaxshi b-b-bo‘lardi, hazratim; chindan ham, j-j-janoblarining o‘rinlarida b-bo‘lgan har qanday hamkasabaları allaqachon shunday qilgan b-b-bo‘lardi. Xo‘p desalar, gunohdan ko‘ra savoblari ko‘proq ortardi! Shu arzimagan m-m-masalani o‘ylab, shun-cha k-echalarni uyqusiz o‘tkazishlari hazratim uchun uvol, ha, ishonaversinlar.



– O'tinaman, kulishingizni to'xtating bir daqiqaga, – deb Montanelli uning so'zini bo'ldi. – Ayting: bu narsalarni qayerdan bilasiz? Kim aytdi sizga bu gaplarni?

– P-p-polk-ovnik m-m-meni odam emas, iblis deb j-j-janoblari hech qachon aytgani yo'qmi? M-m-menga j-j-juda ko'p marta aytdi! Shunaqa, odamlarning m-m-miyasidagi o'yini b-b-bilib oladigan anchagina iblisligim ham b-b-bor. Hazratim m-me-meni b-b-borib turgan rasvo odam deb hisoblaydilar, shuning uchun taqdirimni b-b-boshqa b-b-birov hal qilishga majbur bo'lsa-yu, j-j-ja-noblarining pok vijdonlari bezovta bo'lmasa, – hazratimning hozirgi damdag'i tilaklari xuddi shunday. Ko'ngillaridagi gapni topdim, to'g'ri, a?

Kardinal, yana uning yoniga o'tira turib, g'oyat jiddiy bir qiyofada:

– Menga qarang, – dedi. – Bu narsalarni qanday bilgan bo'lsangiz bilgandirsiz, lekin bilganlariningiz to'g'rl. Polkovnik Ferrari do'stlaringiz sizni yana qutqazishga urinib ko'rishadi degan vahimaga tushib, buning oldini... siz aytgan bilan olmoqchi. Mana, siz bilan ochiqchasiga gaplashayapman.

– Hazratim hamisha haqiqatp-parvarliklari b-b-bilan dong chiqarib kelganlar, – deb So'na alam to'la bir tovush bilan gap qistirdi.

– O'zingiz bilasizki – deb Montanelli so'zida davom etdi, – menda fuqaro ishiga aralashishga yuridik jihatdan hech qanday huquq yo'q. Men hokim emasman, yepiskopman. Lekin bu okrnga kattagina obro'yim bor, shuning uchun polkovnik mendan loaqal sukutli rizolik olmay turib, bu to'g'rida qaltis chora ko'rib yuborolmaydi. Uning rejasiga to shu bugungacha qarshi turib keldim. Hozir u, payshanba kuni xaloyiq marosimni tomosha qilgani to'planganda, sizni qutqazish uchun qurolli hujum bo'ladi, ancha-muncha

qon to'kiladi deb o'lib-tirilib, meni fikrimdan aynitishga tirishayapti. Eshitayapsizmi?

So'na derazaga parishon nazar bilan qarab turgan edi. Bu tomonga o'girilib, horg'in tovush bilan:

— Ha, eshitayapman, — dedi.

— Balki, bugun gaplashishga chindan ham madoringiz yetmas? Ertaga ertalab kelsam, yaxshiroq bo'lmasmikan? Masala juda jiddiy, shuning uchun qattiq e'tibor bilan qaramasangiz bo'lmaydi.

— Menga qolsa, bugunoq bir yoqlik qilib qo'ya qolsak deyman, — deb So'na boyagiday horg'in tovush bilan javob qildi. — Hamma gapingizni uqib turibman.

Montanelli gapini davom ettirdi:

— Shunday qilib, rostakamiga siz tufayli to'polon chiqadigan bo'lsa va u qon to'kilishiga sabab bo'lsa, u holda, polkovnikning talabini qaytarish bilan zimmamga dahshatli bir javobgarlikni olgan bo'laman. Shuningdek, uning so'zlarida ham haqiqat zarrasi bor bo'lsa kerak deb o'layman. Lekin bunday qaraganda, uning sizga bo'lgan keki masalaga xolisona qarashiga xalal berib, xavf to'g'risida lof urdirayotgan bo'lishi ham mumkin. Odamni g'a-zabga keltiradigan bag'ritoshligining dalillarini ko'r-ganidan keyin bu taxminim ko'proq haqiqatga o'xshab qoldi.

Kardinal yerda yotgan kamarlar bilan kishanlarga bir qarab olib, so'zini davom ettirdi:

— Rizolik bersam, sizni o'ldirish hukmiga qo'l qo'ygan bo'laman. Bermasamchi, — gunohsizlarning jonini xatarda qoldirgan bo'laman. Masalani juda chuqur o'yladim, biron yo'l toparmikanman deb jonimni xo'p qiy nadim. Mana axiri, aniq bir qarorga keldim.

— Meni o'ldirish-u, gunohsizlarni qutqazish-da? Shafqatli xristian kelishi mumkin bo'lgan birdan-bir qaror shu. «Mabodo o'ng qo'ling seni yo'ldan chiqarsa... va

hokazo. Men bo'lsam, hazratimning o'ng qo'li bo'lish sharafiga ham ega emasman, buning ustiga janoblarini haqorat ham qilganman. X-xulosa ravshan. Nega endi bu gapingizni shuncha uzun muqaddimasiz aytib qo'yaqolmadingiz?

So'na talashib o'tirgan mavzusi joniga tekkan kishi singari, parvosiz, sust gapirdi.

— Qani, xo'sh? — dedi u, biroz jim turgandan keyin. — Hazratimning qarorlari shu bo'lsa kerak?

— Yo'q.

So'na holatini o'zgartirdi, qo'llarini boshining tagiga qo'yib, keyin yarim-yorti tushirilgan kipriklari ostidan Montanelliga qaradi. Kardinal o'y daryosiga cho'mib o'tirgan edi. Boshi ko'kragiga osilib tushgan, barmoqlari esa stul suyanchig'ini asta-sekin tiqirlatayotgan edi. O, bu eski, qadrdon, tanish qiliq!

— Men bir ish qilishga ahd qildim, — dedi u axiri, boshini ko'tara turib, — balki, shu vaqtga qadar hech kim bunday qilmagandir. Siz ayttirib yuborganingizni eshitdim-u, oldingizga kelib, hamma narsani aytishga va masalani hal qilishni o'zingizning ixtiyorining topshirishga qaror qildim.

— O'z ixtiyorimga... topshirishga?

— Sinor Rivares, men sizning huzuringizga yo kardinal, yo yepiskop, yo bo'lmasa sudya sifatida kelganim yo'q. Men odam oldiga keladigan odam qatori kelganman. Polkovnik sizni ozod qilish rejalarini borligini aytidi; men o'sha rejalarmi bilasizmi, menga aytib bering demayman. Mabodo bilgan taqdiringizda ham, baribir, menga aytib bermaysiz, chunki u sizning siringiz — men buni juda yaxshi tushunaman. Lekin sizga bir iltimosim bor: o'zingizni mening o'rninga qo'yib ko'rsangiz. Men qari kishiman, yaqinda balki o'larman. Qo'llarimni birovning qoni bilan bo'yamasdan go'rga kirsam deyman.

— Hazratim, u qo'llarga hali qon tegmaganmi?

Montanelli biroz oqarib ketgan bo'lsa ham, lekin boyagiday vazmin tovush bilan davom etdi:

— Zo'rlikni, bag'ritoshlikni qayerdaki uchratmayin, hamma yerda ularga qarshi umrim bo'yicha bosh ko'tarib kelganman. O'lim jazosining hamma shakl va xillariga qarshi har mahal e'tiroz bildirib kelganman. Oldingi podsholik davrida harbiy-dala sudiga necha qayta qarshi gapirdim va uning bitirilishini qattiq talab qildim, buning uchun rahbarlar nazaridan qolib ham ketdim. Hayotimda orttirgan butun obro' va nufuzimni to shu bugunga qadar, odamgarchilik dcb keldim. Sizdan iltimos qilaman: hech bo'lmasa, aytayotgan gaplarimning to'g'riligiga ishoning. Hozir yechilishi qiyin bir masala oldida turibman. Polkovnikning taklifiga ko'nishdan bosh tortsam, faqat bitta odamning hayotini deb, butun shaharni to'polonda qoldirishim va uni to'polon oqibatlari girdobiga cho'ktirishim mumkin. U bitta odam esa dinimni poymol qildi, shaxsan menga bo'hton va haqorat toshlarini otdi (lekin bu narsalarning hech ahamiyati yo'q); undan keyin, o'sha bitta odam, agar joni omonda qoldirilsa, butun umrini yomonlikka bag'ishlaydi — men bunga hech shubha qilmayman. Ana shunday bo'lsa ham, gap inson hayoti ustida ketayapti.

U bir daqiqagini jim turib, tag'in davom etdi:

— Sinor Rivares, sizning xatti-harakatlarингiz to'g'risida bilgan narsalarim meni sizga yomon, zararli odam deb qarashga majbur etadi. Sizni ko'p vaqtgacha hech nimadan taft tortmaydigan bag'ritosh, tuturiqsiz odam deb ham sanab keldim. Hozirga qadar ham qisman shu fikrda bo'lib keldim. Lekin do'stlaringizga vafodor bo'lib qola biladigan mard kishi ekansiz, men buni keyingi ikki hafta ichida ko'rdim. Soldatlarda o'zingizga nisbatan shirin so'z, mehr-muhabbat uyg'ota oldingiz; bu narsaga hamma ham sazovor

bo'lavermaydi. Shuning uchun siz to'g'ringizdag'i fikrim xato shekilli degan o'yga kelib qoldim. Haqiqatan ham, siz o'zingizni ko'rsatishga tirishgan ahvoldagi kishidan ancha tuzuksiz. Men ana shu ikkinchi kishiga, ancha tuzuk kishiga murojaat qilib, uni vijdon haqi uchun to'g'risini aytishga chaqiraman: mening o'mimda siz bo'lsangiz nima qilar edingiz?

— Men, har holda, shak-shubhalarimni o'zim hal qilgan va bularning javobgarligini zimmamga olgan bo'lur edim. Ammo xristianlarga o'xhash ikkiyuzlamalik, sharmandalik va qo'rkoqlik bilan boshqalar orqasiga berkinmas, o'zim hal qilishim lozim bo'lgan masalani yechib berishlarini so'rab o'tirmas edim.

Qo'qqisdan boshlangan bu hujumning g'azab va ehtirosi atigi bir daqiqagina ilgari So'na o'zini g'arq etgan yasama parvosizlikka tamoman zid bir ohangda yangradi. U yuzidan go'yo niqobini olib tashlaganday bo'ldi.

— Biz dahriylar, — deb ehtiros bilan so'zini davom qildi u, — agar biron kishining boshiga og'ir kulfat tushgan bo'lsa, bu kulfatga mumkin qadar mardlik bilan chidash kerakligini bilamiz. Agar bu kulfatning og'irligiga chidolmay yiqilsachi? Unda — o'ziga qiyin. Shunday hollarda katolik dod-faryod solib, avliyolariga munojot qiladi, avliyolari qo'llamaganidan keyin esa to'g'ri dushmanlarining oldiga boradi; albatta, zimmasidagi kulfatini ag'dargani biron ta yelka kerak-da. Nahotki, tariqatingiz va o'sha riyokor diniy kitoblarining shunday hollarda nima qilinishi kerakligini shu qadar kam ko'rsatganki, siz mening oldimga kelib, nima qilishimni o'rgatib qo'ying deb o'tirasiz? Yer va ko'k xotiri uchun ayting! Boshimdagi sho'rim kammidiki, siz yana bu javobgarlikni ham zimmamga yuklab qo'ydingiz? Juda zo'r kelsa, bitta xudosizni azal asoslarini larzaga keltirgan bir kishini o'ldirasiz-da! Xudo biladi, bu gunohga kiradimi hali-yo'qmi.

U to‘xtadi, nafasini o‘nglab oldi, keyin yangi bir dahshat bilan tutoqdi.

— Siz tag‘in bag‘ritoshlikdan bong urasiz! Siz bir necha daqiqa ichida jonimni shunchalik sug‘urib oldingizki, u shalpangquloq eshak m-m-meni b-b-b-bir yilda ham bunchalik qiyayolmas edi. Miyasi yetmas edi. Uning aqli faqat qayish-kamarlarni qattiqroq tortib qo‘yishga yetadi, xolos; tortib bo‘lmay qolgandan keyinchi, — kuchanishi ham tamom bo‘ladi. Bunday bag‘ritoshlik har qanaqa, ahmoqning qo‘lidan keladi! Siz bo‘lsangiz juda ham alomatini o‘ylab chiqaribsiz. «Marhamat qilib, o‘zingizning o‘ldirilishingiz haqidagi hukmga qo‘l qo‘yib bermaysiz-mi? Men qo‘l qo‘yay desam, ko‘nglim yum-shoqlik qilayapti» deysiz. Haddan ziyod tortib bog‘langan qayish-kamarlarni ko‘rganda rangi o‘chib ketadigan mo‘min, rahmdil katolikkina bu xil narsalarni o‘ylab chiqarishi mumkin! Bu yerga shafqat farishtasiday kirib, polkovniking «vahshiyligi»dan jahlingiz chiqqanda, haqiqiy qiyonoqning endi boshlanishini kutishim kerak edi! Nega menga bunday qaraysiz? Albatta, rizoligingizni bering-u, uyingizga borib tirikchililingizni qiling. Gapni dangalini aytganda, shuncha tashvishga ham arzimaydi bu. Polkovnicingizga borib aytинг: xohlasa ottirsin, xohlasa osdirsin, xohlasa menga nimani ravo ko‘rsa shuni qilsin... ko‘ngli ko‘tarsa, tiriklayin qovurib yesin! Ishqilib, tezroq tugatsin.

So‘nani tanish qiyin edi: g‘azabi qaynar, o‘zi titrar, og‘ir nafas olar, ko‘zlar yashil yog‘du berib yonardi.

Montanelli o‘rnidan turdi-da, indamay unga tikilib oldi. Odamning jon-jonidan o‘tib ketadigan bu o‘pkalar oqinida u hech nimaga tushunmasa hamki, lekin bu o‘pkalar sabri tugatilgan bir kishi tomonidan qilinayotganiga tushunar edi. Shuni tushungani uchun ham, u qilgan haqoratlarni kechirdi.

— Xafa bo‘lmang, — dedi u. — Sizni qiyash xayolimga ham kelgani yo‘q. Undan keyin, o‘z dardi boshidan oshib yotgan bir kishiga, ya’ni sizga o‘zimning dardimni oshirib yuboray deb o‘ylagan bo‘lsam, o‘lay agar. Umrim bino bo‘lib, odam bolasiga hech mahal bunaqa muomala qilgan emasman...

— Yolg‘on! — So‘na ko‘zlaridan olov chaqnatib turib qichqirdi. — Yepiskoplilikchi?

— Yepiskoplilik?

— Ha-a, hali buni esdan chiqardim deng? Esdan chiqarish muncha oson ekan! «Agar xohlasang, Artur, borolmayman deb aytishim mumkin...» Men, o‘n to‘qqiz yoshimda, sizning hayotingiz masalasini siz uchun hal qilishga majbur bo‘lganman! Bu shu qadar yaramas bir ish bo‘limganda, bunga xo‘p kulsa bo‘lar edi!

— Bas qiling! — Montanellining og‘zidan shu dahshatli hayqiriq yopirilib chiqdi. Keyin ikkala qo‘lini ko‘tarib, kallasini qisdi.

Birozdan so‘ng qo‘llari shalvirab tushdi, o‘zi esa sekinkin yurib deraza tomonga ketdi. Deraza tokchasiga o‘tirdi, panjarani changallab, unga peshonasini qo‘ydi. So‘na bo‘lsa butun vujudi bilan titrab, uning harakatini kuzatib turdi.

Oradan bir necha zum o‘tdi. Montanelli o‘tirgan yeridan turib, So‘naning yoniga keldi. Lablari nihoyatda oqarib ketgan edi.

Montanelli odatdagi salobatini saqlab qolish uchun o‘zini qo‘lga olishga jon-jahdi bilan tirishib:

— Meni ma’zur ko‘rsangiz, — dedi, — men bu yerdan ketishim kerak. Sog‘ligim joyida emas.

Bezgak tutayotganday uning butun vujudi dag‘-dag‘ titrar edi. So‘naning g‘azabi birdan tarqaldi.

— Padre, nahotki tushunmasangiz?

Montanelli orqaga sakrab tushib, turgan yerida qotib qoldi.

— Faqat buni emas, — deb, pichirladi u. — Boshimga ne kulfating bo'lsa sol, parvardigor, lekin buni emas! Mabodo aqdan ozsam...

So'na tirsagiga suyanib yonboshladi-da, cholning titrab turgan qo'llarini ushladi.

— Padre, nahotki mening cho'kib ketmaganligimni tushunmasangiz?

So'na ushlab turgan qo'llar birdan sovidi. O'rta ga o'lgin jimlik cho'mdi. Keyin Montanelli tiz cho'kib, yuzini hozirgina dushman bo'lgan kishining ko'ksiga ko'mdi.

\* \* \*

Montanelli boshini ko'targanda, kun allaqachon botgan va g'arbdagi so'nggi qizil shafaqlari ham so'ngan edi. Ota bilan o'g'il vaqt va joyni, hayot va o'limni unutishgan edi; hatto bir-birlariga dushman bo'lganliklari ham yodlaridan ko'tarildi.

— Artur, — deb shivirladi Montanelli, — rostdan ham o'zingmisan? Mening oldimga qaytib keldingmi? O'liklar orasidan tirilib keldingmi?

— O'liklar orasidan, — deb takrorladi So'na va seskanib ketdi.

U onasining bag'rida yotgan kasal bola singari boshini Montanellining qo'llariga qo'ydi.

— Qaytib kelding... axiri qaytib kelding!

So'na og'ir xo'rsindi.

— Ha, — dedi u, — endi men bilan kurashishingiz yo meni o'ldirishingiz kerak.

— Unday dema, jon bolam! Nima keragi bor bunday gaplarning! Biz ikkalamiz xuddi qorong'ida adashib qolgan ikkita bola singari bir-birimizni arvoh deb yanglishib yurganmiz. Endi bir-birimizni topib oldik, tevaragimiz yorishdi. Bechora bolam, juda o'zgarib ketibsan... juda yomon o'zgarib ketibsan! Xuddi butun bir azob-u uqubat

okeanini kechib chiqqanday ko'rinasan, holbuki bir vaqtlar hayoting porloq, o'zing quvnoq o'smir eding! Artur, nahotki rostdan ham o'zing bo'lsang-a? O, tushlarimga kirarding, tushlarimda qaytib kelarding, uyg'onib tevaragimga qaraganimda esa hammayoq qorong'i, bo'sh bo'lardi. Nima qilsam bu o'ngim ekanligiga, boshqa uyg'onmasligimga ishonar ekanman? Kel, buning tush emas, haqiqat ekanligiga inontir meni... O'sha vaqt boshingdan o'tgan narsalaming hammasini aytib ber menga.

– O, bu narsalar jo'ngina bo'ldi. Gavanda yuk olayotgan kemaga berkindim-u, Janubiy Amerikaga jo'nab ketdim.

– U yerda kuning qanday o'tdi?

– U yerda ham bir klinikni ko'rib yurdim, agar o'shalarni kun deb aytish mumkin bo'lsa, undan keyin... E, buning nima keragi bor!.. Menga falsafa o'qitib yurgan kezlariningizdan buyon hayotimda diniy seminariyalardan boshqa juda ko'p narsalarni ko'rdim! Meni tushingizda ko'rganingizni aytdingiz... Men ham sizni ko'rardim...

Uni titroq bosdi, ovozi chiqmay qoldi. Keyin bo'lik, kesik tovush bilan yana so'z boshladi:

– Bu Ekvador konlarida ishlab yurganimda bo'ldi...

– Kon qazuvchi bo'lib emasdир?

– Yo'q, kon qazuvchining malayi bo'lib, xitoy malaylariga qo'shilib olib, to'g'ri kelgan har qanaqa ishni qildim. Biz konga tushiladigan eshik biqinidagi barakda yotar edik. O'sha vaqtda ham shu dardim bilan og'rib, ko'p azob chekib yurardim; buning ustiga kuni bilan jazirama oftobda tosh tashirdim. Bir kun kechasi meni qora bosdi shekilli, nimaga desangiz, eshikdan ro'yirost kirib kelganingizni ko'rdim. Qo'lingizda, anovi devorda osig'liq turgan butga o'xshash but bor edi. Ibodat qilib, yonginamdan o'tib ketdingiz, bundog' qayrilib ham qarab qo'ymadingiz. Qichqirib, sizdan yordam so'radim:

tortayotgan azoblarim meni jinni qilmasdan burun, bu azoblarni to'xtatish uchun menga qadar, yo pichoq, yo bo'lmasa shunga o'xshash biron narsa bering deb yalindim. Siz bo'lsangiz... O! – u bir qo'li bilan ko'zlarini berkitdi, ikkinchi qo'lini esa Montanelli hamon ushlab turar edi.

– Mening ovozimni eshitganingizni yuzingizdan payqadim, lekin menga bir qayrilib ham qaramadingiz, ibodat qilaverdingiz. Ibodatni tugatib, butni o'pganiningizdan keyingina menga qaradingiz, pichirlab: «Senga jonim achiydi, Artur, lekin so'riganlaringni berolmayman... Berolmayman» dedingiz. Bir mahal o'zimga kelib, yana barakni, xitoy malaylarini, moxovlarni ko'rganimdan keyin sirga tushundim. Meni dunyodagi eng dahshatli do'zaxdan qutqazib olishdan ko'ra osmon marhamatiga sazovor bo'lishi afzal ko'rganining ravshan bo'ldi. Ana shuni hech vaqt esimdan chiqarmadim. Faqat hali, qo'lingiz menga tekkandagina, esimdan chiqdi. Men kasal va xarob edim, bir mahallar sizni jonimdan ortiq sevar edim. Endi o'rtamizda boshqa hech nima emas, faqat urush, urush, yana urushgina bo'lishi mumkin. Nega qo'limni ushlaysiz? Ajabo bilmaysizmiki, sizda shu e'tiqod bor ekan, biz hamisha bir-birimizga dushman bo'lib qolamiz.

Montanelli boshini egib, So'naning yaralar hilvirab yotgan qo'lini o'pdi.

– Artur, e'tiqodimdan qanday voz kechay? Ana shu dahshatli yillar davomida e'tiqodimni saqlab keldim, endi, parvardigor seni qaytarib bergandan keyin voz kechishim mumkinmi? Esingda bo'lsin: men seni o'lirdim deb ishonib yurardim.

– Bir marta o'lirishingiz bor hali.

– Artur!

Bu chinakam bir dahshat bilan to'liq qichqiriq edi. Lekin So'na, go'yo buni eshitmaganday, so'zini davom ettirdi:

— Endi dangal gap qilaylik. Yarim-yortisini qisib-qimtib qolish bo'lmasin. O'rtamizda chuqur jar yotibdi, uning ustidan bir-birimizga qo'l cho'zishimiz befoyda. Agar siz o'z diningizdan qaytolmasligingizga ko'zingiz yetsa, yoinki qaytishni xohlamasangiz, — dedi u, devorda osig'liq butga bir qarab qo'yib, — u holda polkovnikning taklifiga rizolik berishingiz kerak bo'ladi.

— Rizolik! Xudo saqlasın rizolik berishdan!.. Artur, axir seni yaxshi ko'raman-ku!

So'nuning yuzi og'riq zo'ridan burishib ketdi.

— Qaysi birimizni ko'proq yaxshi ko'rasiz?

Montanelli o'midan zo'rg'a turdi, vujudini dahshat bosdi, u o'zining dahshatli vazni bilan ezib tushganday ko'rinaldi. Montanelli o'zini zaif, qari va birinchi sovuq urib ketgan yaproq singari xazon his etdi. Endi uyg'ondi, tevaragi bo'm-bo'sh va qop-qorong'i edi.

— Artur, menga jinday rahim qil!

— O'z yolg'onlaringiz bilan meni qand plantatsiyalarida qul qilib qo'yaningizda, menga juda ham rahmingiz kelganmidi? Men shu narsalarni aytayotganimda dahshatdan yaproqday titrayapsiz... Eh, Siz ko'ngli yumshoq avliyolar! Juda bo'lsa, uning bir o'g'li o'libdi-da! Siz tag'in meni yaxshi ko'raman deysiz... O, albatta! Sizning sevgingiz: menga qimmatga tushdi. Nahotki, hamma narsani esidan chiqarib yuborib, yana eski Arturga aylantirib olaman deb o'ylasangiz? Meni, ya'ni iflos ishratxonalarda idish-oyoq yuvgan va o'zlarining mol-hollaridan ham iflosroq yirtqich fermerlarning otxonalarini tozalagan kishini-ya? Meni, ya'ni qo'ng'iroqchalar osilgan qalpoq kiyib, sayyor sirkda masxarabozlik qilgan, buqalar urushadigan maydonda matadorlar<sup>1</sup> malayı va quli bo'lgan kishini-ya? Meni, ya'ni

<sup>1</sup> Matador – (ispancha) – buqalar bilan kurashga tushib, buqani urib o'ldiradigan polvon.

o'zimni egarlab minishdan erinmagan har bir hayvonga xushomad qilgan kishini-ya? Meni, ya'ni och qolgan, hamma oyoq osti qilgan, tupirgan; mog'or bosib yotgan sarqitlarni so'rab qo'l cho'zganda, ular itlarning tegishi bo'lgani uchun, rad javobini olgan kishini-ya? O, bularni aytib nima qillardim sizga! Siz o'z qo'lingiz bilan itarib yuborgan balolar girdobida boshimga tushgan kulfatlarning hammasini aytib berolarmidim, ajabo? Mana endi meni yaxshi ko'rganiningizni aytasiz! Xo'sh, menga bo'lgan sevgingiz – mustahkammi? Sizni diningizdan qaytarishga qurbi yetadigan darajada kuchlimi? Iso alayhissalomizingiz sizga nima qilib bergen? Siz tufayli azob chekkanmiki, uni menden ortiq sevasiz? Yo qo'llariga mix qoqilgani uchun sevasizmi? Unday bo'lsa, mening qo'llarimni ko'ring. Mana buni ham ko'ring, buni ham, buni ham...

U ko'ylagini yirtib tashlab, badanidagi dahshatli kesik izlarini ko'rsatdi.

– Padre, haqqoniyat yuzasidan qalbingiz meniki bo'lishi kerak! Padre, siz tufayli men tortmagan azob qolmadi. Koshkiydi mening boshimdan kechgan balolarni bilsangiz! Men ko'rgiliklarning hammasini ko'rdim, qalbimni sabr olovi bilan tobladim, chunki hayotga qaytishni va xudoyingizga yangidan urush e'lon qilishni xohlar edim. Bu maqsad menga qalqon bo'ldi, jinni bo'lish va ikkinchi marta o'lish xavfi tug'ilganda, men qalbimni shu qalqon bilan to'sdim. Mana endi, hayotga qaytib, olti soat ichida yog'ochga mixlangan, keyin esa o'liklar orasidan tirilib kelgan kishini yana ko'rib turibman. Qani, endi meni nima qilasiz? Nima qilasiz?

Ovozi shartta uzildi. Montanelli tosh haykalga yoki o'tqazib qo'yilgan o'likka o'xshab, qimir etmay o'tirardi. So'na alamining dahshatli g'alayoni avval unda yengil titroq uyg'otdi, muskullari xuddi gavron urilganday tortishdi. Endi esa tamom xotirjam o'tirar edi.

Uzoq davom etib, odamni toliqtirgan jimlik tugadi. Axiri Montanelli gapirdi, ovozi jonsiz, ruhsiz edi.

— Artur, fikringni menga ochiqroq ayt. Menga hamla qilayapsan, fikrim chalg'ib ketayapti, hech narsaga tushunolmayapman. Menden nima talabing bor?

So'na o'likniki singari oppoq bo'lib ketgan yuzini unga o'girdi.

— Hech talabim yo'q. Sevgini kim zo'rlik bilan talab qilardi? Ikkimizdan qaysi birimiz sizga ko'proq qadrli bo'lsak, o'shanimizni tanlab olishingiz mumkin — ixtiyor sizda. Agar uni ko'proq sevsangiz, mayli, o'shani tanlayvering.

— Gapingga hech tushunolmadim, — dedi Montanelli, horg'in tovushda. — Yana kim to'g'risida gapiroayapsan? Axir o'tmishni o'zgartirib bo'lmaydi-ku.

— Ikkalamizdan birimizni tanlashingiz kerak. Meni yaxshi ko'rsangiz, bo'yningizdag'i butingizni olib tashlab, men bilan boshqa dunyoga ketasiz. Do'stlarim meni qochirishga yana urinishadi, siz yordam bersangiz, ish ancha oson bo'ladi. Chegaraning u yog'iga o'tib, xavf-xatardan tamoman qutulib ketganimizdan keyin men o'g'lingiz ekanligimni ommaga e'lon qilasiz. Meni bu narsalarni qilar darajada sevmasangiz, diningizni menden afzal ko'rsangiz, polkovnikning oldiga boring-da, roziman deb aytинг. U ahvolda hoziroq, tez jo'nang, sizni ko'rish azobidan qutqazing meni. Uningsiz ham azobim yetib ortadi.

Montanelli boshini ko'tardi. Gapning tagiga endi yeta boshlagan edi. Madori quridi, vujudini titroq bosdi.

— Do'stlarining bilan aloqa bog'layman, albatta. Ammo sen bilan ketishga ilojim yo'q — ruhoniyman axir.

— Bo'lmasa, ruhoniydan yordam olmayman. Bo'ldi shuncha murosasizlik, padre! Bunday murosalardan va ulaming oqibatlaridan yetarli azob tortdim. Meni desangiz cherkovdan voz kechasiz, yo mening bahrimdan o'tasiz.

– Qanday qilib sendan ayrılay, Artur! Qanday ayrılay?!

– Unday bo'lsa, cherkovdan ayrıling. Ikkimizdan birimizni tanlab oling. Sevgimni ikkoving bo'lishib ol: yarmi senga, yarmi cherkovga demang. Cherkov dasturxonidan uvoq olishni ham istamayman.

– Artur, Artur, nahotki qalbimni pora-pora qilishni xohlaysan?! Nahotki meni aqldan ozdirmoq istaysan?

So'na devorga bir musht urdi.

– Ikkimizdan birimizni tanlab oling, – deb yana bir qur takrorladi.

Montanelli ko'ksida yashirilgan kichik bir kartmonni olib, undan ezilgan, rangi o'chgan bir parcha qog'ozni chiqardi.

– Buni ko'r, – dedi u.

«Men sizga tangriga ishonganday ishonar edim, siz bo'lsangiz meni butun umr aldab kelgan ekansiz». So'na kulib, qog'ozni qaytarib berdi.

– O'n to'qqizingda yoshliging naqadar ajoyib bo'ladi! Bolg'ani qo'lga olib, narsalarni urib sindirish hech gap emasday ko'rinadi. Hozir ham shunday qilish hech gap emasdi, lekin o'zim bolg'a ostida turibman. Ahmoqgarchilik qiladigan va bu ahmoqgarchiligini hech mahal tushunmaydigan odamlarni hali ko'p ko'rasiz.

– Bilgанинги qil, – dedi Montanelli, – xudo biladi, sening о'рmingda bo'lsam, men ham shafqat qilmasmidim lekin talabingni joyiga yetkazolmayman, Artur. Men faqat qo'limdan kelgan narsanigina qila olaman. Seni qochirib yuboraman, bu qo'limdan keladi, ammo sen xatarsiz yerga yetganindan keyin menga yo tog'da bir baxtsiz hodisa bo'ladi yoki uyqu dorisi o'miga adashib boshqa dori ichib qo'yaman, – xohlaganingga rozi bo'l. Shunday qilsam, ko'ngling joyiga tushadimi? Qo'limdan keladigani faqat shu xolos. Bu juda katta gunoh, lekin parvardigori olam gunohimni o'tar deb umid qilaman. Unda shafqat ko'proq.

So‘naning ko‘ksidan azob faryodi otilib chiqdi, qo‘llari alam kuchidan shilqillab tushdi.

— O, bu gaplaringiz ortiqcha! Haddan tashqari! Men nima qildimki, siz mening to‘g‘rimda shunday o‘ylaysiz? Qanaqa haddingiz bor?.. Go‘yo men sizdan qasos olmoqchiday! Men sizni qutqazmoqchiman, nahotki siz buni anglamasangiz? Sizni nechog‘lik sevganimni nahotki hech qachon tushunmasangiz?

U Montanellining ikkala qo‘lini mahkam ushlab, issiq bo‘salar va achchiq ko‘z yoshlari bilan qopladi.

— Padre, men bilan keting! Bu xato va ozg‘inlik girdobida o‘lib yotgan dunyo bilan sizning nima ishingiz bor? Axir ular — o‘tgan asrlar xoki-ku! Axir ular erigan, irigan, chirigan, ulardan sasigan o‘likning hidi keladi. Yuring, bu dunyodan boshqa dunyoga — nurlarga to‘lib yotgan yorug‘ dunyoga ketaylik! Padre, biz — hayot va yoshlikmiz, biz abadiy bahormiz, biz — insoniyat kelajagimiz! Padre, tong otishga oz qoldi, — quyoshning chiqishiga yordam berishda nahotki o‘z mehnat hissangizni zimmangizga olmasangiz? Uyg‘oning, qora kechalarining dahshatli tushlarini unutaylik! Uyg‘oning, hayotimizni yangidan boshlaymiz! Padre, men sizni hamisha sevardim, hamisha! Hatto meni o‘ldirib turgan chog‘ingizda ham. Nahotki yana bir marta o‘ldirsangiz?

Montanelli hayajon ichida qo‘llarini qirsillatardi.

— Yo parvardigor, rahm qil men osiy bandangga! — deb munojot qildi. — Artur, ko‘zlarining xuddi onangning ko‘zlariday!

Keyin o‘rtaga birdan uzoq, chuqur jimlik cho‘mdi. Yaqinlashib kelayotgan oqshomning kulrang yorug‘ida bir-birlariga qarab o‘tirar, yuraklari esa dahshat changalida ezilardi.

— Menga yana biron nima aytgin, — dedi Montanelli, shivirlab. — Hech bo‘lmasa menda biron umid tug‘dir.

– Mening boshqa gapim yo‘q. Hayotim cherkovga qarshi kurashish uchungina kerak menga. Men odam emas, pichoqman. Menga hayot berish bilan pichoqqa ham fatvo bergen bo‘lasiz.

Montanelli devordagi butga yuzlandi.

– Yo rabbiy! Eshitayapsanmi?..

Ovozi chuqur jimlikka cho‘kib ketdi. Javob bo‘lmadi. So‘nada birdan kulgi zavqi uyg‘ondi.

– Q-q-qattiqroq chaqiring!

Montanelli qo‘qqisdan birov urganday, irg‘ib turib ketdi. Keyin bir daqiqagina qimir etmay ro‘parasiga qarab turdi. So‘ng poxol to‘sak chetiga o‘tirib, yuzini qo‘llari bilan to‘sdi-da, piqillab yig‘lab yubordi. So‘nani butun vujudi bilan qaltiroq bosdi, keyin peshonasiga sovuq ter chiqdi. U Montanelli to‘kayotgan ko‘z yoshlaringning ma’nosiga tushunar edi.

So‘na yig‘ini eshitmaslik uchun boshiga ko‘rpasini tortib oldi. Tomirlarida qudratli, bardam hayot shalolasiga oqa boshlaganini sezaga turib o‘layotganining o‘zi ham kifoya edi. Lekin yig‘i ovozini to‘xtatib bo‘lmash edi. U ovoz quloqlarida yangrar, miyasiga urilar, ko‘z yoshlari barmoqlaridan oqib tushardi.

Keyin yig‘i to‘xtadi, Montanelli yig‘lab-yig‘lab tiyilgan bola singari ko‘zlarini ro‘molcha bilan arta boshladi. Ko‘zlarini artib o‘rnidan turganda, ro‘molcha tizzasidan sirg‘anib polga tushdi.

– Endi gapning hojati qolmadi, – dedi u. – Tushundingmi gapimni?

– Ha, tushundim, – deb So‘na haybatli bir itoat bilan javob qildi. – Ayb sizda emas.

Montanelli unga yuzlandi. Ana shunda o‘rtaga shunday bir jimlik tushdiki, u yaqin orada ikkalasidan biriga qaziladigan go‘r jimligidan ham dahshatliroq edi.

Majburan ajratilgan ikki oshiq o'tradagi g'ovdan o'tolmay, bir-biriga ko'z uzisholmay qarab qolganidek, bular ham bir-birining ko'zlariga jimgina tikilib turdilar.

So'na yengilib, ko'zini avval tushirdi. Orqaga sapchib tushdi, yuzini yashirdi; Montanelli buni «ket» degan ma'noda tushundi. O'girilib, kameradan chiqib ketdi.

Faqat birgina daqiqqa o'tdi, So'na sapchib turdi.

— O, men bunga chidolmayman! Padre, qayt! Qayt!

Eshik yopiq edi. U kamerasinging devorlarini uzoq, sekin nazardan kechirdi va endi hamma narsaning tugaganini angladi.

Pastda, hovlida, kechasi bilan ko'katlar shitirlab chiqdi, ular, yaqinda belkurak zarbi bilan jonajon tomirlaridan ayribil so'lajaklar. Shu kecha mahbus ham kamerasida yolg'iz yig'lab chiqdi...

### Yettinchi bob

**S**eshanba kuni ertalab harbiy sud bo'ldi. Sud uncha uzoq cho'zilmadi, borib turgan darajada o'ta jo'n o'tdi. U atigi yigirma daqiqagina cho'zilgan quruq rasmiyatichilikdan boshqa narsa emas edi. Vaqt ni ko'p sarf qilib o'tirishning ham keragi yo'q edi-da. Himoyachiga yo'l qo'yilmadi. Yaralangan josus, zabit va bir necha soldat guvoh bo'lib o'tdi. Hukm oldindan chiqarib qo'yilgan: Montanelli polkovnik talab qilgan rizolikni bergen edi. Polkovnik Ferrari, yerli otliq askar mayori va Shveysariya gvardiyasining ikki zubitidan iborat bo'lgan sud hay'atiga hukmni oxiriga yetkazishgina qolgan edi. Aybnoma o'qildi. Shohidlar guvohlik berdilar. Hukmni imzolar bilan mustahkamlab, mahbusga lozim tantana va dabdaba bilan o'qib eshittirdilar. U indamasdan eshitdi; rasmiy odatga ko'ra, aytadigan gapi bormi-yo'qligini

so'rashganda, g'ashi kelib, qo'lini siltab qo'ya qoldi. Montanelli tushirib qo'ygan ro'molchani bag'riga yashirib olgan edi. Uni lablariga bosib o'pdi, tirik jon boshida o'tirgandek, kechasi bilan shu ro'molcha yonida o'tirib yig'lab chiqdi. Endi chehrasi qonsiz, qandaydir jonsiz bir ahvolga tushgan, ko'zlar tevaragida yosh izlari qolgan edi. «Otilsin» so'zi qattiq ta'sir qilmadi shekilli, uni eshitganda, ko'zlarining oqi biroz kengayib qo'ydi xolos.

Rasmiy ishlar tamom bo'lgandan so'ng, polkovnik:

– Kameraga olib boringlar, – deb buyurdi.

Aftidan, bu ahvolga zo'rg'a-zo'rg'a chidab turgan serjant qotib qolgan mahbusni yelkasidan tortdi. So'na unga cho'chiganday qaradi.

– Ha-ya! Esimdan chiqibdi, – dedi u.

Polkovnik mahbus bilan chiqib ketayotgan serjantni birdan to'xtatdi.

– To'xtang, serjant! Unga aytadigan gapim bor.

So'na joyidan jilmadi. Polkovnikning so'zi eshitilmadi shekilli.

– Do'stlariningizgami, yo qarindoshlaringizgami tayinlaydigan biror muhim gapingiz yo'qmi? Qarindoshlaringiz bordir deyman?

Javob bo'lmadi.

– Shunday qiling: o'ylab ko'rib, mengami yo ruhoniygami aying. Bu masalada xizmatimni ayamayman. Yaxshisi, gapingiz bo'lsa, ruhoni otaga ayta qoling. Hozir kelib, kechasi bilan yoningizda o'tirib chiqadi. Mabodo boshqa tilagingiz bo'lsa...

So'na ko'zlarini ko'tardi.

– Ruhoni otaga aytib qo'ysangiz: men tanho qolishni istayman. Undan keyin, mening do'starim yo'q, ularga tayinlaydigan gapim ham yo'q.

– Tavba qilishingiz kerak-ku.

— Men xudosizman. Meni faqat o‘z holimga qo‘ysalaringiz bas.

U bu so‘zlarni vazmin, hazin bir ohangda gapirdi. Ovozida na tajanglik va na dag‘allik alomatlari bor edi. Shu so‘zni aytib bo‘lib, o‘girildi. Lekin ostonada birdan to‘xtab qoldi.

— Bir narsa esimdan chiqibdi, polkovnik. Sizga bir iltimosim bor. Buyursangiz: ertaga o‘zimni ham, ko‘zimni ham bog‘lashmasin. Butunlay jim turib beraman.

\* \* \*

Chorshanba kuni ertalab, kun chiqar paytida uni hovliga olib chiqishdi. Oqsoqligi odatdagidan ko‘proq sezilib turar edi. Og‘riqning zo‘ridan oyoqlarini zo‘rg‘a-zo‘rg‘a bosar, butun og‘irligini serjant qo‘liga solib borardi.

Chehrasidagi horg‘in itoatkorlik alomatlari endi tamom tarqalgan. Kecha jimligida uni qattiq ezgan dahshat vahmi, bahaybat xulyolar, u dunyo haqidagi fikr-u xayollar o‘zlarini tug‘dirgan kecha bilan birga yo‘q bo‘lib ketdi. Quyosh yarqirab chiqqandan so‘ng dushmanlariga yuzmavuz kelganda unda yana kurash ruhi uyg‘ondi, u ortiq hech nimadan tap tortmay qoldi.

Hukmni ijro qilishga tayinlangan olti nafar soldat devor ro‘parasiga bir qator qilib tizib qo‘yilgan edi. So‘na muvaffaqiyatsizlikka uchragan qochish kechasi osilib tushgan devor – chirmovgul bosgan, yorilib, yarim-yorti yiqilib yotgan mana shu devor edi. Qo‘llariga miltiq ushlatib qatorga tizib qo‘yilgan soldatlar yig‘lab yuborishdan o‘zlarini zo‘rg‘a tutib turardilar. So‘nani o‘ldirishimiz kerak degan fikrning o‘ziyoq ular uchun dahshatli bir narsa bo‘lib tuyilardi. So‘na o‘zining sanchib oladigan o‘tkir javoblari, doimiy kulgilari, quyosh nuri kabi charog‘on, shodon mardligi bilan ularning kulrang, bir

taxlit hayotlariga singib ketgan edi. Endi ularning qo‘lida o‘lishi esa ular uchun kuppa-kunduzi quyosh so‘nganday qo‘rqinchli edi.

So‘nani hovlidagi kattakon majnuntol tagiga qazilgan go‘r kutib turibdi. Uni kechasi majbur etilgan qo‘llar qazidi, belkuraklarga yoshlari to‘kildi! U go‘r yonidan o‘ta turib, qorong‘i xandaqqa va uning yonida so‘lib yotgan ko‘katlarga kulumisirab qaradi, yangi qazilgan yer hidini ichiga tortib chuqur nafas oldi.

Serjant daraxt yonida to‘xtadi. So‘na atrofiga ajib bir jilmayish bilan qaradi.

— Shu yerda turaymi, serjant?

Serjant indamasdan bosh irg‘adi. Bo‘g‘izida yumaloq bir narsa turib qolganday edi: hayoti bir oriq so‘zga bog‘liq bo‘lsa, hozir ana shu so‘zni ham aytolmas edi. Hovlida polkovnikning o‘zi uning jiyani, otish mahalida komandirlik qilishi kerak bo‘lgan karabinyorlarning boshlig‘i, doktor va ruhoniylar ota hozir bo‘lgan edilar.

Ular So‘na ko‘zlarining jasorat bilan porpirab turgan nazaridan xijolat tortib, oldinga jiddiy bir tusda chiqishdi.

— Salom, janoblar! O, ruhoniylar ota hazratlari ham shu qadar barvaqt turibdilar-da! Ahvollar qalay, kapitan? Bugungi uchrashishimizdan mammun bo‘lsangiz kerak, a? To‘g‘ri aytdimmi? Iye, hali ham qo‘lingiz bog‘liq-ku. Hamma ayb mo‘ljalga urmaganimda. Mana bu azamatlar ishlarini qotirishsa kerak. Shundaymi, og‘aynilar?

Soldatlarning xo‘mrayib turgan yuzlariga nazar solib chiqdi.

— Bu safar ko‘zni bog‘lab o‘tirishning hojati bo‘lmas. Menga bunaqa xafa bo‘lib qaramanglar! Oyoqlaringizni kerib turib, mo‘ljalga qanday urishlaringizni bir ko‘rsatinglar. Yaqinda ishlarining shuncha ko‘payib ketadiki, qanday uddalaysizlar deb hayronman. Avvaldan mashq qilib turish kerak.

– O‘g‘lim, – dedi ruhoniy oldinga o‘tib borib. Ularni alohida qoldirib, boshqalar uzoqlashdi. Bir necha daqiqadan keyin yaratguvchiningiz oldida bo‘lasiz. Tavba-tazarru uchun qolgan fursatdan nahotki foydalanmasangiz? Yolvorib so‘rayman, o‘ylab ko‘ring: tavba qilmasdan, yurakda katta gunohlar bilan o‘lib ketishdan dahshatli narsa bormikin! Dargohiga borganingizda tavbaning vaqtı o‘tgan bo‘ladi. Nahotki uning taxtiga lablarda hazil bilan borsangiz?

– Hazil bilan dedilarmi, hazratim? Nazarimda, siz va sizga o‘xshaganlar mana shu xil xristian ta’limotiga muhtoj ko‘rinadi. Navbat bizlarga kelganda, zang bosgan yarim dyujina miltiqni emas, zambaraklarni ishga solamiz. Bizning qanaqa hazil qilishimizni ana shunda ko‘rasiz.

– Zambaraklarni ishga solasiz? O, sho‘rpeshona? Qanday jar yoqasida turganingizni nahotki anglamasangiz?

So‘na og‘zi qorayib turgan go‘rga yelkasi orqali qaradi.

– Hali taqsirim meni u yerga tushirish bilan mendan qutuldim, deb o‘ylasalar kerak? Tamoman xotirjam bo‘lish uchun, balki, go‘rim ustiga tosh ham bostirib qo‘yarlar? Qo‘rqmasinlar, taqsirim! Meni qo‘ygan joyingizda sichqonday jim yotaman... shunday bo‘lsa ham zambaraklarni ishga solamiz.

– E, parvardigori olam! – deb ruhoniy xitob qildi. – Bu baxti qorani o‘zing kechir!

Otishga komanda berishi kerak bo‘lgan zabit yo‘g‘on tovush bilan:

– Omin, – degan edi, polkovnik bilan jiyani taqvodorlik bilan cho‘qinishdi.

Pand-u nasihatlardan hech nima chiqmasligi ma’lum bo‘lgandan keyin ruhoniy ortiqcha urinishdan voz kechdida, bosh chayqab va ichida duo o‘qib, nari ketdi. Oddiy tayyorgarliklar sira kechiktirmay joyiga yetkazildi. So‘na chiqib kelayotgan quyoshning qizil va sariq yog‘dulariga bir zumgina qarab olgach, talab qilingan

tarzda turib berdi. U faqat ko'zlarini bog'lamaslik to'g'risidagi iltimosini takrorladi. Polkovnik uning yuzidagi yovlashuvchi ifodani ko'rib, ixtiyoriga qarshi rozi bo'ldi. Bu hol soldatlarning ishini og'irlashtirishini ikkalasi ham esdan chiqargan edi.

So'na ularning ko'zlariga kulumisrab qarab turar, soldatlarning qo'llaridagi miltiqlar titrar edi.

— Men tayyorman, — dedi u.

Leytenant bir qadam oldinga chiqdi. Hayajonidan titrar edi. U hech vaqt hukm ijrosida komanda bermagan edi.

— Tayyor bo'l! Mo'ljalga ol! Ot!

So'na xiyol gandirakladi-yu, lekin yiqilmadi. Bo'sh-roq qo'ldan chiqarilgan bir o'q yuzini shilib ketdi. Oq galstugiga bir necha tomchi qon tushdi. Ikkinchisi o'q tizzasining yuqorisiga tegdi. Tutun tarqalganda soldatlar uni hamon ro'paralarida kulumisrab, mayib qo'li bilan yuzidagi qonlarni artib turganini ko'rdilar.

— Nishonga urolmadinglar, og'aynilar! — dedi u. Uning aniq va ravshan ovozi dahshatdan qotib qolgan baxtsiz soldatlarning yuraklariga nishtar bo'lib sanchildi. — Yana otib ko'ringlar!

Soldatlar qatorida zorlanish boshlandi. Har bir soldat: mahkumni men emas, qo'shnim chiqargan o'q o'ldiradi, degan yashirin niyat bilan nishonni chetga olgandi.

Mana endi mahbus yiqilmasdan ularga kulumisrab qarab turibdi. Bu dahshatli ishni yana takrorlash kerak: ular qatlni kushxonaga aylantirib yubordilar. Soldatlarni dahshat bosdi. Ular miltiqlarini tushirib, zabitning g'azabli haqoratlariga bo'yin egib quloq solar va o'zlarini o'ldirgan bo'lsalar ham, hamon tirik qolgan kishiga alamli xo'mrayish bilan ko'z olaytirib turardilar.

Polkovnik mushtini ularning yuzlari oldida o'ynatib do'q urdi, g'azabi qaynab, qatorga turishga, miltiqlini mo'ljalga olishga va bu ishni tezroq bitirishga buyurdi.

Uning o‘zi ham soldatlar singari butunlay shoshib qoldi; hamon tik turgan, yiqilishni sira-sira istamagan taajjub arvohma qarashga yuragi betlamas edi. So‘na unga qarab gapirganda, yuragi chiqib ketayozdi. Mana bu masxara etguvchi tovushning birinchi unini eshitishi bilanoq uni qaltiroq bosdi.

— Ana xolos, bugun shunaqayam noshud otryadni olib chiqasizmi, polkovnik! Qani, ko‘raylikchi, zora men epaqaga solsam ularni. Qani, azamatlar! Chap qanotda turgan yigit, miltiqni balandroq ushlang! Xudo yoringiz bo‘lsin, og‘ayni! Qo‘lingizdagi tova emas, miltiq-ku axir! Hammanglar mo‘ljalga oldinglarmi? Endi: tayyor bo‘l!..

— Ot! — polkovnik oldinga tashlanib, uning komandasini bo‘ldi.

Bunga odam bolasi chiday olmas, komandaning so‘nggi so‘zini o‘lim kishisining o‘zi aytishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmash edi.

Jasoratsizlik bilan uzilgan yana bir zalp tartibsizlik bilan yangradi. Soldatlarning tekis qatori buzildi, ular ro‘parasiga vahima bilan qarab, titrab turgan odamlar galasiga aylandilar. Bittasi hatto otmadi ham. Miltig‘ini irg‘itib tashlab, yerga yotib oldi. «Otolmayman, otolmayman!» deb ingradi.

Tutunlar buluti ertalabki yorqin nur yorug‘ida ko‘tarilib, asta-sekin parchalanib bordi. Ular So‘naning yiqilib yotganini ko‘rdilar, shu bilan birga tirik ekanini ham ko‘rdilar. Soldatlar bilan zabitlar So‘naning o‘lim talvasasida yerda pitirlab yotganini ko‘rib, toshday qotib qoldilar. Ana shundan keyin polkovnik bilan doktor u tomonga hayhaylashib yugurdi, chunki u bir tizzasini qo‘yib cho‘kkalab olgan va soldatlarning yuzlariga qarab yana kulib turgan edi.

— Yana urolmadinglar! Tag‘in bir marta... otib ko‘ringlar, og‘aynilar! Ha-ha... Otolmasanglar...

Birdan gandiraklab o'tlar ustiga yoni bilan ag'darilib tushdi.

— O'ldimi? — deb so'radi polkovnik, past tovush bilan.

Doktor tiz cho'kkalab turib, qonli ko'yak ustida yotgan qo'lni ushladi-da, yumshoq qilib:

— Ha, o'ldi shekilli... Xudoga shukur! — dedi.

— Xudoga shukur! — deb polkovnik ham takrorladi. — Axiri o'ldi-ya!

Jiyani yengidan tortdi.

— Amaki, kardinal keldi! Kirmoqchi bo'lib darvoza oldida turibdi.

— Nima? Kirmaydi... Xohlamayman! Qorovul nimaga anqayib turibdi? Hazratim...

Darvoza bir ochilib, yana yopildi. Tinib dahshat to'lib qolgan ko'zлari bilan oldinga qarab hovlida Montanelli turar edi.

— Hazratim! Janoblaridan iltimos... Bu sizbop manzara emas! Hozirgina otib bo'ldik. Jasad hali...

— Men uni bir ko'ray deb keldim, — dedi Montanelli.

Uning tovushi bilan yurishi polkovnikni hozirgi paytda ham hayron qildi: u xuddi ko'cha dovdiriga o'xshar edi.

Soldatlardan biri qo'qqisdan:

— Voy xudo! — deb qichqirib yubordi.

Polkovnik yalt etib qaradi.

— Shunday bo'lar devdim-a!

Qonga belangan jasad ingray, o'tlar ustida tipirchilay boshlagan edi. Doktor engashib jon berayotgan mahbus kallasini tizzasiga qo'ydi.

— Tezroq! — deb qichqirdi u, g'azab bilan. — Tezroq bo'linglar, vahshiylar! Xudo haqi, tugatinglar! Bunga chidab bo'ladimi!

Qo'llaridan sharillab qon oqib tushdi. Jon talvasasida tipirchilayotgan jasadni ushlab turib, uning o'zi ham

boshdan oyoq titramoqda edi. Dahshatning zo'ridan esini yo'qotib, yordam topish niyatida tevaragiga jovidiray boshlaganda, ruhoniyl kelib uning yelkasi ustidan engashib, jon beruvchining lablariga butni bosdi.

— Gunohingni xudoning o'zi kechirsin...

So'na doktorning tizzasiga suyanib, yarim-yorti turdi-da, butga ko'zlarini olaytirib qaradi.

O'rta ga so'lg'in bir jimlik tushdi, So'na o'q tekkan o'ng qo'lini sekin ko'tarib borib, butni itarib yubordi. Yuzida qonli yara tirjayib turardi.

— Padre, endi... ko'nglingiz to'ldimi?

Kallasi doktorning qo'liga shilq etib tushdi.

— Hazratim!

Kardinal qimir etmay turib qolgani uchun polkovnik Ferrari yana ham qattiqroq murojaat qildi:

— Hazratim!

Montanelli ko'zlarini ko'tardi.

— O'ldimi?

— O'ldi, hazratim. Bu yerdan ketsalar qalay bo'larkan?

Ko'p xunuk manzara-da bu.

— O'ldi, — Montanelli takrorlab, So'naning yuziga qaradi. — O'ldi.

Otryad boshlig'inining g'ashi keldi.

— Yarim dyujina o'q yegan odamdan yana nima kutar ekan? — dedi u pichirlab.

Doktor ham unga pichirlab javob qildi:

— Qonni ko'rib, kayfi buzildi shekilli.

Polkovnik qo'lini Montanellining qo'li ustiga qo'ydi.

— Hazratim... Qo'ysinlar, unga qaramasinlar. Ijozat etsalar, kapellan<sup>1</sup> janoblarini uylariga kuzatib qo'ysa.

— Xo'p... Ketaman.

---

<sup>1</sup> *Kapellan* — katoliklarda cherkov ruhoniysining yordamchisi.

U qonga belanib yotgan jasaddan yuzini sekin o'girib, nari yurib ketdi. Orqasidan pop bilan serjant bordi. Darvozaga yetganda orqasiga qayrilib qaradi.

– O'ldi...

\* \* \*

Bir necha soatdan so'ng Markone qirga yopishtirib solingan uylarning biriga yetib keldi; u Martiniga jonini qurbon qilishning endi keragi yo'qligini aytish uchun kelgan edi.

So'nani qochirib yuborish to'g'risida tuzilgan bu galgi reja avvalgisidan ancha sodda bo'lgani bois barcha tayyorgarliklar allaqachon ko'rib qo'yilgan edi. Bunday qilishmoqchi bo'ldilar: ertasiga ertalab, marosim hazrati Iso tanini tuproqko'rg'on yonidan ko'tarib o'tayotganda Martini olomon ichidan yorib chiqib, to'pponchasini qo'ynidan olishi va polkovnikning yuziga otishi kerak edi. Umumiy to'polon mahalida qurolli kishilardan yigirmatasi birdan turma darvozasiga tashlanadi-da, minoraga yopirilib chiqib, kalitni zo'rlik bilan oladi, mahbus kamerasiga kiradi va to'sqinlik qilganlarni urib, yiqitib, o'ldirib, So'nani olib qochadi. Undan so'ngra qurolli tog'liklardan tashkil topgan va So'nani toqqa olib chiqib, ishonchliroq joyga yashirish vazifasi yuklatilgan ikkinchi otryadning chekinishini himoya qilib, darvozadan sekin-sekin uzoqlashib boradi.

Kichkina g'alayonchilar gruppasida bu rejadan faqat Jemmagina bexabar edi. Martini: «Bu narsalarni yuragi ko'tarolmaydi» deb rejani Jemmadan yashirtirgan edi.

Kontrabandist bog' darchasidan kirib kelganda Martini oynavand eshikni ochib, uni kutib olgani chiqdi.

– Yangi xabar bormi, Markone?

Kontrabandist javob berish o'mniga keng qirrali poxol shlyapasini peshonasiga tushirib oldi.

Ikkovi ayvonda o'tirdi. Na u va na bu bir og'iz so'z aytdi. Lekin Martini Markone shlyapasining qirrasi ostidan ko'rini turgan yuz ifodasiga qarab, hamma gapga tushundi. Uzoq sukutdan keyin:

— Qachon? — deb so'radi u.

Shunda o'z ovozi hozir ko'ziga ko'rini ketgan dunyo singari g'amgin, ezgin eshitildi.

— Bugun sahar. Serjant aytdi. O'sha yerda ekan, ko'ribdi.

Martini xo'mraydi, pidjaginieng yengidan qayerdadir ilashib qolgan ipni qoqib tushirdi.

U ertaga o'lishi kerak edi. Botib borayotgan quyoshning oltin nurlaridan hosil topgan afsonaviy manzara qorong'i tushishi bilan yo'qolib ketganidek, uni chorlab turgan tilak ham mana endi yo'q bo'ldi.

U yana oddiy dunyosiga, ya'ni Grassinilar va Gallilar, shifr va pamfletlar, o'rtoqlar orasidagi partiyaviy qiypichoqlar, Avstriya josuslari ishlatadigan qabih nayranglar dunyosiga, — qisqasi, revolutsianing qachondan beri joniga tegib yurgan eski tegrimoniga qaytadi. Qalbining chuqur bir yerida endi hech nima bilan to'ldirib bo'lmaydigan tagsiz choh tirjayib turardi, chunki ortiq So'na yo'q edi.

Allakim nimanidir so'radi. Martini odamlarning ko'ngliga gap siqqaniga hayron bo'lib, boshini ko'tardi.

— Nima dedingiz?

— Bu xabarni Jemmaga o'zingiz aytangiz kerak, dedim.

Martinining yuziga dahshat cho'kdi. U qichqirib:

— Qanday aytaman? — dedi. — Undan ko'ra, uni borib o'ldirib kel deya qolmaysizlarmi? O, qanday aytaman, qanday qilib aytaman unga?!

Ko'zlarini qo'llari bilan to'sdi. Ko'rmasa ham kontrabandistning seskanib tushganini sezib, boshini ko'tardi: Jemma ostonada turgan edi.

— Eshitdingizmi, Chezare? — dedi u. — Hammasi tugadi. Otishibdi.

## Sakkizinch bob

— | ntroido ad altare Dei<sup>1</sup>. — Montanelli ruhoniylar va cherkov xodimlari o‘rab olgan katta taxt oldida turib, baland va ravshan tovush bilan «Introit» ni o‘qiyotgan edi. Cherkov yog‘duga cho‘mgan va kamalakday turli rangda tovlanib turgan edi. Hamma narsa — ibodat qiluvchilarining bayram kiyimlaridan tortib yarqiroq matolar tilgan va gulchambarlar osilgan stunlargacha — hayot nashasi bilan barq urib yotadi. Lang ochib qo‘yilgan eshiklar ustiga og‘ir qizil pardalar tortilgan, ammo iyun quyoshining qizg‘in nurlari dalalardagi lolaqizg‘aldoqlarning qizil yaproqchalarini qanday teshib o‘tsalar, bu pardalarni ham shunday teshib o‘tardi. Odatda hamisha ola qorong‘i bo‘lib turadigan yon tomonlarni monaxlar jamiyatlarining shu yerda turgan vakillari qo‘lidagi shamlar va mash’allar yoritmoqda. Ayrim cherkovlarning but va turlari ham o‘sha yerda. Tantana marosimida olib chiqiladigan bayroqlar yon dahlizlarga tikka qilib qo‘yilgan; ularning shoyi uchlari yergacha tushib, zarrin popuklari va yog‘och soplar nimqorong‘i gumbazlar tagida yiltillab ko‘rinardi. Derazalarning rangli oynalaridan tushib turgan yorug‘ cherkov ashulachilarining oq kiyimlarini kamalakning barcha ranglarida bo‘yab, mehrob polida qizil, sariq va yashil dog‘ bo‘lib yotardi. Taxt orqasidagi zarbob parda quyoshda yarqirab, tovlanib turadi. Kardinal ana shu zarbob parda oldida, bezaklar va chirog‘lar orasida, xuddi hayot nafasi tekkan haykalday, uzun oq libosda turardi.

Odat talabicha, bayram kunlarida marosimni kardinal boshlab berardi-yu, lekin o‘zi ibodat shartlarida bo‘lmash edi. «Indulgentiam»<sup>2</sup>-ni tugatib, bosh taxtdan uzoqlashdi

<sup>1</sup> «Xudoning taxtiga peshonamizni surtaylik» — ibodat shu so‘zlar bilan boshlanadi. «Introit» — ibodatning birinchi so‘zidan olingan nomi.

<sup>2</sup> Gunohlarni o‘tish duosi.

va sekin-sekin yurib yepiskop taxtiga ketdi. Ruhoniyalar va cherkov xodimlari yonidan o'tar ekan, ular bosh egib ta'zim qilishardi.

• Kanoniklardan biri:

– Kardinal hazratlari betobga o'xshaydilar deyman-da, – dedi ikkinchisiga. – Ahvollari juda ham parishon.

Ibodat odatdag'i tartibda davom etdi. Montanelli biron muskulini ham qimirlatmasdan qaqqayib o'tirdi. Quyosh kulohining yarqirab turgan qimmatbaho toshlariga va kiyimining zarlariga tushib o'ynardi. Oq bayram yaktagining og'ir etaklari gilamga tushib yotadi. Yuzlarcha sham yorug'i ko'kragidagi zumradlarda jilviraydi. Lekin harakatsiz chuqur ko'zлari hamon tussiz holida qolgan, ularda quyosh nurlari aks urmaydi. «Benedicite, pater cminentissime»<sup>1</sup> so'zлari yangray boshlaganda, u isiriqdonga dam solgani egildi.

Tabarruk in'omlarni tashqariga chiqarish mahalida Montanelli o'midan turib, taxt oldiga tiz cho'kdi. Keyin u yerdan ham turib, tag'in boyagi joyiga borib o'tirdi. Hamma harakatlari g'alati, bir xil edi. Polkovnikning orqasida bayram mundiri kiyib o'tirgan otliq askar mayori yarador kapitanga o'girilib pichirladi:

– Qari kardinalning mazasi ketibdi, juda yomon bo'libdi. Albatta ketadi-da. Qarang hamma narsani mashinaday qilayapti. Qilayotgan narsasini o'zi ham sezmayotganga o'xshaydi.

– Badtar bo'lsin, – dedi kapitan ham pichirlab. – Ana shu la'nati amnistiyadan keyin ko'zimizga tushgan oq bo'lib qoluvdi.

– Shunday bo'lsa ham, harbiy sud to'g'risida yon bosdi.

– Ha, axir yon bosdi. Lekin bu qarorga kelguncha o'zi ham rosa sudradi-da. Voy xudo, muncha dim! Marosim

---

<sup>1</sup> «Fatvo bering, padari buzrukvor».

tugaguncha hammamizni oftob urib ketadi. Afsuski, kardinal emasmiz, boshimizda yo'l bo'yи soyabon ko'tarib borishardi. Jim! Amakim qarab turibdi.

Ibodat tugab, tabarruk in'omlar marosimda ko'tarib chiqiladigan quti oynasining tagiga qo'yilganda, ruhoniylar kiyimlarini o'zgartirgani ketdilar.

Cherkovning har joy-har joyida odamlar shivirlashardi. Montanelli harakatsiz ko'zlarini oldinga tikib, hamon taxtda o'tirar edi. Taxt atrofida inson to'lqinlarining butun bir okeani quturib, keyin oyoqlari ostida jimb qolayotganday tuyilardi. Unga isiriqdonni tutishganda, o'ngiga ham, chapiga ham qaramay, hissiz bir harakat bilan ladan' tashladi.

Ruhoniylar kiyinib chiqishib, kardinalni mehrobda kutib turgan edilar, kardinal esa o'tirgan yerida qotib qolganday ko'rindi. Diakonlik vazifasini ado etuvchi ruhoniylar kardinal boshidan kulohini olgani engashib turib, ko'ngilda bir gumon bilan:

– Hazratim! – dedi.

Kardinal qayrilib qaradi.

– Nima dedingiz?

– Marosimga chiqishga hazratimning madorlari yetarmikan, imonlari komilmi? Oftob zaptiga olib qizdirayapti.

– Oftob bilan nima ishim bor?

Montanelli vazmin, salmoqli tovush bilan gapirgan edi, ruhoniylar g'ashiga tegib qo'ydimmi deb o'yladi.

– Ma'zur ko'rsinlar, hazratim. Menga betobday ko'rindilar.

Montanelli javob qilmay o'midan turdi. Keyin taxtning eng yuqori pog'onasida to'xtab, yana boyagi g'alati, salmoqli tovush bilan so'radi:

<sup>1</sup> *Ladan (forscha)* – isiriq o'mida yoqiladigan o'simlik qovuri – yondirilganda yoqimli hid beradi.

– Nima anavi?

Uzun oq yaktagining etagi zinadan mehrob poliga tushib turgan edi. Oq atlasdagи qizil dog‘ga barmog‘ini bigiz qilib ko‘rsatdi.

– Rangli oynadan tushib turgan oftob nuri-u, hazratim.

– Oftob nuri? Shunaqa qizil bo‘ladimi?

U zinadan tushdi-a, isiriqdonni sekin-sekin chayqatib, taxt oldiga tiz cho‘kdi. Keyin isiriqdonni ruhoniya uzatdi. Oftob kardinalning yalang boshiga rangli qorlar tushirdi; keng ochilib, yuqoriga qarab turgan ko‘zlariga kelib urildi va etaklarini tevaragida ruhoniylar tuzatib turgan oq yaktagini qizil shu‘la bilan yoritdi.

U tabarruk tilla qutini diakondan oldi-da, tantanali duo yangrab bo‘lguncha qo‘lida ushlab turdi.

Cherkov xizmatchilar kelib kardinalning boshi ustiga uning shoyi soyabonini ko‘tardilar. Diakonlik vazifasini ado etuvchi ruhoniylar uning o‘ng va chap tomonlariga turib, yaktagining etaklarini orqaga surib qo‘ydilar; shamadorlar kardinal jomasining etagini ko‘targani engashdilar. Marosim oldiga o‘tib olgan monaxlar jamiyatlarining vakillari cherkov o‘rtasiga chiqdilar-da, ikkita tekis qator bo‘lib oldinga yurib ketdilar.

Montanelli taxt yonida, oppoq soyabon tagida, o‘tib borayotgan marosimdan ko‘zlarini uzmay, tabarruk in’omlarni qo‘llarida mahkam ushlab turardi. Odamlar yoqib turgan shamlar, mash‘allar, butlar, tug‘lar, bayroqlar, alamlar bilan ikkita-ikkita bo‘lib o‘taverdilar. Ular mehrob zinasidan sekin tushdilar, gullar bilan bezatilgan ustunlar orasidan, keyin eshik ustiga ko‘tarib qo‘yilgan alvon parda tagidan o‘tib borib, oftob charaqlab turgan ko‘chaga chiqdilar. Oldinda ashula aytib ketayotganlarning unlari, asta-sekin o‘chib, dudmal g‘ovurga aylanar, birozdan keyin u g‘ovurni bosib, yangidan yangi ovozlar yangrar edi. Marosim qatori uchsiz lentaday cho‘zilib, cherkov

gumbazlari ostida odamlar dupuri uzoq vaqt eshitilib turdi.

Cherkov bo‘limlarining vakillari yuzlarini berkitib, oq kafanlariga burkanib o‘tdilar. Keyin, boshdan oyoq qora kiyangan shafqat birodarlari ko‘rindi. Ularning niqob tagidan ko‘zлari yiltirab turardi. Ular ortidan monaxlarning uzun qatori cho‘zilib bordi. Yalangoyoqlari oftobda kuygan, qora boshliq kiygan va kunlarini jo‘rttaga bechorachilikda o‘tkazib yurgan birodarlar ular ortidan boshdan oyoq oppoq kiyangan salobatli dominikanlar o‘tdilar. So‘ngra harbiy va grajdan ma’murlar: otliq askarlar, piyoda askarlar, mahalliy politsiya amaldorlari bordilar. Oxirda kattakon but ko‘targan bir diakon bilan shamlari yonib turgan ikkita shAMDOR o‘tdi.

Bularni o‘tkazish uchun eshik pardalari ikki yoqqa tortib qo‘yildi. Montanelli soyabon tagida o‘tirgan yeridan quyosh nurlariga cho‘mgan va gilam to‘shalgan ko‘chani, devorlariga bayroqlar osilgan uylar va ko‘chaga atirgullar sochib yurgan oq kiyimli bolalarni ko‘rdi. Oh, bu atirgullar! Naqadar chiroyli ular!

Marosimchilar qatorlarini buzmay, sekin-sekin bordilar. Montanelli salb yurishini boshlab bordi.

U, mehrob zinasidan tushib, cherkov o‘rtasiga keldi. Avval organning<sup>1</sup> tantanali ovozi yangrab turgan xorlar<sup>2</sup> ostidan, keyin esa ko‘cha eshigining pardasi tagidan o‘tdi. Parda biram qizilki! Ana u ko‘chaga chiqdi: ko‘cha charog‘on, ko‘zлarni qamashtiradi. Qizil gilam ustida qonga o‘xhash qip-qizil atirgullar so‘lib yotibdi; ularni haddi-hisobsiz odamlar depsib o‘tganlar. Shahar ma’murlarining vakillari eshik oldida bir daqiqagina to‘xtatib, soyabon ko‘taruvchilarni alishtirganlaridan keyin marosimchilar

<sup>1</sup> Organ (grekcha) – garmon sistemasidagi kattakon cholq‘u asbobi. Tarj.

<sup>2</sup> Xor (grekcha) – cherkovda ashulachilar boloxonasi. Tarj.

yana ilgari yurdilar; Montanelli ham, tabarruk in omlar qutisini mahkam ushlab, marosimchilar bilan birga bordi. Tevaragida ashulachilarning ovozlari goh gurkirab ketadi, goh so'nib, yo'q bo'ladi. Ovozlarga hamohang bo'lib isiriqdonlar chayqaladi, inson dengizining to'lqinlari o'kiradi.

Hammayoqda qon, qon! Oldidagi gilam – qizil qon daryosiga, atirgullar esa toshlarga sachragan qon dog'lariga o'xshab ko'rindi... O, marhamatli tangri! Sening ixtiyoriningdagi yer-u ko'k nahotki qon tusidan qizarib ketgan bo'lsa? O, qodir xudo, nima keragi bor senga shuncha qonning?

U quti oynasidan tabarruk nasibaga qaradi. Qutidagi kulchadan oltin yog'dular oralab oqib chiqayotgan va o'zining oppoq kiyimiga chakillab tomayotgan narsa nima? Shunga o'xshagan bir narsani, tomib turgan... ko'tarilgan qo'ldan tomganni ko'rmabmidi? Turma hovlisidagi ko'katlar bosilgan, qizargan... qon shu qadar ko'p to'kilgan edi. Qon yuzlaridan oqar, qon o'q tekkan o'ng qo'lidan tomar, qon biqinidagi teshikdan qizil, qizg'in oqin bo'lib quyular edi. Hatto bir siqim sochi ham qonga chayilgan... ha peshonasiga qo'l, chigal sochlari tushib qolgan... sochining ho'lligi jon berish oldida chiqqan terdan... uni dahshatlilikyinoq chiqargan...

Ashulachilarning tovushlari kuchaydi, tantanali ovozlar eshitildi:

*Genitori, genitoque,  
Laus et ju bilatio  
Salus, honor, virtus, quoque.  
Sit et benedictio!*<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Ota va o'g'il maqtov va olqishlov; kunlar yorug' bo'lsin, vijdon, xayri saxovat va odamiyat barqaror bo'lsin!

O, bunga chidab bo'lmaydi! Yo rabbim, pastdag'i azob va o'limlarga osmondag'i taxtingdan qarab o'tirasan. Nahotki shuning o'zi kifoya bo'lmasa? Nahotki seni maqtash, boshlarga ko'tarish kerak? Odamlarga najot berish uchun Iso tani mixlab teshildi! Odamlarning gunohlarini yuvish uchun Iso qoni to'kildi... Nahotki shular ham, yetmadidi?

Ha, qattiqroq chaqir uni! Uxlab qolgan bo'lsa kerak.

Jonimdan ham ortiq sevgan aziz bolam, chindan ham uxlab yotibsan-u, endi hech vaqt uyg'onmaysanmi? Ajabo, go'r deganlari o'ljasini shuncha qizg'anib yashiradimi? Daraxt tagidagi qora chuqur hech vaqt ochilmasmikan, seni bir zum bo'lsa ham chiqarmasmikan, jondan aziz bolam?

\* \* \*

Marosimchilar cherkovga qaytib keldilar.

Montanelli haramga kirganda, ashula tovushlari tingan edi. U baland ko'tarilgan qo'llarida yoniq shamlar bilan o'z joylarida tiz cho'kib turgan monaxlar va poplarning sharpsi qatorlari orasidan o'tib bordi.

U, butun sabrini yig'ib, ibodatning tantanali qismini zo'rg'a oxiriga yetkazdi-da, o'zi uchun endi ahamiyatini yo'qotgan odatlarni mashinaday, hissiz bajardi. Fatvo bergandan so'ng taxt oldida yana tiz cho'kib, yuzini qo'llari bilan to'sdi. Gunohi o'tilganlar ro'yxatini o'qiyotgan popning ovozi eshitilib turgan edi, u ham tindi.

Kardinal o'rnidan turdi, odamlarni jimlikka chaqirib, qo'lini oldinga cho'zdi. Ibodatini qilib bo'lib, endi eshik tomon yo'l olganlar qaytdi. Cherkovda tez-tez bosilgan qadam dupurlari, kiyimlarning shitirlari va odamlarning: «Kardinal hazratlari gapirmoqchilar», degan shivirlari yelib o'tdi.

Tevaragida turgan poplar, bir-birlariga alang-jalang-lashib, Montanelliga yaqin keldilar. Ulardan bittasi shoshib-pishib:

— Hazratim xalqqa so‘zlamoqchilarmi? — deb shivirlagan edi, Montanelli indamay itarib yubordi.

Poplar pichirlashib, o‘zlarini nari oldilar. Bugun xalqqa so‘zlash odatga, hatto qoidaga xilof edi, shunday bo‘lsa ham kardinal huquqi bilganini qilishga yo‘l qo‘yardi. Kim bilsin, balki xalqqa aytadigan muhim gapi bordir: Rimdan keladigan yangi islohotni yoki papa hazratlari yuborgan yorliqni e’lon qilar?

Montanelli taxt zinapoyasidan pastga qaradi; u yerda o‘ziga o‘girilib dengizday chayqalib turgan inson yuzlarini ko‘rdi. Ular yondiruvchi bir maroq bilan tikilar, Montanelli esa, egnidagi oq kiyimi bilan arvohga o‘xshab, turgan yerida qotib turar edi. Marosim ishboshilari:

— Jim! — deb qichqirgan edilar, daraxtlarning uchlariga urilib hovuridan tushgan shamolday, ibodat qiluvchilar g‘ovuri ham darrov tina qoldi.

Yuzlarning hammasi taxt zinasida turgan oq gavdaga burildi, shu o‘lgin jimlikda kardinalning ravshan, salmoqli tovushi yangradi:

— Injilda lonn avliyo: «Parvardigori olam o‘z bandalarini shunday sevadiki, bandayi mo‘minlarim halok bo‘lmashin, abadiy hayot kechirsin deb, o‘z pushti kamaridan bo‘lmish o‘g‘lini qurban qildi», degan.

Sizlar sizlarni qutqazaman deb o‘zini qurban qilgan xaloskorning, ya’ni odamlarning gunohlarini zimmasiga olgan xudo qo‘zichog‘i, sizlarning gunohlarining orqasida o‘lib ketgan xudo o‘g‘lining tan va qon bayramiga yig‘ildinglar. Yo‘lingizda berilgan qurbanlikdan tatib ko‘rish va bu tufayli xudovandi karimga shukronalik bildirish uchun bayramga tantana bilan keldinglar. Bilaman, bugun ertalab, xaloskor tanidan tatib ko‘rish ziyofatiga kelayotganlaringizda, qalbingiz shod-u xurramlik bilan to‘lib-toshgan edi; ana shunda sizlarga najot berish uchun jonini qurban qilgan o‘g‘il xudo azoblari eslaringizga tushdi.

Aytinglar: o'z o'g'lini yog'ochga mixlatgan ota xudo azobini orangizda o'ylaganlar bo'ldimi?

Osmoni falakdag'i taxtidan Golgofga qarab turgan ota azoblarini orangizda eslaganlar bo'ldimi?

Bugun, tantana marosimida, qanday yurganlaringizni tomosha qildim, mo'min bandalar. Gunohlaringiz o'tilayotgani uchun yurak-yuraklaringizdan quvonganingizni, najot topayotganlaringiz uchun sevinganingizni ko'rdim. Sizlardan o'tinib so'rayman: najot haqqi qancha turganini o'ylab ko'ringlar. Juda qimmat turdi. U dur-u gavharlardan ham qimmat turdi, chunki unga qon bilan haq to'landi.

Quloq solib turganlar qatoridan yengil, bir titroq yugurib o'tdi. Mehrobda turgan poplar, bo'yinlarini cho'zishib, pichirlasha boshladilar. Va'zchi so'zini davom ettirgandan keyingina ularning pichir-pichiri tugadi.

— Ana shuning uchun bugun sizlarga aytadigan gapim shu: men sizlarni, sizlarning zaif tomonlaringizni, qayg'u-alamlaringizni, oyoqlaringiz ostida o'ralashib yurgan mayda bolalarni ko'rdim. Ularga jonim achidi chunki ular o'lishlari kerak. Keyin o'zimning o'g'limga, uning ko'zlariga tikildim, ko'zlaridan gunohini qon bilan yuvGANINI ko'rdim-u, uni o'z taqdiriga havola qilib, yo'limga ketaverdim.

Ana, gunohni o'tishning qandayligiga qarang. U sizlarni deb o'ldi, uni zimiston bag'riga oldi; u o'ldi, endi hech vaqt tirilmaydi; o'ldi, men o'g'ilsiz qoldim. O, bolam, bolam!

Montanellining qalbidan cho'ziq bir nola uzildi. Xaloyiq qo'rqib ketdi, u ham yuzlab aks sadolar bilan nolaga jo'r bo'ldi. Barcha ruhoniylar o'rinalidan turib ketdi. Diakonlar bo'lsa yugurib kelib, va'zchini qo'lidan ushlab olgan edilar, u yulqib chiqib, diakonlarning ko'zlariga qutirgan yirtqich qarashi bilan qaradi.

– Bu nima qilganlaring? Shuncha qon yetmadimi?  
Shoshmanglar, sizlarga ham navbat keladi, qashqirlar!  
Hammangiz to‘yasiz!

Uni sizlar o‘ldirdinglar! Sizlar o‘ldirdinglar! Men bunga sizlarni o‘lmasin deb yo‘l qo‘ydim. Mana endi, yolg‘on yaldoqlik va noplolar bilan oldimga kelganlaringizni ko‘rib, qilgan ishimga pushaymonman. Koshki edi u tirik qolsa-yu, sizlar gunohlaringizga botib chirib ketsalarlingiz, abadiy la’natga uchrasalaringiz! Sizlarning ruhlaringizni qutqazish uchun shuncha haq to‘landi; arziydimi shu haqqa u iflos ruhlaringiz?

Lekin vaqt o‘tdi, vaqt o‘tdi! Har qancha baqirib-chaqirmay, endi eshitmaydi. Qabrining eshigini har qancha qoqmay, endi uyg‘onmaydi. Sahroda bir o‘zim qoldim, ko‘zlarimning nuri ko‘milgan, laxta-laxta qonlari to‘kilgan yerdan nazarimni olib, bo‘m-bo‘sh, g‘alati osmonga qarayman. Meni g‘azab qamraydi. Men undan yuz o‘girdim, gazandalar, sizlarni deb yuz o‘girdim!

Mana sizning najotingiz! Olinglar! Irillashib yotgan itlarga qanday suyak tashlasa, men ham buni sizlarga shunday tashladim! Ziyofatingizning puli to‘lab qo‘yildi. Boringlar: burunlaringizdan chiqquncha yenglar, odamxo‘rlar, qonxo‘rlar, o‘lik yeguvchi quzg‘unlar! Qaranglar: taxt zinasidan bug‘lanib turgan qaynoq qon oqayapti. U qon o‘g‘limning qalbidan oqib chiqayapti, u sizlar uchun to‘kilgan! Balchiqqa yotib olib yalang endi uni, basharalaringizga surting endi uni! Taniga yopishing, talang, yeng... lekin meni o‘z holimga qo‘ying! Mana siz uchun qurban qilingan tan! Qaranglar! Hammayog‘i hilvirab, qon tizg‘ib turibdi; dilozor jon o‘lim talvasasida qaltirab, tipirchilab yotibdi. Olinglar, yenglar!

U tabarruk in’om kosasiga chang soldi, boshidan yuqori ko‘tarib turib zarb bilan yerga urdi. Metall idish toshga

tegib jaranglaganda, ruhoniylar yopirilib oldinga yugurdilar.  
Yigirma chog'li qo'l devonani qamrab oldi.

Xalqning taranglashib borgan jimlik tori ana shunda  
qattiq faryod va nolalar bilan uzildi.

Olomon stul va o'rindiqlarni ag'darib, yopiq eshiklarga  
urilib, bir-birini bosib, ezib, pardalar va gullarni tushirib,  
o'kirib, to'lqinlanib oqayotgan daryo singari ko'chaga  
toshib chiqdi.





## EPILOG

J emma, sizni pastda bir kishi so'rab kelibdi. Martini bu so'zlarni ehtiyyot bir ohangda aytdi. Keyingi o'n kundan beri ikkalasi ham bir-biriga shu zaylda gapiradigan bo'lib qolgan edi.

Bu ohang, so'z va harakatlaridagi vazmin raxonlik ulardagi alamning birdan-bir alomati edi.

Jemmaning egnidagi peshbandining yenglari shimarilgan u stol orqasida turib, o'q solingan mayda-mayda xaltachalarni taxlayapti. Tong sahardan beri shu ish bilan ovora bo'lgani uchun mana endi, tush mahaliga kelib, chehrasida qattiq horg'inlik alomatlari ko'rina boshladi.

- Kim ekan, Chezare? Nima ishi bor ekan?
  - Bilolmadim, azizim. Menga aytgani yo'q. Siz bilan alohida gaplashmoqchi ekan, shuni aytib qo'ysangiz deb so'radi xolos.
  - Xo'p, – Jemma peshbandini yechib, yenglarini tu-shirdi. – Nachora, pastga tushish kerak. Bo'lsa-bo'lmasa, joususdir-da.
  - Ehtiyyoti shartdan men yondagi uyda o'tirib turaman, kerak bo'lsam chaqirasiz. Uni jo'natganingizdan keyin darrov yoting-u, dam oling. Ertalabdan beri tik oyoqda turibsiz.
  - Yo'q, yo'q. Ishimni bajarganim yaxshi.
- Jemma zinadan shoshilmay tushdi. Martini uning izidan bordi.
- Jemma shu bir necha kun ichida o'n yilga qaridi. Sochlari dagi ko'zga zo'rg'a chalinadigan oq tolalar endi

siqimga kirib qoldi. Ko'zlarini ko'pincha yerdan uzmay yuradigan odat chiqarib oldi; mabodo uzsa, ulardagi dahshatni ko'rib, Martini titrab ketardi.

Jemma kichkina mehmonxonaga kirganda, o'rtada beso'naqay bir kishi qaqqayib turgan edi. Uning butun aftangori, qaddi-qomati va Jemma kirganda jovdirab qaragan hurkak ko'zları unda «Shveysar gvardiyasining<sup>1</sup> oddiy askari bo'lsa kerak», degan fikr tug'dirdi. Egnida dehqonlar kiyadigan ko'yak, bu ham oriyat bo'lsa kerak. Birov tutib oladiganday, tevaragiga hadeb jalanglab qaraydi.

U chala Syurix shevasida:

- Nemischa bilasizmi? – deb so'radi.
- Ozgina. Meni ko'rmoqchi bo'lgan ekansiz.
- Sinora Bolla siz bo'lasizmi? Sizga maktub olib keldim.
- Maktub? – Jemma qaltirab, stolga qo'li bilan suyanib qoldi.

– Men ho anavi yerdagi, – dedi u, derazadan qirda ko'rinish turgan qal'aga ishora qilib, – garnizon askarlaridanman. Bu maktub o'tgan hafta otilgan odamdan. Otilishdan bir kecha oldin yozib berdi. Qo'lingizga topshiraman deb va'da qiluvdim.

Jemma boshini solintirdi: axir yozipti-da!..

– Shuning uchun tez olib kelib berolmadim, – soldat so'zini davom ettirdi. – Marhum sizdan boshqa hech kimga bermagin deb tayinlovdi. Barvaqtroq kelay desam, ilojini topolmadim: orqamdan poylashdi. Mana bu kiyimlarni topib, undan so'ng keldim.

U, ko'ylagining yoqasidan qo'lini tiqib qo'ynini kovladi. Havo issiq edi; shuning uchun, qo'ynidan olgan qog'ozni kir, yirtiq bo'libgina qolmay, terdan

<sup>1</sup> *Shveysar gvardiyasi* – papa hukumatining shveysariyaliklardan tuzilgan yollanma qo'shini.

ivib ham ketgan edi. Vaznini bir oyog‘idan ikkinchi oyog‘iga tashlab, biroz o‘ng‘aysizlanib turdi. Keyin, yag‘rinini qashib turib, Jemmaga ishonqiramay qaradi-da, hadiksirab:

— Hech kimga aytmaysizmi? — dedi. — Mening bu yerga kelishim umrimga zomin bo‘lishi mumkin.

— Albatta, aytmayman. Biroz to‘xtang.

U ketadigan bo‘lib endi burilganda, Jemma, to‘xtatib, kartmonini kovlay boshladi. Soldat, xo‘rligi kelib, orqasiga tisarildi.

— Menga sizning pulingiz kerak emas, — dedi u, ancha dag‘al qilib. — Men bu ishni o‘sha kishi uchun qildim, o‘tingan edi-da. Bundan kattaroq ishi bo‘lsa ham jonim bilan bajarardim; menga shunchalik mehribon ediki, xudo rahmat qilgur.

Ovozidagi zaif bir titroqni sezib Jemma boshini ko‘tardi. U ko‘zlarini kir yengi bilan sekin-sekin artayotgan edi.

— Otmaslikning iloji yo‘q edi, — deya gapini past tovush bilan davom ettirdi. — O‘rtoqlarim, men... Soldat bo‘lganingizdan keyin boshlig‘ingizning buyrug‘ini bajarishga majbursiz. Shunday bo‘lsa ham, jo‘rttaga nishonga urmovdik... Noshud otryad deb, bizdan kulishdi. Yana otishga to‘g‘ri keldi... Menga shunaqayam rahmdil ediki...

Uy jimjit bo‘lib qoldi. Soldat qaddini rostladi-yu, epsizgina hurmat bajo keltirib chiqib ketdi.

Jemma maktubni qo‘lida ushlaganicha bir necha daqiqa qimir etolmay turdi. Keyin uni o‘qish uchun ochiq deraza yoniga borib o‘tirdi.

Maktub qalam bilan juda siqishtirib yozilgan, ba‘zi joylarini o‘qish juda qiyin, lekin inglizcha yozilgan avvalgi ikki og‘iz so‘z ko‘zga ravshan tashlanib turardi. U yerda:

— «Azizim Jemma», — deb yozilgan...

Satrlar birdan yoyilib, tuman ortida qoldi. Jemma uni yana yo'qotdi! Yana yo'qotdi! Bolalik chog'larida eshitib yurgan nomini ko'rganda, judolik dahshati yangidan bo'y ko'rsatib turdi. Madori qurib, qo'llari shalvirab tushdi – Arturni bosib yotgan yer og'irligi go'yo uning qalbiga ag'darilgan edi.

Keyin maktubni yana ko'z oldiga keltirib, o'qiy boshladi:

«Ertaga ertalab, tong saharda meni otishadi; sizga hamma gapni aytib beraman deb va'da bergen edim, ana shu va'damni hozir bajarishim shart. Lekin oramizda uzundan uzoq izohlarga hojat yo'q. Biz bir-birimizni ortiqcha so'zsiz ham har vaqt tushunib kelganmiz, hatto bolalik paytlarimizda ham tushunar edik.

Shunday qilib, ko'rib turibsizki, azizim, bir mahallar meni urganingiz uchun bekor koyib yurgan ekansiz. To'g'ri, o'sha vaqt u kaltak menga juda qattiq alam qilgan edi. Lekin keyinchalik unaqa kaltaklardan ko'pini yedim, hammasiga ham chidab berdim. Ba'zilari uchun hatto qasos ham oldim. Shu yerda, turmada ham, bolalik chog'larimizda o'qigan kitobchamizdagi, – oti esimdan chiqibdi, – baliqcha singari «tirikman va dumim bilan urib ham turibman». Ammo oxirgi marta urayapman... Ertaga ertalab esa finita la comedia'. Bizga qilgan yaxshiliklari uchun xudoga tashakkur bildiraylik. Yaxshiligi oz bo'ldi-yu, lekin har holda bo'ldi. Ana shunga ham minnatdor bo'lishimiz kerak.

Erta sahar masalasiga kelsak, mening tamoman baxtiyor va minnatdor ekanimni, taqdirdan so'raydigan boshqa hech nimam yo'qligini Martini ikkalangiz tushunishlaringizni istar edim. Buni Martiniga alvidoyim o'mida aytib qo'ying. U ajoyib odam, yaxshi o'rtoq... gapga tushunadi. Ular xalqning eng zarur manfaatlarini poymol qilish, yana

---

Tomosha tugadi (*italyancha*).

yashirin qyinoq va qatllarga qaytish bilan bizga naf keltirib, o'zlariga zarar yetkazayotirlar, men buni bilaman, azizim. Agar sizlar, ya'ni tirik qolganlar, bir-birlaringizni qo'llab-quvvatlab, dadil harakat qilsanglar, – ulug' hodisalarni ko'rasizlar. Yosh bola bayram kuni uyiga qanday chopsa, men ham ertaga shunday quvonch bilan hovliga chiqaman. Ishning o'z zimmamga tushgan hissasini bajardim, o'lim hukmi esa hissamni halol bajarganligimni bildiradi. Ular mendan qo'rquqalar, shuning uchun meni o'ldirishmoqda. Odam bolasi bundan ortiq nimani orzu qilardi?

Aytmoqchi, menda yana ba'zi orzular ham bor. O'lgani ketayotgan kishining xohlagan narsasini so'rashga haqqi bo'ladi. Sizga nechun qo'pol muomalalar qilganimni va eski arazlarni nega unuta olmaganimni tushuntirib berishni istayman, – mening xohishim shundan iborat.

Bu haqda nima uchun so'z ochayotganimni o'zingiz ham tushunsangiz kerak, bu so'zlarni yozishdan huzur topaman. Men sizni sevar edim Jemma, chit ko'yak kiyib, kokil qo'yib, jikillab yurgan kichkina qizchalik chog'laringizdan beri sevar edim. Hozir ham sevaman. Esingizdam: bir kun qo'lingizni o'pganimda: «Hech vaqt bunday qilmang» deb zorlandingiz? Bilaman, men xunuk ish qildim, siz meni kechirishingiz kerak. Mana endi nomingiz yozilgan qog'ozni o'payapman. Shunday qilib, sizni ikki marta o'pdim, har ikkalasida ham sizning rozililingizsiz. Gapim tamom. Yaxshi qoling, azizim!»

Maktubga qo'l qo'yilmagan, faqat bolalik paytlarida birga o'qishgan she'r maktub nihoyasiga ilova qilingan:

*Yashasam ham, o'lsam ham,  
Baxtiyor parvonaman...*

Yarim soatlardan so'ng uyga Martini kirdi. U Jemmaga bo'lgan sezgi va tuyg'ularni umrining yarmidan beri

yashirib kelardi. Uning qayg'usini ko'rib o'zini tutolmadi: qo'lidagi e'ltonni tashlab, juvonni quchoqladi.

— Jemma! Nima bo'ldi? Xudo haqqi! Bunday faryod qilmang bunaqa! Axir hech vaqt yig'lamas edingiz-ku! Jemma! Jemma, azizim, sevgilim!

— Hech nima bo'lgani yo'q, Chezare. Keyin aytib beraman... men... hozir... gapirolmayman.

U ko'z yoshlari tomgan maktubni shoshib cho'ntagiga soldi, keyin o'midan turib, yuzini yashirish uchun derazaga suqildi. Martini labini tishlab qoldi. Shuncha yillardan beri yashirib kelgan sirini, xuddi maktab bolasiday, aytib qo'ydi. U bo'lsa sezmadni ham.

Jemma qisqagina bir jimlikdan so'ng:

— Nima gap? Cherkovda zang urilayapti, — dedi Martiniga qarab. Endi u o'zini o'nglab olgan edi. — Birov o'lganga o'xshaydi.

Martini odatdag'i tovushda javob qildi:

— Sizga shuni aytay deb kiruvdim.

Martini yerda yotgan e'ltonni olib uning qo'liga tutqazdi. U katta-katta harflar bilan naridan beri terilib, motam hoshiyasi bilan bosilgan edi.

«Sevgili yepiskopimiz, kardinal hazratlari monsinor Lorendo Montanelli Ravennada to'satdan yuraklari yorilib vafot etdilar».

Jemma boshini qog'ozdan tezda ko'targan edi, Martini uning aytmagan fikriga yelkalarini qisib turib javob berdi:

— Nimaga ajablanasiz, madonna? Yurakning yorilishi bu olamshumul voqeа emas. Odatdag'i voqealardan o'zga narsa emas.



## MUNDARIJA

### Birinchi qism

Birinchi bob .....	4
Ikkinci bob .....	15
Uchinchi bob .....	27
To'rtinchi bob .....	37
Beshinchi bob .....	49
Oltinchi bob .....	57
Yettinchi bob .....	74

### Ikkinci qism

#### O'n uch yildan so'ng

Birinchi bob .....	92
Ikkinci bob .....	107
Uchinchi bob .....	125
To'rtinchi bob .....	137
Beshinchi bob .....	148
Oltinchi bob .....	160
Yettinchi bob .....	171
Sakkizinchi bob .....	181
To'qqizinchi bob .....	201
O'ninchi bob .....	218
O'n birinchi bob .....	230

### Uchinchi qism

Birinchi bob .....	256
Ikkinci bob .....	273

Uchinchi bob .....	289
To'rtinchi bob .....	302
Beshinchi bob .....	318
Oltinchi bob .....	327
Yettinchi bob .....	352
Sakkizinchi bob .....	363
Epilog .....	374

*Adabiy-badiiy nashr*

Etel Lilian VOYNICH

# SO'NA

Roman

Muharrir	<i>B. Xudoyorova</i>
Rassom	<i>N. Qayumiy</i>
Badiiy muharrir	<i>H. Qutluqov</i>
Texnik muharrir	<i>L. Xijova</i>
Kichik muharrir	<i>D. Xolmatova</i>
Musahhih	<i>M. Yakubdjanova</i>
Kompyuterda sahifalovchi	<i>K. Goldobina</i>

Nashriyot litsenziyasi AI № 158, 14.08.2009.  
Bosishga 2015-yil 18-avgustda ruxsat etildi.  
Bichimi  $84 \times 108 \frac{1}{32}$  «Gazetnaya puxlaya» qog‘ozи.  
«Virtec Peterburg Uz» garniturasida ofset usulida bosildi.  
Shartli bosma tabog‘i 20,16. Nashr tabog‘i 19,66.  
Adadi 2000 nusxa. Buyurtma № 15-574.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining  
«O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.  
100129, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20.  
Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.  
e-mail: [uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz](mailto:uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz)  
[www.iptd-uzbekistan.uz](http://www.iptd-uzbekistan.uz)

**Voynich, Etel Lilian**

V78 So‘na: roman/E.L. Voynich; ruschadan M. Ismoiliy tarjimasi; nashrga tayyorlovchi I. Ahmedov. – Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2015. – 384 b.

ISBN 978-9943-28-302-2

UO‘K: 821.111-3

KBK 84(4Ingl)

Taniqli ingliz yozuvchisi Etel Lilian Voynich  
1864 - yili Irlandiyadagi mashhur matematik  
Jorj Bul xonardonida dunyoga keladi. Uning  
otasi qizi olti oyligida hayotdan ko'z yumadi.

Etel sakkiz yoshida qattiq kasal bo'lib  
qoladi. Uni boqishga qurbi yetmagan onasi  
qizini amakisiga berib yuboradi. Shunda



qilib, u amakisining uyida tarbiya  
topadi. Etel Voynich 1882 - yilda  
Berlin konservatoriyasini  
tamomlaydi. Biroq u musiqachi  
bo'lisch orzusiga erisholmadidi.  
Bo'lg'usi yozuvchi Londonni  
boshpana qilib olgan rus va polyak  
inqilobchilari bilan do'stlashib oladi.

Etel Voynich 1887 - yilda Rossiyaga keladi  
va xalq qo'zg'oloniga guvoh bo'ladi. U o'z  
Vataniga qaytgach, «So'na» romanini yozit  
tugatadi. Ushbu asar 1887 - yilda Angliyada  
nashrdan chiqadi. Roman katta shov  
shuvlarga sabab bo'ladi. Shundan so'ng asar  
dunyoning bir necha tillariga tarjima qillindi.  
Jumladan, rus tilidan o'zbek tiliga ham bir  
necha marta tarjima qilingan.

ISBN 978-9943-28-302-2

9 789943 283022

«O'ZBEKIS